O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMI MARKAZI

U. I. Inoyatov, G. N. Ahmadjonova

BUDJET VA BUDJET TIZIMI

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashr

TOSHKENT
«TURON-IQBOL»
2013

UO‘K: 336.14(075)
KBK 65.261.3ya722
I-58

Taqrizchilar:

M. I. Alimardonov — iqtisod fanlari doktori, professor,
Z. Y. Yo‘ldoshev — iqtisod fanlari doktori, professor.

Inoyatov U. I.

I-58 **Budjet va budjet tizimi.** Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘l. / U. I. Inoyatov, G. N. Ahmadjonova; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi, O‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. — T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2013, — 304 bet.

I. Ahmadjonova G. N.

UO‘K: 336.14(075)
KBK 65.261.3я722

«Budjet va budjet tizimi» o‘quv qo‘llanmasida davlat budjeti tuzilmasi, uning mohiyati, funksiyalari, prinsiplari va boshqa kategoriyalar bilan munosabatlari bayon etilgan. Uning bugungi bozor sharoitidagi holati, to‘g‘ri va oqilona tashkil etilishi va makroiqtisodiy barqarorligi xo‘jalik subyektlarining iqtisodiy faoliyatiga va mamlakatning iqtisodiy yuksalishiga ta’sir etishi asoslab berilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar, mahalliy budjetlarni o‘z ichiga oluvchi budjet tizimi va uning tashkiliy-huquqiy asoslarini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Qo‘llanma yakunida berilgan ilovalarda budjet tizimiga oid barcha ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, u xo‘jalik subyektlarining budjet bilan o‘zaro munosabatlarini yo‘lga qo‘yishda, budjet tashkiloti rahbarlari mas’ulligini oshirishga xizmat qiladi.

Qo‘llanma ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishdagi o‘quv yurtlari talabalari, o‘qituvchilari va budjet tashkilotlari hisobchi mutaxassislariga mo‘ljallangan.

ISBN 978-9943-14-092-9

© «TURON-IQBOL» MCHJ, 2006-y.
© «TURON-IQBOL» MCHJ, 2009-y.
© «TURON-IQBOL» MCHJ, 2013-y.

«Milliy xazina bitta —
faqat davlatniki».

Islom Karimov

KIRISH

1992-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasida mustaqil budjetni tuzish va uning ijrosini amalga oshirish amaliyoti qo‘llanila boshlandi.

Jamiyatda davlat vujudga kelishi bilan birga unga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun turli sarf-xarajatlarni amalga oshirish ehtiyoji tug‘iladi. Moliya tizimi asosini davlat budjeti tashkil etadi. U bir tomondan resurslarning hal qiluvchi qismini o‘zida jamlaydi, ikkinchi tomondan barcha moliya bo‘g‘inlari va muassasalarning o‘zaro aloqadorligini ta’minlaydi. Buni amalga oshirish va hisob-kitoblarni to‘g‘ri olib borish mexanizmlaridan biri **davlat moliyasi** tashkil etilib, u orqali umumdavlat ehtiyojlari bo‘lgan tashqi siyosat, mudofaa, huquq-tartibot va davlat hamda boshqaruv idoralarini saqlash xarajatlariga, maorif va sog‘liqni saqlash sohalariga davlat budjetidan mablag‘lar ajratilib kelinmoqda.

Ma’lumki, iqtisodiy rivojlanish jarayonida turli xil o‘zaro bog‘liq aloqalar pul mablag‘lari vositasida amalga oshiriladi. Pul vositasida takror ishlab chiqarishning bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tiladi hamda ma’lum bir maqsadga qaratilgan ijtimoiy jamg‘arma vujudga keladi. Bu jamg‘armalar, o‘z navbatida, iqtisodiy rivojlanishning uzluksiz davom etishiga va kengaytirilishiga yo‘naltiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi Qonunning 9-moddasiga asosan Davlat budjeti Respublika budjeti hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, Davlat budjeti tarkibida davlat maqsadli jamg‘armalari jamlanadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti, jumladan, mahalliy budjetlar daromadlarining umumiy manbalari va xarajatlari yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tadigan bo‘lsak, ular quyidagicha: Davlat budjetini tayyorlash, ko‘rib chiqish va qabul qilish jarayoni. Bu jara-

yon bosqichlari «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunning bandlariga muvofiq amalga oshirilardi. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli Qaroriga muvofiq Davlat budjeti hisobiga mablag‘ bilan ta’minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirish, budjet mablag‘laridan samarali va aniq foydalanish va mablag‘ bilan ta’minlashning yangi tartibini joriy etdi. **Unda budjet mablag‘laridan tejab, samarali va aniq foydalanish, budjet intizomini mustahkamlash, budjet tashkiloti rahbarining mustaqilligini kengaytirish va mas’uliyatini oshirish, mablag‘ bilan ta’minlash mexanizmini soddalashtirish va joy-joyiga taqsimlash, budjet tashkiloti xodimlari mehnatini rag‘batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o‘rnashib qolishi uchun shart-sharoitlar yaratish nazarda tutiladi.**

Moliyaviy inqiroz davrida davlat (budjet) mablag‘laridan oqilona va samarali foydalanish bo‘yicha yetakchi tahlil va ekspertlik markazlari global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bo‘lgan oqibatlariga doir materiallarni o‘rganish va umumlashtirish natijasida quyidagi xulosalarga kelmoqda.

Birinchidan, moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, retsetssiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko‘lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko‘plab mamlkatlariga ta’sir ko‘rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo‘lishi mumkinligi o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko‘rsatdi.

Uchinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko‘lami va oqibatlari qanday bo‘lishi ko‘p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi. Ya’ni, bu avvalo, ana shu davlatning moliya-valuta tizimi nechog‘liq mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (to‘lov imkoniga), ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, oltin-valuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada — mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog‘liq.

To‘rtinchidan, jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ko‘p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg‘unligiga bog‘liq[1].

Davlat budjetining to‘g‘ri va oqilona tashkil etilishi, nafaqat mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi, balki xo‘jalik subyektlarining iqtisodiy faoliyatiga har tomonlama ta’sir etish orqali mamlakatning iqtisodiy yuksalishiga olib keladi.

XXI asrning dastlabki yillaridanoq insoniyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida ulkan ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda.

Dunyodagi yetakchi davlatlar iqtisodiyotining insonparvarligi ijtimoiy resurslarni, maorif va intellektual ehtiyojlarni qondirish foydasiga qayta taqsimlashga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanadi.

Endilikda bizni yalpi ichki mahsulot o‘rtacha yillik o‘sish sur’atining 4—4,5 foizda bo‘lishi qoniqtirmaydi. Yalpi ichki mahsulot tarkibida budjet daromadlarining ulushi 2002-yilda 26 foizni, 2003-yilda 24 foizni, 2004-yilda 21 foizni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida O‘zbekiston Respublikasining 2008-yilgi Davlat budjeti har tomonlama va mufassal ko‘rib chiqildi. Asosiy moliyaviy hujjat — Davlat budjeti iqtisodiyotning barqaror va mutanosib sur’atlar bilan o‘sishini ta’minlashi, iqtisodiyotni tarkibiy takomillashtirish va modernizatsiyalashni, uning eng muhim tarmoqlarini texnika va texnologiyalar borasida yangilashni, soliq siyosatini yanada erkinlashtirishni nazarda tutadi[2].

Kelajakda, ya’ni 2010-yilga kelib, Yalpi ichki mahsulot o‘rtacha yillik o‘sish sur’atini 6—8 foizga yetkazish mo‘ljallanmoqda. 2010-yilgacha Yalpi ichki mahsulotning tarkibi ham o‘zgarib, uning daromadlar tarkibidagi ish haqining ulushi hozirgi 35 foizdan 60—65 foizga o‘sishi oqibatida aholi turmush darajasining ancha yaxshilanishi ko‘zda tutilmoqda va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ajratiladigan mablag‘lar salmog‘i yanada oshirilib, 47,5 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

---

[1] *Karimov I.A.* «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari».

[2] «Xalq so‘zi» 2007-yil. 30.XI. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 12-yalpi majlisi to‘g‘risidagi axborot.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada davlat budjetining iqtisodiy mohiyati, yangi iqtisodiy sharoitlarda uning iqtisodiyotga ta’siri, vazifalari, budjet tizimi va tarkibiy tuzilishi, davlat moliyasi tizimi, uning bo‘g‘inlari, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, davlat budjeti daromadlari manbalari, xarajat turlari va yo‘nalishlariga aniq urg‘u berilib o‘tilgan, shuningdek, «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonun, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, iqtisodiy qonun va tariflardan foydalanilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishdagi o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlari o‘qituvchi hamda o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan.

1-bob
«BUDJET TIZIMI» KURSINING PREDMETI, MAZMUNI VA VAZIFALARI

1.1. FANNING PREDMETI, MAZMUNI VA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI MOLIYASINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Moliya davlat resurslarining markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan fondlarni vujudga keltirish, taqsimlash va ulardan foydalanishdagi iqtisodiy munosabatlarnigina emas, balki tovar-pul munosabatlari yetarli rivojlanmagan sharoitda moddiy resurslar harakatini tashkil etishi Amir Temurning diqqat markazida bo‘lgan. Uning davlat moliyasini rivojlantirishga qaratilgan xizmatlari ko‘p qirralidir. **Birinchidan,** u davlat moliyasining mo‘g‘il va boshqa bosqinchilarga qaramligini uzil-kesil tugatdi, mustaqil davlat moliyasini yaratdi. **Ikkinchidan,** markazlashtirilgan davlat tarkibiga kirgan 27 mamlakat moliyasini bir tizimga birlashtirdi va ularni ma’muriy boshqarish talablari asosida idora qilish usullarini joriy qildi. **Uchinchidan,** Qur’on talablarini o‘zida ifoda qiluvchi shariat tavsiyalari asosida qurilgan soliq tizimini shakllantirdi. **To‘rtinchidan,** davlat xazinasi resurslarini saqlash va ulardan foydalanish tizimini qaytadan tashkil qilib, markazning mahalliy uluslar, tumanlar bilan munosabatlariga aniqlik kiritdi. **Beshinchidan,** Yevropada birinchi budjet tuzilgunga qadar (XVII—XVIII asrlar) birinchilardan bo‘lib sharqda budjetning dastlabki kurtaklarining shakllanishiga amaliy jihatdan yordam berdi.

Davlat moliyasi deyarli barcha davlatlarda davrning iqtisodiy mexanizmida yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelgan, muhim siyosiy va iqtisodiy muammolar uning ishtirokida hal qilingan. Moliya davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vazifalarni amalga oshirish maqsadida shakllanadigan va undan foydalaniladigan umumdavlat mablag‘lari fondini ifodalovchi pul munosabatlarining majmuyidir. Markaziy Osiyo hududida, xususan O‘zbekiston mintaqasida davlatning vujudga kelishi bundan 2700 yil oldin, ya’ni miloddan avvalgi I ming yillikning VII asrida sodir bo‘lgan. Bunga 3000 yil oldin o‘lkamizda yaratilgan «Avesto» yodnomasi va Beruniy asarlari guvohlik beradi. O‘troq hayotdan dehqonchilik va

hunarmandchilikka o‘tilgan, dehqonchilik viloyatlari shakllangan. Bu jarayon, albatta, davlat ishtirokisiz amalga oshmagan[1].

Davlat dastlab, ayrim tumanlar, keyinchalik shahar, viloyat miqyosida shakllangan. Markazlashgan davlatni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyojni 3 ta sabab bilan ko‘rsatish mumkun.

Birinchidan, dehqonchilikni tashkil qilish, kanallar qazish, yerlarni ochish, saroylar qurish, mudofaa, harbiy qo‘rg‘onlar qurish; minglab kishilarni jalb qiladigan bu tadbirlar davlat ishtirokisiz bo‘lmagan.

Ikkinchidan, davlat oldidagi bu vazufalarni amalga oshirish uchun moddiy va pul mablag‘larini shakllantirish zarur bo‘lgan.

Uchinchidan, mamlakatni tashqi davlatlar hujumidan himoya qilish, qo‘shni davlatlar bilan savdo, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish vazifalari orqali markazlashgan davlat va moliya shakllana borgan.

Alisher Navoiyning «Saddiy Iskandariy» nomli dostonida — **«Kimki shohlik qilishni istasa, barcha askarlarning holidan voqif bo‘lsin, ular ta’minoti masalasini hal qilganda, albatta, har bir kishining darajasiga qarab, izzatini bajo keltirsin»,** — degan fikrlar bayon qilingan.

Xalq manfaatlariga mos tushadigan mustaqil iqtisodiy siyosat har qanday davlatning erkin rivojlanishida majburiy shart hisoblanadi. Aynan shunday siyosatni izchillik bilan amalga oshira borish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta’kidlab o‘tganidek, davlatchiligimizning mustaqilligi, qaror topishi va yanada taraqqiy etishida hal qiluvchi omildir. Jamiyat a’zolarining manfaatlarini qondirishga mo‘ljallangan bozor iqtisodiyotini qurish siyosatning o‘zagini tashkil etadi. Davlatning bunday siyosatini amalga oshirishga imkon beradigan qurol, dastaklardan biri — Davlat budjetidir.

Shunday qilib, «Budjet tizimi» fani budjet, uning bo‘g‘inlari, tuzilmalarini o‘rganadi. ***Budjet tizimi*** — turli darajadagi budjetlar va budjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisini, ularni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, shuningdek, budjet jarayonida paydo bo‘ladigan, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ifodalaydi. «Budjet tizimi» fani iqtisodiy fan bo‘lib, moliyaviy va iqtisodiy qonunlar qatorida amal qiladi, obyektiv va subyektiv zaruriyatlar haqida tushuncha beradi. Fan budjet tizimining boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan munosabatlarini

[1] *H. Sobirov.* «O‘zbekiston davlat moliyasi tarixi», 15, 45-betlar.

ham o‘rganadi. «Budjet tizimi» fanining mazmuni O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti pul resurslarining markazlashgan fondlari asosan soliqlar yordamida jamlanishi hamda davlat tomonidan o‘z funksiya va vazifalarini amalga oshirish uchun foydalanishini, davlat budjeti qonun kuchiga ega ekanligi va uni Oliy Majlis tasdiqlashini ifodalaydi. Budjetning daromad va xarajatlari tarkibida davlatning ichki va tashqi siyosati mujassamlanadi. Bunday tizim davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda asosiy dastaklardan biri ekanligini ifodalab beradi. Budjet tizimi respublikadagi barcha budjetlarning jamlamasi. U davlatning siyosiy va iqtisodiy tizimlariga, respublikaning ma’muriy bo‘linishiga asoslanadi. Budjet tizimining ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy tamoyillari, tuzilishi, unda birlashib ketadigan budjetlarning aloqadorligini respublika budjeti belgilaydi. Bu «Budjet tizimi» kursining asosiy vazifalarini ifodalaydi.

1.2. FANNING BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Ushbu kurs mamlakat budjeti tuzilishi, budjet tizimi, uning daromadlari, budjet tizimi bo‘g‘ini, budjet normativlari, budjet loyihasi, uning bosqichlari, «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarining asosiy parametrlari, moliyaviy nazorat kabi masalalarni yangidan o‘zlashtirishga imkon beradi. «Budjet tizimi» fanini yanada chuqurroq o‘rganishga bevosita quyidagi bir qator fanlar ko‘maklashadi:

- O‘zbekiston konstitutsiyasi;
- soliq va soliqqa tortish;
- korxonalar moliyasi;
- pul muomalasi va kredit;
- mikroiqtisodiyot;
- iqtisodiy tahlil;
- iqtisodiyot asoslari;
- moliya bozori va birja ishi;
- buhgalteriya hisobi;
- audit.

Fanga taalluqli bilimlarni chuqurroq egallash, tizimning yanada mukammal jihatlarini o‘rganish, budjetning bir butun tizim ekanligi, uning istiqbolini belgilash, uslubiyati va uyushtirilishining yagonaliligi yuqorida sanab o‘tilgan fanlarga bog‘liqligini kafolatlaydi.

1.3. O‘ZBEK DAVLATCHILIGI DAROMADLARI VA O‘ZBEKISTONDA BUDJET TIZIMINING SHAKLLANISHI

Amir Temurning «Yaxshi vazir» haqidagi mulohazasi ko‘proq xazinaga taaluqli bo‘lgan. Chunki xazina hukmdorning moddiy tayanchi bo‘lgan. Davlat ixtiyoridagi xazina ikki bo‘lim (fond) dan iborat bo‘lgan. 1-bo‘lim asosiy xazina hisoblanib, bunda uzoq yillar davomida nodir buyumlar sifatida to‘planib va ko‘payib kelgan durdonalar saqlangan. 2-bo‘lim xarajatlar uchun xizmat qilgan. Joriy mablag‘lar taqchilligi sezilganda asosiy xazinadan joriy xazina uchun qarz olingan, keyinchalik o‘rni to‘ldirilgan. Xazina kirim-chiqimlari yozib borilgan. Ko‘pchilik hollarda xazinada yetishmovchilik kam sezilgan.

Amir Temurning ziyrakligi shundaki, u birinchi o‘ringa xazinaning birinchi bo‘limi — soliqsiz daromadlar qismini emas, balki soliq va yig‘imlar fondini qo‘ygan, chunki mamlakatni boshqarishda soliqlarning roli, tutgan o‘rnini chuqur mulohaza qilgan, ularning demokratik tamoyillarini rivojlantirishga harakat qilgan.

Soliqlar orasida xiroj yetakchi o‘rin egallagan. Bu soliq hosilning 1/10 dan 1/4 qismigacha olingan.

Lekin, Amir Temur davlat arbobi darajasiga ko‘tarilgandan boshlab soliqlar masalasi bilan jiddiy shug‘ullangan.

Amir Temur ta’kidlashicha:

Birinchi tamoyil — adolatparvarlik tamoyili. Soliqqa tortishning ommaviy xarakteri, soliqni fuqarolarning daromadlariga qarab taqsimlash.

Ikkinchi tamoyil — aniqlik tamoyili. Bunga asosan soliq to‘lovchiga soliq hisoblash usuli, to‘lash vaqti oldindan ma‘lum bo‘lishi kerak.

Uchinchi tamoyil — soliq to‘lash va undirish aholiga qiyin bo‘lmasdan, qulay bo‘lishi kerak. Soliq fuqarolar uchun qulay vaqtida va usulda undirilishi kerak.

To‘rtinchi tamoyil — soliqlarning tobora takomillashtirib borilishi va soliq to‘lash xarajatlarining kamaytirib borilishi.

Temur davrida 27 mamlakat miqiyosida soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash zo‘r kuch va tashkilotchilikni talab qilar edi. Temur soliqlarni uluslar va tumanlar bo‘yicha to‘plashni takomillashtirish maqsadida *surgal* va *tarxan* qilib berilgan yerlardan olinadigan soliqlarga nisbatan alohida qoida joriy qildi. Bu orqali barcha

soliqlar tushumini markazga to‘plamasdan va markazdan mahalliy hokimiyatga pul ajratmasdan ularning bir qismi mahalliy viloyatlar ixtiyorida qoldiriladigan bo‘ldi.

Fikrimizcha, Amir Temur davlati moliyasini tahlil qilganda markaziy va mahalliy xazinalardan to‘plangan barcha daromad manbalari e’tiborga olinishi kerak. Biz bulardan ba’zilarini ko‘rsatib o‘tamiz:

1. Chorvachilikdan keladigan daromad.
2. Qo‘shib olingan mamlakatlar xazinalarini musodara qilishdan olinadigan moddiy boyliklar.
3. Oltin va kumushdan pul zarb qilishdan kelgan daromadlar.
4. Nodir metallarni qazib olishdan kelgan daromadlar.
5. Daraksiz yo‘qolgan shaxslar, vorissiz mol-mulklar, qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalar, sovg‘alar, xazinaga taqdim qilingan boshqa mol-mulklar.
6. Xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish asosida shakllangan daromadlar.

Amur Temur davlati barcha xarajatlarni beshta guruhga ajratgan:

1. Ma’muriy idora va saroy saltanatining umumiy xarajatlari.
2. Harbiy va harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan xarajatlar.
3. Mamlakat obodonchiligi va yurt farovonligini yuksaltirishga qaratilgan xarajatlar.
4. Ilm-fan, madaniyat va diniy tadbirlar bilan bog‘liq xarajatlar.
5. Ijtimoiy himoya va boshqa sarflar.

Temur ishg‘ol qilgan o‘lkalarda budjet kurtaklari XIV—XV asrdan boshlab vujudga kela boshlagan. Ya’ni:

I. Budjet daraxtining birinchi shox kurtagi vazirlik mahkamalari bo‘yicha daromad va xarajatlarining ixtisoslashishidir.

II. Budjet daraxtining ikkinchi kurtagi mahalliy boshqaruvning ham budjet doirasiga kiritilishidir.

III. Budjet daraxtining uchinchi kurtagi esa, noishlab chiqarish sohalariga mablag‘ ajratish bilan bog‘liq.

IV. Budjet kurtagining IV markaziy unsurlaridan biri xarajatlarni me’yorlashtirishdir.

Temurning fikricha, mamlakatni xunuk ko‘rsatuvchi omillardan biri gadolikdir. Gadochilikni tugatish uchun ularni iqtisodiy jihatdan ta’minlash kerak. Shu munosabat bilan Temur faqat gadolarga emas, balki ojizlarga, iqtisodiy ahvoli nochorlarga xazina molining 1/5

qismini ajratgan. Amir Temur tomonidan III—IV asr oldin Adam Smitning soliq nazariyasi bashorat qilinishi Yevropa davlatlariga nisbatan ilgariroq budjet kurtaklarining, ayniqsa kirim-chiqim smetalarining tuzila boshlanganligi, hisobot-taftish ishlarining yo‘lga qo‘yilishi 27 davlatni birlashtirgan ulkan saltanat moliyasining cheksiz imkoniyatlarini jahonga namoyish qildi.

Sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan barcha respublikalar cho‘zilib ketgan iqtisodiy tanglikda qoldilar. Birdaniga boshlangan pulning qadrsizlanishi, ilgari qaror topgan xo‘jalik aloqalarining izdan chiqib ketishi, yagona bo‘lib ketgan moliya, pul, kredit tizimining barbod bo‘lishi natijasida O‘zbekiston iqtisodiyoti og‘ir ahvolga tushib qoldi. Ana shunday sharoitda mamlakatning moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish choralarini topish davlatning asosiy hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifasi hisoblanadi. Davlatning moliya siyosati makroiqtisodiy siyosat bo‘lib, iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi hisoblanadi. 2000-yilning 14-dekabrida Oliy Majlis sessiyasida qabul qilingan «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonun O‘zbekiston Respublikasi davlat moliya siyosatining aniq maqsadga yo‘naltirilgan dasturi hisoblanadi. Shunday qilib, 2000-yilning yanvaridan e’tiboran «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni joriy etildi va mamlakatning yagona budjet tizimi shakllandi. Amaldagi Qonun VII bob, 43 ta moddadan iborat. Qonunda budjet hujjatlari va budjet jarayoni tuzilishi yagonaligi, budjetning ma’muriy-hududiy tuzulishga muvofiqligi turli darajadagi budjetlarning o‘zaro bog‘liqligi, daromad manbalari va xarajat yo‘nalishlari, ularni rejalashtirish, budjetdan ajratiladigan mablag‘ doirasida sarflanishi, barcha darajadagi budjetlarning mustaqilligi bayon etiladi.

Quyidagilar bilan o‘zgartirilsin: Qonunning mantiqiy va amaliy davomi sifatida 2005-yil 27-dekabrdagi PQ 244-sonli, 2006-yil 18-dekabrdagi PQ 532-sonli «Yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish tartibi to‘g‘risida»gi o‘zgarishlari va «Respublikaning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarining asosiy parametrlari va ularning bajarilishini nazorat qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari va 2008-yilda qabul qulingan yangi «Soliq kodeksi» asosiy me’yoriy hujjat hisoblanadi.

Qonunning mantiqiy va amaliy davomi sifatida esa O‘zbekiston Respublikasi VM ning 2003-yil 25-dekabrdagi 567-sonli qarori, 2004-yil 15-dekabrda qabul qilgan 547-sonli qarori va 2004-yil 28-dekabrdagi 610-sonli «Respublikaning makroiqtisodiy ko‘rsat-

kichlarining asosiy parametrlari va ularning bajarilishini nazorat qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlardan iborat qonunlarga asoslanuvchi tizimni keng qo‘llashda asosiy me‘yoriy hujjatlar hisoblanadi. Bular qatoriga VM ning 2008-yil 29-dekabrdagi 744-sonli, 2008-yil 29-dekabrdagi «2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ 1024-sonli qarorini ham keltirish mumkin.[1]

1-chizma

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET TIZIMI



Davlat budjeti moliyaviy kategoriya bo‘lib, u 4 ta vazifani bajaradi:

1) yalpi ichki mahsulot qiymatini qayta taqsimlash;
2) nazorat funksiyasi;
3) iqtisodiyotni boshqarish;
4) ijtimoiy funksiyasi.

Yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlash vazifasi — milliy daromad, tovar-pul munosabatlari sharoitini asosan pul ko‘rinishida hisob-kitob qilishdir. Avvalo, u ishlab chiqarish sohalaridagi ishchilarning daromadlari va ijtimoiy talablarini qondirishga mo‘ljallangan jamiyatning sof daromadi ko‘rinishida bo‘ladi. Taqsimot davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy maqsadlari asosida amalga oshiriladi. Turli mamlakatlarda davlat budjeti orqali mamlakat yalpi ichki mahsulotining 30 foizidan 60 foizigacha bo‘lgan qismi taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. O‘zbekiston Respublikasida

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-y. 29-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-1024-sonli qarori.

Davlat budjeti 2008-yilda Yalpi ichki mahsulotning 1/3 qismini qayta taqsimlashni ko‘zda tutadi.

Yalpi ichki mahsulot qayta taqsimoti quyidagi obyektlar o‘rtasida amalga oshiriladi:

- Ishlab chiqarish va noishlabchiqarish sohalari o‘rtasida.
- Iqtisodiy hududlar o‘rtasida.
- Davlat bilan aholi o‘rtasida.

Ijtimoiy ishlab chiqarish va noishlabchiqarish sohalari o‘rtasidagi taqsimot. Milliy daromad, asosan, ishlab chiqarish sohasida hamda tijorat asosida faoliyat yuritayotgan noishlabchiqarish sohalarida (tijorat boshqarmalari, aloqa, transport va boshqalar) shakllanadi. Davlatning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash uchun noishlabchiqarish sohalariga xarajatlar qilinadi. Sog‘liqni saqlash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash, xalq xo‘jaligi tarmoqlari uchun mutaxassis kadrlarni tayyorlash, mehnat qobiliyatini to‘la va qisman yo‘qotgan fuqarolarni moddiy ta’minlash, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va boshqa xarajatlar markazlashgan tartibda (davlat miqyosida) amalga oshiriladi. Shuning uchun milliy daromadning bir qismi Davlat budjetining xarajatlari tizimi orqali milliy daromad vujudga keltirilmaydigan sohada qayta taqsimlanadi. Shuningdek, budjet orqali Yalpi ichki mahsulot tarmoqlar, birlashmalar, korxonalar o‘rtasida qayta taqsimlanadi. Bunday zaruriyat asosan, mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish rejasidan kelib chiqadi. Chunki, tarmoqlarning, birlashmalarning va korxonalarning texnikaviy rivojlanish darajasi, quvvati, fondlar bilan ta’minlanganlik darajasi tabiiyki har xil. Bundan tashqari, aniqlangan tabiiy boyliklarning notekis joylashganligini baholash tizimi katta ahamiyatga egadir. Bunday taqsimot tarmoqlar, birlashmalar, korxonalarning ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish, shuningdek, ushbu tarmoqlarda xarajatlarning har doim ham ularning shaxsiy daromadlari va jamg‘armalariga mos tushavermasligi bilan izohlanadi.

Iqtisodiy hududlar o‘rtasidagi taqsimot. Tabiiy va mehnat resurslarining mamlakat miqyosida notekis taqsimlanganligi ayrim hududlarga davlat tomonidan maxsus iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish zaruratini keltirib chiqaradi. Bunda markazlashgan davlat daromadlaridan, xususan, Davlat budjetidan mahalliy budjetlarga transfertlar (subvensiya, dotatsiya) va budjet ssudalari ajratiladi. Masalan, Orol bo‘yi mintaqasidagi ekologik va ijtimoiy vaziyatni yaxshilash maqsadida Davlat budjetidan turli transfertlarning ajratilishi va hokazo.

Davlat va aholi o'rtasidagi taqsimot. Aholidan olinadigan soliqlar yordamida davlat orqali milliy daromadning ma'lum qismini qayta taqsimlash amalga oshiriladi. Bunda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish zaruriyatlarini va boshqa umumdavlat talablarini qondirish maqsadida aholi daromadlarining ma'lum qismi (ulushi)ning shaxsiy mulkchilikdan umumiylikka o'tishi sodir bo'ladi. Odatda, bunday daromadlar budjet jami daromadlarining 10—14 foizini tashkil qiladi. Bundan tashqari, davlat soliqlar va yig'imlar tizimi orqali turli qatlamdagi aholining real daromadlarini tartibga soladi. Aholining alohida tabaqalariga har xil qulayliklar hozirlash uchun sarflanadigan mablag'larni to'plash soliq va yig'imlar yordamida amalga oshiriladi.

Davlatning iqtisodiyotning rivojlanish davrida ma'lum iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalarni hal qilishiga qarab Milliy daromadning Davlat budjeti orqali taqsimlanayotgan qismi doimo o'zgarib turadi.

Davlat budjetining milliy daromadini taqsimlash va qayta taqsimlashdagi yetakchiligi bozor iqtisodiyoti sharoitida yana ham ortmoqda. Chunki, xarajatlarni to'g'ri yo'naltirilishi iqtisodiyotning tez sur'atlarda rivojlantirishni ta'minlaydi, bu esa aholining turmush darajasini oshiradi. Budjet mablag'larining oqilona yo'nalishlarda sarflanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi, ilmiy texnika yutuqlarini hayotga joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Nazorat funksiyasi. Nazorat funksiyasi yordamida turli xil xo'jalik subyektlaridan davlat ixtiyoriga tushayotgan markazlashgan moliyaviy resurslarni davlat ehtiyojlarining manfaatiga mos tushishi haqida «xabar» beradi. Nazorat funksiyasining asosini budjet mablag'larining budjet daromadlarining mos ko'rsatkichlari va aniq maqsadli xarajatlaridagi harakatini aks ettirish tashkil etadi. Daromadlar va xarajatlar balansi shaklidagi Davlat budjeti umumdavlat moliyaviy nazoratining asosiy quroli hisoblanadi. Nazorat funksiyasi budjetni davlat pul mablag'i fondini tashkil etish va undan foydalanishda iqtisodiyotning tarkibiy bo'g'inlaridan kelib chiqadigan iqtisodiy jarayonlarini o'zida aks ettirishi bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, budjet ko'rsatkichlarini kuzatish orqali iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning borishini, ko'zda tutilgan rejadan amaldagi chetga chiqishlarni kuzatib hukumat operativ qarorlar qabul qilishi mumkin bo'ladi.

Iqtisodiyotni boshqarish vazifasi. Milliy daromadning davlat ixtiyoridagi hajmining ortishi iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish imkoniyatini beradi. Bugungi kunga kelib bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuv xarajatlari budjet xarajatlari umumiy summasining 20—25 foizini tashkil etmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan boshqaruv sharoitida, asosiy ishlab chiqarish kuchlari xususiylashtirilgan bo‘ladi, bu esa, Davlat budjetining iqtisodiy sohaga ta’sirini chegaralaydi. Lekin shunday iqtisodiy tarmoqlar, korxonalar ham mavjudki, ularni budjet tomonidan moliyalashtirish, pirovardida, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydi. Bu korxonalar iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi va ushbu korxonalarsiz iqtisodiyotda oqsoqlanish yuzaga kelib qolishi mumkin. Bunday korxonalarga og‘ir sanoat tarmoqlari, qishloq xo‘jaligidagi korxonalar, transport korxonalari, temir yo‘l tizimi, aloqa, ishlab chiqarish korxonalari va boshqalarni misol qilish mumkin. Davlat ba’zi korxonalarni budjetdan moliyalashtirish orqali, bu korxona mahsulotlarini chet el korxonalari mahsulotlariga nisbatan raqobatbardoshligini oshiradi. Ushbu xarajatlarning barchasi budjetda iqtisodiyot xarajatlari sifatida aks ettiriladi.

Milliy daromadning davlat ixtiyoridagi hajmining ortishi, iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solish imkoniyatini beradi. Birinchi jahon urushi yillarida Yevropa mamlakatlarida ilk bor davlat tomonidan markazlashgan tartibda xomashyo, material, oziq-ovqat sotib olinishi va ularni harbiy ehtiyojlar uchun taqsimlanishi bilan budjet orqali tartibga solish amalga oshirildi. Urush tugashi bilan davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish tadbirlari ma’lum miqdorda susayib qoldi va faqat 1923—1933-yillardagi iqtisodiy inqiroz davrida bu faoliyat yana davom ettirildi. Ingliz iqtisodchisi J. Keyns va uning ko‘p sonli izdoshlarining davlat moliyasidan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning asosiy quroli sifatida foydalanish zarurligi haqidagi maslahatlari ko‘pgina g‘arb hukumat doiralari tomonidan keng foydalanildi.

Budjet mexanizmlari orqali iqtisodiyotni tartibga solish davlat ixtiyoriga kelib tushadigan pul mablag‘larini manyovrlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday manyovrlashtirishga, budjetni amalga oshirishda daromadlarning, xarajatlarining aniq turlari bilan biriktirilmaganligi, ya’ni davlat ixtiyoriga kelib tushadigan mablag‘larning umumlashtirilishi va turli xil yo‘nalishlarga ishlatish mumkinligi imkon beradi.

Ko‘pgina iqtisodchi olimlarning fikricha, davlatning iqtisodiyotga aralashishi iqtisodiy rivojlanishda muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy sohaga ajratilgan budjet mablag‘lari ichida markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari muhim rol o‘ynaydi va katta salmoqni egallaydi. Bu turdagi xarajatlarni sarflashdan ko‘zlangan asosiy maqsad — iqtisodiy o‘sishning talab hajmiga va ichki bozorni shakllantirishga ta’sir o‘tkazishdan iborat. AQSHning sobiq moliya vaziri U. Sayman fikricha, davlatning iqtisodiy o‘sishiga iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy omillardan hech biri markazlashgan investitsiyachalik ta’sir ko‘rsata olmaydi. Markazlashgan investitsiyani moliyalashtirishning asosiy kapitalning kengaytirish va yangilash, kapital yig‘imiga ta’sir o‘tkazish kabi o‘z xususiyatlari mavjud. Ko‘pgina iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan guvohlik beradiki, ular iqtisodiy inqiroz davrida o‘z mablag‘larini shunday sohalarga safarbar etganlarki, natijada bu sohalar butun bir iqtisodiyotning ko‘tarilishiga olib kelgan. Ilmiy izlanish, murakkab texnologik tuzilishga hamda boshqarishga asoslangan sohalarni bunday sohalar sifatida keltirish mumkin. Mazkur sohalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu sohalarga oldindan katta miqdorda xarajatlar qilishga to‘g‘ri keladi va bu xarajatlar ancha uzoq muddatlarda o‘zini oqlashi mumkin. Bunday ishlarga, ko‘pgina hollarda, davlatdan boshqa subyektlar mablag‘lar ajratmaydi, albatta.

Davlat korxonalarining salmog‘i yuqori bo‘lgan davlatlarda (Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Avstriya) budjet mablag‘larining ko‘pgina qismi davlat korxonalariga sarflanadi. Bunday korxonalarga metallurgiya, issiqlik energiya sohalari, transport, aloqa va atom energetikasini kiritish mumkin. Ushbu sohalar boshqa sohalarning rivojlanishi uchun zaruriy asos bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, budjetdan iqtisodiy sohani moliyalashtirish inqiroz davrida keng tus oladi.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining asosiy yo‘nalishlaridan biri ilmiy-texnikaviy rivojlanishga ko‘maklashuvidir. Bu sohaning rivojlanishi ko‘pgina iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda yordam beradi va iqtisodiyotda muhim o‘zgarishlarga olib keladi. Yangi sohalarning paydo bo‘lishini, iqtisodiy samaradorlikning o‘sishini, sohalararo bandlikning to‘g‘ri taqsimlanishini, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish o‘rtasidagi munosabatning kuchayishini ta’minlaydi.

Iqtisodiy sohani rivojlantirish uchun sarflanadigan xarajatlar ichida ishlab chiqarish va ijtimoiy soha infratuzilmalarini moliyalashtirish ham salmoqli o‘ringa ega. Moddiy ishlab chiqarish infratuzilmasiga barcha turdagi transport tashkilotlari va transportsozlik sohalari (avtoyo‘llar, portlar, aeroportlar), aloqa tizimi (telefon, telegraf), elektr, gaz, suv inshootlari va boshqalar kiradi. Ijtimoiy infratuzilmaga tibbiyot va o‘quv muassasalari, sport va madaniy tadbirlar kiradi. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy infratuzilmaga eng ko‘p mablag‘ ajratadigan davlatlar qatoriga AQSH, Germaniya, Yaponiya kiradi. Bunga misol sifatida AQSHda yo‘l qurilishi uchun budjetdan sezilarli darajada yirik ajratmalar qilinishini ko‘rsatish mumkin.

Yuqorida keltirilgan xarajatlar umumiy xususiyatga ega bo‘lsa-da, alohida olingan davlatda ushbu xarajatlarni moliyalashtirish davlat siyosatidan kelib chiqadi. Masalan, Fransiya hukumati kichik va o‘rta biznesda faoliyat yurituvchi korxonalarga budjetdan bevosita mablag‘ ajratadi. Ko‘pchilik davlatlarda esa ushbu maqsadda davlat kreditidan foydalaniladi. Kreditlar Davlat budjetidan davlat korxonalari, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari hamda xususiy sektorga beriladi. Budjetdan beriladigan kredit uzoq muddatli xarakterga ega bo‘lib, bank kreditiga nisbatan imtiyozlilik darajasi yuqori bo‘ladi.

Ko‘pgina mamlakatlarda, jumladan, Buyuk Britaniyada ham budjet xarajatlari tarkibida xalq xo‘jaligi sohalarining mahsulotlarini eksport qilishni ko‘paytirish va uni rag‘batlantirishga qaratilgan xarajat turlari mavjud.

Iqtisodiy xarajatlardan yana biri ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof-muhit va tabiat resurslarini saqlash uchun qilinayotgan xarajatlardir. Bu turdagi xarajatlarni budjetdan moliyalashtirishda AQSH oldingi o‘rinlarda turadi.

Iqtisodiy xarajatlarning muhim ko‘rinishlaridan biri subsidiyalar hisoblanadi. Subsidiyalar davlat yordamiga muhtoj bo‘lgan alohida xo‘jalik va tarmoqlarga beriladi. Agar davlatning o‘z korxonalariga, infratuzilmaga, ilmiy izlanishlarga yo‘naltirilgan xarajatlari iqtisodiyotga bilvosita ta’sir o‘tkazsa, subsidiyalar to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir o‘tkazadi. Subsidiyalar turli xil ko‘rinishda bo‘ladi: zararni qoplash uchun (dotatsiyalar), eksportni sug‘urtalash, narxlarning muvozanatini ushlab turish xarajatlari va boshqalar.

Iqtisodiy soha xarajatlariga Davlat budjetidan mahalliy hokimiyatlarga beriladigan subsidiyalarni ham qo‘shish mumkin.

Bunday subsidiyalar rivojlangan mamlakatlarda mahalliy budjet daromadlarining 20—25 foizini tashkil qiladi. Bu turdagi yordamni ajratish bo‘yicha Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya davlatlari oldingi o‘rinlarda turadi.

Ijtimoiy vazifa. Bugungi kunda jamiyat ishlab chiqarishi rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida inson omiliga asosiy e’tibor berilar ekan, bu o‘z-o‘zidan ijtimoiy xarajatlarni ortishini shart qilib qo‘ymoqda.

Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishning ayrim elementlari XIX asrda burjuaziya davlatlarida yuzaga kelgan. XX asrning birinchi yarmiga kelib ijtimoiy funksiyalar, asosan, davlat qo‘liga o‘ta boshladi. Bu jarayon ayniqsa, 1950-yillarga kelib keng quloch yoydi. Barcha xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy xarajatlarning Yalpi ichki mahsulot va milliy daromaddagi ulushining o‘sishi kuzatilmoqda. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari budjetlarida ijtimoiy xarajatlarning umumiy hajmi o‘rtacha budjet xarajatlari 1950-yillarda 18 foizdan 1960-yillarda 20 foizga ortdi, 1990-yillarga kelib esa, ushbu ko‘rsatkich 30—35 foizni tashkil etgan.

Jamiyatda noishlabchiqarish sohalarini mablag‘ bilan ta’minlash, ya’ni moliyalashtirish budjet orqali amalga oshiriladi. Maktabgacha tarbiya muassasalari, barcha turdagi maktablar, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash va sport muassasalari barcha mamlakatlarda bevosita budjet bilan aloqador muassasadir. Bundan tashqari, budjetdan moliyalashtiriladigan organlarga davlat boshqaruv organlari, sud, prokuratura, ilmiy tekshirish muassasalari va mamlakat mudofaasi kiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlari tarkibida maorif sohasiga qilinadigan xarajatlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Umumta’lim va maxsus maktablarda islohotlarni amalga oshirishga respublikamiz rahbariyati alohida e’tibor bermoqda. Xalq ta’limi xodimlarining ish haqi darajasini oshirish dasturi amalga oshirilmoqda.

Mustaqillikka erishilgandan so‘ng, O‘zbekistonda oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimini qayta qurish natijasida oliy o‘quv yurti binolarini kapital ta’mirlash xarajatlari miqdori, o‘quv yurtlari yotoqxonasini jihozlash, o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida ommaviy-madaniy sport ishlarini va boshqa tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari miqdori o‘sdi.

Sog‘liqni saqlash va jismoniy tarbiya muassasalariga ham katta e’tibor berilmoqda. Bu muassasalarga yo‘naltirilgan xarajatlar 1997-

yilda ijtimoiy madaniy tadbir xarajatlari tarkibida 29,6 foizni, 1998-yilda 28,5 foizni va 1999-yilda 26 foizni, 2009-yilda bu ko‘rsatkich 23,0% ni tashkil etgan.

Shifoxonalarni, ambulatoriya-poliklinikalarni, zamonaviy diagnostika markazlarini va tibbiyot boshqaruv muassasalarini qurishga, yangi uskunalar bilan jihozlashga katta mablag‘ ajratilmoqda.

Iqtisodiyotning to‘g‘ri nisbatda rivojlanishida, mamlakat aholisi ehtiyojlarini talab darajasida qondirishda, turmush tarzini ko‘tarishda ilmiy texnika taraqqiyotini joriy etishda, fan va madaniyatni rivojlantirishda, mamlakat mudofaasini saqlashda budjetning ahamiyati ortmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o‘tishida davlat xarajatlari o‘zgarib bormoqda va buning asosiy sababi mulkka bo‘lgan munosabatlarning o‘zgarishidadir.

Davlat budjetining davlat moliyasi tarkibida tutgan o‘rnini, bajaradigan vazifasini bilishdan oldin, qisqacha moliya tizimi, uning tarkibida davlat moliyasining o‘rni xususida ham to‘xtalamiz.

Ma’lumki, moliya jamiyat miqyosidagi markazlashgan va markazlashmagan fondlarni shakllantirish va foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy — pulli munosabatlarni ifodalaydi. Ammo, bu munosabatlar moliya tizimining turli bo‘g‘inlarida turlicha ko‘rinishda aks etadi. Moliya tizimining har bir bo‘g‘ini o‘zining ma’lum xususiyatlariga ega, o‘ziga xos bo‘lgan funksiyalarni bajaradi va takror ishlab chiqarish jarayoniga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Xuddi shunday, korxonalar moliyasi moddiy ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir ko‘rsatar ekan, u korxona ichida va xo‘jaliklararo taqsimlanadigan Yalpi ichki mahsulotning shakllanishida ishtirok etadi. Davlat budjeti orqali resurslar davlatning asosiy markazlashgan fondida to‘planadi va uning xo‘jalik sohalari, iqtisodiy hududlar, aholining alohida ijtimoiy tabaqalari orasida qayta taqsimlanadi. Budjetdan tashqari fondlar aniq maqsadli bo‘ladi. Shunday qilib, moliya tizimi — davlatning, korxonalarning pul mablag‘lari fondini tashkil etish, taqsimlash va foydalanishning shakl va usullaridir.

Davlat moliyasi davlatni kerakli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funksiyalarini bajarish uchun pul mablag‘lari bilan ta’minlashga qaratilgan moliya tizimining muhim bo‘g‘inidir.

Davlat moliya tizimi quyidagi bo‘g‘inlardan tashkil topgan:

- davlat budjet tizimi;
- davlat krediti va mahalliy organlarning krediti;

- budjetdan tashqari maxsus fondlar;
- davlat korxonalari.

Davlat budjeti — davlat moliyasining yetakchi bo‘g‘ini sifatida davlat va hududiy (mintaqa va mahalliy) o‘z-o‘zini boshqaruvchi organlarning maqsad va vazifalarini moliyaviy jihatdan ta’minlashga mo‘ljallangan markazlashgan pul fondlarining tashkil topishi va ishlatilishini ifodalaydi.

Davlatning o‘z funksiyalarini bajarishida moliya rolining o‘sib borishi obyektiv ko‘rsatkichi rivojlangan va dinamik asosda rivojlanayotgan mamlakatlar Davlat budjetining kengayishidir. Masalan, AQSHda Davlat budjeti 1950-yildan 1985-yilgacha joriy baholarda 20 martadan ko‘proq, Buyuk Britaniyada 40 marta, Germaniyada 20 marta, Fransiyada 30 marta kengaygan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, Davlat budjetidan harbiy maqsadlar uchun, iqtisodiyotga aralashuv, davlat boshqaruv apparatini saqlash xarajati, ijtimoiy xarajatlar, rivojlanayotgan mamlakatlarga subsidiya va kreditlar kabi asosiy xarajat turlari amalga oshiriladi.

Davlat budjeti moliya tizimining qolgan barcha bo‘g‘inlariga — mahalliy hukumat organlariga, hukumatning maxsus fondlariga, davlat korxonalariga subsidiya va kreditlar berish orqali ta’sir qiladi.

Hududiy (mahalliy) budjetlar — hududiy moliyaning asosiy tashkil etuvchisi hisoblanadi. Hududiy budjetlarning daromadlari, asosan, mahalliy soliq va yig‘imlar, soliqsiz daromadlar, yuqori turuvchi budjet tashkilotidan olinadigan ajratmalardan tashkil topadi. O‘zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunida mahalliy budjetlarga quyidagicha ta’rif berilgan:

Mahalliy budjet — Davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Masalaga yanada chuqurroq yondashgan holda rivojlangan mamlakatlardagi ahvolga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u holda federatsiya a’zolarining daromadlari masalasi turli mamalakatlarda turlicha hal etilishining guvohi bo‘lamiz. Masalan, AQSHda shtatlar budjetiga asosan egri soliqlar, birinchi navbatda sotishdan olinadigan soliqlar biriktirilgan. Germaniyada esa, asosiy to‘g‘ri soliqlar hisoblangan — aholining daromadidan olinadigan va korxonalar foydasidan olinadigan fondda solig‘i

50:50 nisbatda federal va Yerlar budjetlariga biriktirilgan. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, mamlakatning rivojlanish darajasining ortishi bilan davlat daromadlari tarkibidagi mahalliy organlar daromadlarining salmog‘i ortib boradi. Masalan, Portugaliyada Yalpi ichki mahsulotga nisbatan bu ko‘rsatkich 3 foizni tashkil etsa, Norvegiyada 15 foizni, Shvetsiyada 31 foizni tashkil etadi. Har bir mamlakatda mahalliy budjetlar tomonidan qilinadigan xarajatlar mamlakatda olib borilayotgan moliya siyosatidan kelib chiqadi. Xususan, Finlandiya, Germaniya, Norvegiya, Fransiya kabi Yevropa mamlakatlarida budjetning bu bo‘g‘ini tomonidan markazlashgan budjetga nisbatan ko‘p xarajat amalga oshiriladi.

1996-yilda Rossiya Federatsiyasida 26 mingdan ortiq hududiy budjet bo‘lgan va ularning jamlangan budjetdagi salmog‘i 48 foizni tashkil etgan.

Mahalliy budjet mablag‘lari ekspluatatsiya va investitsiya xarajatlariga bo‘linadi. Shundan kelib chiqqan holda joriy va kapital xarajatlar budjeti tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimining muhim tarkibiy qismi mahalliy budjetlardan iborat. Ular o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi tasarrufida real moliyaviy negiz barpo etadi. Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni to‘laroq hisobga olish va ularni davlatning markazlashtirilgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlar bilan solishtirish imkonini beradi. Mahalliy budjetlardan uy-joy, maishiy, xo‘jalik va obodonlashtirish, ta’lim hamda sog‘liqni saqlash muassasalari, ijtimoiy ta’minotga doir tadbirlar va boshqalar moliyalashtiriladi. Yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanishga va mahalliy budjetlar vakolatlarining oshirilishi bilan O‘zbekiston Respublikasida budjetlararo munosabatlarni tartibga solish masalalarini takomillashtirish dolzarbligi ortmoqda.

Davlat moliyasining tarkibiy qismi bo‘lgan davlat krediti — bir tomondan davlat, ikkinchi tomondan jismoniy va huquqiy shaxslar o‘rtasidagi kredit munosabatlarini aks ettiradi. Bu munosabatlarda davlat va mahalliy boshqaruv organlari ko‘pchilik hollarda qarzdor sifatida ishtirok etadi. Davlat va mahalliy zayomlar budjet taqchil bo‘lganda, ya’ni odatiy daromadlar davlat xarajatlarini qoplashga yetmay qolganda emissiya qilinadi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyin ilg‘or chet el mamlakatlari yirik harbiy xarajatlar hisobiga uzluksiz ravishda budjet taqchilligiga duchor bo‘lib kelmoqda.

AQSHda budjet taqchilligining tez sur'atlar bilan qisqarishi va 1999-yildan boshlab budjetda ijobiy qoldiq kutilishiga qaramasdan, davlat qarzi miqdorining o'sishi davom etmoqda. 1997-yilga kelib federal hukumat qarzlari 5370 mlrd dollarni, 1998-yilda 5544 mlrd dollarni tashkil qilgan va u 1999-yilda 5738 mlrd dollar, 2003-yilga kelib 6336 mlrd dollarga yetdi. Federal qarzlarning bunday o'sishini qarzlarning umumiy summasi tarkibidagi yirik foiz to'lovlarining mavjudligi hamda yirik harbiy xarajatlarning mavjudligi bilan tushuntirish mumkin. 2008-yilda AQSHda boshlangan ipotekali kreditlash tizimidagi tanglik moliyaviy inqirozning boshlanishiga sabab bo'ldi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini qamrab olib, iqtisodiy tebranishlarga olib keldi. Shuningdek, shtatlar va mahalliy hukumat organlari qarzlarining hajmi sezilarli ravishda qolmoqda. Shunday qilib, AQSHda federal hukumati va shtatlar hukumati, munitsipalitet har yili yirik to'lovlar to'layotgan davlat qarzlari yechimini kutayotgan asosiy moliyaviy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida davlat krediti bilan bog'liq munosabatlar «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonun va hukumatning boshqa yo'riqnomalari bilan muvofiqlashtiriladi.

Davlat moliyasi tarkibida alohida o'rinni egallaydigan budjetdan tashqari maqsadli fondlar tegishli hukumat organlarining budjetiga bog'liq bo'lmaydi va ko'pchilik mamlakatlarda mustaqil yuridik shaxs huquqiga egadir. Budjetdan tashqari maqsadli fondlar hukumat organlari qabul qilgan qonun doirasida tashkil etiladi. Budjetdan tashqari maqsadli fondlar umumdavlat moliyasining muhim bo'g'ini bo'lib, ularning faoliyati qat'iy belgilangan, manbalarni tashkil etish yo'llari ko'rsatilgan, pul fondlari bilan foydalanish yo'llarining tartibi aniqlab berilgan bo'lib, davlat yuqori organlarining tegishli aktlari asosida o'z faoliyatini amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasida budjetdan tashqari maqsadli fondlarni tashkiliy tuzilishiga ko'ra jamlangan budjetga qo'shiladigan va jamlangan budjetga qo'shilmaydigan fondlarga ajratish mumkin. Funksional jihatiga ko'ra va boshqaruv darajasiga ko'ra budjetdan tashqari maqsadli fondlarni iqtisodiy yoki ijtimoiy fondlarga bo'lish mumkin. Boshqaruv darajasiga qarab esa umumdavlat, respublika va hududiy fondlarga bo'lish mumkin.

O'zgarishga boy iqtisodiy sharoit, ko'pincha, moliyaviy resurslarning qayta taqsimlanishida boshqaruv qarorlarini tez qabul qilish

zarurligini talab etadi. Budjet mablag‘laridan foydalanishni hukumat organlari qonun asosida qat’iy tasdiqlab bersa, budjetdan tashqari maqsadli fondlar esa, ijroiya organlari orqali belgilanadi. Qonun asosida tasdiqlangan budjet qonun chiqaruvchi organ tomonidan nazorat qilinadi, budjetdan tashqari maqsadli fondlar qonun chiqaruvchi organlar tomonidan bevosita nazorat qilinmaydi. Bu ham budjetdan tashqari maqsadli fondlarni iqtisodiy sharoitga operativ moslashishini tezlashtiradi.

Budjetdan tashqari maqsadli fondlarni tashkil etilishining muvofiqligini ta’minlovchi yana bir muhim omil — budjet taqchilligidir. Xarajatlarning daromaddan o‘sib ketishi kuchayishiga moliyaviy resurslarni faqat qidirib topishda emas, balki korxonalar, tashkilotlar va aholidan tushgan mablag‘larning qayta guruhlanishini ham talab etadi. Va nihoyat, xo‘jalikning va xususiylashtirishning ko‘p qirrali shakllari, budjet bilan bir qatorda jamiyatda pul mablag‘larni qayta taqsimlashning yangi usullarini qo‘llash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Proffessor L. A. Drabozinaning fikricha, budjetdan tashqari maqsadli fondlar — jamiyatning ayrim mablag‘larini moliyalashtirish va kompleks ravishda operativ mustaqillik asosida sarflash uchun, davlat orqali jalb qilinadigan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va foydalanish usulidir.

O‘zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunida davlat maqsadli fondlariga quyidagicha ta’rif berilgan:

«Davlat maqsadli fondlari — Davlat budjeti tarkibida jamlantiriladigan fondlar, ularning har biri uchun qonun hujjatlari bilan belgilangan mablag‘lar manbalari, har bir manbadan mablag‘ tushishi me’yorlari va shartlari, shuningdek, shu mablag‘lardan foydalanilishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlaridir».

O‘zbekiston Respublikasida budjetdan tashqari maqsadli fondlarni tashkil etish huquqiga respublika va mahalliy organlar ega. Respublika darajasida tashkil etilgan budjetdan tashqari fondlar, odatda, mahalliy hukumat organlari ixtiyoriga bir qismini ajratish bilan tavsiflanadi. Bu respublika va mahalliy budjetdan tashqari maqsadli fondlarga tushadigan tushumlarning ulushini aniqlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Mahalliy manbalar evaziga mahalliy darajada o‘z budjetidan tashqari maqsadli fondlar tashkil etiladi. Ularning ichida mahallani rivojlantirish fondini, kam ta’minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash fondlarini, tabiat muhofazasi bo‘yicha fondlarni

va boshqalarni ajratish mumkin. Budjetdan tashqari maqsadli fondlar, odatda, hukumat organlari ixtiyorida bo‘ladi, lekin ular operativ boshqarilishi turli va shu qatorda maxsus ma’muriy apparat orqali olib borilishi mumkin. Boshqaruv tuzilmalar fondlardan foydalanishi uchun qonun bilan belgilangan ma’lum huquqlarga va majburiyatlarga ega.

Budjetdan tashqari maqsadli fondlar yordamida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- korxonalarga kreditlar, subsidiyalar berish, moliyalashtirish yo‘llari bilan ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir ko‘rsatiladi;
- ijtimoiy infratuzilmani moliyalashtirish, subsidiya, nafaqa va turli xil transfertlar berish yo‘li bilan aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatiladi;
- chet el davlatlariga, xorijiy hamkorlarga qarzlar berish va boshqalar.

2009-yilda O‘zbekiston Respublikasida budjetdan tashqari maqsadli fondlar oqrali jamlangan budjetning 29,4 foizi yoki 4963075,5 mln so‘m miqdorida daromad to‘plash va xarajat qilish regalashtirilgan.

Umuman, budjetdan tashqari maqsadli fondlar iqtisodiyotni barqarorlashtirishning dastlabki belgilari desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida bu fondlarni ham ijtimoiy, ham iqtisodiy ahamiyati katta.

Ikkinchi Jahon urushidan keyin (1946—1950-yillarda) g‘arbiy Yevropa mamlakatlarida temir yo‘l, havo transporti, energiya sohalari va boshqa bir qator sohalarning davlat ixtiyoriga o‘tkazilishi natijasida davlat korxonalarining davlat moliyasi tarkibidagi salmog‘i sezilarli darajada o‘sdi. Texnik jihatdan bu sohalar qoloq va raqobatga dosh bera olmaydigan sohalar sanalardi. Ularni qayta jihozlash ulkan mablag‘larni talab qilardi va bu xarajatlar Davlat budjetidan moliyalashtirilardi. Bu sohalarning yangilanishi va ilg‘or texnika bilan ta’minlanishiga qaramasdan moliyaviy jihatdan past samarali yoki zarar bilan ishlovchi korxonalar hisoblanadi. Buning asosiy sababi— ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarga nisbatan pasaytirilgan narxlar siyosatining qo‘llanishidir. O‘tgan asrning 80-yillariga kelib, rivojlangan mamlakatlarning boshqaruv doiralari tomonidan yuritilayotgan yangi iqtisodiy va moliyaviy siyosatga ko‘ra, ko‘pgina davlat ixtiyoridagi korxonalar xususiylashtirildi va buning natijasida davlat mulki miqdori keskin qisqardi.

O‘zbekiston Respublikasida yuritilayotgan iqtisodiy siyosatga ko‘ra, davlat umumxalq manfaatlarini ko‘zlagan holda energiya, aholi transporti, harbiy sanoat va shu kabi ustuvor sohalarni o‘z qo‘lida saqlab qolmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Davlat budjeti davlatning asosiy moliyaviy quroli sifatida umumdavlat xarajatlarini moliyalashtiradi.

Davlat budjeti moliya tizimida davlat moliyasi tarkibiga kiritilib, jamiyat iqtisodiy hayotida uning ahamiyati davlat moliyasining — budjetdan tashqari maxsus fondlar, davlat krediti, davlat korxonalarining moliyasiga nisbatan ancha yuqoriligi kuzatiladi. Davlat budjetining oldiga qo‘ygan asosiy vazifalari, uning iqtisodiy va ijtimoiy hayotga aralashuv darajasi hamda mamlakat rivojlanishining u yoki bu bosqichida turganligiga qarab belgilanadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi o‘zining shakllanish bosqichini boshdan kechirdi. Davlat budjeti jamiyatdagi mavjud moliyaviy resurslarni davlat ixtiyorida markazlashtirish va undan iqtisodiyotning turli sohalarini dotatsion moliyalashtirish kabi vazifalardan asta-sekinlik bilan ozod etmoqda. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida Davlat budjeti iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda davlatning asosiy moliyaviy quroli sifatida yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, yangi ish o‘rinlarini barpo qilish va aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlashdagi roli ortmoqda.

2-bob
DAVLAT BUDJETINING IQTISODIY MOHIYATI

2.1. DAVLAT BUDJETINING IQTISODIY MAZMUNI VA MOHIYATI

Davlat budjeti iqtisodiy va ijtimoiy sohaning rivojlanishiga davlat tomonidan ta'sir o'tkazishning muhim vositasi hisoblanadi. Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti budjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanishga bog'liqdir.

Budjet — bu davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish vazifalari va funksiyalarini moliyaviy ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari jamg'armalarini to'plash va odilona sarflash shaklidir. Uning mazmun mohiyati quyidagicha ta'riflanadi:

1. Davlat budjeti — davlat pul mablag'larining, shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

2. U iqtisodiy kategoriya hisoblanib, uning asosida moddiylashgan ishlab chiqarish yotadi. Davlat o'z vazifa va funksiyalarini bajarishiga, o'z iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshiruvchi qurol — davlat budjetidir.

3. Budjet iqtisodiyotiga, ishlab chiqarish jarayoniga, xo'jalik hayotiga davlat tomonidan ta'sir o'tkazish vositasidir, u davlat iste'-molining moliyaviy asosi sifatida namoyon bo'ladi hamda davlat tomonidan ijtimoiy manyovrlash uchun foydalaniladi.

4. Davlat budjeti pul resurslarining markazlashgan fondlari bo'lib, ular asosan soliqlar va to'lovlar hisobidan jamlanadi, shakllanadi.

5. Davlat budjeti qonun kuchiga ega bo'lib, respublika Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi.

6. Davlat budjetining daromadlar va xarajatlar tarkibida davlatning ichki va tashqi siyosati mujassamlanadi, ijtimoyi va iqtisodiy jarayonlar, o'zaro bog'lanadigan markaziy bo'g'in hisoblanadi.

7. O‘z iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra davlat budjeti — iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy tadbirlar, mudofaa va davlat boshqaruvi ehtiyojlarini moliyalashga mo‘ljallangan budjet fondlarini shakllantirish hamda ulardan foydalanishda, budjetning bosh funksiyasida davlat yashab turishga moddiy sharoit yaratish, ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarishni ta’minlash uchun milliy daromadni qayta taqsimlashdan iboratdir.

8. Davlat budjeti — davlat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi pul resurslarini shakllantirish bilan bog‘liq jamiyat boyligining bir qismi bo‘lib, bu munosabatlar subyektlari davlat korxonalari, birlashmalari, tashkilotlari, muassasalari va fuqarolar hisoblanadi.

9. Davlat budjeti moliya tizimining asosi, moliyaviy qonunlar tizimida yetakchi bo‘g‘in, u davlatning moliyaviy rejasi hisoblanadi.

Davlat budjeti o‘z moliyaviy rejasida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- budjet jamg‘armasini tashkil qilish;
- xarajatlarni budjet mablag‘laridan moliyalashtirish;
- budjet siyosatini yuritish.

— Budjet jamg‘armalarini tashkil qilish — qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlardan davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlardan, qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya qilish huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari hisobidan, yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari hisobidan, rezident — yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to‘lov va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlarini o‘z ichiga oladi;

— xarajatlarni budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish —markazlashgan resurslar umumdavlat ahamiyatiga molik bo‘lgan, umuman olganda jamiyat manfaatlarini ifodalaydigan tadbirlarni (halq xo‘jaligi ahamiyatidagi qurilishlarni, eng muhim ijtimoiy tadbirlarni, mudofaa, boshqaruv, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalari, davlatning moddiy va moliyaviy zaxiralarini) mablag‘ bilan ta’minlashga ishlatiladi. Iqtisodiyotda makroiqtisodiy mutanasiblikni saqlash va ayrim tarmoqlarni, noishlabchiqarish sohalarini va ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarni budjetdan moliyalashni talab etadi;

— budjet siyosati — iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, inflatsiya darajasini pasaytirish, iqtisodiyotning real sektorlariga soliq yukini asta-sekin pasaytirishni

nazarda tutuvchi qattiq soliq-budjet siyosatini olib borish, markazlashgan investitsiyalarni budjetdan moliyalashtirishni qisqartirish, xususiy investitsiyalarni ko‘paytirish hisobiga budjet xarajatlarini maqbullashtirish, budjet mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanish, davlat budjeti taqchilligini cheklangan darajasiga rioya etish, mahalliy budjetlar rolini, mustaqilligini va mas’uliyatini oshirish, mahalliy darajadagi budjetlar ijrosida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rolini oshirish va mustahkamlash, davomat maqsadli jamg‘armalari mablag‘laridan va budjet muassasalarining budjetdan tashqari daromadlaridan qonuniy va maqsadli foydalanishni ta’minlaydi.

1-chizma

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING REJALASHTIRILADIGAN BUDJETNI TASHKIL QILISH CHIZMASI



2-chizma

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI TUZILMASI



3-chizma

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA TIZIMI



4-chizma

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAHALLIY BUDJETLARI



2.2. DAVLAT BUDJETINING BOSHQA IQTISODIY KATEGORIYALAR BILAN MUNOSABATLARI

Davlat budjetining bosh funksiyasi davlatning budjet siyosatini amalga oshirishga moddiy sharoit yaratish ishlab chiqarish munosabatlari, takror ishlab chiqarishni ta’minlash uchun milliy daromadni qayta taqsimlashdan iboratdir. Budjet iqtisodiy kategoriya

bo‘lganligi uchun uning asosida moddiy ishlab chiqarish yotadi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining 30—35% ni budjet daromadlari tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining budjeti bir bo‘g‘indir. Tashkiliy jihatdan budjetning bir bo‘g‘inligi budjet istiqbolini belgilash uslubiyati va uyushtirilishining yagonaligini kafolatlaydi. Respublika budjetining bir butunligi tufayli yagona markazlashgan fond pul resurslarini o‘z tasarrufiga oladi. Bu fond budjet tizimining qandaydir faqat bitta bo‘g‘in sifatida taqdim etilishi mumkin emas va u O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetida birlashadigan barcha budjetlarning yig‘indisi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Davlat budjeti iqtisodiyot va ijtimoiy sohasining rivojlanishiga davlat tomonidan ta’sir o‘tkazishning muhim vositasi bo‘lib qolarkan, jamiyat hayotiga budjet ta’sirini shakl va usullarini ham o‘zgartirmoqda. Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti budjet mablag‘larini yo‘naltirishga bog‘liqdir.

Budjet xarajatlari aniq ko‘rinishlarininng butun rang-barangligi muayyan xususiyatlariga qarab tabaqalashtiriladi.

Mablag‘larni taqsimlashda davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy maqsadlari ko‘zda tutilib, ular quyidagicha:

- ishlab chiqarish va noishlabchiqarish sohalari o‘rtasida;
- iqtisodiy regionlar o‘rtasida;
- viloyatlar o‘rtasida;
- mulk shakllari o‘rtasida;
- davlat va aholi o‘rtasida taqsimlanadi.

Budjet boshqa iqtisodiy kategoriyalar: soliq, narx, kredit, foyda, tannarx, qiymat ko‘rinishi bilan birgalikda ta’sir etadi. O‘zaro bog‘liqlik darajasi, ular o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni yuritadi va moliyaviy nazorat qiladi. Davlat budjeti — davlatning markazlashtirilgan pul munosabatlari yig‘indisidir. Har qanday davlat budjetining mohiyati shu mamlakatda ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish, davlat funksiyalarini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yo‘l bilan bog‘lashdan iborat. Shuning uchun takror ishlab chiqarish jarayonida ularning vazifasi, ijtimoiy yo‘nalishi, ishlab chiqarish tarmoqlari faoliyati qaysi maqsadga qaratilgani hisobga olinadi. Bozor munosabatlariga o‘tish bilan budjet mablag‘larini taqsimlashdagi ustuvor yo‘nalishlar ichida davlatning ijtimoiy funksiyasi kuchayadi. O‘zbekiston mustaqil deb e’lon qilinganidan keyin ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti yo‘li, ya’ni jamiyat a’zolarining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish yo‘li tanlanadi. Ijtimoiy soha tarmoqlari— xalq maorifi, madaniyat, tibbiy xizmat, jismoniy tarbiya, jumladan,

bolalar sportiga budjet mablag‘laridan ajratma yildan yilga ko‘paymoqda. Masalan, aynan ijtimoiy sohani moliyalashtirishga jami budjet xarajatlarining 2002-yilda 30,2%, 2003-yilda 29,2%, 2004-yilda 35,5% mablag‘i ajratilgan. Bozor munosabatlari mustahkamlanishi va kengayib borishi barobarida moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini mablag‘ bilan ta’minlash uchun ajratilgan mablag‘lar salmog‘i kamayib boradi.

Dastlabki bosqichda bunday ulush ma’lum vaqtgacha katta bo‘lib turishi mumkin, chunki iqtisodiyotdagi tanglik holatini yengish uchun davlat tomonidan bu sohaga ancha-muncha mablag‘ sarflash talab etiladi.

2.3. DAVLAT BUDJETINING DAROMADLAR VA XARAJATLAR BALANSI

Davlat budjeti — davlatning markazlashgan pul munosabatlarining yig‘indisidir. Davlat budjeti pul munosabatlaridan iborat bo‘lib, bu munosabatlar milliy daromad xususiy va milliy boylikni qayta taqsimlash jarayonida davlat hamda korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o‘rtasida kelib chiqadi. Davlat budjetining mohiyati eng avvalo uning taqsimlash va nazorat qilish funksiyalari orqali namoyon bo‘ladi. Budjetning o‘zi obyektiv bo‘lgani kabi davlat budjeti funksiyalari ham obyektivdir. Biroq unga xos bo‘lgan xususiyatlar budjet mexanizmida o‘z aksini topadi. Bunday mexanizm muayyan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etishga qaratilgan aniq yo‘nalishni ifoda etadi hamda davlatning budjet siyosatini amalga oshirishda ta’sir ko‘rsatuvchi vosita hisoblanadi. Davlat budjeti daromadlar va harajatlar balansi shaklida tuziladi. Mamlakat budjet fondi manbalari, ularni shakllantirish va foydalanish yo‘nalishlarini ifoda etadi. Davlat budjeti moliyaviy kategoriya bo‘lib, 4 ta funksiyani bajaradi:

— yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlash;
— nazorat funksiyasi;
— iqtisodiyotni boshqarish;
— ijtimoiy funksiyasi.

Avvalo, «budjet» so‘zining asl manosi nima? «Budjet» so‘zining tarjimasi yo‘q. Bu so‘z ingliz tilidan kelib chiqib, «g‘azna» degan ma’noni anglatadi. Budjet XVII asrning ikkinchi yarmida Fransiyada, XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropa mamlakatlarida paydo bo‘lgan va XX asrdan deyarli hamma mamlakatlarda budjet kategoriyasidan foydalanilgan. Budjet to‘g‘risidagi qonun birinchi

marta 1896-yil Angliyada qabul qilingan. Markaziy Osiyoda birinchi budjet 1868-yil Turkiston general-gubernatorligining budjeti sifatida tuzilgan. Keyinchalik tashkil topgan Buxoro va Xorazm Respublikalari alohida budjetlarga ega bo‘lishgan. 1924-yili sobiq ittifoqning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilingan va respublikamizning dastlabki budjeti tuzilgan. 1991-yilgacha O‘zbekiston Respublikasi sobiq ittifoq budjeti tarkibida amal qilgan. Ma’lumki sobiq ittifoq budjeti uch pog‘onadan iborat tashkiliy tuzilishga ega bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasining budjeti o‘zining hajmi bo‘yicha beshinchi o‘rinni egallagan. 1992-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasida mustaqil budjetni tuzish va uning ijrosini amalga oshirish amaliyoti qo‘llanila boshladi. Bularning hammasi davlatning zaruriy xususiyati sanaluvchi budjet va budjet jarayonida o‘z aksini topmasligini hisobga olgan holda budjetga oid huquqiy munosabatlarning takomillashtirishda ilk qadamlar tashlandi. U davlatning qo‘lida markazlashtirilgan pul fondlarini tashkil etish va davlat siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liq pul munosabatlarini bildiradi.

O‘zbekiston mustaqil bo‘lganidan so‘ng o‘z ezgu maqsadlarini ro‘yobga chiqarishda budjetning ahamiyati katta bo‘lmoqda. Davlatning muhim vazifalarini bajarishda yalpi ishchi mahsulotning 30—36% davlat budjetida jamg‘ariladi va yil davomida sarflanadi. Budjetning daromad va xarajat qismlari mustaqil mezonlardir. Ularning har biri o‘ziga xos belgilarga ega. Masalan, daromadlar davlat faoliyatining moliya bazasi bo‘lib xizmat qiladi, xarajatlar esa umumdavlat talab-ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltiriladi. Davlat budjetini shakllantirish jarayonida muayyan pul muomalasi paydo bo‘ldiki, korxonalar, tashkilotlar va aholi to‘laydigan soliqlar hamda soliqqa kirmaydigan hamda turli ko‘rinishdagi to‘lovlar ana shunday muomala shakli sifatida yuzaga keladi. Budjet daromadlari ma’lum darajada xo‘jalik yuritish tizimlari va usullariga va hal etilayotgan vazifalarga bog‘liq bo‘ldi. Masalan, xo‘jalik yuritishning ma’muriy-buyruqbozlik usullari sharoitida, ya’ni deyarli barcha ishlab chiqarish vositalari davlat qo‘lida bo‘lgani turli-tuman to‘lovlarni budjet hisobiga undirish tizimi qattiq markazlashgan edi va amalda foyda butunlay tortib olindi. Iqtisodiyot bozor munosabatlariga o‘tish bilan budjetning daromad tushumlari soliqlar va soliqqa kirmaydigan to‘lovlar yordamida safarbar qilishga ehtiyoj tug‘ildi. Bizning mamlakatimizda budjet daromadlarining asosiy qismini soliqlar tashkil etadi. 2003-yilda 75%i, 2004-yilda 74%i soliqli

daromadlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shu yerda mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimovning «O‘zbekiston buyuk kelajak sari» kitobidagi quyidagi jumlalarni keltirish mumkin:

«Soliq siyosatining vazifasi — bir tomondan budjet daromadining barqaror safarbarligini ta’minlashdan, ikkinchi tomondan — korxonalarni respublika uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishini ko‘paytirishga rag‘batlantirishdan iborat».

Bugungi kunda davlat budjetiga tushayotgan soliqlar ichida egri soliqlar katta ahamiyatga ega. Uning hissasi jami budjetga kelayotgan daromadlarga nisbatan 40,0% yoki 2004-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra 43,0% ni tashkil etmoqda. To‘g‘ri soliqlar esa 20%ni tashkil etadi. Davlat budjeti daromadlarining 25—26% ni maqsadli fond daromadlari tashkil etadi. Bulardan kelib chiqadigan dastlabki xulosa soliq siyosati moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi ekanligidir.

Davlat xarajatlarining kattagina qismida ijtimoiy ma’noda bir qadar nochor tabaqalarning manfaatlarini qondirishga, respublika aholisining turmush darajasida zarur muvozanatning saqlanib turishi ko‘zda tutilgan. Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o‘tishi budjetning ijtimoiy yo‘naltirilgan xarajatlarni ko‘paytirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish hamda keng ko‘lamli ijtimoiy dasturlarni mablag‘ bilan ta’minlash manbalari bilan oqilona uyg‘unlashib borishini nazarda tutadi. Davlatning ijtimoiy sohani rivojlantirishiga fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqaruv organlari faoliyatini yanada takomillashtirib borishiga yo‘naltirilgan xarajatlari faqatgina ijtimoiy emas, balki iqtisodiy ahamiyat ham kasb etadi, chunki jamiyatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida budjetdan mablag‘ sarflashdan butunlay voz kechishning iloji yo‘q, chunki iqtisodiyotning davlat sektori saqlanib turadi, u esa davlatning investitsiya dasturini ishlab chiqarish va amalga oshirishni, kapital sarflarning tarmoq va hududiy tuzilishlarini izga solib turishni talab etadi.

Davlat budjeti mablag‘larining bir qismi mamlakatning mudofaa qobiliyatini qo‘llab-quvvatlashga, boshqaruvni amalga oshirishga sarflanadi. Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqdir, ular bir-biriga ta’sir etib turadi. Budjet xarajatlari kelib tushadigan budjet daromadlarining hajmiga qarab qattiq cheklanadi. Shuning uchun ham budjet xarajatlarining muddat va hajmlarini kelib tushadigan daromadlarning muddat va hajmlariga muvofiq qilib belgilash juda muhimdir.

2.4. DAVLAT BUDJETI G‘AZNACHILIGI, UNING MOHIYATI VA AHAMIYATI

Oliy majlisning 2004-yil 26-avgustdagi 665-sonli qaroriga ko‘ra «Davlat budjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni 2006-yil 1-yanvardan amalga kiritildi. Qonun 18 moddadan iborat.

Qonunni qabul qilishdan asosiy maqsad, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘larining g‘azna ijrosi sohasidagi munosabatlarini tartibga solishdan iborat.

Davlat budjeti g‘azna ijrosini asosiy prinsiplari g‘aznaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotni tashkil etishning yagonaligidan iboratdir.

Davlat budjeti g‘azna ijrosining asosiy mazmuni davlat budjetining barcha daromadlarini yagona g‘azna hisobvarag‘iga kiritishdan va davlat budjeti xarajatlarini shu hisobvaraqdan to‘lashdan iborat.

Davlat budjeti g‘azna ijrosi muddatlari moliya yili davomida hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan qo‘shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi.

Davlat budjeti g‘azna ijrosi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan maxsus vakolatli moliya organi hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi.

G‘aznachilik o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyat organlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda bajaradi. Mazkur organlar va tashkilotlar davlat budjeti g‘azna ijrosini amalga oshirishda, mablag‘larni boshqarishda, davlat budjeti mablag‘larining tushumi sarfi ustidan nazoratni amalga oshirishda g‘aznachilikka ko‘maklashadi.

G‘aznachilik bilan davlat soliq, bojxona organlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, davlat maqsadli fondlarini taqsimlovchilar davlat budjeti g‘azna ijrosi sohasidagi ma‘lumotlarni belgilangan tartibda almashib turadilar.

Yagona g‘azna hisobvarag‘i g‘aznachilik tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag‘i bo‘lib, bu hisobvaraqqa davlat budjeti mablag‘lari hamda budjetdan tashqari mablag‘lari kiritiladi.

2010-YILDAGI MOLIYA YILINI YAKUNLASH BO‘YICHA

- budjetdan mablag‘ oluvchilarning 2010-yil ijrosi bo‘yicha taqdim qilinadigan tegishli yillik hisobot shakllari;
- moliya organlari tomonidan taqdim qilinadigan tegishli budjetlarning 2010-yil ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobot shakllari;
- g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan taqdim qilinadigan tegishli budjetlarning 2010-yil ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobot shakllari;
- davlat maqsadli va boshqa budjetdan tashqari jamg‘armalar tomonidan taqdim qilinadigan tegishli jamg‘armalarning 2010-yil ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobot shakllari;
- shuningdek, 2010-yil Davlat budjeti ijrosi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa barcha operatsiyalar amaldagi budjet tasnifi asosida tuziladi.

2011-YILDAGI MOLIYA YILINI BOSHLANISHI BO‘YICHA

- Budjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan 2010-yilning 1-noyabridan boshlab 20-dekabriga qadar 2011-yilning 1-choragi uchun vaqtinchalik xarajatlar smetalari yangi budjet tasnifi bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda tuziladi hamda ro‘yxatga olish uchun moliya organlariga taqdim etiladi.
- Budjetdan mablag‘ oluvchilarga yangi shaxsiy g‘azna hisobvaraqlar ochish, shuningdek, moliya organlari tomonidan belgilangan muddatda yangi budjet tasnifi bo‘yicha bujetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar smetalarini o‘rnatilgan tartibda «G‘aznachilik—3» dasturiy majmuiga kiritishlari va ro‘yxatga olishlari talab etiladi.
- G‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan 2011-moliya yilida (moliya yiliga qo‘shimcha vaqt bundan mustasno) budjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlari vaqtinchalik va asosiy xarajatlar smetalari asosida yangi budjet tasnifni bo‘yicha ma'lumotlar bazasi orqali amalga oshiriladi.
- 2011-moliya yilidan boshlab barcha davriy hisobotlar budjetdan mablag‘ oluvchilar, moliya va g‘aznachilik organlari, shuningdek, budjetdan tashqari jamg‘armalar tomonidan yangi budjet tasnifi bo‘yicha tuziladi va taqdim qilinadi.

Yagona g‘azna hisobvarag‘idan davlat budjetida mablag‘lar nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning xarajatlari to‘lanadi, shuningdek, davlat maqsadli jamg‘armalarining xarajatlari amalga oshiriladi.

Yagona g‘azna hisobvarag‘i belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida g‘aznachilik tomonidan ochiladi.

G‘aznachilikning bank hisobvaraqlaridan mablag‘larning so‘zsiz tartibda hisobdan chiqarilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat budjetiga to‘lanadigan soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlar yagona g‘azna hisobvarag‘iga kiritilib, u respublika budjeti,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar va davlat maqsadli jamg‘armalarida aks ettiriladi. Bunda budjetdan tashqari mablag‘lar ham mazkur tashkilotning daromadlarida aks ettiriladi.

Agar davlat budjetiga chet el valutasida to‘lanadigan soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda chet el valyutasida tushadigan budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘lsa, g‘aznachilikning bankdagi valuta hisobvarag‘iga kiritiladi.

Yangi shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarni amaldagi shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan farqi

«G‘aznachilik—2»

Razryad raqamlari																					
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22
Mablag‘lar manbasi kodi va budjet darajasi						Hududiy tegishlilik kodi					Bo‘lim kodi			Bob kodi			Para-graf kodi		Shaxsiy raqam kodi		

«G‘aznachilik—4»

Razryad raqamlari																								
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27
Mablag‘lar manbasi kodi va budjet darajasi						Valuta kodi			Hududiy tegishlilik kodi					Vazifa jihatdan tasnif kodi							Tash-kiliy tasnif kodi			Shax-siy raqam kodi		

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 11-oktabrda 2146-son bilan ro‘yxatga olingan «O‘zbekiston Respublikasi budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma»ga muvofiq, yangi bujet tasnifi 2011-yil 1-yanvardan amalga kiritiladi.

G‘aznachilikning yagona hisobvaraqlar rejasi

- 01 — «Pul mablag‘lari»
- 02 — «Xarajatlar»
- 04 — «Daromadlar»
- 05 — «Berilgan va olingan ssudalar»

- 06 – «Hisob-kitoblar»
- 07 – «Berilgan va olingan mablag‘lar»
- 09 – «Natijalar»

1-jadval

BUDJETNI IJRO ETISH JARAYONIDA FUNKSIONAL MAJBURIYATLARNING TAQSIMLANISHI

Budjet jarayoni bosqichlari	**Amaldagi budjet tizimi**	**G‘aznachilikdagi budjet tizimi**
1. Budjet loyihasini tayyorlash	Budjet boshqarmasi – hududlar moliyasi boshqarmasi	Budjet boshqarmasi – hududlar moliyasi boshqarmasi
2. Budjet mablag‘larini yillik, choraklik limit-lari taqsimoti	Budjet Bosh boshqarmasi – hududlar moliyasi boshqarmasi, vazirliklar va idoralar	Budjet Bosh boshqarmasi – hududlar moliyasi boshqarmasi, vazirliklar va idoralar
3. Yillik, choraklik budjetlarini aniqlashti-rish	Budjet bosh boshqarmasi – hududlar moliyasi boshqarmasi	Budjet bosh bosh-qarmasi – hududlar moliyasi boshqarmasi
4. Kassadagi naqd pullarni boshqarish – oylik budjet tushumlari va harajatlarini reja-lashtirish	Budjet bosh boshqarmasi – hududlar moliyasi boshqarmasining buxgalteriyasi	G‘aznachilik – respublika, viloyat, tuman, shahar bosqichlari
5. Kassa limitlari to‘g‘risida bildirishnomalar berish	Budjet boshqarmasi sertifikat beradi	G‘aznachilik sertifikat beradi
6. Shartnomalar tuzish	Budjet tashkiloti	Budjet tashkiloti
7. Ko‘rsatilgan xizmat-lar, bajarilgan ishlar va olingan tovarlar tasdi-g‘ini berish	Budjet tashkiloti	Budjet tashkiloti
8. To‘lovga hisob-ki-tob tayyorlash	Budjet tashkiloti	Budjet tashkiloti
9. To‘lov qog‘ozi na-zorati	Tijorat banklari	G‘aznachilik
8. To‘lovga hisob-ki-tob tayyorlash	Budjet tashkiloti	Budjet tashkiloti
9. To‘lov qog‘ozi na-zorati	Tijorat banklari	G‘aznachilik

davomi

Budjet jarayoni bosqichlari	Amaldagi budjet tizimi	G‘aznachilikdagi budjet tizimi
10. Pul mablag‘larini o‘tkazish bo‘yicha bankka to‘lov qog‘o-zini tayyorlash	Budjet tashkiloti	G‘aznachilik
11. Shartnoma majburiyatlarining dastlabki nazorati	Moliya vazirligi va moliya organlari	G‘aznachilik organlari
12. Ichki audit	Hazorat-tekshiruv boshqarmasi	Hazorat-tekshiruv boshqarmasi
13. Tashqi audit	Hisob palatasi	Hisob palatasi

Iqtisodchi G. B. Polyakning fikrlariga ko‘ra, «Davlat budjetdan o‘zining faoliyatini bevosita molyaiviy ta’minlash vositasi hamda iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning muhim elementi sifatida foydalanadi»[1].

Davlat budjeti orqali jamiyatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot qayta taqsimlanadi. Yalpi ichki mahsulotning qayta taqsimlanishi jamiyatdagi umumiy ehtiyojlar, ta’lim, sog‘liqni saqlash, mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, aholi tarkibida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, tinchlik, chegaralar daxlsizligini ta’minlash va favqulodda holatlar uchun ajratilgan davlat zaxiralarining maqsadli yo‘naltirilganligi bilan izohlanadi. Shu o‘rinda Amir Temur o‘z «Tuzuklar»ida **«Amr qildimki, sarhadlar va menga tobe mamlakatlarga oid ishlarga mas’ul uch vazirdan iborat davlat hay’ati xolis tuzilsin. Ular moliyaviy muammolar va keladigan daromadlarni boshqarsinlar. Har bir idorada kirim-chiqim kudnalik xarajatlarni yozib borish uchun bir kotib tayinlansin»**[2]. Ma’lumotlardan, Temur davrida ham davlat xazinasi faqat davlatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyoji uchun tejamkorlik bilan maqsadli sarf-xarajat qilinishi nazarda tutilgan.

---

[1] *Г. Б. Поляк*. Бюджетная система Российской Федерации. — М.: ЮНИТИ, 2001.

[2] *N. Sobirov*. «Davlat moliyasi tarixi». 44-bet.

4 a-chizma


G‘aznachilikning asosiy vazifalari
Davlat budjetining g‘azna ijrosini bajarish
Barcha turdagi moliyaviy mablag‘larni boshqarish
Yuridik va jismoniy shaxslar nomidan ularning topshirig‘iga binoan to‘lovlarni amalga oshirish
G‘azna ijrosining qanday borayotganligi to‘g‘risidagi axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish
Davlat budjetiga mablag‘lar tushumi va sarflanishini nazorat qilish
O‘zbekiston Respublikasi davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko‘rsatish va O‘zbekiston Respublikasi kafolatlarini bajarish
Tovar (ish va xizmatlar ko‘rsatish) uchun tuziladigan shartnomalarni, bundan tashqari davlat budjeti mablag‘lari hisobidan kapital qurilish uchun tuziladigan shartnomalarni ro‘yxatga olish
Davlat budjeti g‘azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish
G‘aznachilikda bank hisob varaqlaridan mablag‘larning so‘zsiz hisobdan chiqarilishiga yo‘l qo‘yilmaslik

3-bob
BUDJET DAROMADLARI TARKIBI

3.1. DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TUZILMASI

Davlat budjetining iqtisodiy tushunchasi, umumjamiyat miqyosida markazlashgan, davlat ishtirokida to‘plangan va sarflanadigan moliyaviy resurslarni anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasida shunday deyilgan: «O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti o‘z ichiga Respublika budjetini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetini va mahalliy budjetlarni oladi. Davlat tomonidan budjet hisobidan moliyaviy ta’minlash deganda, tegishli darajadagi davlat va mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta’minlovchi, ular oldiga siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vazifalarni bajarish imkonini beruvchi markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondi tushuniladi. Budjetning daromadlar va xarajatlar qo‘llashi bilan bog‘liq jarayonlar O‘zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonuniga ko‘ra muvofiqlashtiriladi.

Soliq solish muammolari istalgan mamlakatning davlat siyosatida doimo yetakchi o‘rinni egallaydi. Soliq solishning mohiyati, vazifalari, qoidalari, miqdorlari va bazasining hozirgi tizimi har bir davlat xususiyatlariga xos bo‘lgan va muayyan davrda bajariladigan o‘ziga xos vazifalariga ega bo‘lgan tarixiy tajribaga asoslanadi. Shu tariqa keyingi 10 yil ichida soliq solishning rolini idrok etishda fundamental siljish yuz berdi. Soliq tizimining rolini ancha toraytirish kerakligi— u asosan budjetning daromad qismini bajarishga xizmat qilishi lozimligi belgilandi.

Soliq siyosatining asosiy vazifasi esa xazinaga yetarlicha mablag‘larni jalb etib, ayni vaqtda hamroh bo‘luvchi buzilishlarni imkoni boricha kamaytiradigan tizimni ishlab chiqishdan iborat degan fikr qo‘llab-quvvatlanmoqda. Boshqacha aytganda soliq tizimi iqtisodiy, neytral bo‘lishi kerak.

Budjet daromadlari soliqlar, to‘lovlar va soliqsiz manbalardan shakllanadi. Soliqlardan olinadigan daromadning asosiy manbalari—

yangidan yaratilgan qiymati va uning dastlabki qayta taqsimlanishi natijasida olingan daromadlardir.

Soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan majburiy to‘lovlar hisoblansa-da, u milliy daromadning xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholidan umumdavlat ehtiyojlari uchun undiriladigan qismi hisoblanadi. Soliqlar rivojlangan tovar ishlab chiqarishning muhim kategoriyasi bo‘lib, yuritilayotgan moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Moliyaviy siyosatning hayotga tatbiq etilishi ko‘p jihatdan soliq siyosatining muvaffaqiyatiga bog‘liq. Bu borada I. A. Karimov o‘zining «O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura» asarida shunday fikr bildirgan: «Mustaqil moliyaviy siyosatni respublikaning budjet tizimini mustahkamlash, budjet daromadlarini to‘ldirishni ta’minlaydigan va amaliy faoliyatini rag‘batlantiradigan izchil soliq siyosatini o‘tkazish yo‘li bilan shakllantirish mo‘ljallanmoqda».

Yuqorida bildirilgan fikrlar shuni tasdiqlamoqdaki moliyaviy siyosatni amalga oshirish soliq siyosati oldiga quyidagi muhim vazifalarni bajarishni qo‘ymoqda:

- respublikaning budjet tizimini mustahkanlash;
- budjet daromadlarini to‘ldirishni ta’minlash;
- amaliy faollikni rag‘batlantirish.

Agar yuritilayotgan soliq siyosati ana shu uch vazifani bajarish imkonini bersa, uni sira ikkilanmasdan izchil soliq siyosati deyish va u mustaqil moliyaviy siyosatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qayd etish mumkin.

Budjetga soliqlarni undirish 2008-yil 29-dekabrdagi, «2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ 1024-sonli qaroriga ko‘ra quyidagicha amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisi soliqlar tizimi deb tushuniladi. Soliq kodeksining 23-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar amal qiladi hamda ular O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan joriy etiladi va bekor qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar amal qiladi.

Umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
3) qo‘shilgan qiymat solig‘i;
4) aksiz solig‘i;
5) yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;
6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Umumdavlat soliqlari har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi moliya yili uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va davlat budjeti prognozi to‘g‘risidagi maxsus qarori asosida belgilangan normativlar bo‘yicha tegishli mahalliy budjetlar o‘rtasida taqsimlanadi.

7) ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlar:
— yagona ijtimoiy to‘lov;

Bu to‘lov o‘z navbatida quyidagi jamg‘armalarga taqsimlanadi: Pensiya jamg‘armasiga, bandlik jamg‘armasiga va kasaba uyushmasi jamg‘armasiga.

— fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari;
— budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar;
8) Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar:
— Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;
— Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar;
9) davlat boji;
10) bojxona to‘lovlari.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to‘lanadigan umumdavlat soliqlari:

11) yagona soliq to‘lovi;
12) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarga quyidagilar kiradi:

1) mol-mulk solig‘i;
2) yer solig‘i;
3) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i;
4) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im;
6) yagona yer solig‘i (soddalashtirilgan tartibdagi soliq).

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lovchisi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq,

mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Mol-mulk solig'i va yer solig'i O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga binoan joriy etiladi va uning butun hududida undiriladi.

Ushbu soliqlar stavkalarining miqdori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imlar Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan joriy etiladi. Ushbu soliqlar va yig'imlar stavkalarining eng yuqori miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining butun hududida ayrim mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni umumiy, qat'iy stavkalarda belgilashi mumkin.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalari soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartib da yetkaziladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imlarning miqdorlari, ularni undirish tartibi, ular bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Chunonchi, to'g'ri soliqlar jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlarini bevosita kamaytiradi, chunki bu soliqlar korxona foydasidan, kapitalidan, ko'chmas mulkidan, yeridan, tabiiy resurslaridan, jismoniy shaxslarning ish haqidan undiriladi va soliqqa tortish obyekti hisoblanadi. Egri soliqlar bo'yicha soliqqa tortish obyekti bo'lib, tovar sotishdan va ko'rsatilgan xizmatlar doirasida olingan pul aylanmasi hisoblanadi. Undan davlat budjetiga tushgan ulush 2002-yilda 83,8%, 2003-yilda 86,0%, 2004-yilda 85,7% ni 2005-yilda 49,2%, 2009-yilda 49,5% tashkil etgan.

Resurs to‘lovlarining joriy qilinishi budjetga tushumlar manbalarini kengaytirish imkoniyatini yaratuvchi soliq turlarini ko‘paytirdi, yuqori bo‘lmagan soliq stavkalari joriy qilindi. Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘ining daromadlardagi solishtirma hissasi 2002-yilda 10,7% ni, 2003-yilda 9,1% ni, 2004-yilda 9,9% ni, 2005-yilda 19,0% ni, 2009-yilda 16% ni tashkil etgan.

1-diagramma

2000—2012-YILLAR DAVOMIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET DAROMADLARI TUZILMASI
(tuzilma foizlarda belgilangan)



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2004-yil makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarining asosiy parametrlari va ularning bajarilishini nazorat qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 547-sonli qarorida iqtisodiyotning real sektoriga soliq yukini asta-sekin pasaytirishni nazarda tutuvchi qattiq soliq-budjet siyosatini olib borish, shu jumladan markazlashtirilgan investitsiyalarni budjetdan moliyalashni qisqartirish va tegishli ravishda iqtisodiyotga xususiy investitsiyalar ulushini ko‘paytirish hisobiga budjet xarajatlarini maqbullashtirish nazarda tutilgan.

Buning uchun davlat budjetining soliqli daromadlarini ko‘rib chiqamiz.

3.2. BUDJETNING SOLIQLI DAROMADLARI

O‘z tarkibiga ko‘ra daromadlar ikki guruhga bo‘linadi:

- huquqiy shaxslarning daromadlari;
- jismoniy shaxslarning daromadlari.

Budjetning soliqli daromadlarida huquqiy shaxslar to‘laydigan daromad (foyda) solig‘i moliya yilida daromad (foyda) olgan korxona va tashkilotlardan undiriladi. Daromad solig‘i to‘g‘ri soliq hisoblanib, u huquqiy shaxs daromadi (foydasi) ning bir qismi hisoblanadi va qat’iy tartibda umumdavlat budjetiga olinadi. U 1992-yil yanvaridan amal qila boshlagan, soliq stavkasi 12% ni tashkil qilib, budjet daromadlarida uning hissasi 17,6% ga teng bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida soliqlarning rag‘batlantiruvchilik rolini kuchaytirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi farmoni bilan pasayuvchi va ko‘payuvchi koeffitsiyentlari bo‘lgan foyda solig‘i joriy qilindi. 1996-yildan hozirgi yilga qadar huquqiy shaxslar daromadi solig‘i stavkasi pasayish an’anasiga ega. U 1997-yilda 37%, 2000-yilda 26%, 2002-yilda 24%, 2003-yilda 20%, 2004-yida 18% ni tashkil etdi. Bu ularni rag‘batlantirishga qaratilgan davlat siyosatidir, unda soliq stavkalarini pasaytirish hisobiga korxonalarda ularni kengaytirish va o‘z kapitalini o‘stirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Bu bilan budjet daromadlarida daromad solig‘i solishtirma hissasining pasayishini ko‘rish mumkin.

1-jadval

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAROMADLARI: BUDJET DAROMADLARIDA HUQUQIY SHAXSLARDAN DAROMAD SOLIG‘I TARKIBI (foizlarda)

Daromad turi	yillar	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
	jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Daromad (foyda) solig‘i	TNM	16,4	13,5	10,5	9,3	10,0	7,0	8,0	8,5	9,0

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, bevosita soliqlarning umumiy daromoddagi salmog‘i kamaygan. Daromad solig‘ini hisoblab chiqarish va budjetga to‘lash tartibi O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi yo‘riqnomalarida berib boriladi.

Budjetning soliqli daromadlari tarkibiga jismoniy shaxslar to‘laydigan daromad solig‘i ham kiradi.

Respublikamizda bu soliq turi 1995-yil 15-yanvarda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi fuqaroloridan, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq 1999-yil 15-martdan amalga kiritilgan. Moliya yilida ma’lum daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar

soliq to‘lovchilar hisoblanadi. Soliqqa tortish obyekti bo‘lib ish haqi, foizli va foizsiz qo‘shimchalar hisoblanadi. Jismoniy shaxslarning daromad solig‘i 2000-yildan boshlab umumiy yillik daromad asosida hisoblanmoqda.

Jismoniy shaxslardan daromad solig‘ini undirish mexanizmi jami manbalardan olingan daromadlarga soliq solinishini nazarda tutadi. Natijada, budjetga tushumlar aholidan olinadigan daromad solig‘i hissasiga quyidagi stavkalarda budjetga undirilmoqda: 2010-yilda 11%, 2011-yilda 10% ni tashkil qilmoqda.

2-jadval

2012-YIL UCHUN JISMONIY SHAXSLAR DAROMADIDAN OLINADIGAN SOLIQ HISOB-KITOBI[1]

Soliq solinadigan daromad miqdori	**Soliq stavkasi**
Eng kam oylik ish haqining 5 baravarigacha (5×72355 = 361775 so‘mgacha)	Daromad summasining 9 foizi
5 baravardan (+1 so‘m) 10 baravargacha 361775 so‘mdan (10 x 72355) = 723550 so‘mgacha	5 baravarigacha soliq summasi +16 foiz eng kam oylik ish haqining 10 baravarigacha summadan
10 baravari (+1 so‘m) va undan yuqori 723550 so‘m va undan yuqori	Eng kam oylik ish haqining 10 baravarigacha +22 foiz 10 baravaridan yuqori summadan

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining **eng kam stavkasi** 2012 yil 1 yanvardan 1 foizli punktga pasaytirilib, o‘rtacha va yuqori stavkasi esa 2010 yil darajasida saqlanib qoladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi PQ-1675-sonli qarorining 8-ilovasiga muvofiq tasdiqlandi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasini hisoblab chiqarish maqsadida eng kam ish haqining miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqining jami summasi) bilan hisobga olinadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi PQ 1675-sonli Qarori.

Belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblangan budjetga to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi, fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqalariga o‘tkaziladigan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadigan daromadlaridan 1 foiz miqdorida hisoblab chiqariladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

2012 yil 1 yanvardan boshlab, quyidagilarni nazarda tutuvchi me’yorlar joriy etiladi:

• Soliq kodeksining **172-moddasiga** mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarga O‘zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining xodimlariga xizmatni o‘tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to‘lanadigan pul ta’minoti, pul mukofotlari va boshqa to‘lovlar ham kiritildi;

• Soliq kodeksining **174 va 177-moddalariga** kiritilgan o‘zgarishlar ish haqi fondidan olinadigan soliqlarning soliq solish obyektlarini birxillashtirish, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va ijtimoiy to‘lovlar bo‘yicha soliq solinadigan bazani yaqinlashtirish maqsadida, soliq to‘lovchi tomonidan yuridik shaxsdan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlar tarkibidan oziq-ovqat, yo‘l chiptalari qiymatini qoplash ko‘rinishidagi to‘lovlarni mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarga kiradigan kompensatsiya to‘lovlari jumlasiga kiritishni nazarda tutadi;

• Soliq kodeksining **179-moddasiga** kiritilgan o‘zgartirishlarga asosan:

yashash uchun mo‘ljallanmagan joylarni hamda ketma-ket keladigan o‘n ikki oylik davr ichida ikki martadan ortiq bitim tuzilgan taqdirda, uy-joylarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga tortilishi belgilandi;

shuningdek, jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan ulushlar, paylar va aksiyalarni berish yaqin qarindoshlar o‘rtasida amalga oshirilmagan bo‘lsa, jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadlariga kiritilishi belgilab qo‘yildi.

2012 yilning 1 yanvaridan boshlab, ko‘chmas mulkni, shu jumladan, uy-joylarni ijaraga topshirishdan olinadigan daromadlarni

soliqqa tortish shartnomada belgilangan ijara haqi miqdoridan kelib chiqqan holda, biroq uy-joylarini ijaraga topshiruvchi jismoniy shaxslar uchun — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi **PQ-1675-sonli** qarorining 26-ilovasiga muvofiq belgilangan ijara haqi stavkalaridan kelib chiqib hisoblangan miqdorlardan kam bo‘lmagan holda belgilandi. Ya’ni:

Toshkent shahrida — **3,0 ming so‘m**;

Nukus shahri va viloyat shaharlarida — **2,0 ming so‘m**;

Boshqa aholi punktlarida — **1,0 ming so‘m** ijara to‘lovi undirish belgilandi.

Shuni alohida e’tiborga olish lozimki, Soliq kodeksining **181-moddasiga** kiritilgan o‘zgartirishga ko‘ra, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, jismoniy shaxslardan tekin olingan ulushlar, paylar va aksiyalar tarzidagi daromadlar, jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining eng kam stavkasi bo‘yicha soliq solinishi belgilandi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i — tovar ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmatlar ko‘rsatish), ularni sotish, O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar (ish, xizmatlar) olib kirishda qo‘shilgan qiymatning bir qismini budjetga to‘lash shaklidir. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ishlab chiqarilgan mahsulot (tovar, ish, xizmatlar) bahosi bilan uni ishlab chiqarish uchun sarflangan xomashyo, materiallar va boshqa xarajatlar bahosi o‘rtasidagi farqdir. Qo‘shilgan qiymat solig‘i 1992-yilgacha oborot solig‘i deb yuritilgan va soliqqa tortishning murakkab shakli hisoblanadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining asosiy to‘lovchilari korxona va tashkilotlar hisoblanadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i egri soliqlar tarkibiga kiradi, soliq yuki asosan iste’molchi zimmasiga tushadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i mahsulot sotuvchi tomonidan iste’molchi (xaridor)ga realizatsiya qiladigan mahsulot narxiga kiritiladi. Mahsulot ishlab chiqariladigan korxonalarda hisob-kitoblarni soddalashtirish maqsadida, tovar realizatsiyasi bo‘yicha jami tovar aylanmasi soliq solish obyekti hisoblanadi. Realizatsiyasi bo‘yicha soliq solinadigan oborot miqdori realizatsiya qilinadigan tovarlar qiymati asosida, amaldagi narxlar va tariflardan kelib chiqib, aksiz solig‘ini hisobga olgan holda ularga qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritmasdan belgilanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘ziga xos afzalligi quyidagilardan iborat:

1) yangi qiymat yaratishda to‘lovchilar doirasining kengligi va katta iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi;

2) soliqni hisoblash to‘lovchi uchun ham, undiruvchi soliq idorasi uchun ham sodda va qulay ekanligi;

3) davlat daromadlarining shakllanishida barqaror manba ekanligidir.

3-jadval

QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I STAVKASINING O‘ZGARISHI[1]

Yillar	Standart stavkalar	Pasaytirilgan stavkalar
2002	20	—
2003	20	—
2004	20	—
2005	20	—
2006	20	—
2007	20	—
2008	20	—
2009	20	—
2010	20	—
2011	20	—
2012	20	—

Qo‘shilgan qiymat solig‘i

QQS stavkasi 20 foiz miqdorida saqlanib qoladi.

2012 yilning 1 yanvaridan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi PQ-1675-sonli qarorining 5-bandiga muvofiq respublikaning ichki iste’molchilari uchun paxta tolasini sotish 20 foizlik stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortilishi belgilandi.

Tabaqalashtirilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalariga o‘tish bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan bir qator Sharqiy Yevropa davlatlariga ham maqsadga muvofiq deb topildi. Chunonchi, Vengriyada 1988-yilda qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy etilib, tabaqalashtirilgan stavkalar belgilandi. Bunda asosan ikkita soliq stavkasidan — 15 va 25 foizli stavkalardan foydalanildi. Bu darajada yuqori stavkalarning belgilanishi ham qo‘shilgan qiymat solig‘ining ahamiyatini oshira olmadi, chunki nollik stavkalar va soliqqa tortilmaydigan tovarlar hamda xizmatlarning ko‘lami nihoyatda katta edi.

[1] DSQ ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

1993-yilning boshidan qo‘shilgan qiymat solig‘ini olishning ancha takomillashtirilgan tizimi joriy etildi. Shunisi e’tiborga sazovorki, tabaqalashtirilgan soliq stavkalari saqlanib qolingani holda, bir qancha oldin soliqdan ozod etilgan tovarlar va xizmatlar uchun 6 foizli soliq stavkasi joriy etildi. Hozirda faqatgina 20 foizlik va nol darajali stavkalar amal qilmoqda.

Bizning fikrimizcha, erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan har qanday mamlakat bir vaqtda soliqqa tortish tizimini takomillashtirishi lozim bo‘ladi, bunda faqatgina soliq stavkalarini o‘zgartirish yo‘li bilan chearalanib qolmasdan, soliqqa tortiladigan bazani tashkil etishni takomillashtirishni inobatga olish ham lozim bo‘ladi.

Budjet daromadlarida aksiz solig‘i o‘z ahamiyatiga ega. Ushbu soliq turi 1995-yil birinchi martda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar to‘laydigan soliqlar to‘g‘risida»gi qonunga ko‘ra 1992-yil yanvaridan respublika iqtisodiyotining bozor iqtisodiyotiga o‘tishi bilan bog‘liq islohotlarni amalga oshirish maqsadida joriy qilingan.

Aksiz — tovar va xizmatlar narxiga ustama tarzida undiriladi, uni oxirgi iste’molchi to‘laydi. Aksizlar egri soliq hisoblanib, ayrim turdagi korxonalarning atrof-muhitga zararli oqibatlarini keltirib chiqarish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash va ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1992-yildan boshlab joriy qilingan.

Aksiz solig‘i summasi sof daromadning bir qismi bo‘lib, qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirish bazasidan hisoblanadi.

Aksiz solig‘i hisoblanadigan tovarlar ro‘yxati va foiz stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Aksiz solig‘i hisoblanadigan tovarlar ro‘yxati:

1) alkogol mahsulotlari;
2) tamaki mahsulotlari;
3) o‘simlik yog‘i;
4) guruch va yormalar;
5) xo‘jalik sovuni;
6) oltin buyumlar;
7) paxta tolasi;
8) kumushdan ishlangan oshxona buyumlari;
9) neft va gaz kondensati;
10) «O‘ZDAEWOO» Qo‘shma korxonasida ishlab chiqarilgan avtomobillar;
11) gilamlar.

O‘zlari ishlab chiqargan tovarlarni realizatsiya qiluvchi barcha mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlar aksiz solig‘i to‘lovchilari hisoblanadi. Soliq obyekti bo‘lib, respublikada ishlab chiqarilgan va aksiz to‘lanadigan tovarlar uchun ularning qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobga olinmagan holdagi qiymati hisoblanadi.

Chetdan keltirilgan va aksiz to‘lanadigan tovarlar uchun belgilangan boj qiymati soliq solish obyekti hisoblanadi.

Aksiz solig‘i summasining hisob-kitobi uchun quyidagi formula bo‘yicha shartnomaviy narx aniqlanadi:

$$O = \frac{C \cdot 100}{100 - A}.$$

Bu yerda: O — shartnomaviy narx, unga qo‘shilgan qiymat solig‘isiz aksiz solig‘i ham kiradi. C — korxonaning hisob-kitob narxi, A — aksiz solig‘i stavkasi.

Aksiz solig‘i

O‘zbekistonda Respublikasida ishlab chiqariladigan aksizli tovarlarga aksiz solig‘i va O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan aksizli tovarlarga aksiz solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi PQ-1675-sonli qarorining 12-1 va 12-2-ilovalariga muvofiq tasdiqlangan.

Aksiz solig‘i stavkalari vinoga — 5 foizga, spirtga — 15 foizga, konyakka, aroqqa va boshqa alkogolli mahsulotlarga — 15 foizga, pivoga — 20 foizga, respublikada ishlab chiqarilgan filtrli, filtrsiz sigaretalarga va papiroslarga — 20 foizga, import qilingan tamaki yoki uning o‘rnini bosuvchilardan tayyorlangan sigaretalarga — 30 foizga, o‘simlik (paxta) yog‘iga — 10 foizga indeksatsiya qilindi.

2012 yilning 1 yanvaridan boshlab:

• chakana savdo tarmog‘ida sotiladigan oltindan ishlangan zargarlik mahsulotlariga 1 gramm zargarlik buyumi uchun 10 AQSH dollari ekvivalaentida aksiz solig‘i joriy etildi, bunda chakana savdo tarmog‘i korxonalariga tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud bo‘lganida sotib olingan zargarlik buyumlariga to‘langan aksiz solig‘ini hisobdan chiqarish huquqi beriladi;

• respublikada ishlab chiqariladigan dizel yoki karbyuratorli (injektorli) dvigatellar uchun motor moyi uchun 25 foiz, biroq tonnasiga kamida 207 000 so‘m miqdorida aksiz solig‘i joriy etildi;

• import qilinadigan o‘simlik yog‘iga 10 foiz, biroq litriga kamida 0,16 AQSH dollari miqdorida aksiz solig‘i joriy etildi.

Aksiz solig‘i hisob-kitobi 4-jadvalda keltirilgan me’yoriy hujjat asosida budjetga o‘tkaziladi.

4-jadval

T/r	Shartnomaviy narxlarda yuklab jo‘natilgan tovarlar qiymati (QQS)		Aksizlar		Aksizlarni qayta hisoblash yakuni			Budjet bilan hisob-kitob saldosi. Kamaytirish (–) Qo‘shimcha to‘lashga (Q)
Aksiz tovar nomi	Jami	Shu jumladan soliq solinadigan oborot	Soliq solinadigan oborot % stavka	Budjetga to‘lanadigan aksiz solig‘i hisoblab yoziladi; $\frac{\text{3-ustun} - \text{4-ustun}}{100}$	10 kunlik to‘lovlar bilan to‘langan summa	Summani hisoblash talab qilinadi: Aksiz solig‘i to‘langan xomashyo yoki mahsulot bo‘yicha	Summani hisoblash talab qilinadi: Aksiz markalari bo‘yicha	
1	2	3	4	5	6	7	8	9

Masalan, to‘g‘ri soliqlar 1994—1998-yillarda oshib borgan va 30% dan 36% gacha ko‘tarilgan yoki 66% gacha oshgan va uning eng yuqori nuqtasi 1995-yilda 39% bo‘lgan. 2000—2004-yildan soliq tushumlari 31%dan 27%ga pasayganini ko‘rish mumkin. Umumiy tushunchalarda to‘g‘ri soliqlar hissasi ortgan 2003-yilda 618,0 mlrd, 2004-yil 714,1 mlrd so‘mga yoki 96,1 mlrd so‘mga oshgan. Bizga ma’lumki, yuridik shaxslar foydasidan to‘lanadigan daromad (foyda) solig‘i 2003-yil 20%ga, 2004-yil 18%ga, 2005-yil 15%, 2006-yil 13%, 2007-yil 12%, 2008-yil 10%, 2009-yil 8% ga pasaygan. 2011-yil 7% ni tashkil etgan.

1996-yildan boshlab egri soliqlarning tushumlari nisbatidagi o‘zgarishlar ham soliq tushumlaridagi rivojlanish dinamikasini ko‘paytiradi. Yillarga nazar tashlasak, egri soliqlarning hissasi 1996—2004-yillarda 39%dan 58,8%ga ko‘tarilishi yangi soliqlar — qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ining joriy qilinishidir. Bu ishlab chiqaruvchilarni va ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga, budjetni esa egri soliqlar (bilvosita soliqlar) yordamida shakllantirishga qaratilgan soliq siyosati deb qarash mumkin.

Budjetning soliqli daromadlari navbatdagi turiga resurs uchun to‘lovlar kiradi. Resurs uchun to‘lovlar tarkibiga quyidagi soliq turlari kiradi:

- mol-mulk solig‘i;

- yer solig‘i;
- ekologiya solig‘i;
- yer osti resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Mol-mulk solig‘i 1992-yildan yuridik shaxslar balansidagi mol-mulk qiymatidan, 1995-yildan mol-mulkka ega bo‘lgan jismoniy shaxslardan mahalliy soliqlar va yig‘imlar sifatida undirila boshlandi.

Mazkur soliq 1998-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining VI bo‘limiga va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1997-yil 26-dekabrdagi 38-son bilan ro‘yxatga olingan. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo‘mitasining 1997-yil 10-noyabrdagi 34G‘97—90-sonli «Korxonalar mol-mulkidan soliqni hisoblash va budjetga to‘lov tartibi to‘g‘risida»gi, 2002-yil 11-martdagi 1107-sonli yo‘riqnomasiga muvofiq, jismoniy shaxslar esa O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo‘mitasining 1997-yil 25-dekabr 45G‘114-sonli «Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi yo‘riqnomalarda batafsil bayon etilgan.

Soliq solinadigan mol-mulkka ega bo‘lgan yuridik shaxslar korxonalar mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilar hisoblanadi.

Korxona balansida turgan asosiy vositalarning bunga lizing shartnomasi asosida xarid qilingan vositalar va nomoddiy korxonalar mol-mulkiga 2003-yilda 3% li, 2004-yilda esa 3,5% li stavkalar bo‘yicha soliq undirilishi belgilandi.

Agar korxonalar keltirilgan stanok, vosita va jihozlarni me’yoriy muddatlarda o‘rnatmasalar yoki foydalanmasalar, belgilangan stavka 2 barovarga oshiriladi. Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan notijorat tashkilotlar hamda xarajatlarni qoplash uchun tasdiqlangan smetalar darajasida budjetdan dotatsiya oladigan korxonalar mol-mulk to‘lovidan ozod etiladilar. Hisob-kitoblar soliq summalarining o‘sib boruvchi yakun bilan chorak va yil uchun balanslarda taqdim etiladi. Joriy korxonalarning qayta baholangan qiymati soliq solish obyekti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va istiqbolni belgilash vazirligi tasdiqlagan tartibga ko‘ra, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha xo‘jalik subyektlari har yili 1-yanvar holatiga harakatdagi asosiy vositalarning joriy narxlari bo‘yicha qayta baholashni o‘tkazadilar.

Mol-mulkning qayta baholangan qiymatidan budjetga joriy to‘lovlar to‘g‘risida quyidagi ilovaga ko‘ra ma’lumot beriladi.

1-ilova

20__-YIL 1-YANVAR HOLATIGA[1]

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Bo‘nak to‘lovlari 20__-yil	Shu jumladan, choraklar bo‘yicha			
			I	II	III	IV
1.	Mol-mulkning balans qiymati					
2.	Soliq stavkasi (foizda)					
3.	To‘lanadigan mol-mulk solig‘i summasi					

2-ilova

MOL-MULK SOLIG‘I HISOB-KITOBI

_____ bo‘yicha
(chorak, yarim yil, 9 oy, yil uchun to‘ldiriladi)

T/r	Ko‘rsatkichlar	To‘lovchi ma’lumotlari bo‘yicha	Soliq inspeksiyasi ma’lumotlari bo‘yicha
1.	Jami mol-mulkning qayta baholan-gan qiymati		
2.	Hisobot davrida soliqdan ozod etil-gan mol-mulk qiymati		
3.	Hisobot davrida soliq solinadigan mol-mulk qiymati		
4.	Soliq stavkasi		
5.	Soliq summasi		
6.	Muddatida o‘rnatilmagan va foyda-lanilmagan uskunaning qiymati		
7.	Ikki baravarlik stavka bo‘yicha soliq summasi		
8.	Hisobot davrida to‘lanadigan soliq summasi		
9.	Hisobot davri uchun soliq hisobot yozildi		
10.	Muddat bo‘yicha qo‘shimcha to‘-lashga		
11.	Kamaytirishga		

Taqdim etish uchun belgilangan muddat: (chorak, yillik)

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdagi PQ 1449-sonli Qarori.

Korxonalarning mol-mulkiga soliqni hisoblash va budjetga o‘tkazish moliya vazirligi va davlat soliq qo‘mitasining 1997-yil 26-dekabrdagi 38-sonli «Korxonalar mol-mulki solig‘ini hisoblab chiqarish va budjetga to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi yo‘riqnomasi orqali amalga oshiriladi. Mol-mulkka qaratilgan soliq stavkalari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Jismoniy shaxslar o‘zlariga tegishli uy-joylari, kvartiralar, chorbog‘ uylar, garaj va imoratlar, bino-inshootlarning notarial tasdiqlangan qiymati soliq solish obyekti hisoblanadi. Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulk uchun soliq stavkalarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq STAVKALARI[1]

№	Soliq solinadigan obyektlar nomi	Mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan soliq stavkasi (foizda)
1.	Turar joylar, kvartiralar (shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo‘lganlari bundan mustasno), dala hovli qurilmalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshoatlar.	0,9
2.	Shaharlarda joylashgan turar joy va kvartiralar umumiy maydoni:	
	200 kv.m dan oshiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	1,1
	500 kv.m dan oshiq bo‘lgan.	1,35

Izohlar:

1. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo‘yicha organlar aniqlagan inventarizatsiya qiymati bo‘lmasa, soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida 18 480,0 ming so‘m, boshqa shaharlar va qishloq joylarda 8 030,0 ming so‘m miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tmagan yangi qurilgan turar joylar bo‘yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravaridan kelib chiqqan holda undiriladi.

2. Soliq solinadigan mol-mulkka egalik qiladigan pensionerlar uchun mol-mulk solig‘i bo‘yicha soliq solinmaydigan maydoni umumiy maydon hajmining 60 kv.m qismiga belgilanadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi PQ-1675-son Qarori.

3. Jismoniy shaxslar tomonidan uy-joy fondi obyektlari noturar joy fond toifasiga o‘tkazilganida yoki ular tomonidan noturar joy fondi obyektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk sifatida xarid qilinganida, jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo‘yicha to‘lanadi.

Yer solig‘i. «Yer solig‘i to‘g‘risida»gi Qonun 1993-yil 6-mayda qabul qilingan. Qonunga ko‘ra korxonalar, tashkilotlar hamda fuqarolar yerdan foydalanganlik uchun yer maydonining hajmiga qarab, qat’iy to‘lov sifatida yer solig‘i belgilanadi. Yer solig‘i korxona, tashkilot va fuqarolar uchun 1994-yil 1-yanvardan, qishloq xo‘jalik korxonalari uchun 1995-yil 1-yanvardan joriy etildi. 1999-yil qishloq xo‘jalik korxonalariga soliq solish tizimini tubdan o‘zgartirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘ini joriy etish to‘g‘risida»gi 1998-yil 10-oktabrdagi farmoni bilan 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab yagona yer solig‘i joriy etildi. Yer solig‘i mahalliy soliq hisoblanadi va 100% mahalliy budjet daromadiga kiritiladi. O‘z mulkida, foydalanishda yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar yer solig‘i to‘lovchilari hisoblanadi. Soliq solish obyekti qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda mulk qilib olingan, unga egalik qilish, foydalanish huquqi o‘tgan yer uchastkalari hisoblanadi. Yer solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Davlat Soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda soliq to‘lovchilarga yetkaziladi. Yer solig‘i bo‘yicha moliyaviy hisob-kitob shakllari, yer solig‘i bo‘yicha to‘lovlar naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.

Naqd pul shaklida uchastka inspektorlari orqali amalga oshiriladi. Yuridik shaxslar naqd pulsiz quyidagicha hisob raqamiga va har yili 1-yanvargacha bo‘lgan holatga qarab hisoblab chiqadilar.

Hisob-kitoblar yer uchastkasi joylashgan hududdagi soliq organiga joriy yilning 1-fevraligacha taqdim etiladi. Yillik to‘lov miqdori har chorakda teng hissada chorak ikkinchi oyining 15-sanasiga qadar to‘lovni amalga oshiriladi. Qishloq xo‘jalik korxonalari yagona yer solig‘ini bir yilda bir marta, ya’ni hisobot yilining 15-dekabrigacha to‘laydilar.

6-jadval

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORLARIDA BELGILAB QO‘YILGAN 2009-YILDA TOSHKENT SHAHRIDA JOYLASHGAN KORXONA VA TASHKILOTLAR HAMDA FUQAROLAR TASARRUFIDAGI YER UCHUN SOLIQ STAVKALARI

Zonalar	Undiriladigan yer solig‘i stavkalari	
	Korxona va tashkilotlar uchun 1 ga uchun so‘m	Fuqarolarning yakka tartibda uy-joy qurish uchun 1 ga uchun so‘m
1	9 423 127	92,9
2	11 322 916	117,9
3	18 239 488	142,9
4	25 156 060	167,9
5	32 072 631	192,9
6	38 989 203	217,9
7	45 905 775	242,9
8	52 822 347	267,9
9	59 738 919	292,9
10	66 655 490	317,9
11	73 572 062	342,9
12	80 488 634	367,9
13	87 405 206	392,9
14	94 321 777	417,9

Ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, yuridik shaxslar korxona joylashgan hududlar, ya’ni zonalar bilan aniqlanib, belgilangan stavkalar orqali soliq summasi hisob-kitob qilinadi.

Masalan: Korxona 5-zonaga tegishli hududda joylashgan. Yer maydoni 33 sotixni tashkil etadi. Ma‘lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, 5-zona 1ga uchun 2012-yilda 32 072 631 so‘m qilib belgilangan.

$$1 \text{ sotix} = \frac{32\,072\,631}{100} = 320\,726 \text{ so‘m}$$

Demak, 1 sotix uchun yer solig‘i 320 726 so‘mga teng ekan.

Endi 33 sotix uchun qancha miqdorda yer solig‘i to‘lanishi kerak?

$$320\,726 \cdot 33 = 10\,583\,968 \text{ so‘m.}$$

Korxona bir yilda 10583968 so‘m, chorak uchun 2645992 so‘m yer solig‘ini budjetga o‘tkazadi.

Yer solig‘ini hisoblab chiqarish va budjetga to‘lash 1998-yil 5-fevraldagi 404-sonli «Yer solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi yo‘riqnomaga ko‘ra amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat Soliq qo‘mitasi 1997-yil 28-noyabrdagi 38G‘97—100-sonli «Suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliqni hisoblash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi yo‘riqnomasiga asosan o‘z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilar hisoblanadi.

Faoliyati jarayonida bevosita suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, ya’ni ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun yer osti va yer usti manbalaridan foydalanilgan suv resurslari hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi. Soliq stavkasini Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

7-jadval

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ STAVKALARI HISOBI (KO‘RSATKICHLAR HAR 1 KUB METR UCHUN, SO‘MDA)

Tarmoq turlari	Yer usti manbalaridan olingan suv resurslari hajmidan $1m^3$ uchun (so‘mda)	Yer osti manbalaridan olingan suv resurslari hajmidan $1m^3$ uchun (so‘mda)
Sanoat korxonalari	29,8	37,9
Elektr stansiyalari	8,6	12,8
Kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari	16,4	21,2
Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari	1,6	1,8

3-ilova

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ SUMMASI HISOB-KITOBI

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Hajmi		Hajmi
			Yer usti manbalari	Yer osti manbalari	
1.	Hisobot davri uchun olingan suvning umumiy hajmi	kub.m			

2.	Soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanadigan suv hajmi	kub.m			
3.	Soliq solinadigan suv hajmi, hisobot davri uchun imtiyozlar chegirib tashlanadi (1-satr – 2-satr)	kub.m			
4.	Soliq stavkalari	tiyin			
5.	Hisobot davri uchun to‘lanadigan soliq summasi	so‘m			
6.	Hisobot davri uchun ilgari hisoblab yozilgan summa	so‘m			
7.	Hisobot davri uchun soliq summasi bilan ilgari hisoblab yozilgan to‘lov-chilar o‘rtasidagi saldo	so‘m			

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar, haqiqatda olingan suv hajmidan kelib chiqib to‘lanadi.

8-jadval

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETINING 2009-YIL DAROMADLARI REJASI

T/r	Ko‘rsatkichlar	Daromadlar mln so‘m	Foiz hisobida	
			Jamlangan budjetga nisbatan	Davlat budjetiga nisbatan
	Jamlangan budjet	16854681,1	100,0	X
I	Shu jumladan: Davlat budjeti	10421382,5	61,8	100,0
	1. To‘g‘ri soliqlar	2769172,4	X	26,6
1.1.	Huquqiy shaxslarning daromadi (foydasi)ga solinadigan soliq	542342,9	X	5,2
1.2.	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadiga solinadigan soliq	222415,1	X	2,1
1.3.	Soddalashtirilgan soliq solish tizimini qo‘llovchi mikrofirma va kichik korxonalardan olinadigan yagona soliq	256002,2	X	2,5
1.4.	Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq	1281600,0	X	12,3
1.5.	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi huquqiy va jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan belgilangan soliq	108600,0	X	1,0
1.6.	Ijtimoiy infrastrukturani obodonlashtirish va rivojlantirish uchun soliq	358212,2	X	3,4
	2. Eg‘ri soliqlar	5162093,6	X	49,5
2.1.	Qo’shilgan qiymat solig‘i	3093980,6	X	18,1
2.2.	Aksiz solig‘i	1503827,0	X	8,8

davomi

T/r	Ko‘rsatkichlar	Daromadlar mln so‘m	Foiz hisobida	
			Jamlangan budjetga nisbatan	Davlat budjetiga nisbatan
2.3.	Bojxona boji	361100,0	X	2,1
2.4.	Transport vositalari uchun benzin, dizel yokilg‘isi, gazlarni iste’mol qiladigan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar	203185,7	X	1,2
	3. Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i	1662498,5	X	16,9
3.1.	Mol-mulk solig‘i	319045,7	X	3,1
3.2.	Yer solig‘i	275098,8	X	2,6
3.3.	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	1024844,0	X	9,8
3.4.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	43510,0	X	0,4
4.	Ortgan foydadan soliq	238498,2	1,4	X
5.	Boshqa daromadlar	589120,3	X	5,5
II	Moliya Vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari maktab ta’limi fondi	577335,1	3,4	X
III	Davlat maqsadli fondlari daromadi (Moliya Vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari pensiya fondi, Moliya Vazirligi huzuridagi respublika yo‘l fondi, bandlikka ko‘maklashish davlat fondi, davlat mulk qo‘mitasining maxsus chetdagi mablag‘lar)	4963075,5	29,4	X
IV	Moliya Vazirligi xuzuridagi yerlar meliorativ holatini yaxshilash fondi daromadlari	130000,0	0,8	X
V	O‘zbekiston Respublikasi rekonstruksiya va rivojantirish Fondi daromadlari	762888,0	4,5	X

9-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar va ajratmalar STAVKALARI

T/r	Yig‘imlar va ajratmalar turlari	Yig‘imlar stavkalari
I.	**Xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit qilish yig‘imlar**	**AQSH dollari**
1.	O‘zbekiston Respublikasi hududiga xorijiy davlatlardan avtotransport vositalarini olib kirganlik va tranzit qilish uchun yig‘im, bir avtotashuvchini olib kirganlik uchun (2–5-bandlarda ko‘rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	4000
2.	O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali Tojikiston Respublikasining har bir yuk avtotransport vositasi va avtobusini olib kirganlik va tranzit qilganlik uchun yig‘imlar:	
	bitta yuk avtotransport vositasi va avtobusdan	130
	yuk avtotransport vositasi va avtobus O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan 3 sutkadan oshgan har bir kun uchun	70
	yuk avtotransport vositalari va avtobuslarni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali uchinchi mamlakatlarga (MDH mamlakatlaridan tashqari) tranzit olib o‘tganlik uchun	90
3.	O‘zbekiston Respublikasi hududiga Qozog‘iston Respublikasi yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirganlik uchun yig‘imlar, O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilish bundan mustasno, bir yuk avtotransport vositasini olib kirganlik uchun	300
4.	O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali Qirg‘iziston Respublikasining yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig‘imlar	300
5.	O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab Turkmaniston Respublikasi avtotransport vositalarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig‘imlar, avtotransport vositalari turlari bo‘yicha:	
	quyidagi og‘irlikdagi yuklarni ko‘taradigan yuk avtotransport vositalari:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan ko‘p	150

davomi

T/r	Yig‘imlar va ajratmalar turlari	Yig‘imlar stavkalari
	o‘rindiqlar soni quyidagicha bo‘lgan avtobuslar:	
	12 o‘rindiqqacha	25
	13 o‘rindiqdan 30 o‘rindiqqacha	50
	30 o‘rindiqdan ko‘p	100
	tranzit o‘tayotgan yengil avtotransport vositalari	30
	tranzit o‘tayotgan mototsikllar	15
II.	**Avtotransport vositalari olinganligi va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganligi uchun ushbu vositalarning egalari (foydalanuvchilar) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida to‘lanadigan yig‘im**	**foydalanish muddatiga qarab har bir ot kuchi uchun eng kam ish haqiga nisbatan %da***
	foydalanish muddati 3 yilgacha	10
	foydalanish muddati 3 yildan 7 yilgacha	7
	foydalanish muddati 7 yildan ortiq	5
III.	**«O‘zavtoyo‘l» DAK korxona va tashkilotlari mol-mulkini sotib olishdan tushgan mablag‘larning budjetga tushishi lozim bo‘lgan umumiy summasidan ajratmalar (%)**	**50**

Izohlar:

*) Yig‘im miqdori:

— o‘rindiqlar soni 40 tagacha bo‘lgan avtobuslar va yuk ortish hajmi 20 tonnagacha bo‘lgan yuk avtotransport vositalari bo‘yicha — xarid qiymatining 20 foizidan;

— qolgan avtotransport vositalari bo‘yicha — xarid qiymatining 6 foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

1. O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab xorijiy davlatlarning og‘ir yuk tashuvchi va yirik garbaitli transport vositalari o‘tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo‘yicha yig‘im to‘lanishi bilan bir vaqtda qo‘shimcha ravishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 11-yanvardagi 11-son qarori bilan belgilangan miqdorlarda to‘lov undiriladi.

10-jadval

DAVLAT BUDJETI JAMI DAROMADLARI

№	Ko‘rsatkichlar	2012 yil mlrd.so‘m
I	Davlat maqsadli jamg‘armalaridan tashqari daromadlari	20 614,1
II	Davlat maqsadli jamg‘armalarining daromadlari (budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi, Respublika yul jamg‘armasi, Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi, Mulk qo‘mitasining maxsus hisob raqami) 2011 yildan ta’lim muassasalrini qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasi	10 499,8
III	Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi daromadlari	210,0
IV	O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi daromadlari	4 747,6

11-jadval

DAVLAT BUDJETINING MAQSADLI JAMG‘ARMALARSIZ DAROMADLARI

№	Soliq turlarining nomi	2012 y	
		mlrd.s	Ulushi
	Budjetga tushumlar (maqsadli jamg‘armalarsiz), jami	20 614,1	100
1.	Bevosita soliqlar	5 196,4	26,2
1.1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	917,2	5,1
1.2	Kichik korxonalardan yagona soliq to‘lovi	703,5	3,3
1.3	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan yagona soliq to‘lovi	538,5	2,3
1.4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 372,7	11,1
1.5	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarga qat’iy belgilangan soliq	218,1	1,2
1.6	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i	446,4	3,3
2.	Bilvosita soliqlar	11 187,8	53,5
2.1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	6 784,5	32,3
2.2	Aksiz solig‘i	3 115,5	15,3
	Budjetga tushumlar		
2.3	Bojxona bojlari	732,4	3,2
2.4	Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun soliq	555,4	2,7
3.	**Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i**	2 746,4	14,3
3.1	Mol-mulk solig‘i (jami)	642,0	3,0
3.2	Yer solig‘i (jami)	446,0	2,1
3.3	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 585,3	8,7
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	73,1	0,4
4.	**Qo‘shimcha foyda solig‘i**	250,0	0,9
5.	**Boshqa daromadlar**	1 233,5	5,1

4-bob
BUDJET XARAJATLARI TARKIBI

4.1. BUDJET XARAJATLARI TARKIBI VA XARAJAT MODDALARI

Budjet xarajatlari yo‘nalishi sohasiga qarab moddiy va nomoddiy sohalarga sarflanadi. Budjet xarajatlari davlat ixtiyorida bo‘lganligi uchun, har yili ularning turlari o‘zgarib turadi. Budjetning xarajatlar qismini asosan iqtisodiy xarajatlar egallaydi. Iqtisodiy xarajatlar o‘z tarkibiga ko‘ra ikki qismga bo‘linadi:

1. Xalq xo‘jaligi tarmoqlarini moliyalashtirish xarajatlari.
2. Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari.

Xalq xo‘jaligi tarmoqlarini moliyalashtirish xarajatlariga kam daromad ko‘ruvchi, lekin davlat miqyosida zarur bo‘lgan Davlat belgilagan narxlar o‘rtasidagi farqlarni qoplashga sarflanadi. Bunday tarmoqlarga misol qilib, ko‘mir qazib olish va ishlab chiqarish sanoati, qishloq xo‘jalik korxonalari, avtotransport tashkilotlari va boshqalar kiradi. Iqtisodiyotning ushbu alohida tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashga 2004-yilda budjetdan 286,6 mlrd so‘m, shundan agrosanoat kompleksiga 223,7 mlrd so‘m (jumladan suv xo‘jaligiga 186,6 mlrd so‘m) ajratildi.

Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlariga yangi korxonalarni qurish va ishga tushirish uchun mo‘ljallangan mablag‘lar kiradi. Iqtisodiy xarajatlarga budjetdan taxminan 20—25 foiz miqdoridagi mablag‘lar sarflanadi. Budjet xarajatlari moddiy ishlab chiqarish sohasiga rejalashtirilganda bu sohaning o‘ziga tegishli mablag‘lari hisobga olinadi va yetishmagan qismigagina budjetdan Davlatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish dasturiga binoan mablag‘lar ajratiladi. Ijtimoiy xarajatlar asosan, ijtimoiy madaniy tadbir xarajatlariga va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlariga bo‘linadi. Bu yo‘nalishdagi xarajatlar nomoddiy sohaga mo‘ljallangan mablag‘lar hisoblanadi. Budjetning taxminan 50 foiz xarajati aynan shu xarajatlarni moliyalashtirishga sarflanadi. Bu xarajatlarga: maorif, sog‘liqni saqlash, madaniyat va fan hamda boshqa xarajatlarni kiritish mumkin.

Budjet korxonalari tarkibida yana bir guruh xarajatlar — boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari ham rejalashtiriladi. Bu guruh xarajatlariga mudofaa, ichki ishlar vazirligi, milliy xavfsizlik xizmati, Vazirlar Mahkamasining rezerv fondi ko‘zda tutiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, budjet xarajatlari 7 ta guruhga bo‘linadi:

- ijtimoiy soha va aholiga ijtimoiy yordam berish xarajatlari;
- iqtisodiyot xarajatlari;
- markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;
- davlat hokimiyati organlari, boshqaruv va adliya organlari xarajatlari;
- fuqarolarni o‘z-o‘zini boshqarish organlari xarajatlari;
- Vazirlar Mahkamasining rezerv fondiga xarajatlar;
- boshqa xarajatlar.

2005-moliya yilida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan yuqorida qayd etilgan xarajatlarga jami 4884115,2 mln so‘m sarf etish rejalashtirilgan. Shundan, 146007,0 mln so‘m yoki jami xarajatlarning 3 foizi Moliya vazirligi huzuridagi maktab ta’limini budjetdan tashqari fond xarajatlarini, 1274001,1 mln so‘m yoki jamlangan budjetga nisbatan 26 foizini Davlat maqsadli fond xarajatlari tashkil etadi.

Davlat budjeti xarajatlarida 2004-yil ma’lumotlariga ko‘ra ijtimoiy soha xarajatlariga 900,0 mlrd so‘m sarflanib, 37,9 foizni tashkil etgan. Shuningdek, aholini moddiy qo‘llab-quvvatlash va turmush farovonligini oshirish bilan bog‘liq xarajatlarga 199,7 mlrd so‘m yo‘naltirilgan.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar daromadlari 100,8 foizga, xarajatlari esa 100,7 foizga bajarilgan. Alohida ta’kidlash lozimki, 2003-yil budjet ijrosi jarayonida turli budjetlardan ko‘zda tutilmagan qo‘shimcha tadbirlarga hokimliklarning qarorlariga asosan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan 7,2 mlrd so‘m va yil davomida daromadlarning rejaga nisbatan ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan 12,8 mlrd so‘m moliyalashtirildi.

Bu joylardagi mahalliy hokimliklarning rolini mustahkamlashga hamda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. 2004-yilda Davlat budjeti daromadlari 2621,3 mlrd so‘mga yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 21,9 foiz, xarajatlari 2743,2 mlrd so‘m yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foiz, budjet taqchilligi esa 121,9 mlrd so‘m yoki yalpi ichki mahsulotga

nisbatan 1,0 foiz miqdorida belgilangan. Shuningdek, respublika budjeti daromadlari Davlat budjeti daromadlarining 56,7 foizini, mahalliy budjet esa 43,3 foizini tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, respublika budjeti xarajatlari davlat budjeti xarajatlariga nisbatan 48 foiz, va mahalliy budjet esa 52 foiz miqdorida ko‘zda tutilgan. Xarajatlarning yo‘nalishlari bo‘yicha esa, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlarining hissasi 47,6 foiz, iqtisodiyot xarajatlari 13,4 foiz, markazlashtirilgan investitsiyalar 10,9 foiz, boshqa xarajatlar 24,0 foiz, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari 1,96 foiz, Vazirlar Mahkamasining zaxira fondi 1,5 foiz va o‘z-o‘zini boshqarish idoralarini saqlash xarajatlari 0,6 foizni tashkil etgan.

Budjet siyosatining xarajatlaridagi asosiy yo‘nalishlari quyidagicha belgilangan:

1. Budjet xarajatlarining ijtimoiy yo‘naltirilishini kuchaytirish. Ya’ni, budjet xarajatlari hissasini ijtimoiy soha va aholini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishi bo‘yicha oshirish. Shuningdek, bolalar, mehribonlik va qariyalar uylariga belgilangan tartibda bepul kiyim-kechaklar berish, sifatli oziq-ovqatlar bilan ta’minlashni amalga oshirish. Shuningdek, kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishni davom ettirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, pedagogik va injener-pedagog xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda sog‘liqni saqlash tizimining II bosqichini amalga oshirish.

2. Budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish va maqbullashtirish. 2004-yil budjetida boshqaruv apparatini saqlash xarajatlarini moliyalashtirishni qisqartirish, shuningdek, bir-birini takrorlaydigan boshqaruv tuzilmalarini birlashtirish yoki bartaraf etish, bo‘sh qolgan mablag‘larni esa tashkilot xodimlarini rag‘batlantirish hamda moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

3. Davlat markazlashgan investitsiyalarini ustuvor yo‘nalishlarga jamlash. Investitsiya xarajatlari 2004-yilda yaratilishi ko‘zda tutilgan yalpi ichki mahsulotda 2,4 foizni tashkil etdi.

Xarajat:

- kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida akademik litseylar va kollejlarni qurish va qayta ta’mirlashga;
- qishloq aholisini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta’minlashga;

• melioratsiya, qishloq xo‘jalik yerlarini o‘zlashtirish va qayta ta’mirlashga;

• transport infratuzilmasi va kommunikatsiyasini rivojlantirish va kengaytirishga;

• shahar va tumanlarda joylashgan 1991-yilgacha qurilgan uy-joylarni kapital ta’mirlashga yo‘naltiriladi.

4. Budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish. 2004-yil davlat budjetida ayniqsa, hududlarni bosqichma-bosqich dotatsiyadan chiqarishga katta e’tibor berilgan. 2003-yilgacha respublikamizda 8 ta hudud dotatsiya oluvchi hisoblangan bo‘lsa, 2004-yil budjetida Samarqand va Sirdaryo viloyatlari dotatsiya oluvchi hududlardan chiqarildi.

O‘tgan yillarda mahalliy budjetlarga respublika budjetidan subvensiya mablag‘lari ajratilmagan bo‘lsa, 2004-yilda 8 ta hudud markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish uchun subvensiya va 6 ta hududning dotatsiya olishi rejalashtirilgan.

2004-yil uchun tasdiqlangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarida:

• daromadlarning tasdiqlangan rejasi 2003-yilga nisbatan 109 foizga, 2002-yilga nisbatan esa 134,6 foizga ko‘paygan;

• xarajatlarning tasdiqlangan rejasi esa 2004-yilda 2003-yilga nisbatan 109,9 foizga, 2002-yilga nisbatan esa 138,3 foizga ko‘paygan.

O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining moliyaviy bazasi — davlat budjeti bo‘lgan muhim davlat dasturiga «Davlatning investitsiya dasturi», «Qishloq infratizimini rivojlantirish dasturi», «Sihat-salomatlik yili dasturi» va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Yoshlar yili» dasturi» ham kiradi. 2008-yilgi budjet tuzish vaqtida, birinchi navbatda, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari hisobga olindi.

Respublikamizda iqtisodiyot bozor munosabatlariga o‘tishi bilan budjetning daromad tushumlarini soliqlar va soliqqa kirmaydigan to‘lovlar yordamida safarbar qilishga ehtiyoj tug‘ildi. Davlatning korxonalar, tashkilotlar, aholi bilan budjetni shakllantirish paytidagi o‘zaro munosabatlari iqtisodiy qonunlar asosida yo‘lga solina boshlandi.

1-jadvalda 2012-yilda Davlat budjetining xarajatlari tarkibi va hajmi berilgan.

1-jadval

DAVLAT BUDJETINING MAQSADLI JAMG‘ARMALARSIZ XARAJATLARI

(mln so‘m hisobida)

№	Budjet xarajatlari turlari	2012 y	
		mlrd.so‘m	Ulushi
	Xarajatlar, jami (maqsadli jamg‘armalarsiz)	21,571.7	100.0
1	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvatlash xarajatlari – jami	12,513.2	58.0
1.1.	maorif	7,223.7	33.5
1.2.	sog‘liqni saqlash	2,820.3	13.1
1.3.	madaniyat va sport	226.9	1.1
1.4.	fan	140.4	0.7
1.5.	Ijtimoiy ta’minot	93.8	0.4
1.6.	Oilalarga ijtimoiy posobiyalar, shu jumladan farzandlari uchun	1,899.0	8.8
1.7.	Oliy ta’lim muassasalari material-texnik bazasini rivojlantirish jamg‘armasi	70.0	0.3
1.8.	Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish institutlari va boshqa notijorat tashkilotlarni qo‘llab quvvatlash grantlari va mablag‘lari	6.0	0.0
2	Iqtisodiyotga xarajatlar	2,372.0	11.0
3	Markazlashtirilgan investitsiyalar	1,059.3	4.9
4	Boshqaruv organlari xarajatlari	264.0	1.2
5	O‘zini o‘zi boshqarish organlari xarajatlari	629.3	2.9
6	Zaxira jamg‘armalari	70.9	0.3
7	Boshqa xarajatlar	4,465.4	20.7
8	Davlat budjeti defitsiti	-957.6	-4.4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va parametrlari to‘g‘risida»gi Qarorlari. *Davlat maqsadli jamg‘armalari xarajatlarisiz.

Bundan tashqari, umumta’lim maktablariga darsliklar sotib olishga mablag‘lar ajratish 2004-yilda 2003-yilga nisbatan 148 foizga, mebel sotib olish xarajatlari 141 foizga, kapital ta’mirlashga mablag‘lar ajratish 232,6 foizga, maktablar uchun kompyuterlar sotib olishga mablag‘lar ajratish 135 foizga ko‘paytirish ko‘zda tutilgan.

4.2. XALQ XO‘JALIGINI MOLIYALASHTIRISH XARAJATLARI

Budjet mablag‘laridan samarali foydalanish va hisob-kitobni to‘g‘ri olib borish, mablag‘larning maqsadli yo‘naltirilganligi joylarda budjet intizomining qay ahvoldaligiga bog‘liq.

Sobiq sotsialistik rejalashtirish davrida moddiy ishlab chiqarish davlat mulki bo‘lib, u to‘laligicha davlat ixtiyorida bo‘lgan. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda esa moddiy ishlab chiqarish boshqa turdagi mulkdorlar mulkiga aylandi, shuning uchun uni davlat budjeti xarajatlarida moliyalashtirish kamaytiriladi yoki butunlay to‘xtatiladi.

Moliya tizimida korxonalarning moliyasi boshlang‘ich qism bo‘lib hisoblanadi, chunki u moddiy ishlab chiqarish sohasida jamiyatni ichki moddiy boyligini yaratadi va boshlang‘ich mulk jamg‘armalari qayta taqsimlash yo‘li bilan markazlashtirilgan pul jamg‘armasiga tushadi va budjet tizimi daromadlarining asosiy qismini tashkil etadi.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiga o‘tishi munosabati bilan korxonalarga budjet mablag‘larini ajratish sezilarli darajada kamaydi. Shu bois ularning moliyaviy mablag‘lari, asosan, bank kreditlari va o‘zlarining mablag‘lari hisobiga shakllanmoqda. Natijada davlat budjeti xarajatlarining asosiy qismi iqtisodiyotda kapital qo‘yilmalar, investitsiya va davlat korxonalariga ajratmalar shaklida yo‘naltirilmoqda.

Bunday tartibda moddiy ishlab chiqarishga budjet mablag‘i ajratilishida davlat mulkini xususiylashtirish va ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish siyosatini amalga oshirish maqsadi bilan birga quyidagi sabablar ham ta’sir etadi:

1) bozor iqtisodiyotiga o‘tishning birinchi davrida O‘zbekiston moddiy ishlab chiqarishni moliyalashtirishni saqlab turdi, ikkinchi davrida esa, moliyalashtirish siyosati faqat kreditlash va investitsiya siyosatiga o‘tish bilan tavsiflanadi;

2) davlat ishlab chiqarishga qiladigan markazlashtirilgan xarajatlarni va korxonalarni xususiylashtirish hisobiga sarflaydigan mablag‘larni qisqartiradi;

3) avvalgi oziq-ovqat va sanoat mahsulotlariga qo‘yilgan baholar hamda qiymatlarning farqini qoplashga beradigan dotatsiya bekor qilinadi;

4) budjet mablag‘larini xarajat qilishda iqtisodni rivojlantirishga aloqador bo‘lmagan xarajatlarni chiqarib tashlash va budjet mablag‘-

larining maqsadga muvofiq xarajat qilinishi ustidan nazoratni kuchaytiradi.

Hozirgi kunda kapital qo‘yilmalarga qilinayotgan xarajatlar maqsadli dasturlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilib, xalq xo‘jaligining asosiy tarmoqlarini rivojlantirishga sarflanmoqda. Ya’ni, O‘zbekistonning ba’zi bir hududlarini elektrlashtirish, tibbiyot sanoati, transport, aloqa, agrosanoat kompleksi, kon sanoati va boshqa tarmoqlarni rivojlantirish uchun yo‘naltirilmoqda.

Budjetdan atrof-muhitni muhofaza qilish ishlariga mablag‘ ajratiladi: bularga davlat tomonidan ekologik nazorat olib borish, korxona va milliy parklarni tashkil etish, ularni saqlash hamda maqsadli dasturni amalga oshirish (Orolni saqlash) uchun qilinishi kerak bo‘lgan ishlarni misol qilib keltirish mumkin.

Turar-joy kommunal xo‘jaligi va kommunikatsiya hozirgi davrda aholi turmushida eng asosiy tarmoqlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Aholi asosan turar-joy, ichimlik suvi, gaz, kanalizatsiya, issiqlik, shahar transporti, aloqa va boshqa xizmat turlari bilan ta’minlangan bo‘lishi zarur.

Turar-joy kommunal xo‘jalik tarmog‘i — turar-joy; suv-kanalizatsiya xo‘jaligi; issiqlik-energatika xo‘jaligi; shahar yo‘lovchi transporti; telefon-telegraf va aloqa tarmoqlari; mehmonxonalar; aholi punktlarini obodonlashtirish tarmoqlarini o‘z ichiga oladi. Turar-joy kommunal xo‘jaligi tarmoqlarini budjet mablag‘idan moliyalashtirish va ta’minlash bir xil emas.

Budjet mablag‘idan ko‘kalamzorlashtirish, yoritish va aholi yashaydigan joylarni tozalash tarmoqlari to‘la ta’minlanadi.

Oqava suv-kanalizatsiya xo‘jaligi esa budjet mablag‘idan faqat kapital qo‘yilmalar uchun moliyalashtiriladi.

Shahar yo‘lovchi transporti hamda kommunal xo‘jaliklari esa budjetdan dotatsiya olishlari mumkin.

Kommunal xo‘jaligi tarmoqlarining bosh vazifasi iqtisodiy ishlarni yaxshilash, ya’ni barcha mablag‘larning ishlatilish samaradorligini oshirish va ishlatish xarajatlarining oshish sur’atini kamaytirishdan iboratdir.

Bu tarmoqlarda o‘tkazilayotgan islohotlar — budjet mablag‘laridan dotatsiya berishni yo‘qotish va aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarning tarifini ko‘rsatishda aholining iqtisodiy sharoitiga qarab, asoslangan me’yorni hisobga olgan holda amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Islohotlarning boshlang‘ich davrida qishloqqa agrar va iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishning huquqiy asoslarini yaratish tashkiliy-tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish kabi masalalarga katta e’tibor berilgan bo‘lsa, bugungi kunda qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish va kredit bilan ta’minlashni takomillashtirish masalasi oldingi o‘rinlardan biriga chiqmoqda. Ma’lumki, qishloq xo‘jaligini kreditlash tijorat moliyaviy institutlar nuqtayi nazaridan kelib chiqib, boshqa tarmoqlar bilan solishtirilganda, ancha qiyin jarayon hisoblanadi.

Bunga asosiy sabablar:

- ushbu tarmoqda bir ishlab chiqarish siklining uzunligi;
- foyda darajasining nisbatan pastligi;
- natijalarning tabiat sharoitlariga bog‘liqligi;
- qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxlarining o‘zgaruvchanligidir.

Shularni inobatga olib, mustaqillikning dastlabki yillarida, qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy ahvoli yomonlashganligi va kreditga layoqati pasaygan sharoitda, kelgusi hosil hisobidan yetkazib beriladigan mahsulotlar uchun tayyorlov korxonalari tomonidan bo‘naklash orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmi barpo qilindi.

Bo‘nak mablag‘lari qishloq xo‘jalik korxonalari tomonidan tayyorlov korxonalariga yetkazib berilishi mo‘ljallangan mahsulot qiymatining 50 foizigacha miqdorini tashkil qilib, qishloq xo‘jalikda ishlab chiqarishni va xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarning ishlab chiqarish potensialini ushlab turish va rivojlantirishda muhim moliyaviy omil vazifasini bajarib kelmoqda.

Hukumatimiz tomonidan qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish yo‘lida olib borilayotgan siyosat natijasida, fermer xo‘jaliklar soni o‘sib bormoqda. Shu bilan birgalikda ularni amaldagi bo‘naklash mexanizmiga muvofiq moliyalashtirish jarayonida quyidagi muammolar vujudga keldi:

Birinchidan, bo‘nak mablag‘lari barcha qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga bir vaqtning o‘zida va unifikatsiyalashtirilgan maqsadlar uchun ajratilishi natijasida, ayrim xo‘jaliklar (ayniqsa, fermer xo‘jaliklari)ning texnologik xususiyatlari va ehtiyojlari inobatga olinmagani oqibatida ajratilgan mablag‘larning ayrim qismi ishlatilmay qoldi.

Ikkinchidan, fermerlar o‘z xo‘jaliklarining moliyaviy oqimini mustaqil belgilab borish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi ularda haqiqiy mulkdorlik hissining to‘liq shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Uchinchidan, fermer xo‘jaliklari soni keskin oshib borishi natijasida, ajratilayotgan mablag‘larini tayyorlov korxonalari tomonidan har bir xo‘jalikka o‘z vaqtida yetkazib berishda qiyinchiliklar vujudga keldi.

To‘rtinchidan, qishloq joylarda bank amaliyotlari, ayniqsa kredit operatsiyalari sekinlik bilan rivojlandi.

Beshinchidan, qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar orasida raqobat tegishli darajada rivojlanmadi.

Shularni inobatga olib, tashkil etilgan fermer xo‘jaliklarining mulkdor sifatida faoliyat ko‘rsatishlarida erkinlik yaratish va ishlab chiqarishning iqtisodiy natijalarida ularning moddiy manfaatdorliklarini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori qabul qilindi va unga ko‘ra 2003-yil hosilidan boshlab Buxoro, Farg‘ona, Namangan va Xorazm viloyatlarida amaldagi tayyorlov korxonalari orqali bo‘nak berish mexanizmi o‘rniga fermer xo‘jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun sotiladigan paxta xomahyosi va g‘alla yetishtirish bo‘yicha xarajatlarni ularga xizmat ko‘rsatuvchi tijorat banklari orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri kreditlash mexanizmi sinov tariqsida joriy qilindi.

2003-yilda jamg‘arma tomonidan jami 17223,0 mln so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lib, shundan 15371,8 mln so‘mi paxta hosilini yetishtirish uchun va 1851,3 mln so‘mi g‘alla hosili uchun ajratilgan.

Yangi mexanizm joriy etilishi o‘z navbatida ushbu maqsadlarga yo‘naltirilgan davlat mablag‘larini iqtisod qilishga olib keldi. Jumladan 2003-yil paxta hosilini yetishtirish uchun kontraktatsiya shartnomalarini tuzishga 4 ta viloyat fermer xo‘jaliklariga har tonnasiga qarab transh 32 mlrd 945,3 mln so‘mlik (42%) xarajatlar, fermer xo‘jaliklarining o‘z mablag‘lari hisobidan 1 mlrd 911,6 mln so‘m tejab qolindi.

Tatbiq etilayotgan yangi mexanizmning afzalligi shundaki, xarajatlarning ayrim turlari bo‘yicha to‘lovlarga ehtiyoji bo‘lmagan fermerlarga mazkur mablag‘larni texnologik kartalarda belgilangan boshqa xarajatlarni qoplash uchun, masalan, o‘z traktoriga ega bo‘lgan fermerga «Mashina-traktor» parklari ko‘rsatadigan xizmatlar uchun belgilangan mablag‘larni yonilg‘i-moylash materiallari yoki mineral o‘g‘itlar sotib olish maqsadlariga yo‘naltirishga ruxsat etiladi. Bunda, uzoq masofada joylashgan fermer xo‘jaliklarining transh mablag‘larini yo‘naltirish uchun har oyda bir necha marta bankka kelishlariga ehtiyoj qolmaydi va ularning ixtiyoriga qarab mavsumiy to‘lovlarni har oyda bir marta o‘tkazilishi mumkin bo‘ladi.

Yil davomida ajratilgan imtiyozli kreditlar fermer xo‘jaliklari yetishtirib topshirgan paxta va g‘alla hosili uchun kelib tushgan mablag‘lari hisobidan to‘liq qoplangach, qolgan mablag‘lar fermerlar tomonidan mustaqil ravishda ehtiyojlariga muvofiq sarflanishi mumkin.

Joriy qilingan mexanizmning yana bir afzalligi shundaki, u tijorat banklarining ajratgan kreditlarini o‘z vaqtida qaytarilishida mas’uliyatni va manfaatdorligini yanada oshiradi va moliyalashtirishning amaldagi tartibi sharoitlaridagi tayyorlov korxonalari tomonidan ajratilgan bo‘nak mablag‘larining bir qismi xo‘jaliklar tomonidan mahsulot yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlarni davlat tomonidan qoplash mexanizmi joriy qilinishi belgilab qo‘yildi.

Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga asosan 2004-yil hosilidan boshlab Andijon, Jizzax, Navoiy, Samarqand viloyatlarida joylashgan fermer xo‘jaliklariga davlat ehtiyojlari uchun xarid qilingan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan kredit berish mexanizmiga o‘tkazilishi belgilandi.

Neft va gaz sanoatining korxonalari, tog‘-kon metallurgiya korxonalari va boshqa shu kabi korxonalar atrof-muhitga sezilarli darajada zarar yetkazadilar. Ularning o‘z faoliyatlarining zararlilik darajasini pasaytirish maqsadida sarflayotgan xarajatlari nobarqaror va yetarli emas. Shu munosabat bilan mazkur korxonalarga nisbatan ekologiya solig‘i stavkalarini oshirish natijasida soliq tushumlari summasini ko‘paytirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Har bir soliq tizimi iqtisodiyotning rivojlanish darajasini, hukumat tomonidan olib borilayotgan moliyaviy siyosatning strategiyasini aks ettiradi. Quyidagi tamoyillarga amal qilinganda uning samaradorligiga erishish mumkin:

- xo‘jalikni yurgizish subyektlari va fuqarolar ijtimoiy guruhlari, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, ularning olayotgan daromadlariga mos ravishda soliq solishning tengligiga asoslanganlik;
- ishlab chiqarishni kengaytirish, uning samaradorligini oshirish orqali budjet daromadlarining turg‘un asosi shakllanishini ta’minlovchi soliqlarning xazinaga oid va rag‘batlantiruvchi vazifalarini oqilona birga qo‘shib olib borish;
- budjetga mablag‘ tushadigan manbalarni kengaytirish, soliq solishda uncha yuqori bo‘lmagan stavkalar o‘rnatish imkoniyatini beruvchi soliqlarning turlarini yaratishga erishish va, ayniqsa, obyektlarga ko‘p martalab soliq solish va ularning miqdori baland

bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasdan barcha soliqlar o‘rtasida yaqindan aloqadorlikni ta’minlash hamda soliqlar darajasi baland bo‘lishi iqtisodiy rag‘batlantirishga to‘sqinlik qilishini e’tirof etish.

4.3. MAORIF XARAJATLARI

XXI asrda qaysi mamlakat eng o‘qimishli bo‘lsa, ilm-fan va ta’lim sohasiga ko‘proq e’tibor berib, o‘zining kadrlar salohiyatini mustahkamlab, mamlakatning tabiiy resurslarini juda chegaralagan holatda ham oqilona, samarali ishlatib foydalana oladigan bo‘lsa, u barqaror, boy va qudratli davlatlar qatoridan joy oladi.

Xalq ta’limi xarajatlari maorif xarajatlari tarkibiga kiritilib, bularga quyidagilar kiradi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari.
2. Maktablar — bolalarni maktabga tayyorlash muassasalari.
3. Maktablar — boshlang‘ich, to‘liqsiz o‘rta va o‘rta.
4. Maxsus maktablar.
5. Kitoblar sotib olish.
6. Maktab-internatlar.
7. Maxsus rejimdagi internat maktablar.
8. Bolalar bilan ishlovchi maktabdan tashqari muassasalar va tadbirlar.
9. Bolalar uylari.
10. Kechki (smenali) va sirtqi, o‘rta umumta’lim maktablari.
11. Xalq ta’limi bo‘yicha metodik ishlar, texnikaviy tashviqot va boshqa tadbirlar.
12. Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi hunar texnika bilim yurtlari.
13. Akademik litseylar.

Xalq ta’limi o‘z ichiga umumta’lim maktablar, maktab-internat, bog‘chalar, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, bolalar uylarini oladi, bu muassasalar budjet tashkilotlari bo‘lib, budjetdan moliyalashtiriladi.

Xalq ta’limi xarajatlarini hisoblashda shu sohaning asosiy ko‘rsatkichlari katta ahamiyatga ega. Bularga quyidagilar kiradi:

1. O‘quvchilarning o‘rtacha yillik soni.
2. Sinflarning o‘rtacha yillik soni.
3. Sinf to‘liqligi.
4. Haftalik ish yuklamasi.
5. Pedstavka soni.
6. Bog‘cha bolalarining o‘rtacha yillik soni.

7. 1 bolani bir yilda bog‘chaga qatnash kunlari.

Bu ko‘rsatkichlar maxsus formula yoki hisoblash asosida topiladi. Masalan: bog‘chadagi bolalarning yil boshidagi soni 400 ta, yil oxiridagi soni 420 ta.

$$\text{O‘rtacha yillik soni} = (400+420)/2=410.$$

Ish haqi xarajatlari xalq ta’limi xarajatlari bo‘lib, o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- pedagogik xodimlarning ish haqi;
- ma’muriy rahbarlar ish haqi;
- o‘quv yordamchilarining ish haqi.

Pedagogik xodimlarning ish haqi quyidagilardan tarkib topgan:

- o‘quv soatiga hisoblangan ish haqi;
- pedagogik soatga hisoblangan ish haqi.

O‘qutuvchining asosiy ish haqini hisoblashda, uning kategoriyasi stavkasi, haftalik darslar soni asos bo‘lib xizmat qiladi.

Qo‘shimcha ish haqi o‘qituvchining sinf rahbarligi, to‘garak rahbarligi, daftar tekshirish haqi, unvoni va ilmiy darajasi uchun to‘lovlar asosida hisoblanadi.

Ma’muriy-rahbar xodimlar ish haqini hisoblashda maktabdagi bolalar soni asosdir.

Umumta’lim maktab xarajatlari smeta asosida hisoblanadi. Bu xarajatlar xilma-xil moddalardan iborat bo‘lib, quyidagi xarajatlar guruhlariga bo‘linadi:

1-guruh. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar.

2-guruh. Ish beruvchilarga ajratmalar.

3-guruh. Kapital qo‘yilmalar.

4-guruh. Boshqa xarajatlar.

Bu moddalar budjet me’yorlari asosida rejalashtiriladi.

Ta’lim vazirligining maxsus qaroriga asosan maktab-internat, bolalar uylari, maxsus maktab-internatlar tashkil etilgan. Guruh to‘liqligi 5—6—7dan 20—30 gacha bo‘ladi. Ularda 2 ta smeta tuziladi:

- o‘qish xarajatlari;
- yashash xarajatlari.

Bu tashkilotlarda maktabga nisbatan o‘z xususiyatlari bor bo‘lib, ular faoliyati bilan bog‘liqdir. Bunday tashkilotlarda oziq-ovqat xarajatlari ancha katta bo‘lib, xarajatlar ichida tarbiya birinchi o‘rinni egallaydi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlari ham smeta asosida hisoblanadi. Bog‘chalar 9, 12, 24 soatlik ish olib boradilar. Bolalar 2 guruhga bo‘linadi:

- yasli guruhi — 1—3 yosh;
- bog‘cha guruhi — 3—7 yosh.

Ish haqi 2 xil ish haqini o‘z ichiga oladi:

- asosiy faoliyati bo‘yicha ish haqi;
- ta’til kunlari uchun haq.

Ta’til kunlari: mudira, tarbiyachi, musiqa xodimlarga 36 kun belgilangan. Bog‘cha xodimlari ish haqi ham yagona tarif asosida hisoblanadi. Bunda razryad, koeffitsiyent, stavkalar soni asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xalq ta’limi xarajatlari yig‘ma smetasi quyidagi usullar orqali rejalashtiriladi:

- yakka smetalar yig‘indisi;
- o‘rtacha ko‘rsatkichlar asosida hisoblash;
- yiriklashtirilgan ko‘rsatkichlar asosida hisoblash.

Aynan shu maqsadlarga erishish uchun mamlakatimizda 1997-2010 yillarda keng miqyosdagi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalga oshirildi. Uning zamirida aholining uzluksiz ta’lim olishini ta’minlash, ta’lim tizimining jamiyatdagi o‘zgarish va yangilanishlar, iqtisodiyotdagi yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj bilan uyg‘un va hamohang bo‘lishiga erishish konsepsiyasi mujassam edi.

2-jadval

MAKTAB TA’LIMI RIVOJINING SON VA SIFAT KO‘RSATKICHLARI

Ko‘rsatkichlar	1990 yil	2000 yil	2009 yil	2010 yil
Umumta’lim maktablari o‘quvchilari soni (1-9 sinf), ming	4053,0	5645,8	4822,2	4676,1
Umumta’lim maktablarida 1 nafar o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan o‘quvchilar soni, kishi	13,0	13,0	11,0	11,0
7(6) yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarning maktab ta’limi bilan qamrab olingani, maktabda o‘qishi lozim bo‘lgan bolalarga nisbatan foizda	92,1	97,4	99,3	99,3
Shu jumladan,				
O‘g‘il bolalar	92,4	98,1	99,3	99,3
Qizlar	91,8	96,6	99,3	99,3

Darsliklar bilan ta'minlanish darajasi, foizda	55,4	76	99,5	100
Nashr etilgan darsliklar soni, ming nusxa	666,7	2955,7	22699,1	33652,9
Kompyuter o'quv xonalari bilan ta'minlanish, maktablar sonidan foiz nisbatida	2,4	10,4	46,4	68,2
Zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanganlik, maktablar soniga nisbatan* foizda	16,4	21,5	69,3	71,5
Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari soni	371	483	563	575

*) o'rtacha hisobda fizika, kimyo va biologiya fani laboratoriyalari

Manba: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ma'lumotlari asosida

Yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida 12 yillik majburiy ta'limga, jumladan, 9 yillik maktab ta'limi va undan keyingi 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga bosqichma-bosqich o'tildi. Ta'limning barcha bosqichlarida o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqildi va zamonaviy xalqaro talablarga mos holga keltirildi. Zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash, o'quvchilar uchun ulardan keng foydalanish imkoniyatlarini yaratish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. O'qituvchilar tarkibini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ularning yuksak malaka talab etadigan mehnatini rag'batlantirish tizimi yaratildi.

2004-2010 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi amalga oshirildi. Bu davr mobaynida 7800 tadan ziyod umumta'lim maktabi yangitdan qurildi, ta'mirlandi va rekonstruksiya qilindi, ularning umumiy soni esa 9860 taga yetdi. 8 mingdan ortiq ta'lim muassasasi kapital ta'mirlandi, gaz va suv bilan ta'minlandi, markazlashtirilgan kanalizatsiya tarmoqlariga ulandi.

O'rta maxsus o'quv yurtlari ichida texnikum alohida ahamiyatga ega. Kollej xarajatlari ichida ish haqi, stipendiya xarajatlari asosiy o'rinlarda turadi. Ish haqi bir soatga nisbatan belgilangan bo'lib, soatlar hajmiga asosan hisoblanadi. Qo'shimcha dars o'tish, kuratorlik, daftar tekshirish — qo'shimcha ish haqlardir. Stipendiya hajmini hisoblashda talabalarning o'rtacha yillik soni, stipendiyalarning bir oylik miqdoriga e'tibor beriladi.

Mustaqillik sharofati bilan O‘zbekiston xalq ta’limi tizimida va mutahassis kadrlar tayyorlashda sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Yuqori ma’lumotli, madaniyatli hamda professional jihatdan yetuk shaxsgina iqtisodiy erkin bo‘lishi, demokratik va tub iqtisodiy o‘zgarishlarning ishonchli tayanchi bo‘lishi mumkin. Ushbu haqiqatni tushunish xalqning ma’naviy va madaniy hayotini yaxshilash, ta’lim-tarbiyaning butun tizimini yaxshilash jarayonining zamirida yotishi darkor. Shu sababli ham mamlakatimizda xalq ta’limini isloh qilishga va kerakli mablag‘lar bilan ta’minlab turishga katta e’tibor berilmoqda.

Milliy qadriyatlari toptalgan xalqimizning milliy tiklanish yo‘li yuqori savodxonlik, yuksak madaniyat orqali o‘tadi. Shuning uchun ham ma’lumot darajasi, professional tayyorgarlik darajasi XXI asr arafasida bizning ijtimoiy rivojlanishimizning o‘lchovi bo‘lmog‘i kerak. Bunday yo‘l tutilsa sarflangan mablag‘lar vaqti kelib eng ko‘p foyda beradi. Ya’ni, jahon tajribasidan ma’lumki, ta’lim sohasiga bir so‘m sarflansa u uch barobar bo‘lib qaytib keladi. Lekin, buning uchun ma’lum bir davr kerak. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy firmalar va ishbilarmonlar bu sohaga pul sarflashmaydi. Bunday sharoitda xalq ta’limi tizimini moliyalashtirish davlatning markaziy pul fondi bo‘lgan davlat budjeti zimmasiga tushadi. Budjetdan mablag‘ ajratilishi xalq ta’limini umumdavlat ahamiyatiga egaligidadir.

Ma’lumki, xalq ta’limi tizimi juda katta bo‘lib, u umumta’lim maktablari, bog‘cha, maktab-internat, bolalar uylari, maxsus maktab-internatlar, musiqa va sport maktablari, o‘quvchi uylari, yosh texniklar, tabiatshunoslar stansiyalari, o‘yin-avtomat xonalarini o‘z ichiga oladi. Xalq ta’limi tizimida umumta’lim maktablari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yoshlar o‘z bilimlarining poydevorini umumta’lim maktablarida olishadi. Yoshlarning umumta’lim maktablarida bilim olishlari uchun asos O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi bo‘lib hisoblanadi. Ya’ni, har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

Respublikamizda umumiy ta’lim 12 yillik bo‘lib, shundan 1—9 sinflarda o‘qish majburiy, keyingi 3 yil o‘qish esa ixtiyoriydir. Umumiy o‘rta ta’lim bosqichlari quyidagicha:

— boshlang‘ich ta’lim (1—4-sinflar);
— umumiy o‘rta ta’lim (1—9-sinflar).

Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning 1-sinfiga 6—7 yoshdan qabul qilinadi.

Umumiy o‘rta ta’lim bilimlarning zarur hajmini beradi, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo‘naltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati iste’dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilmoqda. O‘rta ta’lim doirasidagi aniq fanlarning chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitilishi ularning o‘ziga xos farqlovchi jihatdir. Ayrim fanlarning chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitilishi ta’lim berishning dastlabki yillaridanoq yo‘nalishga qarab u yoki bu kasbga, masalan, EHM lar uchun operatorlikka o‘rgatish imkonini beradi. Bunday maxsus maktablarni tugatgandan so‘ng Oliy o‘quv yurtiga kirish uchun bo‘lajak kasb va unga oid ba’zi boshlang‘ich bilimlar haqida aniq-ravshan tasavvurlarga ega bo‘linadi.

Bunday maxsus o‘quv muassasalaridan O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan joriy qilina boshlangan litsey va gimnaziyalar xalq ta’limi tazimini isloh qilishdagi muhim qadam bo‘ldi. 1991-yilda O‘zbekistonda 11 ta litsey va 10 ta gimnaziya ishlagan bo‘lsa, keyingi yiliyoq ularning soni mos ravishda 31 va 24 taga yetdi.

1996-yilga kelib esa Respublikamizda 190 ta litsey va 107 ta gimnaziya faoliyat ko‘rsatdi. Birgina 2008-yilda ijtimoiy soha obyektlarini qurish va foydalanishga topshirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilishi natijasida 113 ming 200 o‘quvchiga mo‘ljallangan 169 ta kasb-hunar kolleji va 14 ming 700 o‘rinli 23 ta akademik litseylar qurildi va rekonstruksiya qilindi.

O‘zbekistonda 8400 ta umumta’lim maktablari bo‘lib, ularda 4 mln 743,7 ming o‘quvchi, 370,7 ming o‘qituvchi xizmat qilmoqda. Bu ko‘rsatkichlar yildan yilga oshib bormoqda. Shu asosda ta’lim sohasiga budjetdan mablag‘ ajratish oshib bormoqda. Xalq ta’limi umumxarajatlarining 95 foizi budjetdan moliyalashtiriladi, lekin shunday bo‘lishiga qaramasdan umumta’lim maktablaridagi moddiy texnik baza zamon talablariga javob bermaydi. Maktablarning asosiy o‘quv binosi ta’mirtalab bo‘lib qolgan. O‘quv vositalari eskirib bo‘lgan, EHM lar zamon talablariga javob bermaydi. Mamlakat jami ijtimoiy mahsulotining 5—6 foizigina shu sohaga sarflanyapti. Xorijda esa bu raqam 18—20 foizni tashkil etadi.

3-jadval

O‘ZR MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI BUDJETDAN TASHQARI MAKTAB TA’LIMI FONDINING 2009-YILGI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

T/r	Ko‘rsatkichlar	Mln so‘m	Foiz hisobida
	Jami daromadlar	577335,1	100
I.	2009-yil boshida kutilayotgan qoldiq	1835,1	0,3
II.	Daromadlar	575500,0	99,7
1.	Maktab ta’limini rivojlantirishga majburiy ajratma	500 000,0	86,9
2.	QQR Vazirlar mahkamasi va mahalliy hokim-lik mablag‘lari	20 500,0	3,6
	QQR viloyatlar, Toshkent shahri mahalliy budjeti		
2.1.	Soliqlar va majburiy to‘lovlarning ortiqcha tushumlar mablag‘larini jalb qilish	15900	77,5
2.2.	QQR, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlari bo‘sh qoldiqlari	1 800,0	8,8
2.3.	QQR Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, Toshkent shahri davlat mulkini xususiylashtirish mablag‘laridan ajratmalar	1800,0	8,8
2.4.	QQR, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetining zaxira fondi	1000,0	4,9
3.	Davlat budjeti dotatsiyasi	55 000,0	9,5
	Jami xarajatlar	577335,1	100
1.	Qurilish va ta’mirlash ishlari		
	Shu jumladan:	437259,0	76,0
1.1.	Yangi maktablar qurilishi	41159,0	9,4
1.2.	Kapital rekonstruksiya	250865,0	57,4
1.3.	Kapital ta’mirlash	124617,0	28,5
1.4.	Joriy ta’mirlash	20618,0	4,7
2.	Maktablar moddiy-texnik bazasini mustah-kamlashga	140 000,0	24,0
3.	2009-yil oxiriga mablag‘ qoldig‘i	76,1	0,01

Izoh: Maktab ta’limi fondi daromad va xarajatlariga yil mobaynida tarkibiy o‘zgartirishlar kiritadi[1].

[1] 2008-y 29-dekabr. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi 1024-sonli PQ.

Davlat budjetidan ta'lim sohasiga ko'proq mablag' ajratish uchun budjet daromadlari ko'p bo'lishi kerak. Daromadlarning asosiy qismini esa soliqlar tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, soliqlar oshirilsagina daromadlar oshadi (mavjud vaziyatda). Soliqlarning oshishi esa umumxalq xo'jaligining rivojlanish sur'atlarini sekinlashtiradi. Bu esa mamlakatning keyingi rivojlanishi uchun salbiy ta'sir qiladi. Mamlakat aholisi kambag'al bo'lsa va ishlab chiqarish tarmog'i qoloq bo'lsa, o'z navbatida budjet ham kambag'al bo'ladi. Shu sababli hozirgi mavjud sharoitda noishlabchiqarish tarmoqlariga kam xarajat qilinmoqda. Ko'p mablag' sarflashning iloji ham yo'q. Umumta'lim maktablaridagi ortiqcha shtatlar qisqartirildi. Misol uchun, farroshlar shtati tugatilib endilikda o'quvchilarning o'zi xonalarni tozalashmoqda.

Biroq, shunday sharoitda ham mamlakatimizda umumta'limga katta e'tibor berilmoqda. Bu hukumatning mazkur tizim xodimlarini ijtimoyi muhofaza qilish dasturini og'ishmay amalga oshiriyotganida aniq ravshan ko'zga tashlanadi. Binobarin, birgina 1993-yilda xalq ta'limi xodimlari ish haqini oshirish to'g'risida 6 ta farmon qabul qilindi. Pedagogning har oylik ish haqi uning darajasini hisobga olgan holda tabaqalashtirildi.

Umuman olganda esa davlat budjetidan umumta'lim tarmog'ini moliyalashtirish smeta rejasi asosida olib boriladi.

Smeta — moliyaviy rejaning bir turi bo'lib, moliyalashtirish uchun asosiy hujjatdir. Smeta asosida moliyalashtirish:

— birinchidan, tadbirlarni to'la hajmda moliyalashtirish imkonini beradi;

— ikkinchidan, moliyalashtirish muddatlariga rioya etishga majbur qiladi;

— uchinchidan, iqtisodiy tejamkorlikka rioya etishga majbur qiladi.

Umumta'lim xarajatlarini smeta asosida moliyalashtirish bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda avval rejaga amal qilinadi. Rejaga amal qilish uchun esa yuqori tashkilot tomonidan tasdiqlangan smeta hujjat bo'lishi kerak. Shundan so'ng budjet mablag'lari o'tgan muddat ichida rejaning bajarilishiga qarab beriladi. Agar o'tgan muddat ichida mablag'lar ortib qolgan bo'lsa, bu yilga mablag'lar kamroq beriladi. Agar smeta asosida berilgan mablag' xarajatlar uchun yetarli bo'lmasa, uni ko'paytirishga harakat qilinadi.

Smeta asosida rejalashtirishning xususiyatlaridan yana kam chiqim qilib ko'p samara olishga erishish, aniq qo'yilgan maqsadlar

uchun mablag‘ ajratiladi hamda iqtisodiy tejamkorlikka rioya qilinadi.

Xarajatlarni smeta asosida rejalashtirish umumta’lim maktablaridan, litsey va gimnaziyalardan boshlanadi. Tashkilot rahbari o‘z shart-sharoitlarini, yangi yil rejalari va maqsadlari asosida hamda o‘tgan yilgi bajarilgan hisobotlarni chamalab yangi yil uchun xarajatlar smetasini tuzadi. Tuzilgan smeta moliya organlari tomonidan tekshirib qabul qilinadi va moliya organining boshlig‘i muhr va qo‘l qo‘yib tasdiqlaydi. Tasdiqlangan smeta umumta’lim sohalarining budjetdan mablag‘ olish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Smeta 3 qismdan iborat bo‘ladi:

1) xarajatlarning yig‘ma smetasi;
2) tashkilotning asosiy ko‘rsatkichlari;
3) har bir xarajat moddasining hisob-kitobi.

Respublikamiz ta’lim tizimini isloh qilishda «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi asos bo‘ldi (1997-yil 29-avgust). Jumladan, bu qonunning 31-moddasida shunday deyilgan: «Davlat ta’lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy budjetlar mablag‘lari, shuningdek, tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi».

Bu qonunga binoan ta’limni rivojlantirish uchun chet el va o‘z mamlakatimizning yuridik va jismoniy shaxslarining badallari hisobiga ta’limni rivojlantirish fondlari tuzilishi mumkin.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ayniqsa ta’lim sohasiga jiddiy e’tibor berilmoqda. Buning sababi esa, aniq, ya’ni iqtisodiy jihatdan ilg‘or davlat bo‘lish uchun yetuk bilimli, intiluvchan yosh kadrlarga ega bo‘lish darkor. Prezidentimiz I. Karimov aytganidek: «Kadrlar masalasini hal etmas ekanmiz, sa’y-harakatlarimiz kutilgan natijalarni berishi, hayotimiz, ma’naviyatimiz o‘zgarishi qiyin kechadi. Demak, zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishlarini yo‘lga qo‘yish faoliyatimizning bosh yo‘nalishi bo‘lmog‘i darkor. Chunki, bizning xalqimiz iste’dod va iqdidor jihatdan hech kimdan kam emas. Unga ma’rifatning ravon yo‘llari ochib berilsa, jahonda o‘ziga yarasha obro‘li o‘rinni egallay oladi». 10-jadvalda biz, tuman obodonlashtirish bo‘limlari namunaviy xarajatlar smetasini ilova qilamiz.

Kadrlar tayyorlash xarajatlarini moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Mavjud ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni

zamon talablari darajasiga ko‘tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Hozirgi paytda maktabgacha tarbiya muassasalarining soni 6899 ta bo‘lib, ularga 631 ming nafar bola qatnaydi. Bu respublikadagi bolalarning 19,9 foizini tashkil etmoqda. Keyingi 5 yilda maktabgacha tarbiya muassasalariga jalb etilgan bolalarning soni 3 foizgacha oshdi.

Maktabgacha tarbiya muassasalariga qatnamaydigan bolalarni maktabga tayyorlash uchun mahallalarda jamoatchilik markazlari, maktablar qoshida tayyorlov guruhlari, savodxonlik markazlari, maktab-bog‘cha majmualari va boshqa turdagi 21399 ta noan’anaviy ta’lim muassasalari tashkil etildi.

Maktablarning 1-sinf o‘quvchilari, mehribonlik uylari va maxsus maktablar o‘quvchilari darsliklar bilan bepul ta’minlanmoqda, kam ta’minlangan oilalarning II—XI sinf o‘quvchilari uchun maktablardagi kutubxona jamg‘armasini o‘quv adabiyotlari bilan to‘ldirish maqsadida 2009-yilda budjetdan 8,7 mlrd so‘m mablag‘ ajratildi.

Ota-onalarga qulaylik yaratish maqsadida o‘quvchilarni darsliklar bilan ta’minlashning ijara tizimi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Iqtisodiy tasniflash bo‘yicha ta’lim xarajatlari ikkita asosiy guruhga bo‘linadi: bular joriy va kapital xarajatlardir. Kapital xarajatlar investitsion dasturni amalga oshirish bilan bog‘liq. 1999—200-yillarda yangi kollejlar va litseylarni qurish munosabati bilan kapital xarajatlar salmog‘i avvalgi yillarga nisbatan ortib ketdi. Ammo, budjet mablag‘larining chegaralanganligi tufayli «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bo‘yicha kollej va litseylarni qurish bo‘yicha dastur 2005-yildan 2010-yilgacha uzaytirildi. 2001-yilning o‘zida bunday muassasalarni qurish ancha qisqartilishi natijasida umumiy xarajatlardagi kapital xarajatlar salmog‘i sezilarli darajada qisqardi. Agar 1999-yilda kapital xarajatlar salmog‘i 24,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2005-yilda kapital xarajatlar 14,1 foizga qisqardi. Joriy xarajatlar salmog‘i esa 1999-yidagi 75,9 foizdan 2005-yilda 85,9 foizgacha oshdi.

Respublikamizda «ta’lim — butun umr davomida» tamoyili o‘rniga, «uzluksiz ta’lim tizimi» tamoyili asosida bu sohaga investitsiyalarni jalb etish amalga oshirilmoqda. BMT, YuNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar O‘zbekistonda ta’lim tizimi islohotlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlamoqda. «Kadrlar tayyorlash Milliy

dasturi»ni moliyalashtirish manbayi sifatida grantlar va imtiyozli kreditlar jalb qilindi.

Koreya Respublikasi 30 mln AQSH dollari, Yaponiya 58,8 mln AQSH dollari miqdorida mablag‘ ajratdi, Germaniya 15,0 mln nemis markasi miqdorida imtiyozli kredit ajratdi, Osiyo tarraqqiyot banki 57,0 mln AQSH dollari miqdorida, Yevropa Ittifoqi TASIS granti 1 mln yevro hajmida mablag‘ ajratdi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat investitsiya dasturi ma’lumotlariga qaraganda, ta’limga bo‘lgan xarajatlarning ortishi kuzatildi. Masalan, 1999-yilda davlat investitsion dasturining 11,5 foizi ta’lim ulushiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2000-yilda bu ko‘rsatkich 15,8 foizga ko‘tarildi va 2005-yil Davlat investitsiya dasturiga asosan, bu ko‘rsatkich 14—16% ga yetkazildi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasiga qo‘yilgan investitsiyalarning faqat nisbiy ko‘rsatkichlari emas, uning absolut ko‘rsatkichlari ham yuqori darajada ijobiy ravishda o‘zgardi. Agar 1995-yilda ta’lim sohasiga qo‘yilgan investitsiya hajmi 1,6 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 1999-yilda 159,2 mlrd so‘mni, 2000-yilda 358,8 mlrd so‘mni, 2001-yilda 500,0 mlrd so‘mni, 2005-yilda 658,0 mlrd so‘mni tashkil etdi. Davlat konservatoriyasi qayta qurildi, yangi universitetlar, kollejlar, akademik litseylar, o‘quv akademiyalari qurib ekspluatatsiyaga topshirildi. Bu holat davlatimizning ta’limni rivojlantirishga bo‘lgan e’tiborini ko‘rsatish bilan birga, uning o‘quv yurtlarini investitsiya tomonidan quvvatlaganligini bildiradi.

Shunday qilib, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishda, O‘zbekiston investitsiyalarni moliyalashtirishning samarali usullari, mexanizmlari va vositalarini izlashda davom etmoqda. Investitsiyalarning qayerga yo‘naltirilganligi, qanday jarayonlarga biriktirilganini va ularning maqsadlari qanday ekanligini bilgan holdagina ularning mohiyatini anglash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, davlatning investitsiya siyosati investitsion muhitni tashkil etish, investitsiya faoliyatini amalg oshirish, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalar kirib kelshini kuchaytirish va shu yo‘l bilan mamlakatning iqtisodiy ravnaqini ta’minlashga qaratilgan. Shu maqsad yo‘lida O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishning o‘ziga xos tizimi ishab chiqilan bo‘lib, bu tizim bugungi kunda samarali ishlamoqda.

Amerika Qo‘shma Shtatlari Davlat departamentining Xalqaro ilmiy tadqiqotlar va olimlarning malakasini oshirish Kengashi (IREX) tomonidan «O‘zbekiston maktablariga — internet» loyihasi

bo‘yicha 247 ta maktab konkursda ishtirok etdi. Ulardan 31 tasi o‘tgan yilning dekabr oyida Internet tarmog‘iga ulandi. 24 ta maktab esa 2004-yil iyul oyida ulanishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 19-fevralidagi «Ta’lim sektorini rivojlantirish dasturi loyihasini Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 92-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida 2003-yilda maktablarda 4,78 mlrd so‘mlik kapital ta’mirlash ishlari bajarildi.

Shuningdek, ko‘plab xorijlik ishbilarmonlar, elchixonalar ta’lim muassasalariga beg‘araz yordam bermoqda. Ayniqsa, Yaponiya elchixonasining tashabbusi bilan 90 dan ortiq kichik loyihalar asosida maktablarga grantlar ajratildi.

Ta’lim muassasalariga homiylik qilish, o‘z mablag‘lari hisobiga yangi maktablar hamda sport sog‘lomlashtirish majmuasi qurish an’anaga aylandi.

Umumta’lim sohasining asosiy ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

Umumta’lim maktablarida:

a) sinflarning bir yillik o‘rtacha soni;

b) o‘quvchilarning bir yillik o‘rtacha soni;

$$S_{o'} = S_b \cdot 8 + S_o \cdot 4 : 12.$$

Bu yerda:

$S_{o'}$ — sinf va o‘quvchilarning o‘rtacha yillik soni;

S_b — yil boshidagi o‘quvchilar soni;

S_o — yil oxiridagi o‘quvchilar soni;

8 (1-yanvardan 1-sentabrgacha);

4 (1-sentabrdan 31-dekabrgacha).

Internat shaklidagi uylar (bolalar uylari, maktab-internatlar, maxsus maktab internatlar)da ham asosiy ko‘rsatkichlar umumta’lim maktablaridagidek bo‘ladi.

Umumta’lim maktablarida va maktab internatlarda sinf to‘liqligi quyidagicha bo‘ladi:

I—IV sinflarda 30 tadan o‘quvchi;

V—IX sinflarda 25 tadan o‘quvchi;

X—XI sinflarda 30 tadan o‘quvchi belgilangan.

Maxsus maktab-internatlarda sinf to‘liqligi 5, 7, 9 tadan bola bo‘lishi mumkin.

Umumta'lim maktab xarajatlar smetasi moddalarini hisoblash

«Biz ta'limdan hech narsani ayamaymiz. Maktablar qurish, ta'mirlash, umuman maktablar faoliyati bilan shug'ullanish 3–4 yillik ish emas, balki doimiy, uzluksiz jarayondir».

I. A. Karimov.
«Xalq so'zi», 2009-yil 30.IX.

Umumta'lim maktablari yangi o'quv yili arafasida o'zlarining xarajatlar smetasini hisoblab, uni yuqori tashkilotga taqdim qilishadi. U yerda bu smeta ko'rib chiqilib, to'g'ri deb hisoblansa tasdiqlanadi yoki ayrim o'zgartirishlar kiritib tasdiqlanadi. Shundan so'ng shu smeta bo'yicha umumta'lim maktabiga mablag'lar ajratila boshlanadi. Smetada ko'rsatilgan mablag'lar birdan berilmaydi, balki 4 ta chorakka bo'linib, bo'nak asosida beriladi. Budjet jarayonining barcha bosqichlarida budjet intizomiga rioya qilinishi, budjet mablag'larining belgilangan maqsadlarga, tasdiqlangan budjetlar va smetalar doirasida sarflanishi ustidan doimiy nazorat va monitoringini qonunda belgilangan tartibda mazmunli va sifatli olib borish mahalliy hukumat organlarining asosiy vazifasi bo'lishi kerak.

2004—2009-yillar davomida buzilgan maktablar o'rniga 325 ta yangi maktab quriladi, 2313 ta maktab mukammal rekonstruksiya, 3769 ta maktab mukammal va 2069 ta maktablar joriy ta'mirlanadi. 2005-yili 55 ta va 2006 yili 61 ta yangi maktab qurildi va boshqa tadbirlar amalga oshirilmoqda. Milliy dasturni amalga oshirish boshlangandan buyon 1 ming 140 taga yaqin akademik litsey va kasb-hunar kolleji, 4 ming 680 dan ziyod umumta'lim maktabi yangidan qurildi va kapital ta'mirlandi. Mebellar, kompyuterlar, o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlash ham jadal olib borilmoqda.

O'qituvchilarni tayyorlash, malakasini oshirish, moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish alohida muammodir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 25-noyabrdagi «Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lsh tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 227-sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrdagi 275-sonli qarorlari muhim o'rinni egallaydi.

Qarorlar asosida har bir o'qituvchi 1548 soat yillik yuklamani bajarishi kerak. Ushbu yuklama 830 soat o'quv yuklamasi bilan

bir qatorda tarbiyaviy va tashkiliy ishlar bilan bog‘liq yuklamani ham o‘z ichiga oladi.

Xalq ta‘limi pedagog xodimlarining bazaviy ta’rif stavkalari:

— xodimning lavozimiga;

— xodimning malaka toifasiga;

— xalq ta‘limi muassasasining turiga bog‘liq ravishda tabaqalashtiriladi.

Direktor fondidan ustama va qo‘shimcha haqlar beriladi:

— ustama tarbiyaviy ishlar va sinfdan tashqari ishlar uchun bazaviy ta’rif setkasining 15% gacha;

— kasb mahorati, aniq qo‘shgan hissasi uchun 25% gacha;

— qo‘shimcha haq: daftar va yozma ishlarni tekshirishdan, eng kam ish haqining 50%i;

— sinf rahbarligi uchun 100%.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyaviy resurslar, fondlar, moliyalashtirish manbalari va uslublariga bog‘liq.

Budjet tashkilotlarini moliyalashtirishni takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 3-sentabr, 1999-yili «Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 414-sonli qaror qabul qildi. Qarorda belgilanishicha yangi tartib quyidagilarni amalga oshirishga yordam beradi:

— mablag‘larni maqsadli, samarali sarflash, budjet tashkiloti boshliqlari huquqini kengaytirish va javobgarligini oshirish;

— budjetdan mablag‘ olish mexanizmini oddiylashtirish va budjet mablag‘larini oqilona taqsimlashga sharoit yaratish;

— xodimlar mehnatini rag‘batlantirish samaradorligini oshirib, kadrlarni to‘g‘ri joylashga yordam berish.

Budjet tashkilotlari, shu jumladan, oliy o‘quv yurtlari moddalar bo‘yicha moliyalashtirishga qiziqmas edi. Chunki ularning mustaqilligi chegaralangan edi.

Qarorda budjet tashkilotlarini meyorlar asosida quyidagi guruh xarajatlari bilan bir qatorda moliyalashtirish uslubiga o‘tkazildi:

I. Ish haqiga qo‘shimchalar (ajratmalar).

II. Yagona ijtimoiy to‘lov.

III. Kapital qo‘yilmalar.

IV. Boshqa xarajatlar.

Yuridik maqomga ega bo‘lgan tashkilotlar budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish huquqini oldi.

Ushbu jamg‘arma quyidagi manbalar hisobiga tashkil topadi:

— rejaga muvofiq budjetdan mablag‘ bilan ta’minlash hisobiga tushgan va kvartalning oxirgi ish kunida ularning hisob raqamlarida qolgan, tejalgan mablag‘lar;

— faoliyat turlariga qarab, ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar;

— imorat va boshqa mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag‘lar.

Jamg‘arma mablag‘lari avvalo kreditorlik qarzlarini to‘lashga, o‘zining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, ijtimoiy rivojlantirish va xodimlarni moddiy rag‘batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21-may 2004-yilgi PF-3131-sonli «Maktab ta‘limini rivojlantirish jamg‘armasi» sobiq respublikalar orasida birinchi marta O‘zbekistonda tashkil qilindi. Jamg‘armani tashkil qilish uchun xo‘jalik subyektlari 1,0% tushumlaridan ajratadilar. Jamg‘arma mablag‘i maqsadli bo‘lib, yangi qurilish, kapital rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta‘mirlash, maktablarni o‘quv va laboratoriya uskunalari , kompyuter texnikasi, darsliklar bilan ta’minlash va maktablarning sport bazasini mustahkamlash uchun sarflanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 26-fevralgi «Xalq ta‘limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to‘g‘risida» gi PF—3857 sonli Farmoni e’lon qilindi.

Xalq ta‘lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, moliyaviy-iqtisodiy masalalarni hal etishda ta‘lim muassasalari mustaqilligini kengaytirish, mas’uliyatini oshirish, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirish va uslubiy rahbarlik qilishni kuchaytirish maqsadida joriy etildi.

Xalq ta‘limi muassasalarini moliyaviy jihatdan ta’minlash, ularning sarf-xarajatlarini hisobga olish va nazorat qilish funksiyalari Respublika Xalq ta‘limi vazirligining pastki boshqaruv organlari tegishli hududiy moliya organlariga topshirildi.

Natijada xalq ta‘limi muassasalarining faoliyatini moliyalashtirish hududiy moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Xalq ta‘limi muassasalari bilan birgalikda xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini ishlab chiqish, ularni moliyalashtirish, shuningdek, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni hisoblash belgilandi.

RESPUBLIKADAGI MAVJUD TAYANCH O‘RTA MAKTABLAR VA UNDAGI O‘QUVCHILAR SONI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

1-diagramma



Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2006-yilda maktablar soni 9796 ta ni, o‘quvchilar soni 5707 ta ni tashkil etgan. O‘rtacha bitta maktabga 580—650 ta o‘quvchi to‘g‘ri kelmoqda. O‘tgan yillarga nisbatan o‘quvchilar va maktablar sonining kamayishi yangi akademik litseylarning ishga tushishi bilan bog‘liq.

Bugungi kunda respublikada 6 mingga yaqin maktablar, oliy o‘quv yurtlari qoshida ixtisoslashgan 60 ta dan ortiq akademik litseylar va 950 ta dan ortiq kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritmoqda.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi istiqbollari

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni bajarish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan vazifalarni — yangi turdagi 3 yillik ta’lim muassasalarini tashkil qilish, ta’lim tizimini tubdan yangilash, davlat ta’lim standartlarini yaratish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining moddiy texnika bazasini yaratish hamda xalqaro aloqalarni rivojlantirish borasida o‘tgan davrda qator tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, 1998—2003-yillar mobaynida respublikada 35445 o‘quvchi o‘rniga mo‘ljallangan 526 ta kasb-hunar kollejlari qurildi va

rekonstruksiya qilish yo‘li bilan foydalanishga qabul qilindi. Shu jumladan, 77,1 ming o‘quvchi o‘rniga mo‘ljallangan 117 ta obyekt yangi qurilish hisobiga foydalanishga topshirildi. Bu ishlarga respublika budjetidan 506,8 mlrd so‘m kapital mablag‘ sarflandi.

Yaponiya hukumati krediti hisobiga jihozlanadigan qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi 50 ta kasb-hunar kollejlarining o‘quv binolari va ustaxonalaridagi kamchiliklarni to‘liq bartaraf etish hamda o‘quv xo‘jaliklaridagi mini ferma va mini sexlar loyihalarini tayyorlash hamda ularning qurilishini amalga oshirish uchun 2003-yil qurilishlar ro‘yxatida 6,25 mlrd so‘m kapital mablag‘larni o‘zlashtirilishi rejalashtirilgan edi. Ularning loyiha-smeta hujjatlari «O‘zqishloqloyiha» instituti tomonidan ishlab chiqilib, qurilish ishlari olib borildi. Bu obyektlarda 4,58 mlrd so‘mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, kapital mablag‘ o‘zlashtirilishi yillik limitga nisbatan 68%ni tashkil etdi.

2003-yil yakunlariga ko‘ra 4825 o‘quvchi o‘rniga mo‘ljallangan 6 ta akademik litsey va 81310 o‘quvchi o‘rniga mo‘ljallangan 123 ta kasb-hunar kolleji foydalanishga topshirildi. 2002-yilning shu davrida 124 ta obyekt, ya’ni 7 ta akademik litsey va 117 ta kasb-hunar kollejlari foydalanishga topshirildi.

1998—2003-yillar mobaynida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 26,4 mlrd so‘mlik mebellar, o‘quv-laboratoriya va texnik jihozlar bilan ta’minlandi. Hozirgi kunda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining qurilish-smeta narxiga kiradigan o‘quv jihozlari (mebel) bilan ta’minlanishi 90 foiz, qurilish smeta narxiga kirmaydigan o‘quv-laboratoriya jihozlari, texnikalar bilan ta’minlanishi 40 foizni tashkil etmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 29-oktabrdagi «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga izchil o‘tishni ta’minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 473-sonli qarorida barcha imkoniyat va ehtiyojlar to‘la tahlil etilib, 2009-yilga borib o‘rta maxsus, kasb-hunar kollejlarida 658,4 ming o‘quvchi (533 tasi yangi qurilish va rekonstruksiya hisobidan tashkil etilgan), 54 ta litseyda 27,5 ming o‘quvchi hamda 24 ta litsey-internatda 6,6 ming o‘quvchi ta’lim oladi. 2003—2004-o‘quv yili uchun akademik litseylarga 10145 nafar, kasb-hunar kollejlariga 211847 nafar o‘quvchi qabul qilinishi rejalashtirilgani holda, akademik litseylarga 10145 nafar (100%), kasb-hunar kollejlariga 212175 (101%) o‘quvchi qabul qilinib, umumta’lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini qamrab olish 37,1 foizni tashkil etdi.

Respublikada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi bilan to‘liq qamrab olishga o‘tishning 2004—2009-yillarga mo‘ljallangan dasturi Xalq ta’limi vazirligi bilan hamkorlikda ishlab chiqildi.

Biz 2004-yilda jami 593354 ta 9-sinf bitiruvchilardan 303496 tasini, ya’ni 51,1 foizini, 2006-yilda 63 foizini, 2008-yilda 80 foizini qamrab olib, 2009-yilda 100 foizli ko‘rsatkichga erishishimiz lozim.

«Bugungi kunda umumta’lim maktablari, akademik litsey va kollejlarga budjet mablag‘larining qariyib 50 foizi sarflanyapti. Tabiiyki, har qanday davlat ham bunday katta xarajatlarni ko‘tarishi qiyin, ammo biz, qanchalik og‘ir bo‘lmasin, buning uchun zarur mablag‘ va resurslarni izlab topyapmiz».[1]

Budjet tashkilotlarida, xususan, ta’lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasida joriy etilgan YaTSdan foydalanilgan holda ish haqi to‘lovlari hisoblanadi. Ta’lim muassasasi xodimiga lavozim maoshi u bajargan lavozim majburiyatiga ko‘ra to‘lanadi. Ta’lim muassasasida mehnatga haq to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha yagona tarif turini takomillashtirish to‘g‘risda»gi Qarori bilan tasdiqlangan. Xodimlar mehnatiga haq to‘lash darajalari attestatsiya natijalariga ko‘ra belgilanadi. Tarif darajasini belgilash uchun xodimlar malakasi asos hisoblanadi. O‘quv ishlari olib borganlik uchun mehnatga soatbay haq to‘lash ta’lim muassasasi bo‘yicha buyruqda belgilangan soatlardagi sarf me’yori va professor-o‘qituvchilar tarkibi mehnatiga haq to‘lash YaTS bo‘yicha tasdiqlangan soatbay haq to‘lash stavkasi asosida belgilanadi (5-jadval).

4-jadval

OYLIK ISH HAQI HISOBLASHNING YAGONA TARIF SETKASI[2]

T/r	Tarif razryadlari	Tarif koeffitsiyenti	Eng kam ish haqi	Razryad bo‘yicha oklad	Direktor jamg‘armasidan ustama 40% gacha	Bir yillik o‘quv soati	Pedagogik soat (800 · 0,925)	Jami yillik yuklama
1	1	2,476	72355	179151		800	740	1540
2	2	2,725	72355	197167		800	740	1540

[1] *I. Karimov.* «Yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo‘lmaydi». «Ishonch», 2005-yil, 18-fevral.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi PQ-1675-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi.

davomi

T/r	Tarif razryadlari	Tarif koeffitsiyenti	Eng kam ish haqi	Razryad bo‘yicha oklad	Direktor jamg‘armasidan ustama 40% gacha	Bir yillik o‘quv soati	Pedagogik soat (800 · 0,925)	Jami yillik yuklama
3	3	2,998	72355	216920		800	740	1540
4	4	3,297	72355	238544		800	740	1540
5	5	3,612	72355	261346		800	740	1540
6	6	3,941	72355	285151		800	740	1540
7	7	4,284	72355	309969		800	740	1540
8	8	4,640	72355	335727		800	740	1540
9	9	4,997	72355	361558		800	740	1540
10	10	5,362	72355	387968		800	740	1540
11	11	5,773	72355	417705		800	740	1540
12	12	6,115	72355	442451		800	740	1540
13	13	6,503	72355	470525		800	740	1540
14	14	6,893	72355	498743		800	740	1540
15	15	7,292	72355	527613		800	740	1540
16	16	7,697	72355	556916		800	740	1540
17	17	8,106	72355	586510		800	740	1540
18	18	8,522	72355	616609		800	740	1540
19	19	8,943	72355	647071		800	740	1540
20	20	9,371	72355	678039		800	740	1540
21	21	9,804	72355	709368		800	740	1540
22	22	10,240	72355	740915		800	740	1540

Berilgan bu me‘yoriy ko‘rsatkichlar pedagogik xodimlarning ish haqini hisoblash uchun asos hisoblanib, yagona tarif setkasi deb ataladi.

Misol:

1) Kamoliddinov R. — informatika o‘qituvchisi, umumiy pedagogik staj 5-yil, 1-toifali, 7-razryad.

Bunda ish haqi quyidagicha hisoblanadi: 4,284×72355=309969 so‘m, asosiy ish haqi, bir soat uchun to‘lanadigan haq 4262 so‘m, shu bilan birga o‘qituvchining pedagogik soati quyidagicha hisoblanadi: 740/10=74 soat bajargan pedagogik soat 74, bajargan o‘quv soat 80. (80+74)·4262=656348 so‘m bir oylik ish haqi hajmiga teng. Pedagogik ish haqi ya‘ni pedagogik soat quyidagi topshiriqlarni bajarishni talab etadi:

— o‘quv ishlari;
— o‘quv-uslubiy, ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar;
— tashkiliy-uslubiy va tashkiliy-pedagogik ishlar;
— ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlar.

Pedagogik soatlar bajarilishini o‘quv muassasasi rahbari tomonidan tayinlangan maxsus komissiya yilda ikki marotaba o‘rganib chiqib, o‘qituvchi faoliyatini ballar orqali baholaydi. Direktor jamg‘armasidan to‘lanadigan ustama haqi xarajatlar smetasining 01.1.30 moddasi bo‘yicha moliyalashtiriladi. Maxsus komissiya xulosasiga ko‘ra ustama 40% gacha belgilanib, uni kamaytirish, ko‘paytirish yoki umuman olib tashlash ham nazarda tutilgan.

Ustama va qo‘shimchalar ish haqi fondi doirasida belgilangan Direktor jamg‘armasi fondi mablag‘lari hisobidan 40 foizgacha miqdorda hisoblanadi. Xodimga ustama va qo‘shimchalar Direktor jamg‘armasi bo‘yicha maxsus komissiyaning qaroriga ko‘ra belgilanadi. Muayyan belgilanadigan ustama va qo‘shimcha xodimni qo‘shimcha ishga jalb qilishni cheklamaydi va bunga faqat uning roziligi bilangina yo‘l qo‘yilishi mumkin (ammo bu asosiy faoliyat bo‘yicha ish hajmining kamayishi yoki sifati yomonlashishiga olib kelmasa).

OLIY O‘QUV YURTLARI TARKIBIDA OCHILGAN AKADEMIK LITSEYLAR, UNDAGI TA’LIM OLAYOTGAN O‘QUVCHILAR TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

2-diagramma



Akademik litseylar oily o‘quv yurtlari qoshida tashkil etilib, muayyan fanlarni chuqur o‘zlashtirishga yo‘naltiriladi. Unda tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlarga ixtisoslashtiriladi. Diagramma ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, o‘tgan yillarga nisbatan akademik litseylar soni 77 tadan 99 taga ya‘ni bir yilda 22 ta ga ko‘paygan. O‘quvchilar soni 30% ga, yoki 37000 tadan 53000 taga ko‘paygan.

RESPUBLIKADA FAOLIYAT YURITAYOTGAN KASB-HUNAR KOLLEJLARI VA UNDA TA‘LIM OLAYOTGAN O‘QUVCHILAR TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

3-diagramma



Kasb-hunar kollejlari soni yildan-yilga oshib bormoqda. Buni diagramma ma’lumotlaridan ko‘rish mumkin. O‘tgan yillarga nisbatan kollejlar soni 878 ta dan 953 ta ga, undagi o‘quvchilar soni 17% ga, yoki 853000 ta dan 1000022 ta ga ko‘paygan. O‘quv muassasalarining ko‘payishi aholi, o‘sib kelayotgan yosh avlodni mukammal bilim olishi, zamonaviy o‘quv muassasalariga qatnashi davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda. Budjet mablag‘larining qariyb 50% ta‘lim-tarbiya sohasiga safarbar qilinmoqda.

5-jadval

O‘RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA’LIMI RIVOJLANISHI KO‘RSATKICHLARI

Ko‘rsatkichlar	1990 yil	2000 yil	2009 yil	2010 yil
O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida tahsil olgan o‘quvchilar soni, ming o‘quvchi	494,7	532,6	1510,8	1623,1
Qizlar ulushi, foiz hisobida	45,0	47,4	49,1	48,5
Umumta’lim maktablari 9-sinf bitiruvchilarini o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bilan qamrab olish ko‘rsatkichlari, foizda	32,2	41,7	96,8	97,1
Shu jumladan:				
o‘g‘il bolalar	33,9	33,9	97,2	97,2
qizlar	28,6	31,0	96,5	97,0
Foydalanishga topshirilgan yotoqxonalar, ulardagi o‘rinlar soni, ming kishi		30,2	92,0	95,0

Manba: O‘zbekiston Respubkasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

O‘rta umumta’lim maktablarida ta’lim davlat tilidan tashqari, yana 7 tilda olib borilmoqda: rus tilida — 806 ta maktabda, qoraqalpoq tilida — 394 ta maktabda, qozoq tilida — 483 ta maktabda, tojik tilida — 238 ta maktabda, qirg‘iz tilida — 61 ta, turkman tilida — 46 ta maktabda va boshqa tillarda.

Mamlakatimizda zamonaviy ta’lim standartlari asosida jihozlangan 1539 ta kasb-hunar kolleji va akademik litsey faoliyat yuritmoqda, hozirgi kunda ularda 1623,1 ming nafar o‘quvchi bilim olmoqda.

1998—2010 yillar davomida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalarining qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish uchun qariyb 2,5 trillion so‘m sarflandi. Barcha kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar zamonaviy ta’lim standartlari talablari asosida jihozlandi.

Oliy ta’lim tizimida bakalavriat va magistraturadan iborat ikki bosqichli xalqaro standartga o‘tish amalga oshirildi.

Mamlakatimizda Xalqaro Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz instituti, G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot Akademiyasi, Turin politexnika universiteti, M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti kabi xalqaro oliy o‘quv yurtlarining filiallari tashkil etilgan va samarali faoliyat yuritmoqda.

6-jadval

OLIY TA'LIMNING RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI

Ko'rsatkichlar	1990-1991 o'quv yili	2000-2001 o'quv yili	2009-2010 o'quv yili
Oliy o'quv yurtlari soni	37	60	66
shu jumladan, xorij oliy uquv yurtlarining filiallari	-	1	6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

4.4. SOG'LIQNI SAQLASH XARAJATLARI

Oilada tibbiy madaniyatni oshirish — barkamol avlodni voyaga yetkazish garovidir

Respublikamizda onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash tizimini isloh etish Davlat Dasturidagi ustuvor yo'nalishlardan biridir. Bu borada Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan qator farmon, qaror va Davlat dasturlari qabul qilingan. Xususan, «Respublika sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish», 1998-yil 10-noyabr; «Ona va bola Skrining markazi», 1998-yil 1-aprel; «Sog'lom avlod», 2000-yil 15-fevral; «Ona va bola», 2001-yil 5-fevral; «Ayollar va o'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lig'ini mustahkamlash borasida qo'shimcha chora-tadbirlar», 2002-yil 25-fevral; «O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida», 2002-yil 24-oktabr.

Sog'liqni saqlash vazirligi Davlat dasturlarini amalga oshirishda manfaatdor vazirliklar, idoralar, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlab, ijobiy natijalarga erishmoqda.

Sog'liqni saqlash xarajatlari quyidagilarni mablag' bilan ta'minlashga sarflanadi:

1. Kasalxonalar.
2. Hududiy tibbiy birlashmalar.
3. Poliklinika va ambulatoriyalar.
4. Qishloq tibbiy punktlari.
5. Feldsherlik-akusherlik punktlari.
6. Tez yordam va kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam stansiyalari.
7. Qon quyish stansiyalari.
8. Sil kasalligi bilan og'rigan bemorlar sanatoriylari.

1-chizma

O'zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etish sxemasi



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2-oktabr 2007-yil 700-sonli qarori

9. Bolalar va o‘smirlar sanatoriylari (sil bo‘lmaganlar).
10. Yosh bolalar uyi.
11. Sanitariya-epidemiologiya stansiyalari.
12. Dezinfeksiya stansiyalari.
13. Epidemiyalarga qarshi kurash chora-tadbirlari.
14. Sog‘liqni saqlash markazlari va sanitariya-oqartuv tadbirlari.
15. Sog‘liqni saqlash bo‘yicha boshqa tadbirlar.
16. Qurilish va kapital ta’mirlash yuzasidan texnik nazoratni saqlash xarajatlari.
17. Markazlashtirilgan hisobxonalarni saqlash uchun xarajatlar.
18. Markazlashtirilgan xo‘jalik xizmati ko‘rsatish guruhlarini saqlash xarajatlari.

Joylardagi viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmalari tomonidan shifoxona sharoitida davolanayotgan anemiya xastaligiga chalingan barcha homilador ayollar tarkibida temir moddasi bo‘lgan preparatlar bilan ta’minlangan. Shuningdek, ushbu maqsadda «Sog‘lom avlod uchun» jamg‘armasi tomonidan 303980,53 AQSH dollari miqdorida temir moddali preparatlar Jizzax, Namangan, Toshkent, Andijon viloyatlari va Toshkent shahridagi tug‘uruqqa yordam berish muassasalariga tarqatilgan.

Respublikaning 12 ta Reproduktiv salomatlik markazlari esa 97 ming yevro miqdorida audiovizual va komputer asbob-uskunalari bilan jihozlandi.

Osiyo Taraqqiyot Banki bilan hamkorlikdagi 1,2 mln AQSH dollari qiymatidagi «O‘tish davridagi Osiyo mamlakatlarida kam ta’minlangan onalar va bolalar uchun ovqatlanishni yaxshilash» grant loyihasi asosida respublikaning 14 ta un va 13 ta tuz ishlab chiqarish korxonalari uchun texnologik uskunalar va boyituvchi aralashmalar sotib olindi.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish muassasalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilashga e’tibor kuchaymoqda.

3,2 mln AQSH dollari miqdorida tibbiy uskunalar bilan jihozlangan Respublika Perinatal markazi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Akusherlik va ginekologiya ITIning Jizzax va Qarshi filiallari, Samarqand, Andijon, Navoiy viloyatlari tug‘uruq komplekslari, Toshkentdagi 2-shahar perinatal markazi, Namangan shahar 1-tug‘uruq kompleksi va ushbu viloyatdagi qator tuman tug‘ruq komplekslari, Xorazm viloyat bolalar shifoxonasi kapital ta’mirlanib ishga tushirildi, shuning‘dek, Xorazm viloyat tug‘uruq kompleksi va AvaGITIning Namangan filialida kapital ta’mirlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Respublika qizlar va o‘smirlar reproduktiv markazi 5 ming AQSH dollari miodorida (YUNFPA) audiovizual va o‘quv metodik qurollari bilan jihozlandi.

Respublika reproduktiv salomatlik markazi 70 ming AQSH dollari (YUNFPA) qiymatida tibbiy uskunalar bilan jihozlanib, o‘quv klinik bo‘limi tashkil etildi.

Sog‘liqni saqlash

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 1998 yilda qabul qilingan Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi mamlakatimizda butun tibbiyot tizimini tubdan qayta qurish, ko‘p sarf-xarajat talab etadigan va hamma vaqt ham samarali bo‘lmagan statsionar tibbiy yordamdan ambulator-poliklinika va profilaktika tibbiyotiga ustuvor ahamiyat berishga o‘tishda muhim omil bo‘ldi. Qishloq joylarida yaxshi samara bermayotgan feldsher-akusherlik punktlari o‘rniga qishloq vrachlik punktlari (QVP) tashkil etildi.

Birgina 2010 yilning o‘zida statsionar tibbiyot muassasalarida qo‘shimcha 1630 ta davolanish o‘rni tashkil etildi.

Respublikada gematologiya xizmatini rivojlantirish va budjetdan moliyalash

Osiyo Taraqqiyot Bankining «Onalar va bolalarga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatni rivojlantirish» loyihasi bo‘yicha 9,1 mln AQSH dollari respublikada qon quyish xizmatini yaxshilash va aholiga ko‘rsatilayotgan gematologiya yordami sifatini oshirish maqsadida lozim bo‘lgan zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar olishga sarflanadi.

Ommaviy axborot vositalari orqali aholi o‘rtasida bepul donorlikni targ‘ib qilish ishlari olib borilmoqda. Xorijiy mamlakatlarda ToshVMOI va gematologiya hamda Qon quyish ITI da 60 ta gematolog, 51 ta transfiziolog va 31 ta laborant hamda 9 ta mutaxassis malakasini oshirdi.

«O‘zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida»gi Prezident Farmoni va Respublika Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 31-oktabrdagi «O‘zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 374 -sonli qarorini amalga oshirish bo‘yicha Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ma’lum ishlar amalga

oshirildi. Yetakchi mutaxassislar tomonidan «Jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish bolalar va o‘smirlar sog‘lig‘i va garmonik rivojlanishining tibbiy asoslari» nomli qo‘llanma ishlab chiqilib, 2000 dan ortiq nusxada chop etildi va tarqatildi. Ushbu qo‘llanma maktab, litsey, kollej o‘quvchilari va mahallalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishni to‘g‘ri tashkil etish uchun yordam beradi.

Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish ijtimoiy hayotda va xalq xo‘jaligida ahamiyati juda katta.

Sog‘liqni saqlash xarajatlari o‘zining iqtisodiy ahamiyatiga qarab uch asosiy guruhga bo‘linadi:

- davolash-profilaktika muassasalari va tadbirlar xarajatlari;
- sanitariya-profilaktika muassasalari va tadbirlar xarajatlari;
- boshqa muassasalar va tadbirlar xarajatlari.

Sog‘liqni saqlash moliyaviy manbalarining asosiy qismi bo‘lgan davolash-profilaktika muassasalariga yangi kasalxona, poliklinika, feldsher-akusherlik bo‘limlari, tez yordam ko‘rsatish stansiyalari, bolalar uyi, sihatgohlar, bolalar yaslisi va boshqa muassasalar kiradi.

Sanitariya-profilaktika muassasalariga sanitariya-profilaktika stansiyalari, dezinfeksion stansiyalar va sanitariya targ‘ibot uylari kiradi. 3-guruh muassasalariga sudmedekspertiza va boshqa muassasalar kiradi.

Sog‘liqni saqlash tashkilotlaridan har birining faoliyati o‘zlariga mos ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi, ya’ni ularning yo‘nalishiga qarab o‘rinlarining o‘rtacha yillik ko‘rsatkichi hamma o‘rinlarning yil davomida ishlashi (o‘rin-kun soni), shtat birligining toifalari (turlari)ning o‘rtacha yillik soni va bemorlarning shifokorlarga qatnash soni.

Xarajatlarni rejalashtirishga bo‘lgan asosiy talab, davolash-profilaktika muassasalarining aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishi bo‘lib, bu ikki ko‘rinishda — kasalxona va ambulatoriya-poliklinikalar orqali amalga oshiriladi. Bunda asosiy ko‘rsatkich kasalxonalarda kasallar o‘rni: ambulatoriya-poliklinikalarda shifokorlarni shtat birligi va kasallarning qatnov sonlari hisoblanadi. Ana shularga asosan xarajatlarni hisoblash tartibi belgilanadi.

Kasalxonalarning xarajatlari bemorlar yotadigan o‘rinlarning o‘rtacha yillik soni asosida quyidagi formula yordamida hisoblab chiqariladi:

$$O'_{yo'} = O'_{yb} - (O'_{yo} - O'_{yb}) \cdot 4 : 12.$$

Bu yerda: $O'_{yo'}$ — o‘rtacha yillik o‘rin;
O'_{yb} — o‘rinlarning yil boshidagi soni;
O'_{yo} — o‘rinlarning yil oxiridagi soni;
4 — yangi o‘rinlar ishlagan oylari.

Oziq-ovqat va dori-darmonlar xarajatlarini hisoblashda o‘rinlarning yil davomida foydalanish kunlari aniqlanadi va shunga asosan kasalxonalarda (bo‘limlarning yo‘nalishlariga qarab) o‘rinlarning ishlatilgan umumiy sonini aniqlash uchun yillik o‘rtacha o‘rinlarni o‘rinlarning yil davomida ishlatish kuniga ko‘paytirilib hisoblanadi.

Ambulatoriya-poliklinika muassasalarida xarajatlarni rejalashtirish asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, ambulatoriya-poliklinikalarga biriktirilgan aholi soniga qarab aniqlangan o‘rtacha yillik shifokorlarning shtat birligi (soni) va shifokorlarga murojaat qilganlarning soni asosida hisoblanadi.

Xarajatlarning yillik umumiy hajmi, mablag‘larning maqsadga muvofiqligi va choraklarga bo‘linganligi rejalashtirilgan asosiy hujjat— bu xarajatlar smetasidir. Bunda har bir budjet muassasasi uchun budjet tasnifi (klassifikatsiyasi)da belgilangan iqtisodiy moddalarga moslashtirilgan maxsus xarajatlar smetasi tuziladi.

Xarajatlar smetasi formulasida asosiy iqtisodiy moddalar: birinchi guruh ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar; ikkinchi guruh xarajatlari ish haqiga qo‘shimcha qo‘yilmalar va uchinchi guruh boshqa xarajatlardir. Uchinchi guruh xarajatlari tasnifida xarajatlarning maqsadlari xo‘jalik, oziq-ovqat va boshqa tovarlar sotib olish, xizmatlarga haq to‘lash, uzoq muddatda ishlatiladigan jihozlar sotib olish va kapital ta’mirlash va hokazo turlari bo‘yicha rejalashtiriladi.

Kommunal xizmatlarga to‘lovlar xarajatlarning asosiylaridan bo‘lib, bunga binoni ijaraga olish, isitish, yoritish, suv ta’minoti va boshqalar kiradi. Bu xarajatlarni rejalashtirish binolarning umumiy holatiga (kubaturasi, isitiladigan maydon va boshqalarga) qarab hisoblanadi.

RESPBLIKADAGI TIBBIY MUASSASALAR TARKIBIDAGI KASALXONALAR VA UNDAGI O‘RINLAR SONI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

(ming o‘rin hisobida)

4-diagramma



Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdaki, kasalxonalar soni o‘tgan yilga nisbatan 8 ta ga kamaygan. Sababi, xususiy tipdagi kasalxonalar yildan yilga ko‘paymoqda.

RESPUBLIKADA AYOLLAR VA BOLALARGA MALAKALI TIBBIY XIZMAT KO‘RSATAYOTGAN TIBBIYOT MUASSASALARI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

5-diagramma



Kasalxonalardagi xarajatlarning eng katta qismini (60 foiz) ish haqi tashkil etadi.

Bu xarajat tibbiy xodimlarning sonini toifalarga — shifokorlar, kichik va o‘rta tibbiy xodimlar hamda boshqaruv va xo‘jalik yurituvchi xodimlarga bo‘lib hisoblanadi.

Ish haqi xarajatlarini hisoblash uchun avvalo quyidagi ko‘rsatkichlarni aniqlash zarur. Har bir guruh xodimlarining shtat jadvalidagi soni va ularning o‘rtacha ish haqi stavkalari aniqlanadi.

Tibbiy xodimlarning vazifalari soni — muassasalarning o‘zlari ishlab chiqqan shtat ro‘yxatiga asosan va ularning o‘rtacha ish haqi stavkalari tarifikatsiya qilingan ro‘yxatga binoan olinadi.

Tibbiy xodimlarning tarifikatsiya ro‘yxati har yili 1-oktabr holatiga muassasalarning buyrug‘i bilan tuzilgan maxsus komissiya tomonidan tuziladi.

Shifokorlarning stavkalari miqdori tashkilotlarning turiga, joylashgan joyiga (qishloq yoki shahar), egallagan vazifasi va mutaxassislik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Kichik tibbiy xodimlarning o‘rtacha ish haqi shtat jadvaliga va egallab turgan vazifasiga qarab qo‘yiladi.

Kasalxonaning shifokor-rahbarlari, ularning muovinlari, bo‘linma rahbarlarining, shuningdek, o‘rta toifadagi tibbiy xodimlarning o‘rtacha ish haqi ushbu muassasa rahbarining mehnat haqini qaysi guruhda to‘lashiga qarab belgilanadi.

7-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi, respublika yo‘l jamg‘armasi hamda ta‘lim va tibbiyot muassasalarining rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar solish OBYEKTLARI

№	To‘lovchilar	Ajratmalar solish obyekti
1.	Vositachilik (topshiriq) shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko‘rsatishga doir boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar	QQS chegirilgan holda, vositachilik haqi summasi
2.	Tayyorlov tashkilotlari	QQS chegirilgan holda tovar aylanmasi hajmi
3.	«O’zdonmahsulot» AK korxonalari (g‘alla qabul qilish korxonalari va g‘alla	QQS chegirilgan holda ustama va chegirma

	qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayta ishlash korxonalari)	
4.	Kredit va sug‘urta tashkilotlari	daromad
5.	Moliyaviy ijara (lizing) xizmatlarini ko‘rsatadigan korxonalar	foizli daromad
6.	Kommunal xo‘jalik tizimining issiqlik, suv ta’minoti korxonalari	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQSni va tegishincha issiqlik ta’minoti korxonalari uchun – issiqlik energiyasi, suv ta’minoti korxonalari uchun – suvning xarid qiymatini chegirgan holda
7.	Qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari	QQSni chegirgan holda o‘z kuchlari bilan bajarilgan ishlari hajmi
8.	Tegishli ravishda elektr energiyasi va tabiiy gazni sotish qismida «O’zbekenergo» DAK va uning korxonalari, «O’zbekneftgaz» MXK korxonalari	mahsulot sotilishi hajmi, elektr energiyasi va tabiiy gaz – pirovard iste’molchiga sotilishi hajmi, QQS va aksiz solig‘ini chegirgan holda
9.	Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQS va aksiz sog‘lig‘ini chegirgan holda

Izoh: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta‘lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlarga qonun hujjatlari bilan oldin berilgan imtiyozlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta‘lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalarga tatbiq etiladi.

4.5. MADANIYAT XARAJATLARI VA BOSHQA XARAJATLAR

Ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni jihatidan madaniyatning funksiyasi kishilarning ma’naviy boyligini oshirish va u orqali iqtisodiy natijalarga ta’sir etishdir.

Madaniyat kompleksi yoki «madaniy» tarmoq xo‘jaligi bu korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning intellektual mehnat yig‘indisi bo‘lib, ular maxsus vazifalarni, ya’ni shaxslarni ma’naviy jihatdan rivojlantirish va ularda ijtimoiy ongni o‘stirish, jamiyatda insonparvarlik siyosatini olib borish va xalqlarning birdamliligini saqlash vazifalarini bajaradi.

Madaniyat xarajatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Kutubxonalar.
2. Muzey va ko‘rgazmalar.
3. Madaniyat saroylari va uylari, klublar va klub tipidagi boshqa muassasalar.
4. Ijod uylari.
5. Boshqa har xil madaniyat-maorif muassasalari va tadbirlari.
6. Vaqtli matbuot va nashriyotlar.
7. Kitoblar palatasi.
8. Teatrlar, filarmoniya, musiqa jamoalarini va ansambllarni hamda san’at bo‘yicha boshqa tadbirlarni moliyalashtirish.
9. Respublika va mahalliy dasturlarda ko‘zda tutilgan madaniyat va san’atni rivojlantirish tadbirlarini moliyalashtirish.
10. Ijodiy uyushmalar.
11. Gaz ishlab chiqarish zavodlari va gaz tarmoqlari.
12. Televideniye va radio eshittirishlari.
13. San’at bo‘yicha boshqa tadbirlar.
14. Ommaviy axborot vositalarining boshqa muassasalari.
15. Agentliklar.
16. Qurilish va kapital ta’mirlash yuzasidan texnik nazoratni saqlash xarajatlari.
17. Ijtimoiy soha tashkilotlarini ko‘chirish ishlarini o‘tkazish xarajatlari.
18. Markazlashtirilgan hisobxonalarni saqlash xarajatlari.
19. Markazlashtirilgan xo‘jalik xizmati ko‘rsatish guruhlarini saqlash xarajatlari.

Mamlakatning madaniy sohasiga oid amaldagi qonunlarda ta’kidlanishicha, davlat o‘z zimmasiga shunday vazifa oladiki, insonlarga o‘z faoliyatida barcha madaniy meros va boyliklardan foydalanish uchun sharoit yaratib beradi. Shuning uchun davlat:

- davlatga qarashli madaniy tashkilotlarni va ba’zi bir holatlarda nodavlat tashkilotlarini budjet mablag‘i hisobiga moliyalashtiradi;
- tijorat faoliyati yurituvchi madaniy tashkilotlarga soliq solishda maxsus tartib o‘rnatadi;
- madaniyat taraqqiyotini ta’minlash uchun mablag‘ ajratayotgan xo‘jalik subyektlari va jismoniy shaxslarni soliqdan imtiyozlar berish yo‘li bilan rag‘batlantiradi;
- madaniyat taraqqiyotini ta’minlash maqsadida homiylikni qo‘llab-quvvatlaydi;

• kam ta'minlangan kishilarni qo'llab-quvvatlashni tashkil etadi.

Ushbu maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar quyidagicha aniqlanadi:

1. Budjet mablag'lari orqali moliyalashtirish me'yorlari bir odam va aholi soniga qarab belgilanadi.

2. Hududlarda yaratilgan milliy daromaddan foiz miqdori belgilash bilan va budjet xarajatining umumiy miqdoridan foiz belgilash bilan aniqlanadi.

Bolalar sportini rivojlantirish xarajatlari

Mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirish borasida ko'pgina ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. 2009-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 6—17 yoshgacha bolalar va o'smirlar soni 7 mln 200 nafarni tashkil etgan. Darsdan tashqari jismoniy tarbiya (chiniqish) bilan shug'ullanuvchilar 1 mln 830 nafarni yoki bolalarning 27,4 foizini tashkil etadi. Shulardan 3 mln 200 ming (48,0%) nafari qiz bolalar bo'lib, ulardan 610 ming nafari (9,1%) jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadi. Bu ko'rsatkichlar bizni aslo qoniqtirmaydi. Shuning uchun jamg'arma bu masalaga joylardagi hokimliklar va Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda katta e'tibor berishi kerak.

O'quvchi, talaba-yoshlar ishtirokidagi «Alpomish — Barchinoy», «Quvnoq startlar», «Sog'lomjon-Polvonjon», «Umid nihollari», «Yozgi ta'til», «Universiada», «Barkamol avlod» kabi sport musobaqalari o'tkazilib, unga mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 25200 nafardan ortiq jismoniy tarbiya o'qituvchilari murabbiylik qilmoqda.[1]

Bir so'z bilan aytganda, bolalar sporti — o'zbek sportining kelajagi, uning xalqaro maydonidagi obro'-e'tiborini yuksaltirish poydevoriga aylanishi zarur.

8-jadval

BOLALAR SPORTINING RIVOJLANISHI

Ko'rsatkichlar	1990 yil	2000 yil	2010 yil
Doimiy tarzda sport bilan shug'ullanuvchi o'quvchilar soni, ming kishi	448,8	621,7	2218,9
Sport bilan muntazam shug'ullanuvchi bolalar ulushi, foizda	7,4	11,5	34,8

[1] «Xalq so'zi». 2009-yil 30.IX.

Bolalar sporti maskanlarining soni	1825	2783	5980
Maktablardagi yopiq sport zallarining soni	3128	3863	6151
Umumta'lim maktablari o'quvchilarining xalqaro sport musobaqalarida qo'lga kiritgan yutuqlari, medallar soni	22	166	420

Manba: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ma'lumotlari asosida

Ma'lumki, 2010-yilda «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi doirasida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ulkan ishlarni izchil davom ettirish, jumladan, bolalar sportini yanada rivojlantirish, shahar va qishloqlarimizda zamonaviy sport majmualari va stadionlar bunyod etish, ularni sport anjomlari, yuqori malakali sport ustozlari va murabbiylar bilan ta'minlash masalalariga katta e'tibor qaratildi. Mazkur dasturda belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilishi sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining tibbiy madaniyatini yuksaltirish, ommaviy sportni, birinchi navbatda, bolalar sportini rivojlantirish borasidagi ishlarni yanada faollashtirish imkonini berdi.

Yig'ilishda 2010-yilda bolalar sporti obyektlari va suzish havzalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash dasturining ijrosi muhokama etildi. Jumladan, o'tgan yili 95 ta obyekt ishga tushirilgani, shuning 61 tasi qishloq joylarda foydalanishga topshirilgani qayd etildi.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan 149 ta obyekt, jumladan, 130 ta bolalar sporti obyekti, 19 ta suzish havzasini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ko'zda tutilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu obyektlarning 118 tasi qishloq joylarda bunyod etilgan. Ushbu maqsadlar uchun 111,1 milliard so'm ajratish ko'zda tutilgan bo'lib, amalda bu ko'rsatkich 116,8 milliard so'mni tashkil etdi. Xorijiy valutadagi tushumlar esa 1,72 million AQSH dollarini tashkil qildi. Aytish joizki, 2008—2011-yillarda mablag'lar tushumi 55,9 foizga ko'paydi.

2003—2010-yillarda O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan barpo etilgan 1199 ta bolalar sporti obyekti umumiy qiymati 18,91 milliard so'mlik sport inventarlari va uskunalari bilan jihozlandi.[1]

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashi navbatdagi yig'ilishidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi», 26.02.2011.

Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida 305 ta sport inshooti mavjud. Biroq shundan 100 tasi talabga javob bermaydi. Tuman markazidagi 3000 o‘rinli «Yoshlik» o‘yingohi qoshida sport turlari bo‘yicha seksiyalar tashkil qilinmagan. Qamashi tumanidagi 24-maktabning sport maydonchalari yantoqzorga aylangan. Muborak tumanidagi 22-maktabda sport zali ta’mirlanmagan, yechinish-yuvinish xonalari yo‘q.

Umumta’lim maktablaridagi ishni tubdan o‘zgartirish lozim. Yangi sport zallari va maydonlari, yechinish-yuvinish xonalarini qurish, borlarini ta’mirlash, sport anjomlari va jihozlari, sport qo‘llanmalari, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va murabbiylarni ko‘paytirish, mahalla va maktab sport zallari, sport maydonlariga shug‘ullanuvchilarni ko‘proq jalb etish, basketbol, voleybol, qo‘l to‘pi va futbol maydonlarini musobaqalarga puxta tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

Tender asosida 2003-yilda qurilish dasturiga kiritilgan sport inshootidan 44 tasi foydalanishga topshirildi. Bunday inshootlardan 60 foizi qishloq joylarida qurilgan, 2004-yilda esa 25 tasi foydalanishga topshirildi. Hozirgi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Toshkent, Jizzax va Farg‘ona viloyatlarida 6 ta sport inshooti qurilishi davom etmoda.

Aytib o‘tish kerakki, 2003-yilda ushbu hududlarda homiylar tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri qurilish dasturiga kiritilmagan 2 tadan 6 tagacha sport inshootlari foydalanishga topshirildi. Xususan, Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahrida tadbirkor Mansurjon Muqimov 135 mln so‘mlik 2 ta trenajor zalini, basketbol, voleybol va boks seksiyalari ishini yo‘lga qo‘ydi. Natijada ko‘pchilik qatori tevarak-atrofdagi 4 ta mahallaning kam ta’minlangan oilalari bolalari ham imtiyozli ravishda sport bilan shug‘ullanishmoqda.

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi tadbirkor Xolboy Ramazonov esa 107 mln so‘mlik 1-TIP bo‘yicha sport inshootini qurib bitkazdi. Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi tadbirkor O‘tkir Erkayev 50,0 mln so‘mlik sport maydonini qurdi. Andijon viloyatining Izboskan tumanidagi tadbirkor Mirzaolim Mamajonov sport zalini qurish bilan bolalar sportini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shdi. Umuman Andijon viloyatining Izboskan, Namangan viloyatining Kosonsoy, Samarqand viloyatining Bulung‘ur va Kattaqo‘rg‘on, Surxondvryo viloyatining Sariosiyo, Xorazm viloyatining Yangibozor tumanlarida sport maydonchalarini qurish borasida ko‘pgina ibratli ishlar amalga oshirildi.

Bu haqda fikr yuritar ekan, Prezident Islom Karimov (2011-yil, 26.02) masalaning yana bir o‘ta muhim jihatiga e’tibor qaratdi: «Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy sohada olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, jumladan, sog‘liqni saqlash, ta’lim-tarbiya, sport, onalik va bolalikni muhofaza qilish, odamlarimizning hayot darajasini va sifatini, madaniyatini oshirish, ijtimoiy muhofazani kuchaytirish masalasiga ustuvor ahamiyat berilib, kompleks yondashuv natijasida aholining, ayniqsa, bolalarning salomatligini mustahkamlash bo‘yicha salmoqli natijalarga erishilmoqda.

Bu haqda ko‘p gapirmasdan, bir misol keltirish joiz. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, agar 2005-yilda yurtimizda mutlaqo sog‘lom bolalar ko‘rsatkichi 52,7 foizni tashkil etgan bo‘sa, 2010-yilda bu raqam 62,6 foizga yetdi.

Agar dunyoning rivojlangan davlatlarida bu ko‘rsatkich 70—72 foizni tashkil etishini inobatga oladgan bo‘lsak, O‘zbekistonda bu masala bo‘yicha qanday jiddiy o‘sish sur’atlariga erishilayotgani yaqqol ayon bo‘ladi.

Mamlakatimizda 6—15 yoshdagi 1,6 mln nafar o‘quvchi sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanmoqda. Bu boradagi ko‘rsatkich hozirgi kunda 2008-yildagi 29,2 foizdan 34,5 foizga, qizlar orasida esa 24,1 foizdan 30,9 foizga yetdi.

Ayniqsa, viloyatlarda gimnastika bo‘yicha hududiy federatsiyalar hamda markazlarning tashkil etilishi natijasida qizlarning nafis sport turlari bilan shug‘ullanish imkoniyatlari yanada kengaydi. So‘nggi ikki yilda badiiy gimnastika bilan shug‘ullanadigan qizlar soni uch barobar oshgani buning tasdig‘idir. Bundan tashqari, stol tennisi va suzish bilan shug‘ullanayotgan qizlar soni ham ko‘payib bormoqda.

Prezident Islom Karimov yig‘ilishda qizlarni sportga jalb etish masalasi alohida yondashuvni talab etishini ta’kidladi. Bolalar sportini rivojlantirish, qizlarning sport bilan shug‘ullanishi uchun, ayniqsa, qishloqlarda tegishli shart-sharoit yaratish masalasiga atroflicha to‘xtaldi. Yuqorida keltirilgan 8-jadvalda budjet mablag‘lari hisobiga amalga oshirilgan tadbirlar keltirilgan.

9-jadval

DAVLAT BUDJETINING 2012-YIL UCHUN JAMI XARAJATLARI

№	Ko‘rsatkichlar	2012 yil mlrd.so‘m
I	Davlat maqsadli jamg‘armalaridan tashqari xarajatlari	21 571,7
	Davlat budjeti defitsiti (YaIM ga nisbatan 1 %)	-957,6

davomi

II	Davlat maqsadli jamg‘armalarining daromadlari (budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi, Respublika yo‘l jamg‘armasi, Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi, Mulk qo‘mitasining maxsus xisob raqami) 2011 yildan ta’lim maussasalrini qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasi	10 499,8
III	Yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash jamg‘armasi daromadlari	210,0
IV	O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi daromadlari	1496,8

10-jadval

DAVLAT BUDJETINING IQTISODIYOT XARAJATLARI TARKIBI

Ko‘rsatkichlar	2011 yil		2012 yil	
	milliard so‘m	foizda	milliard so‘m	foizda
Davlat budjeti xarajatlari, milliard so‘m	16991,1	100	21571,7	100
Iqtisodiyotga ajratilgan xarajatlar	1952,1	11,5	2372,0	11,0
Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo‘jaligi tashkilotlari tomonidan iste’mol qilinadigan elektr-energiyasi to‘lovlari	648,8	3,8	766,9	3,5
Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondiga maqsadli ajratmalar	184,5	1,1	210,0	0,9
Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer xo‘jalklarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag‘lar	140,0	0,8	160,0	0,7
Boshqa xarajatlar	978,8	5,7	1235,1	5,7

Manbaa: * O‘zR Moliya Vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari.

11-jadval

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI, VILOYATLAR VA TOSHKENT SHAHARINI MAHALLIY BUDJETLARI HAJMI VA 2009-YILI RESPUBLIKA BUDJETIDAN BERILADIGAN DOTATSIYA VA MAQSADLI SUBVENSIYALAR HAJMINING BELGILANGAN CHEGARASI (mln so‘m)[1]

T/r	Hududlar	Daromadlar	Xarajatlar	Ijtimoiy nafaqa, markazlashtirilgan kapital qo‘yilma va mahalliy budjetlar daromadiga beriladigan subvensiyalar	Dotatsiya
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	261616,942*	390920,225	129303,283	—
2.	Andijon viloyati	334305,755*	512518,522	178212,767	—
3.	Buxora viloyati	360394,191	360394,191	—	—
4.	Jizzax viloyati	166175,919*	274207,230	108031,311	—
5.	Qashqadaryo viloyati	564703,631	564703,631	—	—
6.	Navoiy viloyati	217029,540	217029,540	—	—
7.	Namangan viloyati	165412,854	473088,047	164343,924	143331,269
8.	Samarqand viloyati	407371,905*	660874,194	253502,289	—
9.	Surxondaryo viloyati	196495,683	489735,393	184980,469	108259,241
10.	Sirdaryo viloyati	125953,334	182969,434	57016,100	—
11	Toshkent viloyati	528557,643	528557,643	—	—
12.	Farg‘ona viloyati	669067,798	669067,798	—	—
13.	Xorazm viloyati	220361,312*	333899,323	113538,011	—
14.	Toshkent shahri	577322,884	577322,884	—	—
	Jami	4794769,391	6235288,055	1188928,154	251590,510

* Respublika budjetidan ajratilib, ushbu regionlarda shakllanadi. Ajratilgan mablag‘ O‘zR Moliya Vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

[1] 2008-yil 29-dekabr, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-1024.

5-bob
IJTIMOIY MUHOFAZA XARAJATLARINI MOLIYALASHTIRISH

5.1. O‘TISH DAVRIDA IJTIMOIY BARQARORLIK MASALALARIGA DAVLAT TOMONIDAN E’TIBOR BERILISHI

O‘zbekistonning yangilanish va taraqqiyot yo‘liga asos bo‘lgan eng muhim qoidalaridan biri bozor iqtisodiyotiga o‘tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy himoyalash sohasida qat’iy kafolatni vujudga keltirishdir.

Tarix sabog‘i shundaki, aynan ijtimoiy muammolar va ziddiyatlar g‘oyat keskinlashadi, milliy va barqarorlikka tahdid soluvchi omilga aylanadi.

Bu holni nimalar keltirib chiqaradi, o‘tish davrida ijtimoiy barqarorlik masalalariga alohida e’tibor berishning qanday muhim sabablari bor? Bu sabablardan eng muhimlari quyidagilardir:

Birinchi. Ijtimoiy ziddiyatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra hamisha siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zgarishlarning qay tarzda yo izchil, tadrijiy yo‘l bilan borishi, yo bo‘lmasa, keskin shakillarga kirishi, ijtimoiy noroziliklar, stixiyali portlashlar, hatto fuqarolar urushlari va inqiloblar tusini olishi to‘planib qolgan ijtimoiy muammolarning qay darajada keskinligiga, hukmron tuzilmalarning bu muammolarni hal qila olishi yoki hal qila olmasligiga bog‘liq.

Shu sababli taraqqiyotning hamma bosqichlarida odamlarning ijtimoiy kayfiyatlarini, ijtimoiy muammolarini nazar-pisand qilmaslik barqarorlikka va milliy xavfsizlikka katta xavf tug‘diradi.

Ikkinchi. Odamlarni da’vat etuvchi ijtimoiy sabablarning ro‘yobga chiqishi juda muhim ahamiyatga egadir. Zaminimizda yashayotgan odamlarning munosib va erkin, farovon hayotini ta’minlash, har bir kishi huquq va imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish — jamiyatimizni isloh qilish va yangilash paytida oldimizga qo‘yayotgan g‘oyat muhim vazifalaridandir. Shu sababli eski totalitar, mafkuraviy, buyruqbozlik-taqsimot tuzumiga hamda soxta tenglik va mehnatni qadrlash uchun sog‘lom negiz bo‘lmagan bir holatga qaytish biz uchun maqbul emas.

Agar o‘tish davrida pirovard maqsadga erishish — jamiyatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyotini ro‘yobga chiqarish uchun ayrim bosqichlarda odamlarning moddiy ahvolini yomonlashuviga olib keladigan noma’qul, ba’zan keskin qarorlar qabul qilishga to‘g‘ri kelishi hisobga olinsa, aholining ijtimoiy himoyalanmagan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga doir choralar ko‘rish qanchalar ahamiyat kasb etishi ayon bo‘lib qoladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, islohotlarning mohiyatiga putur yetkazish, ijtimoiy adolatni buzish, hokimiyatning turli pog‘onalaridagi korrupsiya aholini shunday ham tang ahvolini yanada og‘irlashtirib, jiddiy ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.

Bu hol o‘tmishni qo‘msash kayfiyatlarini uyg‘otish uchun qulay zamin yaratadi, shovinizm va soxta vatanparvarlikdan tortib to murosasiz sotsialistik kayfiyatdagi turli harakatlarga oziq beruvchi muhit bo‘lib xizmat qiladi. Bunday holatda aholi orasida ijtimoiy norozilik kayfiyatlarning g‘arazli, tor siyosiy manfaatlarini ko‘zlab muttasil kuzatib turilishi ham fuqarolar tengligiga, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid soladi.

Uchinchi. Keng ko‘lamdagi uzoq muddatli isloh qilish jarayonining dastlabki bosqichini — «men eng qiyin, ijtimoiy portlash xavfi bo‘lgan bosqich, deb atagan bo‘lardim», — deydi I.A.Karimov, buning sababi shundaki, o‘tish davrining o‘zi ko‘p hollarda bir qancha hal qilinmagan ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi va zamiridagi larzaga soladigan kuchni o‘zida saqlab turadi. Shu bilan birga bir siyosiy va iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga o‘tish ham yangi muammolarni tug‘dirishi va muayyan ijtimoiy kamchiliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ko‘p mamlakatlarning tajribasi bozor munosabatlariga o‘tish silliq, ijtimoiy qiyinchiliklarsiz, oson kechmasligini ko‘rsatadi. Bu obyektiv jarayondir.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, ayniqsa iste’mol narxlari va tariflarning «esankiratadigan» tarzda qo‘yib yuborilishi, ishlab chiqarishning pasayib ketishi, to‘lovlarni amalga oshirmaslik bilan bog‘liq tanglikning keskinlashuvi, pul muomalasining buzilishi ko‘pchilik mustaqil davlatlarda iste’mol narxlarining keskin o‘sishiga, jamg‘armalarning qadrsizlanishiga, aholining anchagina qismini turmush darajasining pasayishiga, butunlay yoki qisman ishsizlar sonining o‘sishiga olib keldi. Bu davrda aholini ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan choralarga yetarli e’tibor bermaslik aholining ancha qismini qashshoqlashuviga olib kelishi mumkin. Bir qancha mamlakatlarda shunday bo‘ldi ham. Ma’lumki, bunday holat ijtimoiy barqarorlikni vujudga keltiruvchi muhit bo‘lib xizmat qiladi.

To‘rtinchi. O‘tish davrining keskin ijtimoiy muammosi ko‘p kishilar uchun qaror topgan turmush tarzining buzilishidan, hayotiy mo‘ljallarning o‘zgarishidan iborat. O‘tish davrida odamlarning tafakkur yuritish psixologiyasi o‘zgaradi, bu esa, ayonki, hamma vaqt ham oson kechavermaydi.

O‘tish davrida eskicha va yangicha fikrlash o‘rtasidagi, o‘tmish va hozirgi zamonning qadriyatlar tizimi o‘rtasidagi ziddiyatlar yanada keskinlashadi.

Xalqimizning ma’naviy boyliklarini, jahon sivilizatsiyasining eng yaxshi yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan yetuk avlodni shakllantirish bugunning eng muhum vazifasidir.

Faqat ana shu asosdagina, oldimizga qoyilgan yuksak maqsadlar barchamiz uchun hayotimizning mazmuniga aylanib qolganidagina millatning ongli vatanparvarlik ruhini yuksaltirib, rivojlangan ilg‘or mamlakatlar kabi taraqqiyot yo‘lidan ildam qadam tashlash imkoni tug‘iladi.

Har qanday mamlakatda turli ko‘rinishdagi tengsizliklar ko‘paysa yoki ularning o‘sishiga imkon paydo bo‘lsa, ular ijtimoiy barqarorlik xavfini tug‘diradi. Ijtimoiy muammolarning keskinligi kimlarningdir kambag‘alligi yoki boyligida emas, balki ushbu ijtimoiy tabaqalar o‘rtasida haddan tashqari katta farq paydo bo‘lishidadir.

O‘zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, eksport uchun qimmatbaho va rangli metallar, paxta, uran, neft mahsulotlari va mineral o‘g‘itlar chiqarmoqda. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi choralar dasturida yangi tashkil etilayotgan kichik biznes va xususiy korxonalarni kreditlash bo‘yicha imtiyozlarning amal qilishi 18 oygacha uzaytirildi. Ishlab chiqaruvchi korxonalarga nooziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqarishda zarur bo‘ladigan texnologik uskunalar, xomashyo va materiallarni sotib olish uchun maxsus kredit liniyalarini ochish va lizing xizmatlari ko‘rsatishni tavsiya etmoqda.

2009-yil 26-yanvardagi «Oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to‘ldirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ—1047-sonli Qarori, 2009-yil 28 yanvardagi «Mamlakatimizda nooziq-ovqat iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ—1050 sonli qaroriga davlat tomonidan e’tiborning berilishidir[1].

[1] *Karimov I.A.* «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari».

Ayonki, agar jamiyat manfaatlari va intilishlari mutlaqo qarama-qarshi bo‘lgan odamlar guruhlaridan iborat bo‘lsa, hamma vaqt ijtimoiy ziddiyat xavfi ham, milliy xavfsizlikka tahdid ham mavjud bo‘ladi. Ijtimoiy ziddiyatlarning haddan tashqari keskinlashuvi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning barham topishiga, ichki mojarolariga, hatto fuqarolar urushiga ham olib borishi mumkin.

Shuning uchun o‘tish davrida demokratik davlatning eng muhim vazifasi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinligini kamaytirishdan, bu davrning muqarrar qiyinchiliklarini ehtiyot choralari hisobiga yumshatishdan va odamlarning yangi turmush sharoitlariga moslashishini osonlashtirishdan iborat. Aslini olganda O‘zbekiston amalga oshirayotgan siyosatni bozor munosabatlariga o‘tayotgan boshqa davlatlar siyosatidan eng muhim afzalliklaridan biri ham shundadir.

Ijtimoiy kelishuvni qanday ta’minlash mumkin, ijtimoiy hamjihatlikka, shu jumladan, mintaqalararo totuvlikka qanday erishish mumkin, degan murakkab savollarga javob topishga qodir bo‘lgan davlat demokratik va iqtisodiy rivojlanishiga umid bog‘lash mumkin.

Ijtimoiy birdamlikni ta’minlash — ijtimoiy ziddiyat va tengsizliklarning o‘zlarini adolatsiz ravishda hamma narsadan bebahra bo‘lib qolgan yoki haq-huquqlari kamsitilgan deb hisoblovchi butun-butun aholi guruhi va tabaqalari vujudga keladigan darajada boyib ketmasligiga erishish demakdir.

Shu boisdan O‘zbekistonning o‘z yangilanishi va taraqqiyot yo‘liga asos qilib olingan yetakchi tamoyillardan biri kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan iboratdir. Bu demokratik va iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ular orqaga qaytarmasligining juda muhim sharti va garovidir.

5.2. IJTIMOIY-MADANIY XARAJATLARNING AHAMIYATI, TURKUMLANISHI VA HOZIRGI XUSUSIYATLARI

Ishonchli ijtimoiy kafolatlarni va aholini ijtimoiy himoyalash choralarini ta’minlash bozor o‘zgarishlarining hamma bosqichlari orqali o‘tdi va jamiyatimizning yangilanishidan iborat g‘oyat keng jarayonning boshqa yo‘nalishlarini ham qamrab oladi:

1) fuqarolarni mehnat qilish borasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlash;

2) ijtimoiy himoyalashning maqsadli va aniq yo‘naltirilganligi;

3) aholining ijtimoiy jihatdan eng muhtoj tabaqalarini qo‘llab-quvvatlash;

4) iqtisodiy jihatdan faol aholi mehnatini rag‘batlantirish;

5) real mehnat bozorini shakllantirish;

6) ijtimoiy soha, sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat va san’at, ilm-fanning mushkul ahvolga tushib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik;

7) bozor munosabatlarini shakllantirishning turli bosqichlarida O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari.

Davlat budjetining ijtimoiy madaniy xarajatlari to‘rt qismdan iborat:

- maorif xarajatlari;
- sog‘liqni saqlash xarajatlari;
- madaniyat, fan, ommaviy axborot vositalari xarajatlari;
- ijtimoiy ta’minot xarajatlari.

Bu ko‘rsatkichlarning qiymati sxemaning birinchi bo‘limida berilgan. Shuningdek, *aholini ijtimoiy himoya tadbirlari xarajatlari* ikki qismdan iborat bo‘lib, bular quyidagilar:

- baholar o‘zgarishidagi farqni budjetdan qoplash;
- kam ta’minlangan oilalar va yosh bolalarga nafaqa.

Aholini ish bilan ta’minlash muammolarini hal qilishda ham jiddiy sifat o‘zgarishlari ko‘zga tashlanmoqda. Biz uchun o‘ta dolzarb bo‘lgan bu masalani yechishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bilan birga xizmat ko‘rsatish sohasi va kasanachilikning turli shakllarini keng joriy etish, qishloq joylarda chorvachilikni rivojlantirishni rag‘batlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. 2008-yil mobaynida yurtimizda 661 ming ga yaqin, jumladan kichik biznes sohasida 374 mingta, servis sohasida 220 mingta, kasanachilik hisobidan esa 97 ming 800 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

2008-yilda o‘rtacha ish haqi budjet tashkilotlarida 1,5 barobardan ziyod, butun iqtisodiyot bo‘yicha esa 1,4 barobar oshdi. Natijada o‘rtacha ish haqi miqdori 300 AQSH dollaridan ortiq bo‘ldi. Aholining real daromadlari esa yil davomida jon boshiga 23 foiz ko‘paydi.[11]

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida berilgan topshiriqlarni bajarish yuzasidan 348 ta davlat ta’lim standartlari, shu jumladan, umumiy o‘rta ta’lim uchun 23 ta, maxsus kasb ta’limi uchun 50 ta va oliy ta’lim uchun 275 ta standart ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilayotgan ta’lim standartlari negizida 74 ta ixtisoslik bo‘yicha 350 ta o‘quv yurtlari uchun darsliklar tayyorlash davom etmoqda. Umumiy ta’lim maktablari uchun 17 ta yangi darslik nashr

---

[1] 118-betdagi izohga q.

etildi va mavjud 712 ta darslik ekspertiza qilindi. Shulardan 512 tasiga ijobiy baho berildi. Oliy o‘quv yurtlari uchun 243 ta yangi o‘quv qo‘llanmasi yaratildi hamda 16 mingta mavjud qo‘llanma ekspertizadan o‘tkazildi.

Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturi doirasidan bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Shoshilinch tibbiy yordam Respublika markazini barpo etish ishlari olib borilmoqda. Barcha sog‘liqni saqlash bo‘limlarida amalga oshirilayotgan islohotlar tibbiy yordam olganlarning umumiy soni o‘sgan, statsionar sharoitlarda davolanganlar sonini, ambulatoriyalar, muassasalarda qabul qilishni ko‘paytirish hisobiga qisqartirish imkonini beradi. Sog‘liqni saqlashga qilingan xarajatlarning umumiy hajmda ambulatoriya-poliklinika xizmati ko‘rsatishga xarajatlar ulushi 50%ga oshdi.

Bulardan tashqarii Prezidentimiz I. A. Karimovning tashabbuslari bilan «Umid jamg‘armasi», «Kamolot» fondi, «Iste’dod» jamg‘armasi va boshqa fondlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning asosiy vazifasi iqtidorli talabalar va ustozlarni chet mamlakatlarga yuborib, ularni yetuk mutaxassis qilib yetishtirib olib kelyapti. Ular chet elning ilmi, madaniyati, iqtisodi, siyosati va ma’naviyatini O‘zbekistonga moslashtirish, tatbiq qilishlari kerak va shunday qilyaptilar ham. «Bu odamlardan O‘zbekiston xalqi va shaxsan meni ham ishonchim katta. Ishonamanki, bu kishilar, O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shadi. Yana shuni ta’kidlashni xohlaymanki, XXI asrda biz talabalar chet ellik talabalardan emas, balki ular bizdan o‘rnak olishlari shart».

5.3. IJTIMOIY KAFOLATLARNI MOLIYAVIY TA’MINLASH

O‘zbekiston Respublikasining Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi (ISJ) ixtisoslashtirilgan moliya-kredit muassasasi bo‘lib, u respublikada davlat ijtimoiy sug‘urtalash mablag‘larini boshqarishi kerak. ISJning asosiy vazifasi vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlarni, homiladorlik, bolasi bir yarim yoshga yetguncha uni parvarish qiluvchi ayollarni, xodimlarni, ularning oila a’zolarini sanatoriy, kurortlarda davolanishini tashkil etish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar uchun davlat tomonidan kafolatlangan nafaqalarni ta’minlashdan iboratdir.

Aholini himoya qilish siyosati davlatning fuqarolar shaxsiy hayotiga aralashish emas, balki inson haq-huquqlarini, jumladan,

inson huquqlarining umumiy dekloratsiyasi hamda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda yozib qo‘yilgan, har bir kishining turmush darajasi yetarli darajada yuqori bo‘lishi, oziq-ovqat, uy-joy, ish joylar bilan ta’minlanishini yaxshilashga, salomatliklarini tiklashga, madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirishga va pensiya ta’minotini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan tadbirlar majmuasidir.

1-chizma

IJTIMOIY SUG‘URTA JAMG‘ARMASIDAN FOYDALANISH



Aholining pul daromadlari 1998-yil 919,7 ming so‘mga teng bo‘ldi va 1997-yilga nisbatan 45,6%ga oshgan.

Pul xarajatlari va omonatlari 884,9 mlrd so‘mga teng bo‘ldi va 1997-yilga nisbatan 45,1% ga ko‘paydi.

Butun o‘tgan yil davomida aholining pul daromadlari o‘sishi kuzatiladi. Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi dinamikasi quyidagi ma’lumotlarda aks etadi:

1998-yilda pul daromadlari umumiy hajmining 791,4 mlrd so‘m yoki 1997-yilga nisbatan 45,7% ga ortiq qismini tovarlarni xarid qilish va xizmatlar uchun haq to‘lashga sarfladi.

1. Yalpi daromad bo‘yicha aholi qatlamlarining tabaqalanishi. Xalq xo‘jaligi tarmoqlaridagi yuqori ish haqi ko‘rsatkichlariga ega sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida bandligi tadbirkorlik bilan shug‘ul-

lanuvchilar sonining oshib borishi bilan yuqori daromad oladigan aholi toifalari oshib boradi va ma'lum tabaqalanish paydo bo'ladi.

2. Ishsizlikning paydo bo'lishi va vaqtinchalik ish bilan band bo'lmaganligi uchun to'lovlarning joriy etilishi. Ba'zi bir korxonalarning mahsuloti sifatsizligi oqibatida bozor talabi va konyukturasiga javob bera olmayapti, ishlab chiqarish qisqaryapti. Yangi texnologiya joriy etilishi natijasida qo'l mehnatiga talab kamaymoqda.

Ijtimoiy himoya obyektini aniqlab olish — ijtimoiy himoyaning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ijtimoiy himoya obyektiga quyidagi aholi guruhlari kiradi.

1. Nogironlar.
2. Nafaqaxo'rlar.
3. Boquvchisini yo'qotgan oilalar.
4. Yolg'iz va homilador ayollar.
5. Qashshoqlik chegarasida daromad oluvchi oilalar.
6. Vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganlar.
7. Yosh bolalar.
8. Vaqtincha va umuman ishsizlar.
9. O'qituvchilar.
10. Talabalar.

Aholining daromadlari va xarajatlari balansini tuzishdan asosiy maqsad aholining bo'lishi mumkin bo'lgan pullik daromad va xarajatlarini iqtisodiy asoslangan prognozlar qilishdan iborat. Balansning naqd pul oboroti tashkil topishidagi ahamiyati shu bilan belgilangan. Mamlakatdagi naqd pullarning muomalasi ko'lami, asosan, aholi pul daromadlarini tarkib toptirish jarayoni va ularning keyinchalik yo'naltirishi bilan chegaralangan. Balansda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar aks ettirilgan. Balansda asosan aholi tomonidan tovarlarni xarid qilish uchun mo'ljallangan aholining xarid fondi aniqlanadi, chakana tovar oboroti asosida chorak bo'yicha g'azna rejasi tuzilgan.

Aholi daromadlari va xarajatlari balansida daromadlarning xarajatdan ko'proq bo'lishi aholining qo'lida naqd pul oshganligini, xarajatlarning daromadlardan oshganligi esa aksincha, aholi qo'lidagi naqd pul qoldig'ining kamayishini bildiradi.

Aholi daromad va xarajatlarini balanslashtirish uchun xalq iste'-moli uchun zarur bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, aholiga pullik xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish zarur. 1991-yildan boshlab, ko'p-gina davlatlarning mustaqillika erishishi va mamlakatlar iqtisodida

bo‘lgan ba’zi qiyinchiliklar tufayli, mahsulot va tovarlarni ishlab chiqish hajmi kamayib ketdi. Iste’mol bozoridagi beqaror vaziyatning keskinlashuvi aholi daromadlari va xarajatlari balansida ham nomutanosiblik bo‘lishiga olib keldi.

Takror va takror ta’kidlab aytish kerakki, ishlab chiqarish korxonalari bilan kooperatsiya asosida barpo etiladigan kasanachilikni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada mamlakatimizda ish beruvchi korxonalar uchun ham, kasanachilik bilan shug‘ullanuvchi aholi uchun ham rag‘batlantirishning yaxlit va ta’sirchan tizimi yaratilgan.

Bugungi bosqichda kasanachilik sohasi bandlik va oila budjeti daromadlarini oshirishning qo‘shimcha manbayiga aylanib borayotganini hech kim inkor etolmaydi. Ayni vaqtda kasanachilik fuqarolarni, birinchi navbatda, xotin-qizlar, ayniqsa, ko‘p bolali ayollarni, yordamga muhtoj nogironlar va mehnat qobiliyati cheklangan boshqa shaxslarni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda.

2008-yilda kasanachilar tomonida 34 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va xizmatlar ko‘rsatildi. Kasanachilik uchun ish o‘rinlari ochgan korxonalar, shu borada o‘zlariga berilgan imtiyozlar hisobidan 1 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ini tejashga erishdi.

Aholini, ayniqsa qishloq aholisini ish bilan ta’minlashning yana bir muhim yo‘nalishi shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida qoramol boqish bilan shug‘ullanadigan kishilar sonini ko‘paytirishdan iborat. Qayd etish kerakki, bu masalada muayyan ijobiy natijalar qo‘lga kiritildi.

Mamlakatimizda qoramollarni aholiga va fermer xo‘jaliklariga kimoshdi savdolari orqali sotish, ularga maqsadli va imtiyozli kreditlar berish, veterinariya xizmati ko‘rsatishning sifati va hajmini oshirish, ozuqa bilan ta’minlash bo‘yicha samarali mexanizmlar yaratilgan. Chorvachilikni rivojlantirish dasturining ijrosi doirasida 2008-yil kimoshdi savdolarida 20 ming 300 bosh qoramol sotildi. 2009-yilda yana 24 ming 600 bosh qoramol sotilishi ko‘zda tutilmoqda. Agar 2007-yilda qoramol sotib olish uchun 42,5 milliard so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratilgan bo‘lsa, 2008-yilda bu raqam 48 milliard 200 million so‘mni tashkil etdi.

Ma’lumki, mamlakatimizda kam ta’minlangan oilalarni bepul sigir ajratish yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2006-yildan 2008-yilga qadar ana shunday oilalar uchun 103 mingdan ziyod qoramol berildi.

Natijada 2009-yilning 1-yanvarigacha shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida qoramol boquvchi sifatida ro‘yxatga olingan fuqarolarning umumiy sonu 1 million 100 mingdan ko‘proqni tashkil etdi. Shulardan 54 ming kishiga yangi mehnat daftarchasi berildi, 111 ming fuqaroning esa mavjud mehnat daftarchasiga ish staji tegishli tartibda qayd etildi.

1-diagramma

IQTISODIYOTDA BAND BO‘LGAN BIR KISHIGA TO‘G‘RI KELADIGAN YAIM (XQP BO‘YICHA) VA SANOAT MAHSULOTI, AQSH DOLLARI HISOBIDA



1. Iqtisodiyotda band bo‘lganlar soni.

2. Har bir kishi boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlarining hajmi, AQSH dollarida.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Mamlakatimiz va chet el investorlari uchun yaratilgan qulay investitsiya muhiti tufayli, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiya miqdori 1990 yildagi 40,8 dollardan 2010 yilda 344,1 dollarga yetishi ta’minlandi. Agar 1993 yildya jalb etilgan chet el investitsiyalarining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori 0,05 dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2010 yilda bu ko‘rsatkich 100,1 dollarga yetdi.

Aholi jon boshiga o‘rtacha to‘g‘ri keladigan mahsulot va xizmatlar eksporti 2010 yilda 462,1 AQSH dollarini tashkil etdi. Bu 1990 yildagi ko‘rsatkichdan 21,3 barobar ortiqdir.

Aholi turmush darajasining o‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichlari

Mehnatga haq to‘lash tizimini takomillashtirish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan, o‘zaro chuqur bog‘langan chora-

tadbirlarning amalga oshirilishi, yalpi ichki mahsulot, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori suratlarda barqaror o‘sib borishi, budjet sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorining muntazam qayta ko‘rib chiqilishi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag‘batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar, ayniqsa oxirgi yillarda, xalqimizning hayot sifati izchil yuksalib borishini ta’minladi.

Yurtimizda kechayotgan o‘zgarishlar aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real pul mablag‘lari, o‘rtacha nominal va real ish haqi miqdori belgilangan eng kam ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar ko‘rsatkichlarini yaqqol namoyon etmoqda.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan pul daromadlari, xarid qobiliyati pariteti asosida hisoblaganda, 2010 yil oxirida 2016,8 dollarni tashkil etdi. O‘rtacha oylik nominal ish haqi esa, xarid qobiliyati pariteti asosida hisoblaganda, 2010 yilning dekabr oyida 1162,6 dollarga yetdi.

2-diagramma

AHOLI PUL DAROMADLARI DIFFERENTSIYASI DARAJASI. (JINI KOEFFITSIENTI)



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi

Mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosatning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, aholi daromadlari va hayot darajasini muntazam oshirib borish, xalqimizni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlar o‘rtacha oylik ish haqi miqdorining sezilarli ravishda, ya’ni 2010 yilda 1990 yilga nisbatan AQSH dollari ekvivalentida 2,7 barobar, o‘rtacha pensiya hajmining esa 5,9 barobar oshishini ta’minladi.

Pul daromadlarining oshishi va aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar aholi barcha qatlamlarining o‘rtacha daromadlarining izchil o‘sib borishida muhim omil bo‘ldi. Bunda aholining turli guruhlari daromadlari darajasidagi tafovutni (differentsiyalashuvni) aks ettiradigan Jini koeffitsienti 1990–2010 yillarda 0,40 dan 0,30 ga pasaydi, bu esa iqtisodiy jihatdan taraqqiy topgan davlatlardagi o‘rtacha ko‘rsatkichga mos keladi.

3-diagramma

AHOLI JON BOSHIGA TO‘G‘RI KELADIGAN XIZMATLAR, (MING SO‘M MIQDORIDA)



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Aholi farovonligi o‘sishining muhim tarkibiy qismi xizmat ko‘rsatish va xizmat turlariga nisbatan oshib borayotgan talabning ta’minlanishi bilan bog‘liqdir. Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi ijrosi davrida – 2006–2010 yillarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol hajmi 1,8 barobar ko‘paydi.

2006–2010 yillarda xizmat bozori tarkibini takomillashtirish borasida qabul qilingan izchil chora-tadbirlar aholi jon boshiga o‘rtacha to‘g‘ri keladigan bank, moliya va sug‘urta xizmatining yangi istiqbolli turlari jadal rivojlanishini ta’minladi va ular ushbu davr mobaynida 3,0 barobar o‘sdi.

Aholi to‘lov qobiliyatining ortishi ko‘rsatilayotgan pulli xizmatlar hajmining aholi jon boshiga nisbatan 1992 yil bilan qiyoslanganda 2,2 barobar, maishiy xizmatlar bo‘yicha esa 8,3 barobar o‘sishini taqozo etdi. Shu davrda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan chakana tovar aylanmasi, birinchi navbatda, nooziq-ovqat mahsulotlari savdosining o‘sishi hisobidan 4,3 barobar oshdi.

1-jadval.

1990–2010 YILLARDA AHOLI YALPI XARAJATLARINING TARKIBI (FOIZDA)

	1990 yil	2000 yil	2009 yil	2010 yil
I. Jami xarajatlar tarkibi	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
ulardan,				
Iste'mol xarajatlari	81,1	84,3	78,5	78,4
Iste'moldan tashqari xarajatlar (soliqlar, chiqimlar (badallar) va boshqa to'lovlar)	7,1	6,9	6,3	6,2
pul omonatlari va jamg'armalar	11,8	8,8	15,2	15,4
II. Jami iste'mol xarajatlari	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
shu jumladan,				
oziq-ovqat mahsulotlari uchun	58,3	59,8	51,9	49,8
nooziq-ovqat mahsulotlari uchun	31,5	26,8	31,9	33,7
xizmatlar uchun to'lovlar	10,2	13,4	16,2	16,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi (uy xo'jaliklarini tahlil qilganda, oyiga o'rtacha)

Yalpi iste'mol xarajatlari

Oilaning yalpi daromadlari oshib borishi bilan bir vaqtda yurtimizda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini kengaytirish hisobidan ushbu daromadlardan samarali foydalanish uchun sharoit yaratildi.

Agar 1990 yilda aholi daromadlarining bor-yo'g'i 46–48 foizi mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovar resurslari bilan ta'minlangan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 75 foizdan oshdi.

2010 yilda iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1990 yilga nisbatan 6,7 barobar, aholiga pullik xizmat ko'rsatish hajmi esa 1,4 barobar o'sdi.

Yuqorida qayd etilgan omillar aholi yalpi daromadlarining o'sishi bilan birga, uning pul omonatlari va jamg'arma mablag'lari barqaror o'sib borishini ham ta'minladi. Bu mablag'larning xarajatlar tarkibidagi ulushi o'sib, 1990 yildagi 11,8 foizdan 2010 yilda 15,4 foizga yetdi.

4-diagramma

ISTE'MOL XARAJATLARI TARKIBI (UY XO'JALIKLARINI TADQIQ ETISH NATIJALARIGA ASOSAN, FOIZDA)



- Xizmatlar uchun xarajatlar
- Noiste'mol mahsulotlar uchun xarajatlari
- Oziq-ovqat xarajatlari

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi

Oilalarning iste'mol xarajatlari makrotarkibi ham optimallashib bormoqda: oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajatlar ulushi barqarorlashib, xizmatlar uchun xarajatlar ulushi ortib bormoqda. Bunday holat iqtisodiy rivojlanib borayotgan davlatlar uchun xosdir.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalashni yaxshilash uchun uning samarasini ko'tarish quyidagi muhim vazifalarni hal etishga bog'liqdir.

Birinchidan, ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va muttasil rivojlantirish. Pul qadrsizlanishiga qarshi samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, milliy valutani va ichki iste'mol bozorini mustahkamlash natijasida islohotlarning boshlang'ich bosqichidayoq turmush darajasini saqlab qolish va uning keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslikka imkon yaratildi.

Umr ko'rish darajasi uzaydi, go'daklar o'limi, jinoyatchilik kamaydi. Jinoyatchilik MDH mamlakatlari orasida eng past darajada.

Iqtisodiyotning barqarorlashuvi, investitsiya faoliyatining kuchayishi, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash yo'li, yangi ishchi o'rinlarini tashkil etish, ish bilan bandlik muammolarini hal qilish, ish haqi saqlanib qolmagan yoki qisman saqlanib qolgan holda to'liqsiz ish kunida ishlayotgan va majburan mehnat ta'tilida yurgan shaxslar sonini keskin qisqartirish uchun qulay zamin yaratadi.

Garchi O‘zbekiston nufuz sohasidagi vaziyat murakkab bo‘lgan ishga joylashish muammolarini hamma vaqt keskin turgan mamlakat bo‘lsa, daromad, hozir respublikada iqtisodiyot barqaror rivojlanib borayotganligi tufayli bu yerdagi ishsizlik eng past darajada deyish mumkin. Ayni chog‘da biz bundan buyon ham iqtisodiyotda tarkibiy jihatdan o‘zgarishlar qilish, eng avvalo, qishloq joylarida ixcham ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish hisobiga aholining ish bilan bandligini ta’minlash siyosatini faol amalga oshirmoqchimiz.

Ikkinchidan, davlat mablag‘lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat va xayriya tashkilotlari va jamg‘armalarining mablag‘larini keng jalb etish.

Aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatishda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining huquqlari ancha kengaytirilishi hamda mas’uliyati oshirilishi lozim. Ular mintaqalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash sohasida qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga haqlidir.

Mahalliy organlarning asosiy vazifasi — odamlarga o‘z farovonliklarini yuksaltirish maqsadida mehnat qilish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishdan iborat.

Ijtimoiy siyosat, uni amalga oshirish mexanizmlari odamlarning mehnatdagi faoliyatini va tadbirkorligini o‘stirish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga qaratilishi darkor.

Uchinchidan, odamlarning kuch va qobiliyatlari to‘la-to‘kis faollashuvini ta’minlashga qodir bo‘lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish. Bu mexanizmni birinchi navbatda, har bir kishining iqtisodiy erkinligi, uning o‘zi va oilasining baxt saodati uchun iqtisodiy javobgarligi bilan uyg‘unlashadigan shart-sharoitlarni yaratish hisobiga shakllantirish lozim.

O‘z qobiliyati va mehnatiga tayanib ish tutish farovonlikning birdan-bir va eng barqaror manbayi bo‘lib qoladigan munosabatni vujudga keltirish. Buning uchun xususiy mulk institutining rivojlanishini tezlashtirish juda muhim.

Bozor sharoitlariga moslashishi hozirgi kunning o‘zidayoq aholi jami daromadining ancha qismi tadbirkorlik faoliyati hamda mulkdan kelgan daromad hisobiga vujudga kelishini ta’minlamoqda.

To‘rtinchidan, aholining daromadlarida va turmush darajasida asossiz katta farqlarga yo‘l qo‘ymaslik. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydigan qatlamlarni shakllantirish.

Aholini ijtimoiy himoyalash borasida ko‘rilgan chora-tadbirlar aholining daromadlar darajasi bo‘yicha keskin tabaqalanish mumkinligining oldini oldi. Birinchi kunda aholining eng yaxshi ta’minlangan guruhi bilan eng kam ta’minlangan qismi olayotgan daromadlar o‘rtasidagi farq yuqori hisoblanuvchi 8 barobardan 7,5 barobargacha tushdi. Bu farqning 8 barobardan yuqori bo‘lishi jamiyat ijtimoiy jihatdan keskin tabaqalanganligidan darak beradi.

Beshinchidan, qashshoqlikka qarshi kurash. Aholi eng muhtoj qatlamning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini kuchaytirish.

Hozirgi jamiyatning asosiy illatlaridan biri qashshoqlikdir. Jahondagi bironta ham mamlakat, hatto eng boy mamlakat ham hozircha undan qochib qutila olmagan. BMT Bosh Assambleyasi 1996-yilni Qashshoqlikni tugatish halqaro yili deb e’lon qilinishi bejiz emas.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida qashshoqlik muammosi yanada chuqur his etiladi. Bu hol, eng avvalo, kambag‘allar toifasiga ijtimoiy nochor guruhlardan tashqari, aholining ilgari ular jumlasiga kirmagan guruhlari, shu jumladan daromadlari o‘rtacha yoki o‘rtadan yuqori darajada bo‘lganlar guruhiga mansub ko‘plab kishilar ham kirib qolishi bilan bog‘liqdir.

Qashshoqlikni tugatish muammolarini hal etishda aholining vujudga kelgan vaziyatlar tufayli kambag‘allik darajasiga tushib qolishi mumkin bo‘lgan «nochor guruh»i: nogironlar, yolg‘iz onalar, yetim bolalar, keksalarga alohida e’tibor berish talab qilinadi. Biroq bunda ko‘rsatilayotgan ijtimoiy yordamning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi yaqqol ko‘rinib turishi lozim.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, zimmaga olgan vazifalarni amalga oshirishda aholining siyosiy va ijtimoiy faolligini kuchaytirish juda muhim ahamiyat kasb etayotganligini alohida ta’kidlashni istar edik.

Respublikamizda hozirgi ijtimoiy ahvolni ana shu nuqtayi nazardan baholab dadil aytishimiz mumkinki, xalqimiz chekiga tushgan va o‘tish davrida muqarrar bo‘lgan eng qiyin sinovlar ortda qoldi. Tor fikr yuritish, mafkuraviy mahdudlik bilan bog‘liq bo‘lgan hamma holatlar o‘tmishga aylanmoqda. Mamlakat ichida emas, balki uning tashqarisida ham yuz berayotgan barcha hodisalarga daxldorlik hissi kuchayib bormoqda. Mustaqillik yillarida nafaqat o‘zingizni, balki boshqa mamlakatlar misolida to‘plangan oz, ammo

achchiq tajriba ko‘p masalalarda odamlarning ko‘zini ochdi, ularni yanada donoroq va sabotliroq qilib qo‘ydi.

Inson ma’naviyatining go‘zal milliy an’analarini qayta tiklashning muazzam qatlamlari ochildi.

Bugungi kunda aholining moddiy farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsata oladigan omillar deyarli yo‘q. Aksincha, barqarorlashtiruvchi, aholining turmush darajasi o‘sishi uchun shart-sharoit va ishonchli kafolatlar yaratib beruvchi omillar tobora ortib bormoqda.

Eng muhimi esa inson va fuqarolarning fikrlash va dunyoqarashi o‘zgarmoqda, siyosiy va ijtimoiy ongi, uning umumiy saviyasi to‘xtovsiz o‘sib bormoqda.

5.4. AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH SIYOSATI

16 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 10-dekabrdagi «Bolali oilalarni Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to‘g‘risida»gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-dekabrdagi «Bolali oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 437-sonli Qaroriga muvofiq bolali oilalarga 16 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarga nafaqalar tayinlash va to‘lash fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan faqatgina ushbu nafaqaga muhtoj bo‘lgan oilalarga tayinlanadi va to‘lanadi.

Ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilish, oshkoralikni ta’minlash hamda nafaqalarni to‘lash uchun ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish maqsadida bolali oilalarga nafaqalar tayinlash va to‘lash to‘g‘risidagi Qaror shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolari yig‘inida qabul qilinadi. Qatnashuvchi vakillar soni tuman (shahar) hokimligi tomonidan belgilanadi. Vakillar me’yorini aniqlashda mahallada istiqomat qiluvchi fuqarolarning soniga qarab ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan har bir 20—50 nafar fuqaroga 1 ta vakil tavsiya qilinadi.

Nafaqa olishda oilalarning muhtojlik darajasini aks ettiruvchi mezonni fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari mustaqil o‘rnatadi. Bunda quyidagilarga e’tibor beriladi:

- o‘zini o‘zi boshqarish organi hisob raqamida nafaqa to‘lash uchun mo‘ljallangan mablag‘lar miqdori;
- nafaqa olish uchun murojaat qilgan oilalar soni;

• tushgan arizalar soniga muvofiq to‘lashga mo‘ljallangan nafaqalar miqdori.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari hisob raqamiga o‘tkaziladigan mablag‘larning chegaralanganligini hisobga olib, oilalarni nafaqa olishga muhtoj deb tan olish mezonini oila daromadlarini hisoblash uchun qabul qilingan davrdagi har bir oila a’zosiga to‘g‘ri keladigan daromadning umumiy miqdorini hisoblashda eng kam ish haqi o‘rtacha oylik miqdorining bir barobaridan bir yarim barobarigacha o‘rnatish tavsiya qilinadi.

Agar bolalar nafaqasi to‘lovi uchun ajratilgan mablag‘lar limiti to‘liq foydalanilgan bo‘lsa, u holda yangi tushayotgan arizalarni qabul qilish va ko‘rib chiqish vaqtincha boshqa manbalar hisobidan qo‘shimcha mablag‘lar bilan ta’minlanguncha to‘xtatib turiladi.

Nafaqaga muhtoj oilalarni qayd qilish va hisobga olish tartibi

Nafaqa tayinlash yuzasidan murojaat qilgan ota yoki onaning yozma arizasi asosida nafaqa tayinlanadi. Arizada nafaqa so‘rab murojaat qilishga undovchi sabablar, oila tarkibi ariza berish sanasidan oldingi 12 oy davomida olgan daromadlari, tomorqa-xo‘jalik yuritishdan olingan daromadlari ko‘rsatiladi. Nafaqa tayyorlash to‘g‘risidagi ariza har bir oilaning doimiy yashab turgan joyidagi o‘zini o‘zi boshqarish organiga beriladi. Ayolning yolg‘iz ona ekanligi va bolalarini otasining ishtirokisiz yolg‘iz o‘zi tarbiya qilayotganligi FXDYO organlari tomonidan beriladigan F—4 ma’lumotnoma bilan tasdiqlanadi. Harbiy xizmatga chaqirilganligi yoki ozodlikdan mahrum etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar mudofaa ishlari bo‘limi, sud tomonidan tasdiqlanadi.

Oilalarning muhtojligini aniqlash uchun ularning daromadlarini tekshirish

Oilaning nafaqa olishga bo‘lgan muhtojlik darajasini aniqlash oila daromadlarini va mulkiy ahvolini tekshirib ko‘rish orqali aniqlanadi. Tekshirishni fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi Raisi va maxsus komissiya amalga oshiradi. Komissiya tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-avgustdagi 434-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Kam ta’minlangan oilalarni hisobga olish, ularga moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomiga muvofiq kam ta’minlangan oilalarning

daromadi va mulkiy ahvolini tekshirish komissiyasi tarkibida ishtirok etuvchi shaxslar qatnashadi.

Muhtoj oilalarni aniqlashda qo‘llaniladigan eng kam ish haqining o‘rtacha miqdori sifatida nafaqa so‘rab murojaat qilingan oydan avvalgi 12 oyga mo‘ljallab belgilanadi. Bundan keyingi arizalarni ko‘rib chiqishda va nafaqa tayinlashda eng kam ish haqining o‘rtacha oylik miqdori shu tartibda hisoblab chiqiladi.

Eng kam ish haqi miqdori o‘zgargan taqdirda, har bir oila a’zosiga to‘g‘ri keladigan eng kam ish haqi miqdoridan yuqori bo‘lgan daromad miqdorini nafaqa tayinlash uchun mezon sifatida belgilagan o‘z-o‘zini boshqarish organlari hisob raqamlaridagi mablag‘lar miqdoridan kelib chiqib, belgilangan mezonni qayta ko‘rib chiqishlari lozim.

Har bir oila a’zosiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha jami daromadni aniqlash

Oilaning har bir a’zosiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha oylik jami daromad oilaning umumiy daromadini hisoblash uchun qabul qilingan va oila a’zolari soniga bo‘lingan nafaqa so‘rab murojaat qilgan oydan avvalgi 12 oylik davr hisobga olingan holda, har bir oila a’zosi daromadlarining o‘rtacha oylik summasi sifatida aniqlanadi.

Oilaning har bir a’zosiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha oylik daromadi oila a’zolarining nafaqa so‘rab murojaat qilishidan oldingi 12 oylik davr ichida olgan daromadlarini haqiqatdan daromad olgan oylari soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Agar daromadni hisoblash uchun olingan davr (nafaqa tayinlash uchun murojaat etilgan oydan oldingi 12 oylik davr) ichidagi ish haqi chiqmagan oylari bo‘lsa, oilaning jami daromadini hisoblashda ushbu davrlar hisobga olinmaydi. Oylik maoshi saqlanmagan holda uzoq muddat (uch oydan ziyodroq) majburiy ta’tilda bo‘lgan shaxslar va qishloq xo‘jaligi korxonalari xodimlari bundan mustasnodir.

Mavsumiy tusga ega bo‘lgan ishlarni bajaruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalari (lekin, doimo qishloq xo‘jaligi korxonasi shtatida bo‘lgan) xodimlarning daromadlari nafaqaga murojaat etilgan oydan oldingi 12 oylik davr ichida hisoblab chiqilgan haqiqiy ish haqi (qo‘shimcha va mukofot pullari bilan birga) yig‘indisini 12 oyga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Oilaning umumiy daromadlarini hisoblashda barcha turdagi mehnat daromadlari (to‘liq ro‘yxati 3-ilovada ko‘rsatilgan) tadbirkorlik (shu jumladan, yakka tartibdagi mehnat) faoliyatidan olinadigan daromadlar, pensiyalar (qaysi turda bo‘lishidan qat’i nazar),

stipendiyalar, nafaqalar, shu jumladan, ishsizlik nafaqasi, bolani 2 yoshgacha parvarish qilish bo‘yicha to‘lanadigan nafaqa, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari orqali kam ta’minlangan oilalarga to‘lanadigan moddiy yordamlar hisobga olinadi.

Harbiy xizmatchilarning oylik maoshlari, barcha turdagi qo‘shimcha to‘lovlar bilan birgalikda oilaning jami daromadiga qo‘shib hisoblanadi.

Oilaning jami daromadi tarkibida ish haqi va boshqa turdagi daromadlar hisoblangan summa ko‘rinishida qo‘shiladi.

Daromadlari to‘g‘risida ma’lumotlar arizachi tomonidan shaxsan taqdim qilinadi. Daromadlari to‘g‘risida taqdim qilingan ma’lumotlarning to‘liqligi yoki haqiqiyligi shubha tug‘dirgan hollarda fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organi arizachidan ushbu ma’lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish huquqiga ega.

Oilaning jami daromadini hisoblashda to‘lanadigan (oylik maoshidan ushlab qolinadigan) alimentlarning summasi hisobga olinmaydi. Aliment oladigan oila daromadiga esa, bu daromadlaridan biri deb qaralib hisobga olinadi.

Agar nafaqa so‘rab murojaat qilgan ayol eri bilan ajrashgan (nikoh bekor qilingan) bo‘lib, aliment olmayotgan (ya’ni aliment undirish uchun sudga murojaat etmagan) bo‘lsa, o‘z-o‘zini boshqarish organi undan aliment undirish uchun murojaat etishni talab qilish huquqiga ega, chunki oila avvalambor o‘z moddiy ahvolini yaxshilashdagi barcha mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanishi lozim.

Oilaning jami daromadlari tarkibida ishdan bo‘shatilganda to‘lanadigan nafaqa, dafn etish marosimi uchun to‘lanadigan nafaqa, favqulodda yuz bergan tabiiy ofatlar, qarindoshlarining va boshqa yaqin odamlarining o‘limi munosabati bilan bir marta beriladigan moddiy yordam, farzand tug‘ilganda to‘lanadigan nafaqa, 16 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarga to‘lanadigan nafaqa, xayriya tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan bir marotabali moddiy yordamlar hisobga olinmaydi.

Xorijda ishlayotgan shaxslarning jami daromadlarini hisobga olishda ish haqi milliy hamda chet el valutasi ko‘rinishida hisobga olinadi. Chet el valutasida olingan daromadlar, oilaning jami daromadi aniqlanayotgan kundagi Markaziy bank belgilagan kurs bo‘yicha so‘mlarda hisoblab chiqiladi. Chet el valutasini so‘mlarda hisoblab chiqishga doir kurs bo‘yicha ma’lumotnomani nafaqa so‘rab murojaat qilgan shaxs taqdim qiladi.

Dehqon xo‘jaligidan olinadigan daromadlar nafaqa so‘rab murojaat qilgan shaxsning arizasida ma’lumotlar asosida aniqlanadi.

Agar taqdim etilgan arizada dehqon xo‘jaligidan olinadigan daromadlari kamaytirib ko‘rsatilgan bo‘lsa (ko‘pchilik fuqarolar arizada dehqon xo‘jaligidan olingan daromad, dehqon xo‘jaligi bo‘lgan ko‘pchilik oilalarga nisbatan sezilarli darajada kamaytirib berishadi yoki bu daromadni umuman ko‘rsatishmaydi), u holda dehqon xo‘jaligini yuritish uchun foydalanayotgan har bir 10 sotix yer maydonidan (dehqon xo‘jaligidan) olinadigan daromadlarini eng kam ish haqining o‘rtacha miqdorida olmoq zarur.

Ayrim hollarda, ma’lum sabablarga ko‘ra, yer hosildorligi (suv tanqisligi, yerni sho‘r bosishi) yuqorida ko‘rsatilgan miqdorda daromad olish imkonini bermasa yoki yer uchastkasidan umuman daromad olish imkoni bo‘lmasa, u holda tuman (shahar) hokimligining maxsus komissiyasi fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlarining ba’zi hududlari uchun dehqon xo‘jaligini yuritishdan olinadian daromad me’yorini pasaytirib belgilashi (daromad olishi imkoni yo‘q hollarda esa umuman hisobga olinmasligi) mumkin.

Agar foydalanilayotgan dehqon xo‘jaligi maydoni 10 sotixdan ko‘proq yoki kamroq bo‘lsa, u holda bu yerdan kelayotgan daromad shu miqdorga mutanosib ravishda ko‘paytiriladi yoki kamaytiriladi.

Ustiga binolar yoki boshqa maishiy imoratlar qurilgan yer maydoni dehqon xo‘jaligidan olinayotgan daromadlarni hisoblashda daromad manbayi sifatida hisobga olinmaydi.

1 yildan kam bo‘lmagan muddat ichida dehqon xo‘jaligi sifatida foydalanilayotgan yer maydonidan olinadigan daromad hisobga olinmog‘i lozim.

Dehqon xo‘jaligini yuritishdan olinadigan daromadlar oilaning boshqa manbalardan oladigan daromadlarining o‘rtacha oylik miqdoriga qo‘shib hisoblanadi.

Dehqon xo‘jaligida uy hayvonlari (sigir, qo‘y, echki, quyon va boshqa) dan olinadigan daromadni aniqlashning qiyinligini nazarda tutgan holda, ular hisobga olinmaydi. Ammo, ularni oilaning umumiy muhtojlik darajasini aniqlashda e’tiborga olish kerak.

Nafaqa tayinlanganidan keyingi davr ichida oila daromadlarining o‘zgarishi e’tiborga olinmaydi.

Agar oilaning jami daromadi hisobga olinayotgan davrda oila tarkibida nikohni bekor qilishga bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar sodir bo‘lsa, unda sobiq er va uning daromadlari hisobga olinmaydi, ammo oilaning o‘rtacha oylik daromadiga olinadigan alimentlarning sum-

masi qo‘shiladi. Ushbu summa shu davrda olingan jami alimentlarni ular olingan to‘liq oylar soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Oilaning har bir a’zosiga to‘g‘ri keladigan jami daromadini aniqlashda hisobga olinadigan oila tarkibi

Oilaning har bir a’zosiga to‘g‘ri keladigan jami daromadini hisoblashda oila tarkibida:

- er, xotin, ularning farzandlari, shu jumladan, ularning qaramog‘idagilar hamda 16 yoshdan katta, ammo o‘z oilasiga ega bo‘lmasdan, ota-onasi bilan birga yashayotganlar. Ota-onasi alohida yashayotgan hollarda (ajralishgan bo‘lsa) bolalari haqiqatda yashayotgan ona yoki otaning oilasi manzili bo‘yicha hisobga olinadi;
- er-xotinning ota-onasi, agar ular birga yashab, haqiqatda umumiy xo‘jalik yuritayotgan bo‘lsalar. Agar bitta manzilda 16 yoshgacha bo‘lgan bolalari bo‘lgan ikkita yoki undan ko‘p oila yashayotgan bo‘lsa, u holda oila tarkibida nafaqa so‘rab murojaat qilgan oilaning a’zolari (bolalar, ularning ota-onalari, oila qaramog‘idagi shaxslar) hisobga olinadi;
- yolg‘iz ona va uning farzandi (lari) hamda yolg‘iz onaning ota-onasi, agar u haqiqatda ota-onaning oilasida yashayotgan bo‘lsa;
- oilada yashayotgan o‘gay o‘g‘il va qizlar, agar ular boshqa ota-onaning oilasida hisobga olinmagan bo‘lsa.

Oilaning har bir a’zosiga to‘g‘ri keladigan jami daromadini aniqlashda, quyidagilar ushbu oila tarkibiga kiradi deb hisobga olinmaydilar:

- nafaqa tayinlash yuzasidan murojaat qilgan er va xotinning o‘z oilalariga ega bo‘lgan aka-uka va opa-singillari;
- ozodlikdan mahrum qilinganlik yoki majburiy davolanishga yo‘llanganlik munosabati bilan oilaning jami daromadini hisoblash uchun qabul qilingan davr ichida o‘z oilasi tarkibida bo‘lmagan er yoki xotin;
- ota-onalari ularga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bolalar;
- davlat tomonidan to‘liq ta’minlanuvchi bolalar.

Agar oilaning ish bilan ta’minlanmagan va daromadga ega bo‘lmagan, mehnatga layoqatli a’zolari bo‘lsa (mehnat birjasida hisobda turgan ishsizlar, farzandini 3 yoshgacha ishlamasdan parvarish qiluvchi onalar hamda dehqon xo‘jaligida band bo‘lgan oila a’zolari bundan mustasno), oilaning jami daromadini aniqlashda, oiladagi ish bilan band bo‘lmagan va daromadga ega bo‘lmagan a’zolaridan o‘zgalari hisobga olinadi.

Agar dehqon xo‘jaligi sifatida foydalaniladigan yer maydoni oilaning har bir mehnat qilishga layoqatli a’zosiga 7 sotixdan kam bo‘lmagan miqdorda to‘g‘ri kelsa, dehqon xo‘jaligida ish bilan band bo‘lgan oila a’zolari oila tarkibida deb hisobga olinadi.

16 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarga nafaqa tayinlash va to‘lash

Fuqarolar yig‘ini nafaqa tayinlash yuzasidan ariza bergan oilalarning ro‘yxati tayyor bo‘lishiga qarab chaqiriladi.

Agar o‘rnatilgan tartibda fuqarolar yig‘ini (vakillar yig‘ilishi) chaqirish muddatigacha oilaning daromadlari va mulkiy ahvoli tekshirilib, komissiya tegishli xulosalar chiqargan bo‘lsa, fuqarolar yig‘ini fuqarolardan tushgan arizalarni joriy oyda ko‘rib chiqish mumkin.

Xalq banki muassasida maxsus «Bolalar nafaqalari» hisob raqami bo‘lgan fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari o‘zlari mustaqil ravishda nafaqa tayinlaydilar va uni to‘lash uchun zarur bo‘lgan barcha moliyaviy hujjatlarni rasmiylashtiradilar. Shaharcha, qishloq yoki ovul fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari tarkibiga kirib, Xalq banki muassasida maxsus (bolalar nafaqalari) hisob raqamiga ega bo‘lmagan mahallalar ushbu uslubiy ko‘rsatmaning 10—12-bandlariga muvofiq o‘zlari mustaqil ravishda oilalarning daromadlarini o‘rganadilar, mahalla fuqarolar yig‘inini o‘tkazadilar, nafaqa tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qiladilar va uni yig‘in bayoni bilan rasmiylashtiradilar. Yig‘in bayoni shaharcha, qishloq yoki ovul fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organiga tasdiqlash va kerakli to‘lov qog‘ozlarini rasmiylashtirish uchun yuboriladi. Bayon Rais (oqsoqol) ning imzosi va muhri bilan tasdiqlanadi.

Nafaqa tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qilinayotganda ariza bergan shaxsning yoki oilaning balog‘at yoshiga yetgan boshqa a’zosining ishtirok etishi shart.

Arizachi yoki oilaning boshqa vakili qatnashmagan hollarda mazkur oilaga nafaqa tayinlash masalasi ko‘rib chiqilmaydi va ariza keyingi (navbatdagi) fuqarolar yig‘iniga qoldiriladi.

Nafaqa tayinlash masalasi ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra keyingi (navbatdagi) fuqarolar yig‘iniga qoldirilganda hujjatlarni qayta rasmiylashtirish (qayta ariza, daromad to‘g‘risida qo‘shimcha ma’lumotnomalar talab qilish, mulkiy ahvoli va daromadini uyiga borib o‘rganish) talab etilmaydi.

Nafaqa tayinlash (rad qilish) to‘g‘risida qaror har bir oila uchun komissiyaning xulosasi asosida, alohida qabul qilinishi lozim. Qabul qilingan qaror yig‘inning alohida yoki umumiy bayoni bilan rasmiylashtiriladi. Umumiy bayonni rasmiylashtirish chog‘ida har bir oila bo‘yicha qabul qilingan qaror alohida band (paragraf) bilan, ovoz berish natijasi va qaror qilish qismini ko‘rsatgan holda rasmiylashtiriladi.

Nafaqa tayinlash so‘roviga rad javobi qilinganda, majburiy tartibda yig‘in bayoniga rad javobining sabablari kiritiladi.

Nafaqa tayinlash yoki uni tayinlashni rad etish to‘g‘risidagi qarorga fuqarolar yig‘ini (vakillar yig‘ilishi) a’zolarining ko‘pchiligi ovoz bersa, u qabul qilingan hisoblanadi. Qaror ochiq ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi.

Nafaqa tayinlash rad qilinganda komissiya quyidagilarga asoslanishi mumkin:

- oilada mehnatga layoqatli band bo‘lmagan a’zolarning (mehnat bo‘limida hisobda turgan ishsizlar, farzandini 3 yoshgacha ishlamasdan parvarish qiluvchi onalar bundan mustasno) mavjudligi. Bu holda rad javobini oilada, band bo‘lmagan oila a’zolarini daromad keltiruvchi foydali mehnatga jalb qilish orqali uning moddiy sharoitini yaxshilash uchun obyektiv imkoni borligi bilan asoslash zarur;
- oilaning har bir a’zosiga to‘g‘ri keladigan daromadi, o‘rnatilgan nafaqaga muhtojlik mezonidan yuqori ekanligi;
- oilaning ixtiyorida, foydalanish uchun xarajatlar talab qiladigan qimmatbaho mulkning mavjudligi.

Nogiron bolalari bo‘lgan oilalar, ota-onasi bo‘lmagan, bolalar tarbiyasi bilan qarindosh-urug‘lari shug‘ullanadigan oilalar, bolalarning ota-onasidan biri yoki ikkalasi ham nogiron yoki ishsiz deb e’tirof etilgan oilalar bolalar nafaqasini birinchi navbatda olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Birinchi navbatda nafaqa olish huquqi deganda qolgan shartlar (qoniqarsiz mulkiy ahvol, daromadning pastligi va h.k.) bir xil bo‘lgan taqdirda aynan shu oilalarga avvalombor nafaqa tayinlanishi tushuniladi. Masalan, nafaqalar uchun ajratilgan mablag‘lar barcha muhtoj oilalarni qamrab olish uchun yetarli bo‘lmasa, unda birinchi navbatda imtiyozga ega bo‘lgan oilalar tanlab olinishi lozim.

Oilaning har bir a’zosiga to‘g‘ri keladigan daromadlari, o‘rnatilgan nafaqa tayinlash mezonidan past bo‘lgan oilalarga nafaqa tayinlab bo‘lgandan keyin va fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organining

hisob raqamida foydalanilmagan (erkin qoldiq mablag‘lar bo‘lsa, tarkibida nogiron bolalar, ota-onasiz qolgan bolalar tarbiyalanayotgan (Nizomning 5-bandida ko‘rsatib o‘tilgan) oilalarga, oilaning har bir a’zosiga to‘g‘ri keladigan jami daromadining o‘rtacha miqdori fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organi o‘rnatgan mezondan yuqori bo‘lishiga qaramay, nafaqa tayinlanishi mumkin. Bunday hollarda, yig‘in bayonida har bir oila a’zosiga to‘g‘ri keladigan jami daromadning o‘rtacha miqdori fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organi o‘rnatgan mezondan yuqori bo‘lgan oilaga nafaqa tayinlash sababi ko‘rsatilishi lozim.

Nafaqa tayinlangan oilada 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar soni o‘zgarsa (bolalarning birontasi 16 yoshga to‘lsa, navbatdagi bola tug‘ilsa va h.k.), ushbu oila olayotgan nafaqa miqdori bolalarning soni ana shu miqdordagi oilalarga tayinlangan nafaqa miqdori bilan barobar bo‘ladi. Yangi miqdordagi nafaqa to‘lovi oilada 16 yoshgacha bolalar soni o‘zgargan oyning keyingisidan boshlab to‘lanadi. Bunday holda, nafaqa miqdorini qayta ko‘rib chiqish uchun fuqarolar (ko‘cha, uy vakillari) yig‘inining qarori bo‘lishi shart emas.

Bolali oilalarga nafaqa, oilaning yashab turgan joyidagi Xalq banki muassasalari tomonidan, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari taqdim qilgan to‘lov varaqalari asosida to‘lanadi. To‘lov varaqasining 2-ilovadagi shaklidan foydalaniladi.

To‘lov varaqasi ikki nusxada to‘ldiriladi va Xalq banki muassasasiga taqdim qilinib, bir nusxasi Xalq banki muassasasida saqlanadi, boshqasi esa to‘lov varaqasi yopilganidan so‘ng, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organiga qaytarib beriladi.

To‘lov varaqasiga, ushbu varaqaga binoan to‘lanadigan mablag‘larning umumiy summasi yozilgan to‘lov topshiriqnomasi ilova qilinadi. To‘lov topshiriqnomasi belgilangan tartibda, fuqarolar yig‘inining nomini, maxsus hisob raqamining nomerini, umumiy summasini hamda to‘lov maqsadi ko‘rsatilgan holda to‘ldiriladi.

To‘lov varaqasi hisobot hujjati bo‘lib hisoblanadi va fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organida, moliyaviy hujjatlar saqlash qoidalariga muvofiq holda saqlanadi.

«Bolalar nafaqalari» maxsus hisob raqamidan ishlatilgan moliyaviy mablag‘lar bo‘yicha hisob yurgizish va hisobotlar tayyorlash fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organining kotibi tomonidan olib boriladi. Har oyda mablag‘larning ishlatilishi to‘g‘risida fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organining raisi (Oqsoqol) tomonidan

imzolangan hisobot qilinadi va hisobot qilingan oydan keyingi oyning 10-kuniga (sanasiga) qadar tuman (shahar) hokimligining moliya hamda mehnat, aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy himoya qilish bo'limiga (mehnat bo'limiga) taqdim qilinadi.

Tuman (shahar) hokimligining moliya hamda mehnat, aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy himoya qilish bo'limi (mehnat bo'limi) umumlashtirilgan ma'lumotlarni hisobot qilingan oydan keyingi oyning 15-sanasiga qadar tegishli viloyat boshqarmasiga taqdim qilishlari shart.

Viloyat hokimligining moliya va mehnat, aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy himoya qilish boshqarmalari mablag'larning ishlatilishi to'g'risida tumanlardan olinib, umumlashtirilgan ma'lumotlarni hisobot qilingan oydan keyingi oyning 18-sanasiga qadar tegishli vazirliklarga umumlashtirish va tahlil qilish uchun taqdim qilishlari shart.

Budjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy ajratmalar

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi hamda Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga solinadigan majburiy ajratmalarning to'lov obyektlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi PQ-1675-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Pensiya jamg'armasiga tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilish hajmidan majburiy ajratmalar bo'yicha stavka 2011 yil darajasida 1,6 foiz miqdorida saqlanib qolindi.

Respublika yo'l jamg'armasiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilish hajmidan majburiy ajratmalar stavkalari birxillashtirildi hamda barcha to'lovlar uchun 1,4 foiz miqdorida o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 21 noyabrdagi PQ-1645-sonli qarori bilan 2012 yilning 1 yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi PQ-1675-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi etib qayta tashkil etildi.

2012 yil uchun Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkasi 0,5 foiz miqdorida o'rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta‘lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar bo‘yicha qonunchilik tomonidan xo‘jalik subyektlariga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta‘lim va sog‘liqni saqlash muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalarga ham tadbiq etiladi.

2012 yilning 1 yanvaridan boshlab ixtisoslashgan savdo tarmog‘idan Rossiya Federatsiyasi va Ukrainada ishlab chiqarilgan yangi avtomobil xarid qiluvchi fuqarolar avtotransport vositalarini sotib olganligi va (yoki) vaqtinchalik O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganligi uchun Respublika yo‘l jamg‘armasiga to‘lanadigan yig‘imlardan ozod etiladi.

Ijtimoiy sug‘urtaga majburiy badallar va ajratmalar

Yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi 25 foiz darajasida saqlanib qolindi.

Bunda yagona ijtimoiy to‘lov summasi quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi	24,8%
Badlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi	0,1%
O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi	0,1%

Ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar va korxanalarda ishlovchi nogironlar mehnatiga haq to‘lash fondiga 4,7 foizlik stavka bo‘yicha yagona ijtimoiy to‘lov solinadi.

«SOS - O‘zbekiston bolalalar mahallalari» uyushmasi uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi bo‘shaydigan mablag‘larni yetim bolalar uchun xayriya faoliyatini kengaytirishga, «SOS - bolalalar mahallalari» moddiy texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirishga hamda ular bilan bog‘liq loyihalarga maqsadli yo‘naltirish sharti bilan mehnatga haq to‘lash fondining 7 foizi miqdorida belgilangan.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga fuqarolarning mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlaridan majburiy sug‘urta badallari stavkasi 2011 yilda amal qilgan 4,5 foiz o‘rniga 2012 yil uchun 5,5 foiz miqdorida belgilandi.

Soliq kodeksining 306-moddasining ikkinchi qismiga kiritilgan qo‘shimchaga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlash

uchun chet ellik xodimlarni berish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish shartnomasiga muvofiq yuridik shaxs - O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga chet ellik xodimlarning daromadlari ham yagona ijtimoiy to‘lovning soliq solish obyekti hisoblanishi belgilanadi.

Soliq kodeksining 307-moddasiga kiritilgan qo‘shimchaga ko‘ra, 306-moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan daromadlar bo‘yicha yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza chet ellik xodimlarga to‘lanadigan daromadlar summasi sifatida aniqlanadi, biroq bu summa O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni berish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish shartnomasiga doir harajatlar umumiy summasining 90 foizidan kam bo‘lmasligi belgilab berildi.

Soliq kodeksining 308-moddasiga kiritilgan o‘zgartirishlar quyidagilarni nazarda tutadi:

yagona ijtimoiy to‘lov va fuqarolarning sug‘urta badallari bo‘yicha xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli budjet yoki xayriya jamg‘armalarga (shanbaliklar, yakshanbaliklar va shu kabilar uchun) o‘tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlar bo‘yicha imtiyozni bekor qilish;

fuqarolarning sug‘urta badallari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining xizmatni o‘tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) uchun sarf-harajatga yo‘naltiriladi.

YAGONA YER SOLIG‘I STAVKASI

To‘lovchilar	Normativ qiymatga nisbatan stavka, foizda*
Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar	6,0

*) Bunda jamoat imoratlari va hovlilari bilan band bo‘lgan yerlar 2,0 koeffisentini qo‘llagan holda baholanadi.

Izohlar:

1. Har bir xo‘jalik bo‘yicha qishloq xo‘jaligi yerlarining normativ qiymati O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

2. Belgilangan mezonlarga muvofiq yagona yer solig‘i to‘lovchilariga kiritiladigan baliqchilik xo‘jaliklari sug‘oriladigan yerlarning tuman bo‘yicha o‘rtacha normativ qiymatidan kelib chiqib, yagona yer solig‘ini to‘laydilar.

2-jadval

MAHALLIY SOLIQLAR VA YIG‘IMLARNING CHEGARALANGAN STAVKALARI

№	Soliqlar va yig‘imlarning turlari	Chegaralangan stavkalar
1.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i	sof foydaning 8%i
2.	Quyidagilarning iste‘moli uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq:*	
	transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi	1 litr uchun 200 so‘m
	transport vositalari uchun suyultirilgan gaz	1 litr uchun 165 so‘m
	transport vositalari uchun siqilgan gaz	1 kub metr uchun 200 so‘m
3.	Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im:**	
	alkogoli mahsulotlar	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 5 baravari
	qimmatbaho materiallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 3,5 baravari
4.	Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash bo‘yicha puli xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im.***	har bir oy uchun eng kam ish haqining 8 baravari

*) Ko‘rsatib o‘tilgan stavkalar miqdorlari O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi. Soliq stavkasining aniq miqdori O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taklifiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Yuridik shaxslar chakana narxlarda chakana savdo tarmog‘i (avtomobillarga yonilg‘i quyish shoxobchalari) orqali benzin, dizelg‘ yoqilg‘isi va gaz sotishda jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizelg‘ yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq budjetga qonunchilikda belgilangan tartibda to‘lanadi va sotish narxida hisobga olinadi.

**) Yig‘im mablag‘lari kelgusida budjet hamda shahar va tuman hokimliklarining budjetdan tashqari (maxsus) hisobvaraqalari o‘rtasida taqsimlash bilan yagona hisobvaraqqa, Toshkent shahrida esa - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda Savdo, xizmatlar sohasi va xalq iste‘moli tovarlari ishlab chiqarish deportamentining hisob raqamiga kelib tushadi.

***) Toshkent shahrida yig‘im miqdori eng kam ish haqining 5 baravari, viloyat markazlarida - eng kam ish haqining 3 baravari, boshqa aholi punktlarida - eng kam ish haqining 2 baravari miqdoridan kam bo‘lmasligi kerak.

3-jadval

DAVLAT BUDJETIDAN IJTIMOIY SOHA VA AHOLINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH XARAJATLAR TARKIBI

Ko‘rsatkichlar	2010 yil		2011 yil		2012 yil	
	milliard so‘m	foizda	milliard so‘m	foizda	milliard so‘m	foizda
Davlat budjeti xarajatlari, milliard so‘m	13733	100	16991	100	21571	100
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari, jami	8 113	59,1	10112	59,5	12513	58
Ta’lim	4 635	33,8	5890	34,6	7223	33,4
sog‘liqni saqlash	1 704	12,4	2217	13,0	2820	13,0
madaniyat va sport	160	1,2	194	1,1	226	1,0
ilm-fan	84	0,6	111	0,6	140	0,6
ijtimoiy ta’minot	59	0,4	74	0,4	93	0,4
oilalarga ijtimoiy nafaqalar	1 432	10,4	1582	9,3	1899	8,8

5-diagramma

BUDJET PROFETSITI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BUDJETI KO‘RSATKICHLARINING BAJARILISH DARAJASI, FOIZDA



2000–2004 yillar davomida mamlakatimiz davlat budjeti taqchilligini – 1,0 foizdan – 0,4 foiz darajasiga qadar pasaytirishga, 2005–2008 yillar davomida esa davlat budjeti taqchilligiga barham berib, davlat budjeti profitsitini 0,1 foizdan 1,5 foizga qadar oshirishga erishildi.

2-chizma

O‘ZBEKISTONDA OILALARNING DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLANISHI

Qo‘llab-quvvatlash tizimi	Pul nafaqalari berish tarzida moddiy yordam ko‘rsatish	
Oilaning toifalari	Kam ta’minlangan	16 yoshgacha bo‘lgan
Nafaqaning qiymati	Eng kam ish haqining 1,5 – 3 baravari miqdorida	Eng kam oylik ish haqining 1 bolali –50% 2 bolali –100% 3 bolali – 140% 4 ta va undan ortiq – 175%
To‘lov davrlari	Har oyda – 3 oy	Har oyda – 6 oy
	Agar oilaning moddiy ahvoli yaxshilanmasa, moddiy yordam keyingi 3 oy muddatga	
Nafaqalar tayinlanadi	Posyolkalar, qishloqlar, ovullar va mahalla yig‘inlari (Bundan keyin fuqorolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari deyiladi) tomonidan ommaning arizasini o‘rganish hukumati va shahar komissiyasiga belgilangan oila mustahkamligi ochiq ovoz berish yo‘li	
Nafaqalar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun majburiy shartlar	Ijtimoiy adolat prinsipiga og‘ishmay rioya qilish; ko‘rsatilmayotgan moddiy yordamning aniqligini ta’minlash, haqiqatdan ham muhtoj oilalarga berish; aholini ijtimoiy himoyalash chora tadbirlariga ayrim oilalar tomonidan boqimandalik kayfiyatidagi munosabatda bo‘lishligiga yo‘l qo‘ymaslik, oila a’zolar, ayniqsa bolalarning moddiy farovonligi, har tomonlama jismonan barkamol bo‘lishligi, ma’lumot va kasb-hunarini oshirish uchun zarur sharoitlar yaratish oilaning mas’uliyatiga kiradi	
Beriladi	Nafaqa oluvchining taqdim etilgan ro‘yxatlari va moddiy yordam zaxiralari asosida fuqorolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari maxsus hisob-kitob raqamlaridan olib, oilaning istiqomat joylaridagi Xalq banki bo‘limlari tomonidan beriladi	
Mablag‘ bilan ta’minlash manbalari	Mahalliy budjet mablag‘lari budjetdan tashqari mablag‘lardan ijtimoiy va xayriya fondlari, korxonalar va xo‘jaliklarning mablag‘lari, fuqorolarning ixtiyoriy xayriyalar va boshqalar	Respublika budjeti mablag‘lari, mahalliy budjet mablag‘lari va budjetdan tashqari mablag‘
Ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish ustidan nazorat	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Juqorg‘i Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tuman hokimlari va Moliya vazirligining nazorat-taftish boshqarmasi	Shaxsan Respublika Bosh vaziri o‘rinbosari, Moliya vazirligi va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi, hokimliklar

4-jadval

DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING TASHKILIY TASNIFI

Bob	Nomi
001	O‘zbekiston Davlat kosmik tadqiqotlar agentligi «O‘zbekkosmos»
002	O‘zbekiston mashinasozlik korxonalari uyushmasi «O‘zmashsanoat»
003	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi katta va alohida muhim suv xo‘jaligi obyektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Davsuvxo‘jaliknazorat)
004	Navoiy kon-metallurgiya kombinati
005	Olmaliq kon-metallurgiya kombinati
006	«O‘zbekneftegaz» milliy xolding kompaniyasi
007	«O‘zqurilishmateriallari» aksionerlik kompaniyasi huzuridagi kompleks tog‘-geologiya ekspeditsiyasi
008	«O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasi
009	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
010	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
011	O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi
012	O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi
013	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi
014	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
015	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining ishlar boshqarmasi
016	O‘zbekiston Respublikasi markaziy saylov komissiyasi
017	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
018	Viloyat, shahar, tuman hokimiyatlari
019	O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi
020	O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi
021	O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo‘mitasi
022	«O‘zbekiston temir yo‘llari» davlat-aksionerlik kompaniyasi
023	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari qo‘mitasi
024	O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari Milliy markazi
025	YUHESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi
026	O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo‘mitasi
027	Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi
028	O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi
029	Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi

davomi

Bob	Nomi
030	O‘zbekiston Yevropa ittifoqi komissiyasining texnikaviy yordamini muvofiqlashtirish byurosi
031	«Sog‘lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo‘lmagan xalqaro xayriya jamg‘armasi
032	O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi
033	«Davlat belgisi» Davlat ishlab chiqarish birlashmasi
034	Uzavtosanoat aksiyadorlik kompaniyasi
035	«V.P.CHkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi» Davlat aksionerlik jamiyati
036	«O‘zbekiston metallurgiya kombinati» aksionerlik ishlab chiqarish birlashmasi
037	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasi
038	O‘zbekiston kimyo sanoati korxonalari uyushmasi «O‘zkimyosanoat»
039	O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi
040	O‘zbekiston Respublikasi baynalmilal madaniyat markazi
041	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi
042	O‘zbekiston radioelektronika, elektrotexnika va asbobsozlik sanoati korxonalari uyushmasi «O‘zeltexsanoat»
043	O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
044	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
045	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi
046	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi
047	Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi tibbiy-sanitariya birlashmasi
048	«Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi
049	«Oila» Respublika ilmiy amaliy markazi
050	O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi
051	O‘zbekiston badiiy akademiyasi
052	«O‘zdonmahsulot» davlat-aksionerlik korporatsiyasi
053	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat don inspeksiyasi
054	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi
055	Dori-darmon aksiyadorlik kompaniyasi
056	O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi

davomi

Bob	Nomi
057	«O‘zmevasabzavotuzumsanoat-xolding» kompaniyasi
058	O‘zbekiston yengil sanoat mollari ishlab chiqarish davlat uyushmasi «O‘zbekyengilsanoat»
059	O‘zbekiston farmatsevtika sanoati davlat-aksionerlik konserni «O‘zfarm-sanoat»
060	Yog‘-moy va tamaki sanoati korxonalari uyushmasi «Yog‘moytamaki-sanoat»
061	Respublika o‘simliklarni himoya qilish va agrokimyo markazi
062	Qandolatchilik, choy va pivo-alklgolsiz ichimliklar sanoati korxonalari uyushmasi «Oziqovqatsanoat»
063	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi
064	O‘zbekiston montaj va maxsus qurilish ishlari uyushmasi
065	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O‘zarxiv» agentligi
066	Iqtisodiy tadqiqotlar markazi
067	V. A. Bugayev nomidagi O‘rta Osiyo ilmiy tadqiqot gidrometrologiya instituti
068	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi strategik va mintaqalararo tadqiqot instituti
069	Markaziy osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti
070	O‘zbekiston Respublikasi «Pilla-xolding» kompaniyasi huzuridagi O‘zbekiston pillachilik ilmiy tadqiqot instituti
071	«Uzbeknavo» birlashmasi
072	«O‘zqishloqxo‘jalikmash-xolding» kompaniyasi
073	O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
074	O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti
075	O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
076	«O‘zbaliq» davlat-aksionerlik korporatsiyasi
077	«O‘zqurilishmateriallari» aksiyadorlik kompaniyasi
078	O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi
079	O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
080	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
081	O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo‘mitasi
082	O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi (qishloq xo‘jaligi)
083	«Obi-hayot» aksionerlik investitsiya kompaniyasi
085	O‘zbekiston Respublikasi sanoat va aholi qurilishi davlat korporatsiyasi

davomi

Bob	Nomi
086	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi kimyo va o‘simliklarni himoya qilish davlat komissiyasi
087	«Uzagromashservis» uyushmasi
088	«O‘zbeksavdo» aksiyadorlik kompaniyasi
089	«O‘zbekbirlashuv» aksiyadorlik kompaniyasi
090	Ko‘mir qazib olish va sotish aksionerlik birlashmasi AB«Ko‘mir»
092	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
093	O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi
094	«Maxsusqotishma» Respublika tashkiloti
095	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi soliq-budjet siyosati markazi
096	O‘zbekiston Respublikasi Qizilqum nodir metallar va oltin davlat konserni «Qizilqumnodirmetalloltin»
097	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi axborot-hisoblash markazi
098	«O‘zbekenergo» davlat-aksionerlik kompaniyasi
099	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Hukumat aloqasi xizmati
100	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
101	Respublika aksionerlik-tijorat sanoat-qurilish banki
102	Ipoteka-bank aksiyadorlik tijorat ipoteka banki
103	O‘zbekiston Respublikasi davlat-tijorat Xalq banki
104	O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi
105	O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki
106	Davlat-aksiyadorlik tijorat «Asaka» banki
107	«Agrobank» aksiyadorlik tijorat banki
108	O‘zbekiston oltin qazib olish va olmosga ishlov berish korxonalari uyushmasi «O‘zolmosoltin»
109	O‘zbekiston Respublikasi Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Davavianazorat inspeksiyasi)
110	«O‘zkommunxizmat» o‘zbek agentligi
111	Toshkent shahar yo‘lovchilar tashish transporti korxonalari davlat uyushmasi «Toshshaharyo‘lovchitrans»
112	«Mahalliy sanoat» Davlat korporatsiyasi
113	Paxta loyihasini amalga oshirish agentligi
114	O‘zbekiston Davlat transport qurilishi korxonalari uyushmasi «O‘zbek-transqurilish»
115	Orolni saqlab qolish xalqaro jamg‘armasi
116	«O‘zbek qog‘ozi» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati

davomi

Bob	Nomi
117	O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta‘minot vazirligi
118	O‘zbekiston avtomobil yo‘llari qurish va foydalanish davlat-aksionerlik konserni «O‘zavtoyo‘l»
119	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining «Orolbo‘yi» birlashmasi
120	O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati hokimining «Orolbo‘yi» birlashgan direksiyasi
121	O‘zbekiston Respublikasi Navoiy viloyati hokimi huzuridagi «Orolbo‘yi» obyektlarini qurish bo‘yicha birlashgan direksiyasi
122	O‘zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati hokimiyatining «Orolbo‘yi» yagona direksiyasi
123	«Amudaryo» havzasi suv xo‘jaligi birlashmasi
124	«Sirdaryo» havzasi suv xo‘jaligi birlashmasi
125	O‘zbekiston go‘sht-sut sanoati davlat-aksionerlik uyushmasi «O‘zgo‘shtsut-sanoati»
126	«O‘rta Osiyo Trans» Davlat-aksionerlik kompaniyasi
127	«O‘zekspotsentr» Respublika savdo-ko‘rgazma markazi
128	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha oliy malaka komissiyasi kotibiyati
129	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sudlar faoliyatini tashkiliy, moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta’minlash departamenti
130	O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi
131	«Toshkentqurilish» Toshkent davlat-aksionerlik qurilish korporatsiyasi
132	O‘zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish Respublika agentligi
133	O‘zbekiston Milliy axborot agentligi
134	O‘zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasi
136	«O‘zbekkino» davlat-aksionerlik kompaniyasi
137	O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi
138	O‘zbekiston ulgurji va birja savdosi bo‘yicha Respublika aksionerlik uyushmasi
139	O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo‘mitasi
140	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi
141	O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy himoyalash vazirligi
142	O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi o‘rmon xo‘jaligi Bosh boshqarmasi
143	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chet elda ta’lim olishlarini qo‘llab -quvvatlash «Umid» jamg‘armasi

davomi

Bob	Nomi
144	O‘zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi
145	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi qishloq xo‘jaligini texnika bilan ta’minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi
146	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hisob-kitob jamg‘armasi
147	O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi
148	O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi
149	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi adabiyot, san’at va me’morchilik sohasida Davlat mukofotlari qo‘mitasi
150	O‘zbekiston yozuvchilari uyushmasi
151	O‘zbekiston bastakorlari uyushmasi
152	«Taffakur» jurnali
153	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi bayram va yubiley tadbirlarini o‘tkazish direksiyasi
154	Toshkent shahar hokimiyati huzuridagi bayram va yubiley tadbirlarini o‘tkazish direksiyasi
155	O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi
156	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bosh boshqarmasi
157	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Toshkent Islom universiteti
158	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati Markazi
159	O‘zbekiston karlar jamiyati
160	O‘zbekiston ko‘rlar jamiyati
161	Farg‘ona «Azot» ishlab chiqarish birlashmasi
162	«UzEksayd» O‘zbekiston-Amerika qo‘shma korxonasi
163	«Avtooyna» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati
164	«Uzglaszayden» O‘zbekiston-Olmoniya-Shveytsariya qo‘shma korxonasi
165	Ilmiy-texnika taraqqiyotini Muvofiqlashtirish Kengashi huzuridagi Yirik ilmiy va investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish kengashi
166	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi fan va texnologiyalar Markazi
167	Alisher Navoi nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi
168	Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi
169	O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi qoshidagi qishloq xo‘jaligi korxonalari tarkibini qayta tuzish agentligi

davomi

Bob	Nomi
170	O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi (suv xo‘jaligi)
171	O‘zbekiston suv xo‘jaligi qurilishi davlat konserni
172	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi
173	O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati
174	O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini qo‘riqlash qo‘mitasi
175	O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi
176	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish Qo‘mitasi
177	O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti
178	Maxsus baza
179	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
180	O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining jazoni ijro etish Bosh boshqarmasi
181	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining moddiy-texnika va harbiy ta’minot boshrarmasi
182	O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi
183	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki xuzuridagi kimmatbaho metallar agentligi
184	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi
185	O‘zbekiston Respublkasi DSK soliq kolleji
186	O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri Davlat qo‘mitasi
187	Shohi Zinda jamoatchilik fondi
188	Budjetdan tashqari Maktab ta’limi jamg‘armasi
189	Xalqaro «Kurash» assotsiatsiyasi
190	O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘zbek qishloq xo‘jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi
191	«Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik tijorat banki
192	Aksiyadorlik tijorat «Turon» banki
193	Mikrokreditbank aksiyadorlik tijorat banki
194	«Parvina-bank» xususiy yopiq aksiyadorlik-tijorat binki
195	O‘zbekiston-Germaniya «Savdogar» aksiyadorlik-tijorat banki
197	«Hamkorbank» aktsiyadorlik-tijorat banki
198	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yagona buyurtmachi xizmati

davomi

Bob	Nomi
199	Boshqa vazirliklar va tashkilotlar, boshqarma va bo‘limlar
200	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati
202	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti
213	O‘zbek xalqaro banki «O‘zprivatbank»
214	Ipak Yo‘li aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki
215	Ipoteka krediti berishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi
216	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti
217	O‘zbekiston futbol Federatsiyasi
218	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi
219	Aloqa bank aksiyadorlik tijorat banki
220	O‘zbekiston elektr-energetika, neft-gazni qayta ishlash, kimyo va og‘ir sanoat davlat loyihalash instituti
221	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi
223	Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi*
224	O‘zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi
225	O‘zbekiston «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati
226	Fuqarolik jamiyatini o‘rganish instituti
227	O‘zbekiston Nodavlat va notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash Milliy Assotsiatsiyasi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi
228	O‘zbekiston OAV Milliy Assotsiatsiyasi huzuridagi Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi
229	O‘zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot agentliklarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat jamg‘armasi
230	Mintaqaviy siyosat jamg‘armasi
231	Univesal Bank xususiy ochiq turdagi aksiyadorlik tijorat banki
232	Hissadorlik- tijorat bank «Kapital bank»
233	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi
234	Fonon Ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi
235	O‘zmeliomashlizing davlat lizing kompaniyasi
236	O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi.

davomi

Bob	Nomi
237	Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi
238	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Ijtimoiy tadqiqotlar instituti
239	Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi
240	Xalqaro Vestminster universiteti
241	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi (DPM)
242	Toshkent shahrining uy-joy massivlarini yangilash va kompleks qurish jamg'armasi
243	Tashqi siyosiy tadqiqotlar Muvofiqlashtirish-tahliliy markazi

6-bob
DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

6.1. DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING ZARURLIGI, MOHIYATI, MANBALARI VA OMILLARI

Davlat budjeti davlatning yirik markazlashgan pul fondi bo‘lib, u davlatning funksiyalarini bajarishga asoslangan iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda ko‘pchilik yetakchi iqtisodchi-olimlar tomonidan davlat budjetini davlatning yirik markazlashgan pul fondi va asosiy moliya kategoriyasi ekanligi qayd etilgan.

Budjet — «g‘azna» degan ma’noni bildirib, bu davlat va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish vazifalari va funksiyalarini moliyaviy ta’minlash uchun mo‘ljallangan pul mablag‘lari jamg‘armalarini to‘plash va sarflash shaklidir.

Rossiyada davlat daromadlari va xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar dastlab 1654-yili e’lon qilingan, ya’ni o‘sha paytdagi Rossiya davlatida o‘tkazilgan pul islohotlari shuni taqozo qilgan, 1812-yildan boshlab esa har yili e’lon qilinadigan bo‘lgan, dastlabki budjet ma’lumotlari nihoyatda sir saqlangan. Budjetning rasmiy ravishda o‘rnatilishi XVIII asrning 2-yarmida Fransiyadagi burjua revolutsiyasidan keyin amalga oshirilgan. XIX asrning 2-yarmida Yevropa mamlakatlarida budjet kategoriyasidan foydalanila boshlandi.

Budjet so‘zi g‘azna ma’nosini bildirar ekan, uning mohiyati ham davlatning qo‘lida markazlashtirilgan pul jamg‘armalarining tashkil etilishi va davlatning siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar yuzasidan pul munosabatlarini bildiradi. Davlat budjeti moliya tizimi davlat moliya bo‘g‘inining asosiy qismidir.

Davlat budjeti — davlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Budjet orqali iqtisodiyotga quyidagicha tarzlarda faol ta'sir ko'rsatish mumkin:

- soliqlar, yig'imlar va turli to'lovlar vositasida;
- to'g'ridan to'g'ri budjetdan moliyalashtirish vositasida;
- subsidiyalash vositasida;
- foizsiz va imtiyozli kreditlar berish vositasida;
- budjet mablag'lari hisobiga maxsus jamg'armalar va zaxiralar yaratish vositasida ta'sir ko'rsatiladi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida budjet turli budjet fondlarini shakllantirish, taqsimlash, foydalanish paytida yuzaga keluvchi va ro'yobga chiquvchi iqtisodiy munosabatlardir.

Moddiy ma'noda budjet tegishli darajadagi davlat va mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta'minlovchi, ular oldiga qo'yilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni bajarish imkonini beruvchi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondidan iboratdir. Davlat tomonidan rejalashtirilgan tadbirlarni budjet hisobidan moliyaviy ta'minlash deganda budjetning aynan ana shu moddiy ma'nosi ko'zda tutiladi.

Huquqiy kategoriya sifatida budjet tegishli hudud doirasida markazlashtirilgan pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash, foydalanishga qaratilgan va tegishli davlat yoki mahalliy hokimiyat idorasi tomonidan tasdiqlangan asosiy moliyaviy reja, yuridik me'yorlardan iboratdir.

Budjet asosiy moliyaviy reja sifatida quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- budjet universal moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yo'nalishlarini to'la qamrab oladi;
- budjet boshqa turdagi moliyaviy rejalarga nisbatan muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaradi.

Yuqorida qayd etilgan davlat budjetining mohiyatiga xos bo'lgan asosiy jihatlardan tashqari, uning milliy daromadni qayta taqsimlash quroli ekanligi borasida ham iqtisodiy adabiyotlarda munozarali fikr va mulohazalar mavjud.

XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan industrial davlatlarda milliy daromadning yirik qismini davlat tomonidan o'zlashtirish yuz berdi. Mazkur davlatlarda moliya tizimining barcha bo'g'inlari orqali milliy daromadning 60 foizgacha bo'lgan qismi qayta taqsimlana

boshladi. Milliy daromadning 40 foizgacha bo‘lgan qismi davlat budjeti orqali taqsimlanar edi.

Davlat budjetining milliy daromadni qayta taqsimlashdagi rolining oshishi, asosan, davlatning umumijtimoiy xarajatlarining hajmi oshishi bilan izohlanadi. Xususan, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy xarajatlarning salmog‘i XX asrning 90-yillariga kelib 35 foizga yetdi. Holbuki, XX asrning 50-yillarining o‘rtalarida bu ko‘rsatkich 18 foizni tashkil etgan edi.

Davlat budjetining umumijtimoiy xarajatlaridan keyin, o‘sish sur’atiga ko‘ra ikkinchi o‘rinni iqtisodiy xarajatlar egallaydi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda, ayniqsa, 1929—1933-yillarda bo‘lib o‘tgan jahon iqtisodiy inqirozidan keyin iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish jarayoni kuchaydi, uning ko‘lami kengaydi. Mazkur inqiroz boshqa rivojlangan davlatlarga qaraganda AQSH iqtisodiyotiga ko‘proq ziyon keltirdi. Shuning uchun AQSHda tiklash-moliya korporatsiyasi, sanoatni qayta tiklash bo‘yicha ma’muriyat kabi davlat manbalari hisobidan tashkil etilgan tashkilotlar paydo bo‘ldi. Ushbu tashkilotlar bankrot bo‘lish arafasida turgan korxonalar, firmalar va banklarga subsidiyalar va kreditlar berdi. Berilgan subsidiyalar va kreditlar mazkur korxonalarni ommaviy bankrotlikdan saqlab qoldi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin davlatning iqtisodiyotga aralashuvi kuchaydi. Buning asosiy sababi shundaki, G‘arb davlatlarining rahbar doiralari angliyalik iqtisodchi olim J. M. Keynsning tavsiyalarini amaliy dastur sifatida qabul qildilar. Chunki, J. M. Keyns davlat moliyasini iqtisodiyotni va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning muhim quroli deb hisoblar edi. Professor N. V. Kolchinaning tadqiqotlariga ko‘ra, hozirgi vaqtda rivojlangan industrial mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bilan bog‘liq xarajatlari davlat budjeti jami xarajatlarining 20—25 foizini tashkil qilmoqda.

Davlat budjeti iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning rivojlanishiga davlat tomonidan ta’sir o‘tkazishning muhim vositasi sifatida doimiy ravishda qo‘llaniladi, uning jamiyat hayotiga ta’sirining shakl va usullari o‘zgarib boradi.

Shunisi xarakterliki, O‘zbekistonda bevosita davlat budjetining milliy daromadni qayta taqsimlashdagi rolining yuqori ekanligi hamda bu holatning asosiy sabablari umumijtimoiy xarajatlarning

va davlatning iqtisodiyotni tartibga solish xarajatlarining o‘sishidan iborat ekanligi kuzatilmoqda.

Respublikamiz davlat budjetining xarajatlari tarkibida ijtimoiy xarajatlar salmog‘ining o‘sib borishi mamlakatimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish bilan izohlanadi. Bunda asosiy e’tibor jamiyat a’zolarining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga, xalq maorifi, tibbiy xizmat kabi ijtimoiy sohalarni o‘z vaqtida va to‘liq moliyalashtirishga qaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan ilgari surilgan bozor munosabatlariga o‘tishning besh asosiy tamoyillaridan biri davlatning bosh islohotchi ekanligidir. Ushbu tamoyilga ko‘ra, davlat mamlakatda bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi, mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tadbirlarini ishlab chiqadi va kapital sarflarning tarmoq va hududiy uzilishini izga solib turadi.

Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ko‘lami torayib boradi. Bu esa davlat budjetining iqtisodiy mazmundagi xarajatlari miqdorini keskin kamayishiga olib keladi.

Davlat budjetining asosiy moliyaviy kategoriya sifatida jamiyat hayotidagi rolining oshib borishiga birinchi navbatda uning daromad bazasini qay tarzda va darajada shakllanganligiga bog‘liq. Shu jihatdan olganda davlat budjetining daromadlarini shakllantirish masalasini ilmiy jihatdan tadqiq qilish iqtisodiy adabiyotdagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Davlat budjetining daromadlarini shakllantirish masalalari klassik iqtisodchilar — A. Smit, D. Rikardoning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Keyinchalik bu masala A. Tyurgo, F. Kene, I. Fisher, S. Fisher, J. Mill, G. Jorj, Volter, J. Keyns, M. Speranskiy kabi taniqli iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Davlat budjeti daromadlarining bosh moddiy manbayi milliy daromad hisoblanadi. Milliy daromadni davlat tomonidan o‘zlashtirish turli usullar yordamida amalga oshiriladi. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida milliy daromadning davlat tomonidan o‘zlashtirilishi quyidagi uch asosiy usul vositasida amalga oshirilmoqda: soliqlar, davlat krediti, bank tizimining kreditlari.

Shunisi xarakterliki, davlat budjetining daromadlarini shakllantirishda va milliy daromadi davlat foydasiga qayta taqsimlashda birinchi usul ustuvor ahamiyatga ega. Buning boisi shundaki, soliqlar moddiy va ijtimoiy mazmunga ega. Ular takror ishlab chiqarish jarayonining muhim tarkibiy qismi va ishlab chiqarish munosabatlarining maxsus shakli sifatida milliy daromadni qayta taqsimlashda ishtirok etadi. Buning ustiga, davlat soliqlardan o‘z daromadlarini shakllantirishning asosiy usuli sifatida tashkil topgan vaqtidan boshlab foydalanib kelmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida soliqlar davlat budjeti daromadlarining birlamchi manbayi hisoblanadi. Rivojlangan industriya davlatlarida, xususan, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Kanadada soliqlar davlat budjeti daromadlarining 90 foizgacha bo‘lgan qismini, AQSHda esa 70 foizdan ortiq qismini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining asosiy (90 foizdan ortiq) qismi soliq tushumlaridan iborat.

Soliqlarning davlat budjeti daromadlarining asosiy, birlamchi manbayi ekanligi, ularning mohiyatini ochish maqsadida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Soliqlarni budjet daromadlarining manbayi sifatidagi mohiyatini nazariy jihatdan asoslab bergan birinchi olim V. Petti hisoblanadi. U o‘zining 1662-yilda yozgan «Soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida traktat» nomli ilmiy asarida davlat uchun zarur bo‘lgan soliqlar miqdorini asoslab berish uchun davlat xarajatlarining majmuyini aniqlashga harakat qildi. V. Pettining fikriga ko‘ra, davlat foydasiga soliqlarni undirish mutanosib bo‘lishi lozim, chunki bu mexanizm turli miqdordagi daromadlar uchun «betaraf» hisoblanadi. «Soliq qanchalik ulkan bo‘lmasin, agar u barchaga mutanosib ravishda belgilangan bo‘lsa, u tufayli hech kim boyligining qandaydir qismini yo‘qotmaydi. Bundan tashqari, yig‘ilgan soliqlar mamlakatdan chiqib ketmas ekan, mamlakat boshqa mamlakatlarga nisbatan bir xilda boy bo‘lib qolaveradi». Demak, Petti soliqlarni budjet daromadlarining asosiy manbayi sifatidagi rolini e’tirof etgan holda, soliqqa tortishning barcha soliq to‘lovchilar uchun teng bo‘lishini ta’kidlab o‘tgan.

XVIII asrda Fransiyada A. Tyurgo va F. Kene rahbarligida fiziokratlar oqimi paydo bo‘ldi. Fiziokratik nazariya qishloqda xo‘jalik yuritishning o‘rta asrlarga xos qishloq shakllariga barham berish,

kichik yer uchastkalarini qo‘shish, fiskal tizimni tartibga tushirishga qaratilganligi sababli ular yagona soliqqa, ya’ni yer rentasidan olinadigan yagona soliqqa o‘tishni taklif qildilar. Ularning ta’kidlashicha, renta qayta ishlab chiqarilmaydigan tabiat omilini ishlatishdan olinadigan daromad hisoblanadi, rentadan olinadigan soliqning ta’sir doirasi har doim lendlordlarni qamrab oladi. O‘z navbatida jamiyatdagi boshqa sinflarning daromadlari ishlab chiqarishning zaruriy xarajatlaridan iboratdir. Shunday qilib, fiziokratlarning yagona soliqni joriy etish xususidagi taklifi soliq yig‘imlari bilan bog‘liq xarajatlarni minimallashtirishga qaratilgan. F. Kene yer rentasidan olinadigan soliq stavkasini «taxminan sof mahsulotning uchdan bir qismi» ga teng bo‘lishini taklif qilgan.

Klassik iqtisodchilardan Adam Smit soliqlarni faqat davlat budjeti daromadlarining manbayi sifatida tadqiq qildi. Uning fikriga ko‘ra, soliqlar hukumatni saqlash xarajatlarini qoplashga yetishi zarur. Demak, A. Smit o‘zining butun diqqat-e’tiborini soliqlarni fiskallik funksiyasiga qaratdi.

A. Smit o‘zining «Tabiat va xalqlarning boyliklarining sabablari to‘g‘risida tadqiqotlar» nomli ilmiy asarida birinchi marta soliqqa tortishning umumiy tamoyillarini shakllantirdi.

Bular:

1. Xo‘jalik mustaqilligi tamoyili.
2. Adolat tamoyili.
3. Aniqlik tamoyili.
4. Tejamkorlik tamoyili.

Shuningdek, A. Smit soliq yukini taqsimlash nazariyasini quyidagicha shakllantirdi: barcha soliqlar pirovard natijada, yer egalaridan olinadi, chunki ular daromadning qo‘zg‘almas manbayini doimiy egalari hisoblanishadi. A. Smit fiziokratlardan farqli ravishda yagona soliq nazariyasini qo‘llab-quvvatlamadi. Uning fikriga ko‘ra, rentani soliqqa tortish bilan birga ish haqiga solinadigan soliq ham mavjud bo‘lishi lozim. Ushbu soliq ish haqini to‘langan soliqlarning to‘liq summasiga ko‘paytiradi, agar faqat mehnatga bo‘lgan talabni kamayishi yuz bermasa, albatta. Bundan tashqari, A. Smit iste’mol buyumlariga ham soliqlar solishni taklif qilgan, bu soliqlar tovarlar bahosini oshiradi va tovarlarning alohida turlariga bo‘lgan talabning o‘zgaruvchanligiga ta’sir qiladi.

Klassik iqtisodchi D. Rikardo, A. Smitning soliqlar to‘g‘risidagi nazariyasini sezilarli darajada to‘ldirdi. O‘zidan oldin o‘tgan taniqli

iqtisodchilardan farqli o‘laroq, D. Rikardo soliqqa tortishning yangi tamoyilini yaratdi. Ushbu tamoyilga ko‘ra, barcha soliqlar, agar u ishab chiqarish hajmini oshirish yoki noishlabchiqarish xarakteridagi iste’molni kamaytirishga asoslangan holda o‘rnatilmagan bo‘lsa, kapitalni jamg‘arishga to‘sqinlik qiladi.

D. Rikardoning fikriga ko‘ra, yer rentasini soliqqa tortish juda oson va qulay, ammo rentadan olinadigan soliqning yuki to‘g‘ridan to‘g‘ri xaridor zimmasiga yuklatilmasligi lozim, chunki bu soliq taklifi qat’iy belgilangan omilga solingan soliqdir. D. Rikardo foydaga solinadigan soliqni tovarlarning bahosi va taklifiga ta’sirini tahlil qilgan. U tahlil natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosani shakllantiradi: tovarlar oboroti tezligining turli tovar pozitsiyalari bo‘yicha bir xil emasligi soliq yukining ularning bahosiga bir xilda ta’sir etmasligiga olib keladi. Soliqlarning to‘g‘ri xildagi samarasi tufayli pullar miqdorining ko‘payishi baholarning tarkibiga ham, darajasiga ham ta’sir qiladi.

XIX asrda S. Sismondi soliqlarning budjet daromadi sifatidagi mohiyatini tadqiq qilish asosida shunday xulosaga keldi: soliq to‘lovchi davlat xizmatlarini kelgusida iste’mol qilish maqsadida joriy ne’matining ma’lum qismini hukumat foydasiga qurbon qiladi. XIX asrning boshqa iqtisodchilari — A. Ter va J. Mak-Kulloh soliqni davlatga berilgan «sug‘urta to‘lovi» sifatida qaradilar.

Soliqlarni davlat budjeti daromadlarining asosiy manbayi sifatidagi mohiyatini ochib berishda J. M. Keynsning xizmatlari juda kattadir. Uning fikriga ko‘ra, bozor mexanizmi takomillashmagan mexanizmdir, shuning uchun iqtisodiyot o‘z-o‘zini boshqarishning samarali instrumentlariga ega emas. Bunday sharoitda faqat davlat fiskal va pul kredit siyosati orqali iqtisodiyotni tartibga solish qobiliyatiga egadir. Keyns mazkur usullar ichida soliqlarni bozor iqtisodiyotini tartibga solishdagi roliga alohida e’tibor qaratdi. Uning fikriga ko‘ra, yuqori progressiv soliqlar davlat budjetini muvozanatlashga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunda davlatning adolatli ijtimoiy siyosati muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aholining kam ta’minlangan qatlamlari soliqdan ozod qilinadi va soliq yuki to‘liq badavlat soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklanadi. Keynsning qat’iy tarzda e’tirof etishiga ko‘ra, katta jamg‘armalar iqtisodiy o‘sishga xalaqit beradi. Chunki ular ishlab chiqarishga yo‘naltirilmaydi va daromadlarning passiv manbayi hisoblanadi. Shuning uchun ortiqcha jamg‘armalarni soliqlar yordamida undirib olish zarur.

Keynsning soliq nazariyasiga oid qarashlari uning izdoshlarini nazariy qarashlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Amerikalik iqtisodchi olimlar — G. Tibold, J. Pechler; angliyalik iqtisodchi olimlar — T. Kou, K. Krosland; fransuz iqtisodchi olimlari — M. Klyuzo, J. Furaste J. M. Keynsning izdoshlari bo‘lib, yuqori soliq stavkalarini qo‘llash, davlat budjetida yirik mablag‘larni to‘plash, davlat tomonidan yirik ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish tarafdorlari bo‘lib chiqdilar.

XX asrning 50-yillarida J. M. Keyns ta’limotiga nisbatan muqobil ta’limot sifatida monitarizm ta’limoti yuzaga keldi. Bu ta’limotning asoschisi AQSHning Chikago Universitetining professori M. Fridman hisoblanadi. Monitaristlar iqtisodiyotga davlatning aralashuvini maksimal darajada cheklashni qat’iy talab qildilar. Shu boisdan ular soliqlarning darajasini minimallashtirishni, iqtisodiyotni pul massasini va foiz stavkalarini o‘zgartirish orqali tartibga solishni taklif qildilar.

Soliq nazariyasining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shgan olimlardan biri italiyalik F. Nitti hisoblanadi. U davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini taqqoslash usulidan foydalangan holda soliqlarning budjet daromadi sifatidagi roliga quyidagicha baho beradi: «Soliqlar— davlatning iqtisodiy siyosatining ajralmas qismidir. Agar yig‘iladigan soliqlarning sezilarli qismi ishlab chiqarish maqsadlariga, samarali ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishga va ilmiy tadqiqotlarga ishlatilsa, agar armiya va davlat apparatini saqlash xarajatlari nisbatan katta bo‘lmasa, u holda soliqlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga to‘sqinlik qilmaydi. Va, aksincha, agar yig‘iladigan soliqlar budjet sohasi orqali iste’molga yo‘naltirilsa, ya’ni yeb yuborilsa u holda ular mamlakat iqtisodiyotiga vayron qiladigan tarzda ta’sir ko‘rsatadi».

Taniqli rus iqtisodchi-olimlaridan M. Speranskiy, S. Vitti soliqlarning budjet daromadlari sifatidagi roliga baho berganlar. Ularning nazariy qarashlariga xos bo‘lgan jihat soliqqa tortishning ma’naviylik tamoyilini ishlab chiqilganligi hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko‘ra o‘ziga to‘q, badavlat mulk egalariga nisbatan qo‘shimcha soliqlarning va yuqori soliq stavkalarining qo‘llanilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘zbek olimlaridan Q. Yahyoyev soliqlarni budjet daromadlarining manbayi sifatida tadqiq qilar ekan, «Soliqlarning obyektiv

zarurligi— davlatning bajaradigan qator funksiyalarini mablag‘ bilan ta’minlashning zarurligidan kelib chiqadi» degan xulosani shakllantirgan.

Professor T. Malikovning fikriga ko‘ra, «Soliqlar iqtisodiy kategoriya sifatida milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida vujudga kelganligi va faoliyat ko‘rsatganligi uchun ishlab chiqarish munosabatlarining bir qismidir»[1].

Lekin, biron-bir mamlakat amaliyotida yuqorida qayd etilgan nazariyalarning birontasi sof holida qo‘llanilmaydi. Odatda, mazkur nazariy oqimlarning ayrim qoidalaridan milliy soliq tizimi ma’lum bir davriy oraliqlarda foydalaniladi.

Ushbu paragrafda soliqlarning budjet daromadlarining manbayi sifatidagi mohiyatini ochib berishga bag‘ishlangan nazariy qarashlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, *birinchidan*, soliqlar davlatning funksiyalarini bajarishning asosiy va birlamchi moliyaviy manbayi hisoblanadi; *ikkinchidan*, soliqlarning milliy daromadni qayta taqsimlashdagi roli bevosita davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi bilan belgilanadi; *uchinchidan*, soliqlardan budjetning iqtisodiy mazmundagi xarajatini moliyalashtirishda foydalanish masalasiga alohida e’tibor berish amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish davlatning iqtisodiyotga faol moliyaviy aralashuvini zarur qilib qo‘yadi; *to‘rtinchidan*, soliqqa tortish tamoyillarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik soliq tushumlarining barqarorligiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi; *beshinchidan*, respublikamiz iqtisodiyotining investitsion resurslarga bo‘lgan yuqori darajadagi talabini qondirish maqsadida soliqlarning jamg‘armalarga ta’sirini ilmiy jihatdan o‘rganish nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Davlat budjeti daromadlarining ikkinchi asosiy manbayi davlat krediti hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda xalqaro budjet amaliyotida davlat krediti asosan uch xil shaklda mavjuddir. *Birinchisi* — hukumatning qimmatli qog‘ozlarini sotish natijasida yuzaga keladigan davlat krediti, bunda davlat qarzdor sifatida kredit munosabatlarida ishtirok etadi. *Ikkinchisi* — hukumat tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga qaytarib borishlik va haq to‘lash shartlari asosida pul mablag‘lari berish

[1] *T. Malikov.* «Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb muammolari».

yo‘li bilan yuzaga keladigan davlat krediti, bunda davlat kreditor sifatida ishtirok etadi. *Uchinchisi* — hukumat tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning majburiyatlari yuzasidan kafolatlar berish bilan bog‘liq davlat kreditlari.

Shunisi xarakterliki, davlat kreditlari bank tizimining kreditlaridan tubdan farq qiladi. Bunda ularning asosiy farqlantiruvchi jihatlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

a) bank kreditlari aniq maqsad uchun beriladi. Davlat kreditlari esa aniq belgilangan obyektni moliyalashtirishda ishlatilmaydi. Ular davlat budjetining daromadlari sifatida jalb qilinadi va budjet xarajatlarining tarkibida umumiy asosda ishlatiladi;

b) bank kreditlari uchun garov ta’minoti sifatida aniq qimmatliklar, masalan, qimmatli qog‘ozlar, omborxonadagi tovarlar va boshqalar olinadi. Davlat kreditida esa, ta’minot vazifasini davlatga tegishli barcha mulklar bajaradi;

d) bank kreditlari o‘ndan ortiq shakllarda beriladi. Davlat krediti esa uchta asosiy shaklda beriladi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda hukumatning qimmatli qog‘ozlarini emissiya qilish va ularni sotish davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning ahamiyatiga ko‘ra, soliqlardan keyingi o‘rinda turuvchi manba hisoblanadi. AQSH, Yaponiya, Germaniya va Avstriyada hukumat qimmatli qog‘ozlar emissiyasi hajmiga ko‘ra barcha emitentlar ichida birinchi o‘rinda turadi. Ikkinchi o‘rinda tijorat banklari, uchinchi o‘rinda esa korporatsiyalar turadi. Bundan tashqari, hukumatlar xorijiy valutalarda emissiya qilgan qimmatli qog‘ozlarni sotish yo‘li bilan portfelli investitsiyalarni xorijiy mamlakatlardan keng ko‘lamda jalb qiladilar. Bu investitsiyalar to‘lov balansining holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida hozirgi vaqtda budjet daromadlarini shakllantirishning ushbu manbayidan foydalanish darajasi juda past hisoblanadi. 1996-yilning 26-martida birinchi marta O‘zbekiston hukumatining obligatsiyalari muomalaga chiqarildi. Uning hajmi 69,0 mlrd so‘mni tashkil qildi. Bu esa budjet daromadlarining bir foizdan kam qismini tashkil etadi.

Respublikamiz amaliyotida hukumatning kafolatlaridan foydalanish darajasi juda yuqori hisoblanadi, 2003-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hukumatining kafolati ostida jalb qilingan xalqaro kreditlar summasi 1524,0 mln AQSH dollarini

tashkil qildi. Xalqaro kreditlarning Markaziy bankning birja kursi bo‘yicha so‘mdagi qiymati 2004-yil 1-yanvar holatiga 1620,3 mlrd so‘mni tashkil qildi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning budjet amaliyotida hukumatning kafolatlari asosida yuzaga kelgan davlat kreditlari summasining budjet daromadlari hajmidagi salmog‘i juda pastdir. Bu holat xususiy sektorning iqtisodiyotdagi moliyaviy va mulkiy imkoniyatlarining yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Respublikamizda esa xalqaro kreditlar va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xususiy sektorning ishtirokining zaif ekanligi mamlakat hukumatining kafolati asosida olingan xorijiy majburiyatlarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Davlat budjeti daromadlarini shakllantirshning uchinchi asosiy manbayi bank tizimining kreditlari hisoblanadi.

Rivojlangan industrial mamlakatlar bank amaliyotida budjet daromadlarining hajmidagi salmog‘iga ko‘ra, bank kreditlari uchinchi o‘rinni egallaydi. Masalan, AQSHda bu ko‘rsatkich uch foizni tashkil qiladi.

Shunisi ahamiyatliki, bank tizimining kreditlari hukumatga bozor stavkalarida beriladi, bunda imtiyozli foiz stavkalari qo‘llanilmaydi. Shuning uchun bank tizimi kreditlaridan foydalanish hukumat xarajatlarining oshishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasida bank tizimining kreditlaridan, asosan, davlat budjeti ijrosi jarayonida yuzaga keladigan g‘aznali farqni yopish maqsadida foydalaniladi. Odatda, g‘aznali farq deganda, budjet daromadlarining kelib tugash farqi bilan budjet xarajatlarini moliyalashtirish o‘rtasida yuzaga keladigan nomuvofiqlik tushuniladi.

Hukumatning xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida jalb qilinadigan Markaziy bank kreditlari bo‘yicha aniq cheklovlar joriy qilingan. Ya’ni, Markaziy bankdan jalb qilinadigan kreditlar yalpi ichki mahsulotning bir foizidan oshmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda, davlat budjeti daromadlari shakllanishining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur tadqiq qilish asosida tegishli nazariy, xulosalarni shakllantirish va rivojlangan industrial mamlakatlar budjet amaliyotini o‘rganish asosida davlat budjeti daromadlarini shakllantirish xususida ilmiy jihatdan asoslangan amaliy xulosalarni chiqarish respublikamizda davlat budjetining daromad bazasini shakllantirishning sifat jihatdan yangi ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish imkonini beradi.

6.2. DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TASNIFLASH MEZONLARI

Davlat budjeti daromadlarini tasniflash masalalari S. Fisher, R. Dornbush, R. Shmalenzi, E. Dolan, V. Rodionova, L. Drobozina, L. Okuneva, S. Bryu, R. Makkonel kabi taniqli iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, S. Fisher, R. Dornbush, R. Shmalenzilar o‘zlarining «Ekonomika» asarida Davlat budjeti daromadlarini tasniflashning faqat bitta mezoniga e’tiborlarini qaratdilar. Ya’ni ular budjet daromadlarini soliqli va soliqsiz daromadlarga ajratadilar.

Amerikalik taniqli iqtisodchi olim E. Dolan Davlat budjetining daromadlarini dastlab soliqli va soliqsiz daromadlarga bo‘ladi. Undan keyin esa, budjetning soliqli daromadlarining o‘zini sof soliqlar va boshqa soliqli daromadlarga bo‘ladi.

Yuqorida qayd etilgan har ikkala holatda Davlat budjeti daromadlarini tasniflash mezonlari o‘zining to‘liq aksini topmagan.

Shuni qayd etish lozimki, Davlat budjeti daromadlarini tasniflash borasida iqtisodiy adabiyotlarda keskin munozaralar mavjud emas.

Davlat budjetining daromadlari turli belgilarga ko‘ra tasniflaydi. Hozirgi vaqtda ularni to‘rt asosiy belgisiga ko‘ra tasniflash keng qo‘llaniladi.

Davlat budjetining daromadlari tashkil topish manbalariga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

a) yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar;

b) aholidan olinadigan soliqlar;

d) hukumatning qimmatli qog‘ozlarini sotishdan olingan daromadlar;

e) bank tizimining kreditlari;

f) davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar;

g) xorijiy mamlakatlardan va xalqaro tashkilotlardan olingan kreditlar va moliyaviy yordamlar;

h) boshqa daromadlar.

Davlat budjetining daromadlari undirish usuliga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

a) soliqli daromadlar;

b) soliqsiz daromadlar.

Davlat budjetining daromadlari soliq turlariga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

a) korxonalar daromadi (foydasi) dan olinadigan soliq;
b) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
d) QQS;
e) aksiz;
f) ekologiya solig‘i;
g) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
h) yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
i) mol-mulk solig‘i;
j) yer solig‘i va boshqa soliqlar.

Davlat budjetining daromadlari mamlakatning davlat qurilishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Unitar davlatlarda:
a) markaziy budjetning daromadlari;
b) mahalliy budjetlarning daromadlari.
2. Federal davlatlarda:
a) markaziy budjetning daromadlari;
b) federatsiya subyektlarining budjet daromadlari;
d) mahalliy budjetlarning daromadlari.

Bizning fikrimizcha, yuqorida bayon etilgan tasniflash mezonlari davlat budjeti daromadlari mohiyatini ochishga xizmat qiladi, ammo uni to‘liq ochib bera olmaydi, chunki bunda davlat budjeti daromadlarining qiymati va barqarorligi jihatidan tasniflash mavjud emas. Shuning uchun davlat budjeti daromadlarini yana ikkita mezonga ko‘ra tasniflanishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1) davlat budjeti daromadlarining barqarorlik darajasiga ko‘ra tasniflash;

2) davlat budjeti daromadlarini qiymat jihatidan tasniflash.

Bizning fikrimizcha, davlat budjeti daromadlari barqarorligiga ko‘ra barqaror va nobarqaror, qiymat jihatidan yuqori xarajatli va kam xarajatli daromadlarga bo‘linishi lozim.

Har bir davlatda uning rivojlanish darajasi, xo‘jalik subyektlarining hukumatga bo‘lgan ishonchi, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari davlat budjeti daromadlariga bevosita va kuchli ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun davlat budjeti daromadlarining barqarorligi va qiymat jihatdan tasniflashda ana shu xususiyatlar hisobga olinishi lozim.

Fikrimizcha, qiymat jihatdan eng kam xarajatli daromad — bu soliqlar hisoblanadi, chunki ular davlat foydasiga qaytarib berilmaslik sharti bilan undiriladigan majburiy to‘lovlardir.

Hukumatning qimmatli qog‘ozlarini sotish yo‘li bilan olinadigan daromadlar yuqori xarajatli daromad hisoblanadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, hukumatning qimmatli qog‘ozlariga nisbatan yuqori stavkalarda foiz to‘lanadi, chunki aholi va korxonalar, odatda, hukumatning obligatsiyalariga va xazina veksellariga to‘lanadigan foizlar tijorat banklarining depozit va omonatlariga to‘laydigan foiz stavkalaridan yuqori bo‘lgandagina ularni sotib oladilar. Buning ustiga, hukumat obligatsiyalariga to‘lanadigan foiz stavkasi inflatsiya darajasini hisobga olgan holda o‘zgartiriladi, ya’ni inflatsiyaning o‘sgan darajasini hisobga olgan holda to‘lanadi. Ikkinchidan, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida, masalan, Rossiya Federatsiyasida va O‘zbekistonda korxonalarning hukumatning obligatsiyalaridan oladigan daromadlari soliqqa tortilmaydi. Demak, davlat budjetiga soliq tushumlarining bilvosita kamayishi yuz beradi.

1-diagramma

DAVLAT BUDJETINING 2002—2006-YILLARDAGI DAROMADLARI VA XARAJATLARINING YAIM HAJMIGA NISBATAN SALMOG‘I

(foiz hisobida)



Dunyo mamlakatlarining asosiy qismida davlat budjeti xarajatlarini va kamomadini qoplashda bank kreditlaridan foydalaniladi. Shu jihatdan olganda, bank tizimining kreditlari davlat budjeti doimiy

daromad manbalaridan biriga aylangan. Ayni vaqtda, xalqaro budjet amaliyotining tajribalarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatayaptiki, rivojlangan mamlakatlarda Markaziy bank tomonidan hukumatga berilayotgan kreditlarning asosiy qismi lombard stavkalarida berilayapti. Holbuki, lombard stavkalar nisbatan yuqori stavkalar bo‘lib, ular Markaziy bankning sof stavkasiga nisbatan 2—3 punktga yuqori bo‘ladi. Hukumatga tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar bozor stavkalarida beriladi. Demak, rivojlangan mamlakatlarda davlat budjetining daromad qismiga jalb qilinayotgan bank kreditlarini yuqori xarajatli daromad sifatida baholash mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa Markaziy bank tomonidan hukumatga nisbatan past foiz stavkalarida kredit berish amaliyoti keng qo‘llaniladi. Buning asosiy sababi shundaki, birinchidan, mazkur mamlakatlarda Markaziy bankning mustaqillik (erkinlik) darajasi past; ikkinchidan, hukumatga Markaziy bank tomonidan berilayotgan kreditlarning asosiy manbayi pul emissiyasi hisoblanadi. Demak, rivojlanayotgan mamlakatlarda Markaziy bank tomonidan davlat budjetining daromadlariga jalb qilinayotgan kreditlarni kam xarajatli daromad sifatida e’tirof etish mumkin.

Xorijiy mamlakatlardan va xalqaro moliya-kredit tashkilotlaridan davlat budjetining daromad qismiga jalb qilinayotgan kreditlar foiz stavkasiga ko‘ra yuqori yoki past qiymatga ega bo‘lgan daromadlar sifatida tasniflanishi mumkin. Masalan, Jahon tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan beriladigan kreditlarning yillik foiz stavkasi 1—4 foizni tashkil qiladi. Bundan tashqari, xalqaro valuta fondi tomonidan mamlakatlarning to‘lov balansi holatini yaxshilash maqsadida berilgan kreditlarning foiz stavkasi ham sezilarli darajada past bo‘ladi. Ayni vaqtda, xorijiy banklar va xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan beriladigan kreditlarning sezilarli qismi bozor stavkalarida beriladigan kreditlardan iboratdir. Ayniqsa, suzuvchi stavkada beriladigan kreditlar bahosining oshish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Demak, xorijiy banklar va xalqaro moliya-kredit tashkilotlari tomonidan davlat budjetining daromad qismiga jalb qilinayotgan kreditlarni, ularning foiz stavkasining darajasiga qarab, kam xarajatli yoki yuqori xarajatli daromadlar guruhiga kiritish mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlarida davlat mulkini xususiylashtirish jarayoni faol

tarzda davom ettirilmoqda. Buning natijasida mazkur mamlakatlarning davlat budjetiga sezilarli darajada daromad tushmoqda. Mohiyatiga ko‘ra, bu daromad kam xarajatli daromad hisoblanadi. Chunki, bunda davlat va xo‘jalik subyektlari hamda aholi o‘rtasida biryoqlama xarakterga ega bo‘lgan pul mablag‘larining harakati kuzatiladi.

Shunday qilib biz, davlat budjeti daromadlarining asosiy turlarini ularning qiymat jihatidan tasniflashni ko‘rib chiqdik. Endi biz, mazkur daromad turlarini ularning barqarorlik darajasiga ko‘ra tasniflash masalasini ko‘rib chiqamiz.

Soliqlar mohiyatiga ko‘ra, aniq manbaga ega bo‘lgan daromad bo‘lganligi sababli, ularni barqaror daromadlar guruhiga kiritish mumkin. Lekin, ma’lum davriy oraliqlarda iqtisodiy konyunkturani o‘rganish natijasida ayrim soliqlar bo‘yicha olinadigan tushumlar summasi kamayadi. Masalan, korxonalarning moliyaviy holatining yomonlashuvi natijasida ularning foydasidan olinadigan soliq summasi kamayishi mumkin. Ammo ko‘pchilik hollarda bir soliq turi bo‘yicha tushumlarning kamaygan summasi boshqa soliq turlari bo‘yicha tushumlar summasining o‘sishi hisobiga qoplanadi.

Hukumatning qimmatli qog‘ozlar sotish natijasida olinadigan daromadlarni ularning barqarorlik darajasiga ko‘ra tasniflashda har bir mamlakatda hukumat qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanganlik darajasini hisobga olish lozim. Masalan, AQSHda hukumatning qimmatli qog‘ozlar bozori yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, hukumat qimmatli qog‘ozlarni sotish natijasida olinadigan daromadlarning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. AQSH hukumatiga bo‘lgan ishonch darajasining yuqori ekanligi Milliy va Xalqaro fond bozorlarida AQSH hukumatining qimmatli qog‘ozlariga bo‘lgan barqaror talablarni yuzaga kelishiga asos bo‘ldi.

Demak, hukumat qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanganligi hukumatga bo‘lgan ishonchning yuqori ekanligi, hukumatning qimmatli qog‘ozlariga bo‘lgan barqaror talabni yuzaga keltiradi, bu esa, o‘z navbatida, hukumatning qimmatli qog‘ozlarini sotishdan olinadigan daromadlarning barqarorligini belgilaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning sezilarli qismida qimmatli qog‘ozlar bozori, shu jumladan, uning asosiy sigmentlaridan biri bo‘lgan hukumatning qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlanmagan.

Buning ustiga, hukumatga bo‘lgan ishonch darajasining past ekanligi, milliy valutaning almashuv kursining nobarqarorligi va hukumatning qimmatli qog‘ozlarining daromadlilik darajasining doimiy ravishda tebranib turishi ularga bo‘lgan barqaror talabning yuzaga kelishiga to‘sqinlik qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, hukumatning qimmatli qog‘ozlarini sotishdan olinadigan daromadlarining nobarqarorligini belgilaydi.

Xalqaro amaliyotda bir necha mamlakatlarning hukumatlarini to‘lovga noqobil bo‘lib qolishi ularning qimmatli qog‘ozlarining bozor bahosi tushib ketishiga sabab bo‘ldi. Buning natijasida qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar summasi asta-sekinlik bilan investorlarga qaytarib berildi va buning natijasida davlat budjeti xarajatlarining yanada o‘sishi yuz berdi. 1982-yilda Meksika hukumati, 1998-yilda Rossiya hukumati, 2000-yilda Argentina hukumati rasman defolt deb e’lon qilindi. Buning natijasida ular tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarning bozor bahosi keskin pasaydi va yangidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarning sotilish natijasining keskin tushib ketishi kuzatildi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy valutaning almashuv kursining nobarqarorlik muammosi mavjuddir. Bu muammo hukumatning qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, hukumatning qimmatli qog‘ozlarning asosiy qismi milliy valutada emissiya qilinganligi sababli milliy valuta kursining keskin pasayishi investorlarning hukumat qimmatli qog‘ozlarini sotib olishga sarflagan investitsiyalari va oladigan foizli daromadlarining real qiymatini sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Bu esa, ularda hukumatga nisbatan ishonchsizlikning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Masalan, 1998-yil avgustida Rossiyada defolt holati yuzaga kelganda Rossiya rublining 1 AQSH dollariga nisbatan kursi 20 rubldan oshib ketdi. Holbuki, inqirozga qadar 1 AQSH dollari 6 rublni tashkil qilar edi. Buning natijasida Rossiya hukumatining rublda emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlarini sotib olishga sarflangan investitsiyalar qiymatining keskin pasayishi yuz berdi.

Demak, rivojlanayotgan mamlakatlarda qimmatli qog‘ozlar bozorining, shu jumladan, hukumat qimmatli qog‘ozlarining rivojlanganlik darajasini hukumatga bo‘lgan ishonch darajasini, milliy valutaning almashuv kursining barqarorligini hisobga olgan holda

hukumatning qimmatli qog‘ozlarini sotishdan olinadigan budjet daromadlarining barqarorlik darajasiga baho berish mumkin.

Davlat budjetining daromad qismiga jalb qilinadigan kreditlar barqarorlik darajasini baholash uchun hukumat va bank tizimi o‘rtasidagi kredit munosabatlarining mohiyatidan kelib chiqishi lozim. Masalan, Germaniyada Markaziy bank hukumatga 6 mlrd yevro miqdorida kredit berishi mumkin, lekin Markaziy bank hukumatga kredit berish majburiyatiga ega emas, u qancha xohlasa shuncha miqdorgacha kredit berishi mumkin. Bunday sharoitda Markaziy bank kreditlarini davlat budjetining barqaror daromad manbayi deb bo‘lmaydi, lekin, ko‘pchilik mamlakatlarda, masalan, AQSH va Yaponiyada hukumat va banklar o‘rtasida moliyaviy yilda budjet daromadlariga olinadigan kredit summalarini belgilab qo‘yish hollari mavjud. Bunday sharoitda davlat budjeti daromadlariga aylanadigan bank kreditlarini barqaror daromadlar guruhiga kiritish mumkin.

Davlat budjeti daromadlariga olinadigan tashqi manbalar, ya’ni xorijiy kreditlar va moliyaviy yordamlar iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, nobarqaror daromadlar hisoblanadi. Chunki, ularni berish masalasini kreditor davlatlar va xalqaro moliya-kredit tashkilotlarining boshqaruvchilar kengashi hal qiladi. Ularning miqdori yildan yilga o‘zgarib turadi. Shu boisdan, mazkur daromadlarni barqaror daromadlar guruhiga kiritish maqsadga muvofiq emas.

O‘zbekiston Respublikasida Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to‘g‘risida» gi qonuni hisoblanadi. Shunisi xarakterliki, mazkur qonunda davlat budjeti daromadlarini tasniflashning ikki mezoniga, ya’ni daromadlarni davlat qurilishiga ko‘ra va tashkil topish manbalariga ko‘ra tasniflash mezoniga amal qilingan. Xususan, qonunning 15-moddasida Respublika budjeti daromadlarining tashkil topish manbalariga ko‘ra turlari o‘z aksini topgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1) qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi va normativlar asosidagi umumdavlat soliqlari, yig‘imlari, bojlari va boshqa majburiy to‘lovlar;

2) qonun hujjatlarida belgilangan normativlar bo‘yicha davlat moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;

3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari;

4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

5) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to‘lovlar;

6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Qonunning 18-moddasida esa mahalliy budjetlarning daromadlari tashkil topish manbalariga ko‘ra aks ettirilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1) qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga yo‘naltiriladigan mahalliy soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar;

2) qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan umumdavlat soliqlari, yig‘imlari, bojlari va boshqa majburiy to‘lovlar;

3) qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq davlat mulki obyektlarini joylashtirish, foydalanishga bergandan olingan daromadlar;

4) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari;

5) yuqori budjetlardan beriladigan budjet dotatsiyalari, budjet subvensiyalari va budjet ssudalari;

6) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

7) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Demak, davlat budjeti daromadlarining mohiyatini to‘liq ochish uchun ularni 5 ta mezonga asosan tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Budjet daromadlarining asosiy qismini soliqlar tashkil qilishi, budjetning iqtisodiyotni tartibga soluvchi vazifasini kuchaytiradi. Daromadlar tarkibida egri soliqlarning ulushi ortishi mamlakat ishlab chiqirish quvvatiga, iqtisodiyotning taraqqiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, o‘tish davrida bu ayniqsa muhim. Masalan, egri soliqlar budjet daromadlarining Fransiyada 62,7 foizini, Niderlandiyada esa 41,3 foizini tashkil etadi. Bojxona bojlari esa mamlakat tashqi iqtisodiyot faoliyatini, ichki bozorning va milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishni tartibga solishda ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, egri soliqlarning iqtisodiyot taraqqiyotidagi ahamiyati kattadir. Egri soliqlar undirishning oddiyligi bilan ajralib turadi, ularni qo'llash ishlab chiqarish pasayib ketayotgan sharoitda ham budjetni mablag' bilan ta'minlab turish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining taraqqiyotida davlatning budjet siyosati ikki bosqichni bosib o'tdi, bu bosqichlar fiskal (1991—1995-yillar) va noinflatsion (1996-yildan hozirgacha) tarzda tavsiflanadi.

Iqtisodiyot taraqqiyoti, davlat budjeti rivojlanishining birinchi bosqichi g'oyat og'ir kechdi, chunki ma'muriy buyruqbozlik rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatning budjetini shakllantirish iqtisodiy tanglik sharoitlarida amalga oshirildi. Davlat budjeti daromadlarining pasayishiga olib kelgan yalpi ichki mahsulotning keskin kamayib ketishi, shuningdek, daromadlar va xarajatlarning samarasiz tuzilmasi ham budjet defitsitiga sabab bo'ldi.

Iqtisodiy o'sishning asoslari yaratildi. Budjet siyosati rivojining bu bosqichi noinflatsion bosqich tarzida tavsiflanadiki, uning davomida quyidagi vazifalarni hal qilish nazarda tutilgan edi:

- balansli, mukammal bo'lgan budjetni shakllantirish;
- soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish va universallash;
- budjet xarajatlarini optimallashtirish, xususan iqtisodiyot tarmoqlarini qaytarib olinmaydigan moliyalashtirish amaliyotidan ularni investitsiyalashga o'tish;
- budjet qonunchiligini yanada rivojlantirish.

Shunday qilib aytish mumkinki, bugungi kunda O'zbekiston budjet tizimi bozor munosabatlariga mos ravishda rivojlanib bormoqda, shuningdek, iqtisodiyotni barqarorlashtirishda budjet tizimining roli oshib bormoqda, budjet daromadlari va xarajatlari tizimining yangicha ko'rinishi paydo bo'ldi.

Har qanday mamlakatning iqtisodiy barqarorligi bevosita shu mamlakatning moliyaviy ko'rsatkichlariga, aholining yashash sharoitiga, ish kuchining salohiyatiga qarab baholanadi. Albatta bu faoliyatlarni amalga oshirish moliyaviy mablag'larni talab etadi. Iqtisodiyot taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan barcha tarmoqlarni moliyaviy ta'minlab turuvchi asosiy unsurlardan biri davlat budjeti hisoblanadi. Yuqoridagi bobda davlat budjetining mohiyati, uning

vazifa va funksiyalari haqida to‘xtalgan edik. Iqtisodiyot taraqqiyotiga davlat budjeti qo‘shgan hissani aniqlash uchun shu yil amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, soliq va budjet siyosati bo‘yicha amalga oshirilgan ko‘rsatkichlar bilan tanishib chiqsak.

2003-yilda iqtisodiyotimizda soliq yukini kamaytirish, barqaror iqtisodiy o‘sish, inflatsiya darajasining yillik 40 foizgacha pasayishi, tadbirkorlikning rivojlanishi va so‘mning erkin ayirboshlanishi davlat budjetining daromadlarini ham hajmi, ham tarkibiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi. Jumladan, korxonalar daromad (foyda) solig‘i stavkasining 24 foizdan 20 foizgacha pasaytirilganiga qaramasdan, ushbu soliq turi bo‘yicha tushumlar 210,5 mlrd so‘mni tashkil etib, belgilangan reja oshirib bajarildi. Shu bilan birga korxonalar va tashkilotlarning aylanma mablag‘lari ko‘payishiga va natijada, ishlab chiqarishning o‘sishiga va shu orqali soliqqa tortish bazasining kengayishiga imkon yaratdi. Shuningdek, aholi daromadlarini soliqqa tortishning umumiy darajasi 10 foizga kamaygani aholi real daromadlarining oshishi hisobiga soliq bazasining kengayishiga olib keldi va tushumlar o‘tgan yilgiga nisbatan 25,5 foizga oshdi.

Bevosita soliqlar tarkibida kichik korxonalar tomonidan to‘lanadigan yagona soliq tushumlari 2002-yilga nisbatan 2003-yilda 1,3 baravarga oshdi. Bu ijobiy o‘zgarishlar mamlakatimizda tadbirkorlikni, kichik korxonalar soni va ishlab chiqarish hajmining ko‘payib borayotganligi natijasidir. Bilvosita soliqlar bo‘yicha tushumlar 1353,8 mlrd so‘mni va ularning jami budjet daromadlaridagi ulushi 2002-yilga nisbatan ko‘paydi.

Daromadlar ijrosini tahlil qilib shuni aytish mumkinki, davlat budjetining jami daromadlari yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2002-yilda 25,5 foizdan 2003-yilda 23,8 foizgacha pasayishi kuzatildi. Bu holat respublika hukumati tomonidan olib borilayotgan iqtisodiyotga soliq yukini pasaytirish siyosatining natijasi deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Davlat budjetining xarajatlari bo‘yicha ijrosiga to‘xtalib, avvalambor, inflatsiya darajasining pasayishi, valuta ayirboshlash kursining barqarorlashuvi hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning manzilliligini yanada oshirish natijasida 2003-yilda budjet xarajatlari miqdori nisbatan kamayishi kuzatildi.

Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlarining yetakchi o‘rni 2003-yilda

ham saqlab qolindi va bu jami budjet xarajatlarining 45,9 foizini tashkil etdi.

Qisqacha qilib aytganda, barqaror iqtisodiy rivojlanish iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarning chuqurlashuvi va ijobiy institutsional o‘zgarishlar 2003-yil davlat budjetining muvaffaqiyatli ijrosini ta’minladi.

1-chizma

MABLAG‘LAR MANBASI VA BUDJETLAR DARAJASI TASNIFI

Mablag‘lar turi	Mablag‘lar nomi	Budjet	Budjet darajasi	Ko‘rsatkichlar nomi
1	**2**	**3**	**4**	**5**
1	000	0	0	Davlat budjeti
1	000	1	0	Respublika mablag‘lari
1	000	2	0	Hududiy mablag‘lar
1	000	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
1	000	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
2	000	0	0	Davlat maqsadli jamg‘armalari
2	000	1	0	Respublika mablag‘lari
2	000	2	0	Hududiy mablag‘lar
2	000	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
2	000	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
2	001	0	0	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi
2	001	1	0	Respublika mablag‘lari
2	001	2	0	Hududiy mablag‘lar
2	001	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
2	002	0	0	Ish bilan ta’minlashga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasi
2	002	1	0	Respublika mablag‘lari

davomi

1	2	3	4	5
2	002	2	0	Hududiy mablag‘lar
2	002	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
2	002	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
2	003	0	0	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi
2	003	1	0	Respublika mablag‘lari
2	004	0	0	O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo‘mitasining maxsus hisobvarag‘i
2	004	1	0	Respublika mablag‘lari
2	004	2	0	Hududiy mablag‘lar
2	004	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
2	004	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
3	000	0	0	Boshqa byudjetdan tashqari davlat jamg‘armalari
3	001	0	0	Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hisob-kitob Jamg‘armasi
3	001	1	0	Respublika mablag‘lari
3	002	0	0	Qishloq xo‘jaligini texnika bilan tahminlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi
3	002	1	0	Respublika mablag‘lari
3	003	0	0	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Maktab tahlimi jamg‘armasi
3	003	1	0	Respublika mablag‘lari
3	004	0	0	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi
3	004	1	0	Respublika mablag‘lari
3	005	0	0	O‘zbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyoti jamg‘armasi
3	005	1	0	Respublika mablag‘lari
3	006	0	0	Ipoteka krediti berishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi
3	006	1	0	Respublika mablag‘lari
3	007	0	0	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi
3	007	1	0	Respublika mablag‘lari
3	008	0	0	Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi

davomi

1	2	3	4	5
3	008	1	0	Respublika mablag‘lari
3	008	2	0	Hududiy mablag‘lar
3	008	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
4	000	0	0	Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari
4	000	1	0	Respublika mablag‘lari
4	000	2	0	Hududiy mablag‘lar
4	000	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
4	000	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
4	001	0	0	Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi
4	001	1	0	Respublika mablag‘lari
4	001	2	0	Hududiy mablag‘lar
4	001	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
4	001	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
4	002	0	0	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijtimoiy nafaqalarni to‘lash uchun mablag‘lari
4	002	1	0	Respublika mablag‘lari
4	002	2	0	Hududiy mablag‘lar
4	002	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
4	002	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
4	003	0	0	Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish Jamg‘armasi
4	003	1	0	Respublika mablag‘lari
4	003	2	0	Hududiy mablag‘lar
4	003	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
4	003	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
4	004	0	0	O‘tgan yillar debitorlik qarzlarining tushgan summasi

davomi

1	2	3	4	5
4	004	1	0	Respublika mablag‘lari
4	004	2	0	Hududiy mablag‘lar
4	004	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
4	004	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
4	005	0	0	Maktabgacha tahlim muassasalarida bolalar tahminoti uchun ota-onalardan tushumlar
4	005	1	0	Respublika mablag‘lari
4	005	2	0	Hududiy mablag‘lar
4	005	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
4	005	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
4	006	0	0	Maktabdan tashqari muassasalarda bolalar tahminoti uchun ota-onalardan tushumlar (musiqa va sanhat maktablari)
4	006	1	0	Respublika mablag‘lari
4	006	2	0	Hududiy mablag‘lar
4	006	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
4	006	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
4	007	0	0	Xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlanganligi bo‘yicha hisob-kitoblardan tushadigan tushumlar
4	007	1	0	Respublika mablag‘lari
4	007	2	0	Hududiy mablag‘lar
4	007	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
4	007	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
4	008	0	0	Maktab-internatlar va litseylarda bolalarning tahminoti uchun ota-onalardan tushumlar
4	008	1	0	Respublika mablag‘lari
4	008	2	0	Hududiy mablag‘lar
4	008	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari

davomi

1	2	3	4	5
4	008	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
4	009	0	0	O‘quv muassasalarida o‘qishdan tushayotgan mablag‘lar
4	009	1	0	Respublika mablag‘lari
4	009	2	0	Hududiy mablag‘lar
4	009	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
4	009	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
4	010	0	0	Ajratmalar hisobiga shakllanadigan vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari
4	010	1	0	Respublika mablag‘lari
4	011	0	0	Umumtahlim muassasalarida darsliklar ijarasi to‘lovidan tushgan byudjetdan tashqari mablag‘lar
4	011	1	0	Respublika mablag‘lari
4	011	2	0	Hududiy mablag‘lar
4	011	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
4	011	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
4	028	0	0	Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan tushgan tushumlar
4	028	1	0	Respublika mablag‘lari
4	028	2	0	Hududiy mablag‘lar
4	028	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
4	999	0	0	Byudjet tashkilotlarining boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lari
4	999	1	0	Respublika mablag‘lari
4	999	2	0	Hududiy mablag‘lar
4	999	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
4	999	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
5	000	0	0	Grantlar, insonparvarlik yordami va texnik ko‘maklashish vositalari
5	000	1	0	Respublika mablag‘lari
5	000	2	0	Hududiy mablag‘lar

davomi

1	2	3	4	5
5	000	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
5	000	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar
5	001	0	0	Halqaro valyuta jamg‘armasi
5	002	0	0	Butunjahon banki (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki –XTTB)
5	003	0	0	Osiyo taraqqiyot banki (OTB)
5	004	0	0	Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB)
5	005	0	0	Islom taraqqiyot banki
5	006	0	0	KfV Germaniya Banki
5	007	0	0	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg‘armasi (YuNISEF)
5	008	0	0	Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi (BMTTD)
5	009	0	0	Birlashgan Millatlar Tashkilotining aholi jamg‘armasi (YuNFPA)
5	010	0	0	Xalqaro Qo‘shma Taraqqiyot Assotsiatsiyasi
5	011	0	0	“Friedensdorf International” (Germaniya) xalqaro insonparvarlik tashkiloti
5	012	0	0	Atom energiyasi bo‘yicha xalqaro agentlik (MAGATE)
5	013	0	0	MDH davlatlariga texnik ko‘maklashish bo‘yicha YeIU dasturi (INTAS)
5	014	0	0	NATO
5	015	0	0	Evropa hamjamiyati (INTAS)
5	016	0	0	Osiyo futbol federatsiyasi
5	017	0	0	OITS, sil va bezgak kasalliklariga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro global jamg‘armasi
5	018	0	0	Baynalmilal futbol Assotsiatsiyalar Federatsiyasi
5	019	0	0	Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (EXHT)
5	999	0	0	Boshqa grantlar, insonparvarlik yordamlari va texnik ko‘maklashish vositalari
6	000	0	0	Kreditlar
6	000	1	0	Respublika mablag‘lari
6	000	2	0	Hududiy mablag‘lar
6	000	2	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari
6	000	2	2	Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag‘lar

Manba: O‘zbekiston Respublikasi budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnomaga 1-ilova.

6.3. DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH YUZASIDAN XORIJIY DAVLATLAR IJOBIY TAJRIBALARINI O‘ZLASHTIRISH

Jahon soliq amaliyotining tajribalarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan xorijiy davlatlarda, birinchi navbatda, «kuchli yettilik» deb ataluvchi rivojlangan industrial mamlakatlarda davlat budjeti daromadlarining 70 foizdan ortiq qismi soliq tushumlaridan iboratdir.

Biz ushbu paragrafda rivojlangan industrial mamlakatlarning davlat budjeti daromadlarining shakllanish amaliyotini tahlil qilamiz.

Rivojlangan industrial mamlakatlar ichida iqtisodiy salohiyati jihatidan birinchi o‘rinni AQSH egallaydi. AQSH yalpi ichki mahsulotining miqdori 10 trln AQSH dollarini tashkil qiladi. Iqtisodiy salohiyati jihatidan ikkinchi o‘rinni Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lgan mamlakatlar guruhi egallaydi. Ularning yalpi ichki mahsuloti 8,5 trln AQSH dollarini tashkil qiladi.

AQSHda davlat budjeti daromadlarining 70 foizdan ortiq qismini soliqlar tashkil qiladi. Shunisi xarakterliki, soliq tushumlari ichida aholidan olinadigan daromad solig‘i asosiy o‘rinni egallaydi. Uning AQSH Federal budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i 44 foizga yaqin. Mazkur soliq jismoniy shaxslardan va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan individual korxonalardan olinadi. Alohida shaxs yoki oila soliqqa tortishning subyekti bo‘lib hisoblanadi.

Shunisi xarakterliki, AQSHda daromad solig‘ini aniqlash muhim o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, bu xususiyat alohida soliq to‘lovchilar bo‘yicha tabaqalashgan standart chegirmalar mavjudligidir. Mazkur chegirma boshqa rivojlangan industrial mamlakatlarning budjet amaliyotida mavjud emas. Tabaqalangan standart chegirmani qo‘llash tartibi quyidagicha:

- yolg‘iz fuqarolar uchun — 4150 dollar;
- boqimandasi bo‘lgan oila boshliqlari uchun — 6050 dollar;
- er-xotindan iborat oila uchun — 6150 dollar.

Keksa va ko‘zi ojiz fuqarolar 800 dollardan 2000 dollargacha bo‘lgan miqdorda qo‘shimcha chegirmalar olish huquqiga egadirlar.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, standart chegirmalar faqat daromad darajasi past bo‘lgan fuqarolar uchun qulay hisoblanadi. Bu esa fuqarolarning mazkur toifasini ijtimoiy jihatdan himoya

qilishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasida shakllantirilgan ijtimoiy xarakterdagi bozor iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri aholining kam ta’minlangan qatlamlarini himoya qilish hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, AQSH amaliyotida qo‘llanilayotgan standart chegirmalarni respublikamiz sharoitida qo‘llash masalasini ilmiy jihatdan o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

AQSH soliq amaliyotida aholining o‘rtahol va badavlat qatlamlariga nisbatan daromad solig‘ining alohida chegirmalari qo‘llaniladi. Bu chegirmalar daromaddan mahalliy soliqlarni, ko‘chmas va shaxsiy mulklarni, avtomashina yoki ko‘chmas mulkni sotib olish maqsadida berilgan ssudalar bo‘yicha foizlarni, ta’lim xarajatlarini, nafaqa badallarini, tibbiyot xarajatlarining ayrim turlarini va boshqa shu kabi xarajatlarni chegirib tashlashni ko‘zda tutadi. Amalga oshirilgan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, 2000-yilning oxiriga kelib yiliga 15000 dollargacha daromad oladigan AQSH fuqarosi haqiqatda olingan daromadlarning 11 foizidan ortiq qismidan soliq to‘laydi. Yiliga 15000 dollardan 30000 dollargacha daromad oladigan fuqarolar olingan daromadlarning 50 foizidan ortiq qismidan yiliga 30000 dollardan ortiq daromad oladigan fuqarolar olingan daromadlarning 75 foizdan ortiq qismidan soliq to‘laydilar.

Biz quyidagi jadval ma’lumotlari orqali AQSHda daromad solig‘i stavkalarining darajasini ko‘rib chiqamiz.

2-jadval

AQSHDA FUQAROLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG‘INING STAVKALARI

Soliqqa tortiladigan yillik daromad summasi, AQSH dollari	Daromad solig‘i, %
1) 22 000 gacha	15
2) 22 000 — 54 000	3300 — 22 000 dan ortiq summaning 28 foizi
3) 54 000 — 115 000	12 000 — 54 000 dan ortiq summaning 31 foizi
4) 115 000 — 250 000	31000 — 115000 dan ortiq summaning 36 foizi
5) 250 000 dan ortiq	80000 — 250000 dan ortiq summaning 40 foizi

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, AQSHda fuqarolardan olinadigan daromad solig‘iga nisbatan progressiv stavkalar qo‘llanilmoqda. Progressiv soliq stavkalari fuqarolarning daromadining o‘sishiga bog‘liq ravishda oshib boradi.

Shunisi xarakterliki, *birinchidan*, AQSHda fuqarolardan olinadigan daromad solig‘ining stavkalari shtatlar va munitsipalitetlar

miqyosida tabaqalashtirilgan va stavkalar 0 foizdan 26 foizgacha bo‘lgan darajani tashkil etadi; *ikkinchidan*, ayrim AQSH shtatlarida (Pensilvaniya, Indiana shtatlari) mutanosib soliq stavkalari ham qo‘llaniladi; *uchinchidan*, AQSHda fuqarolardan olinadigan daromad solig‘i stavkalarining soni va darajasini pasaytirish an’anasi kuzatilmoqda. Masalan, 1986-yilga qadar AQSHda fuqarolardan olinadigan daromad solig‘ining 14 ta stavkasi mavjud edi va ularning maksimal darajasi 50 foizni tashkil qilar edi.

Ayni vaqtda, shuni alohida ta’kidlash lozimki, AQSH Federal budjetida fuqarolardan olinadigan daromad solig‘ining eng yuqori salmog‘ini egallashning birlamchi sababi aholining turmush darajasini va, binobarin, daromad darajasining yuqori ekanligi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda AQSHda har bir fuqaroga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot miqdori 36200 AQSH dollarini tashkil etadi.

AQSHda fuqarolardan olinadigan daromad solig‘ining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, AQSH rezidentlari daromadlarining umumiy summasidan soliq to‘lasalar, norezidentlar faqat AQSH hududida olgan daromadlaridan soliq to‘laydilar. AQSHda mamlakatda 6 oy va undan ortiq muddat yashayotgan fuqarolar rezidentlar hisoblanadi.

AQSH Federal budjeti daromadining umumiy hajmida salmog‘iga ko‘ra ikkinchi o‘rinni ijtimoiy sug‘urtaga qilingan ajratmalar egallaydi. Ijtimoiy sug‘urtaga qilingan ajratmalar ish beruvchilar va yollanma ishchilar o‘rtasida teng taqsimlanadi. Badallarning stavkalari har yili budjetni shakllantirish jarayonida tasdiqlanadi. XX asrning 90-yillarida umumiy stavka ish haqi fondining 15,2 foizini tashkil qilar edi. Bunda ish beruvchi va ishchi (xodim) 7,51 foizdan badal to‘lar edi. Shunisi ahamiyatli ediki, mazkur tartibda ish haqi fondining faqatgina dastlabki 48,6 ming AQSH dollari miqdoridagi qismi ijtimoiy sug‘urta badaliga tortilar edi. 2000-yildan boshlab ijtimoiy sug‘urta stavkalari 6,2 foiz qilib belgilandi, bunda soliqning maksimal stavkasi 76,2 ming AQSH dollari miqdorida belgilandi. Yangi ijtimoiy sug‘urta ajratmalarining amaldagi tartibiga muvofiq, ish beruvchilar yuqorida qayd etilgan ajratmalardan tashqari ish haqi fondining dastlabki 7000 AQSH dollari miqdoridagi qismidan 6,2 foizli stavkada ishsizlik bo‘yicha ham soliq to‘laydilar.

AQSH Federal budjeti daromadlarining umumiy hajmida salmog‘iga ko‘ra uchinchi o‘rinni korporatsiyalarning daromadlaridan olinadigan soliq tushumlari egallaydi.

3-jadval

AQSHDA KORPORATSIYALARNING DAROMADIDAN OLINADIGAN SOLIQLARNING BAZASI VA STAVKALARI

Soliqqa tortiladigan daromad, dollar	Soliq stavkasi, %
50 000 gacha	15
50 000 — 75 000	25
75 000 — 100 000	34
100 000 — 335 000	39
335 000 — 10 000 000	34
10 000 000 — 15 000 000	35
15 000 000 — 18 333 333	38
18 333 333 dan yuqori	35

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korporatsiyalarning daromadidan olinadigan soliq kichik va o'rta biznes korxonalarini moliyaviy rag'batlantirish vazifasini o'taydi. Chunki, daromad hajmining o'sib borishi bilan soliq stavkalari ham oshib boradi. Masalan, 50 000 dollargacha daromad oladigan korporatsiyalar eng past stavkada soliq to'laydilar. Soliq stavkalari 100 000 dan 335 000 AQSH dollarigacha bo'lgan daromad uchun muttasil oshib boradi. Bu esa kichik biznes korxonalari uchun o'ziga xos soliq imtiyozi vazifasini o'taydi. Yirik korporatsiyalar esa 18 333 333 dollardan ortiq daromadlaridan 35 foizli stavkada soliq to'laydilar. Bu esa juda yuqori stavka bo'lib, maksimal stavkadan atigi 4 bandga pastdir. Yirik korporatsiyalar esa, odatda daromadlilik darajasi 100 000 000 va undan yuqori bo'lgan xo'jalik subyektlari hisoblanadi.

AQSHda korporatsiyalar daromadidan olinadigan soliqni qo'llashga xos bo'lgan xususiyatlardan biri shundaki, bu yerda dividendlar soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanmaydi. Ammo, dividendlarga nisbatan sezilarli darajada soliq imtiyozlari qo'llaniladi. Masalan, korporatsiyalar uchun soliq imtiyozlari ularning aksionerlik kapitalidagi salmog'idan kelib chiqqan holda belgilangan. Xususan, korporatsiyaning boshqa korporatsiya aksionerlik kapitalidagi salmog'i 80 foiz va undan ortiq bo'lsa,

u holda korporatsiya oladigan dividend 100 foiz soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanadi. Agar bu ko‘rsatkich 20 foiz va undan ortiq bo‘lsa dividendlarning 80 foizi, qolgan barcha boshqa holatlarda dividendlarning 70 foizi soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanadi.

AQSHda korporatsiyalarning daromadlaridan olinadigan soliq bazasini hisoblashda amortizatsiya ajratmalari, kredit bo‘yicha foiz to‘lovlari, fuqarolarga to‘langan daromad soliqlari, mol-mulk solig‘i, xayr-ehson maqsadlariga ajratilgan mablag‘lar, sug‘urta to‘lovlari bilan ta’minlanmagan yo‘qotish summalari va umidsiz qarzlar chegirib tashlanadi.

Shunisi xarakterliki, AQSHda korporatsiyalarning yuqori foydasidan ham soliq olinadi. Mazkur soliq bo‘yicha soliq bazasi amaldagi qonunchilikka ko‘ra soliqqa tortishning imtiyozli shartlari belgilangan daromadlar majmuyini o‘z ichiga oladi. Bunda soliqqa tortilmaydigan daromad summasi 40 000 AQSH dollarini tashkil qiladi, daromad summasi 40 000 dollarga yetishi bilan amaldagi stavka 20 foizga tushadi. O‘zbekiston Respublikasida ham soliqqa tortishning imtiyozli sharoitlariga ega bo‘lgan korxonalar mavjud, masalan, neft va gaz sanoatiga qarashli bir qator korxonalarni bunga misol qilish mumkin. Shuning uchun mazkur korxonalarga nisbatan yuqori foydadan olinadigan soliqlarni qo‘llash masalasini ilmiy asosda o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

AQSH Federal budjeti daromadlarining umumiy hajmida egri soliqlarning salmog‘i yuqori emas. AQSHda QQS mavjud bo‘lmagan kam sonli mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bu yerda QQSning o‘rniga sotishdan olinadigan soliq qo‘llaniladi. Uning stavkasi 4 foizdan 8,5 foizgachani tashkil etadi.

Aksiz soliqlari spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlariga, transport xizmatlariga nisbatan o‘rnatilgan bo‘lib, ularning davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i sezilarsizdir.

Rivojlangan industrial mamlakatlarda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri shundaki, ularning deyarli barchasida aholidan olinadigan daromad solig‘i soliq tushumlarining sezilarli qismini tashkil etadi. Masalan, Germaniyada davlat budjetining daromad qismida aholidan olinadigan daromad solig‘ining salmog‘i 30 foizni, Buyuk Britaniyada 64 foizgachani, Fransiyada esa 15 foizni tashkil qiladi. Aholidan olinadigan daromad solig‘ining sezilarli darajada yuqori salmoqqa ega ekanligi, bizning fikrimizcha,

mazkur mamlakatlar aholisining nominal daromadlari hajmining uzluksiz o‘sib borayotganligi va soliq stavkalarining progressiv ekanligi bilan izohlanadi. Ayni vaqtda, rivojlangan industrial mamlakatlarda korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliqning davlat budjeti daromadlaridagi salmog‘i pasayish an’anasiga ega bo‘lmoqda. Chunonchi, Ikkinchi jahon urushi arafasida mazkur soliq bo‘yicha olingan tushum summasi AQSH federal budjetiga jami soliq tushumlarining 50 foizga yaqin qismini tashkil qilar edi. 1955-yilga kelib bu ko‘rsatkich 30 foizni, 1975-yilda 15 foizni, 1998-yilda esa 12 foizni tashkil qildi. Mazkur soliqning davlat budjeti daromadlari hajmidagi ahamiyatining pasayib borishi, asosan, ushbu soliq turiga nisbatan soliq imtiyozlarining doimiy ravishda qo‘llanilayotganligi va soliq stavkalari pasaytirib borilayotganligining oqibatidir. Xususan, AQSHda mana shu sabablarga ko‘ra xo‘jalik subyektlari yalpi daromadining 50 foizga yaqin qismi, Buyuk Britaniyada esa uchdan ikki qismi soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanadi.

Shunisi xarakterliki, rivojlangan industrial mamlakatlarda soliq tushumlari summasini muttasil o‘sib borayotganligiga qaramasdan davlat budjeti defitsiti surunkali holatga aylanib qoldi. Bu esa, o‘z navbatida, davlat budjeti defitsitini qoplashning manbayi bo‘lgan — hukumatning qimmatli qog‘ozlarini emissiya qilish va sotish hajmining yuqori darajada o‘sishiga olib keldi. Birgina AQSHda hukumatning qimmatli qog‘ozlarini sotish natijasida yuzaga kelgan davlat qarzi 5,5 trln AQSH dollaridan oshib ketdi. Bu ko‘rsatkich Buyuk Britaniyada 300 mlrd funt sterlingdan ortiq summani tashkil qilsa, Germaniya va Fransiyada mos ravishda 796 mlrd markani va 3898 mlrd frankni tashkil qiladi.

Rivojlangan industrial mamlakatlarda davlat qarzining keskin ko‘payishi hukumatning qimmatli qog‘ozlarini sotish natijasida olgan tushumlarning davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ahamiyatini oshirishiga sabab bo‘ldi.

Rivojlangan industrial mamlakatlar davlat budjeti daromadlari hajmida egri soliqlar ham muhim o‘rin tutadi, hozirgi vaqtda mazkur mamlakatlarda egri soliqlarning, asosan 3 turi keng qo‘llanilmoqda: aksizlar, boj soliqlari va fiskal monopol soliqlar.

Shunisi xarakterliki, egri soliqlarning budjet daromadlari hajmidagi salmog‘i mamlakatlarda bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, Fransiyada davlat budjeti daromadlarining 45 foiziga yaqin qismi QQSdan keladigan tushumlar summasiga to‘g‘ri

keladi. Bu ko‘rsatkich Buyuk Britaniya va Italiyada 20 foizga yaqin miqdorni tashkil qiladi.

Egri soliqlar ichida QQS yuqori salmoqni egallaydi. Mazkur soliq yetakchi industrial mamlakatlardan faqat AQSH va Yaponiyada qo‘llanilmaydi.

Boj soliqlari egri soliqlarning uchinchi asosiy turini tashkil qiladi va ular tovarlarni eksport va import qilishda olinadi. Boj soliqlari tovarlarning bahosiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli boj soliqlarini sezilarli darajada oshirilishi tovarlarni jahon bozoridagi bahosining oshishiga olib keladi. Natijada ularni sotish qiyinlashadi va mamlakatning eksport tushumi kamayadi. Xalqaro amaliyotdan ma’lumki, eksport tushumlarining surunkali tarzda kamayishi eksportga yo‘naltirilgan korxonalarning moliyaviy ahvolini keskin yomonlashuviga olib keladi. Bu esa, pirovard natijada, ularning soliq bazasiga salbiy ta’sir qiladi va buning oqibatida soliq tushumlari kamayadi. Demak, boj solig‘i yuridik shaxslarning soliqqa tortish bazasiga bevosita ta’sir qiladigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Bir mamlakat hukumati tomonidan ikkinchi bir mamlakatdan import qilinayotgan tovarlarga nisbatan boj soliqlarining joriy qilinishi albatta, eksportyor mamlakati tomonidan javob choralarini ko‘rilishiga olib keladi. Ya’ni bu mamlakat ham birinchi mamlakatda import qilinayotgan tovarlarga nisbatan boj soliqlarini o‘rnatadi.

Boj soliqlariga xos bo‘lgan va biz yuqorida qayd qilgan kamchiliklar boj soliqlarining xalqaro savdo operatsiyalarini tartibga solishdagi ahamiyatini pasayishiga olib keldi. Buning natijasida boj soliqlarining rivojlangan industrial mamlakatlar davlat budjetlarining daromadlari hajmidagi salmog‘i pasayib bordi. Hozirgi vaqtda mazkur mamlakatlar davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida boj soliqlarining salmog‘i bir foizdan to‘rt foizgacha bo‘lgan miqdorini tashkil qiladi.

Rivojlangan industrial mamlakatlarda fiskal monopol soliqlardan davlat budjetining daromadlari sifatida foydalaniladi. Bu soliqlar davlat monopoliyasi mavjud bo‘lgan sohalarga mansub korxonalardan undiriladi. Mazkur soliqlar Fransiya, Italiya, Germaniya va Yaponiyada doimiy ravishda undiriladi. Ular Buyuk Britaniyada mavjud emas.

Kuchli yettilikka a’zo bo‘lgan mamlakatlardan biri Kanada hisoblanadi. Kanadada soliq tushumlari davlat budjeti daromad-

larining 90 foizidan ortiq qismini tashkil qiladi. Shuning 45 foizidan ortiq qismi aholidan olinadigan daromad solig‘i hissasiga to‘g‘ri keladi.

Kanada davlat budjeti daromadlarining tarkibida, salmog‘iga ko‘ra, aholidan olinadigan daromad solig‘idan keyingi o‘rinlarni korporatsiyalardan olinadigan soliq, ijtimoiy sug‘urta fondiga o‘tkaziladigan badallar va aksizlar egallaydi. Xalqaro valuta fondi (XVF) hamda Jahon tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari tomonidan Sharqiy Yevropa mamlakatlari moliyaviy islohotlar muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilayotgan mamlakatlar sifatida e’tirof etilgan. Shu boisdan ham biz Sharqiy Yevropadagi bir qator davlatlarning budjet amaliyotiga xos bo‘lgan ijobiy jihatlarni ko‘rib chiqamiz.

Sharqiy Yevropa mamlakatlari davlat budjetlari daromadlarining 90 foiziga yaqin qismi soliqlar hisobiga shakllanadi. Shunisi xarakterliki, Bolgariya, Vengriya, Polsha va Chexiyada ijtimoiy sug‘urta fondiga to‘lanadigan badallar davlat budjetining asosiy daromad manbayi hisoblanmaydi.

Hozirgi vaqtda Sharqiy Yevropa mamlakatlarining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1) davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida egri soliqlar yuqori salmoqni egallaydi. Bu yuqori salmoq, QQS va aksizlar hisobiga ta’minlanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘idan olinadigan tushumlarning davlat budjeti daromadlari hajmidagi salmog‘i Bolgariyada 55,5 foizni, Vengriyada — 44,7 foizni, Polshada 60,2 foizni, Chexiyada 35,7 foizni tashkil qiladi.

Mazkur mamlakatlarning soliq amaliyotini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, birinchidan, ularda QQS va aksiz soliqlarining stavkalari yuqori; ikkinchidan, egri soliqlarga nisbatan qo‘llaniladigan soliq imtiyozlarining turi juda kam. Masalan, Vengriyada QQSning stavkasi 25 foiz bo‘lib, imtiyozli soliq stavkasi 12 foizni tashkil etadi. Polshada bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 22 foiz va 7 foiz, Chexiyada 22 foiz va 5 foiz;

2) Sharqiy Yevropa mamlakatlari davlat budjetlarining daromad qismida aholidan olinadigan daromad solig‘ining salmog‘i o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa, asosan, daromad solig‘i stavkalarining yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Masalan, Bolgariya va

Vengriyada aholidan olinadigan daromad solig‘i stavkasi 20 foizni, Chexiyada 15 foizni tashkil etadi;

3) davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq tushumlarining salmog‘i pasayish tendensiyasiga ega bo‘layapti. Bu holatning asosiy sababi, soliq stavkalarining doimiy ravishda tushirib borilayotganligidir. Masalan, Polshada 1998-yilda yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq stavkasi 36 foiz bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda bu ko‘rsatkich 22 foizni tashkil qiladi. Vengriyada mazkur soliqning stavkasi 18 foizni, Bolgariyada esa 15 foizni tashkil etadi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida davlat budjeti xarajatlarini doimiy ravishda oshirib borish zaruriyati budjet daromadlarining yetishmovchiligini yuzaga keltiradi. Mazkur holat o‘tish davridagi iqtisodiy qiyinchiliklar, iqtisodiy o‘sish sur’atlarining pasayishi, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurishning zarurligi kabi omillar bilan izohlanadi.

Sharqiy Yevropa davlatlarida, yuqorida qayd etilgan sabablar tufayli, davlat budjeti defitsiti muammosining yuzaga kelishi hukumatning qimmatli qog‘ozlarini emissiya qilish va sotish yo‘li bilan davlat budjeti daromadlarini ko‘paytirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Xususan, 1996-yildan boshlab Chexiya davlat budjetining defitsiti yuzaga keldi va u 1999-yildan boshlab budjet xarajatlarining 5 foizdan ortiq qismini tashkil eta boshladi. Buning natijasida, Chexiya hukumati o‘zining qimmatli qog‘ozlarini sotish hajmini oshirish yo‘li bilan davlat budjeti daromadlarini ko‘paytirishga majbur bo‘ldi. 2000-yilga kelib, mazkur daromad manbayi markaziy budjet daromadlarining 34,4 foizini tashkil qildi. Vengriyada ham davlat qarzi muammosining chuqurlashuvini kuzatish mumkin. Xususan, 1995-yilda davlat qarzini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar budjet jami daromadlarining 29,1 foizini olib ketdi, 1998-yilda bu ko‘rsatkich 26,2 foizni, 2000-yilda esa 21,2 foizni tashkil qildi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Sharqiy Yevropa mamlakatlarining ko‘pchiligida davlat budjeti xarajatlarini qoplash uchun jalb etilgan ichki manbalarning yetishmasligi kuzatildi. Bu esa, budjet daromadlarini shakllantirishda tashqi manbalardan foydalanishga olib keldi. Ayrim davlatlarda tashqi qarzni to‘lay olmaslik holatlari ham yuzaga keldi. Masalan, Polshada XX asrning 90-yillarida qarzni to‘lay olmaslik holati yuzaga keldi. Polshani bunday og‘ir ahvoldan

qutqarish imkoni xorijiy kreditorlar tomonidan o‘z qarzlarining 50 foizini voz kechishi natijasida yuzaga keldi. Mana shunday holat Bolgariyada ham kuzatildi. Masalan, 1997-yilda davlat qarzini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar jami budjet xarajatlarining 43,1 foizini tashkil qildi. Bu summaning uchdan bir qismi tashqi qarzni to‘lash xarajatlariga, uchdan ikki qismi esa ichki qarzlarni to‘lash xarajatlariga to‘g‘ri keldi.

Jahonning ko‘pgina mamlakatlari iqtisodiyotini kuzatish shuni aniqlab beradiki, soliqlarning tarkibida to‘g‘ri soliqlar ulushining kamayib ketishi iqtisodi yaxshi rivojlanmagan davlatlarga xos xususiyat hisoblanadi. Quyida keltirilgan jadvalda biz buning tasdig‘ini ko‘rishimiz mumkin.

4-jadval

JAHONNING TURLI DARAJADA RIVOJLANGAN MAMLAKATLARIDAGI BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQLARINING O‘ZARO NISBATI (foiz hisobida)

Mamlakatlar	Bevosita soliqlar	Bilvosita soliqlar
Qoloq mamlakatlar	32	68
O‘rta darajada rivojlanayotgan mamlakatlar	50	50
Rivojlangan mamlakatlar	68	32

Rivojlangan mamlakatlarning ayrimlarini kuzatadigan bo‘lsak, umumiy daromadlari tarkibida to‘g‘ri soliqlarning ulushi juda yuqori. Masalan, 1997-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra to‘g‘ri soliqlarning ulushi AQSHda 91, Yaponiyada 63,8, Buyuk Britaniyada esa 54,3 foizni tashkil qilgan.

Endi biz tahlil obyektini Rossiya Federatsiyasi davlat budjetiga ko‘chiramiz.

Rossiya Federal budjetining umumiy hajmida salmog‘iga ko‘ra birinchi o‘rinni egri soliqlar egallaydi. Ularning budjet umumiy daromadlari hajmidagi salmog‘i 68 foizdan oshadi. Egri soliqlar ichida salmog‘iga ko‘ra birinchi o‘rinni QQS egallaydi. Uning Federal budjetning daromadlari hajmidagi salmog‘i 30 foizdan oshadi. Undan keyingi o‘rinni aksizlar va boj soliqlari egallaydi. Ularning Federal budjetning daromadlari hajmidagi salmog‘i mos

ravishda 18,4 va 19,3 foizni tashkil etadi.

Shunisi xarakterliki, Rossiya Federal budjeti daromadlarining tarkibida yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq summasi atigi 7,6 foizni, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i esa 5,3 foizni tashkil etadi. To'g'ri soliqlarning asosiy turlari hisoblangan mazkur ikki soliq turi bo'yicha soliq tushumlarining budjet daromadlari hajmidagi salmog'ini nisbatan kichik ekanligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

1) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha keng imtiyozlar tizimi joriy qilingan;

2) yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq stavkasining darajasini nisbatan past ekanligi. Federal budjetga kelib tushadigan mazkur soliqlarning stavkasi 13 foizni tashkil etadi. Federatsiya subyektlari tomonidan o'rnatilgan ikkinchi stavkaning darajasi 22 foizdan oshmasligi kerak.

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1) rivojlangan industrial mamlakatlarda davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi to'g'ri soliqlar hisobidan shakllanmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, davlat budjeti daromadlarining asosiy qismini egri soliqlardan olingan tushumlar tashkil qiladi;

2) rivojlangan industrial mamlakatlarda hukumatning qimmatli qog'ozlarini sotishdan olingan mablag'lar davlat budjeti daromadlari hajmida sezilarli salmoqni egallaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy qismida bu daromad manbayining budjet daromadlari tarkibidagi salmog'i juda kichik. Mazkur holat aholi va korxonalarning hukumatga nisbatan bo'lgan ishonchi qay darajada ekanligi bilan belgilanadi;

3) rivojlangan industrial mamlakatlarda aholining daromad darajasining yuqori ekanligi va aholidan olinadigan daromad solig'ining asosan, progressiv stavkalarda undirilishi mazkur soliqlardan olinadigan tushumlarning davlat budjeti daromadlarining tarkibida yuqori salmoqqa ega bo'lishiga olib keldi.

Shunday qilib, biz tadqiqotimizning ushbu savolida iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda davlat budjeti daromadlarini shakllantirish amaliyotining ayrim qirralari bilan tanishar ekanmiz, ulardagi ayrim ijobiy tajribalarni mamlakatimiz soliq-budjeti amaliyotida qo'llash mumkinligini nazariy jihatdan isbotlashga harakat qildik.

7-bob
DAVLAT BUDJETINING SOLIQLI DAROMADLARI

7.1. DAVLAT BUDJETINING SOLIQLI DAROMADLARI TARKIBI VA DINAMIKASI TAHLILI

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan xorijiy davlatlarda davlat budjeti daromadlarining 95 foizgacha bo‘lgan qismi soliq tushumlari hisobidan shakllanadi. Buning asosiy sabablari, soliqlarning fiskallik va iqtisodiy funksiyalarining mavjudligidir.

Tarixan soliqlar har qanday davlat budjetini shakllantirishning asosiy manbalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Soliq tushumlari hisobidan davlat qurilish va jamiyatni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘lari jalb qilinadi. O‘zining mohiyatiga ko‘ra soliqlar davlat budjetining yuqori daromadli manbalaridan biri hisoblanadi. Buning boisi shundaki, *birinchidan*, soliqlar davlat budjeti tomonidan qaytarib bermaslik sharti bilan undiriladi; *ikkinchidan*, ular budjetning davlat xarajat qilmaydigan qismi hisoblanadi[1].

XX asrning 70-yillaridan boshlab, bir qator rivojlangan xorijiy davlatlarda, xususan AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiyada iqtisodiyotga davlatning aralashuvi kuchaydi. Bu esa, soliqlarning iqtisodiy funksiyasi ahamiyatining oshishiga olib keldi. Ushbu funksiyaga ko‘ra soliqlar to‘lovga qobil talabga, taklifga va resurslar ta’minotiga bevosita ta’sir qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini shakllantirish mamlakat Prezidenti I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh asosiy tamoyilga asosan amalga oshirildi. Mazkur tamoyillardan biri davlatning bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida bosh islohotchilik rolini bajarishi hisoblanadi.

Bu esa, iqtisodiyotga davlat aralashuvining faolligini belgilab beradi. Shubhasiz, bu jarayonda asosiy o‘rinni birinchi boshqaruv vositasi sifatida soliqlar egallaydi. Prezidentimiz I. A. Karimov soliq-

[1] *A. Jo‘rayev.* «Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari».

1-jadval

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETINING ASOSIY SOLIQ TURLARI BO‘YICHA DAROMADLARINING TARKIBI VA DINAMIKASI

T/r	Soliq turlari	2000-yil		2001-yil		2002-yil		2003-yil		2004-yil		2005-yil	
		Summa (mlrd so‘m)	Salmog‘i(%)	Summa (mlrd so‘m)	Salmog‘i (%)	Summa (mlrd so‘m)	Salmog‘i(%)	Summa (mlrd so‘m)	Salmog‘i(%)	Summa (mlrd so‘m)	Salmog‘i(%)	Summa (mlrd so‘m)	Salmog‘i(%)
1.	Korxonalarning foydasidan olinadigan soliq	116,8	14,6	143,3	13,1	174,0	11,6	198,3	7,4	257,7	7,0	276,3	8,9
2.	Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq	119,6	15,0	189,0	17,3	265,3	17,8	303,0	12,3	334,2	12,7	465,6	15,0
3.	Kichik korxonalardan olinadigan yagona soliq	17,0	201	28,4	2,6	66,2	4,4	703	2,3	85,8	3,3	123,9	4,0
4.	QQS	173,2	21,6	238,5	21,8	324,2	21,7	642,7	22,9	604,3	23,1	748,9	24,0
5.	Aksiz	164,6	20,5	192,7	17,6	225,5	15,1	630,6	29,2	751,6	28,7	692,6	22,0
6.	Resurs to‘lovlari	91,1	11,3	117,4	10,7	139,3	9,3	209,1	9,5	260,1	9,9	554,2	14,8
7.	Infratuzilmani rivojlantirish solig‘i	13,1	1,6	23,4	2,1	39,7	2,7	45,7	1,7	45,7	1,7	52,2	1,6
8.	Boj to‘lovlari	77,7	9,7	126,6	11,6	196,5	13,2	44,3	3,6	30,7	4,9	123,0	3,7
9.	Boshqa soliqlar	29,4	3,7	34,1	3,1	61,9	4,1	68,7	1,1	64,7	8,7	76,9	6,0
	Jami soliqli daromadlar	802,5	100,0	1093,4	100,0	1492,6	100,0	2192,7	100,0	2434,8	100,0	3104,6	100

larning iqtisodiyotni boshqarishdagi ahamiyatiga to‘xtalib, jumladan shunday dedi: «Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo‘lib qoladi».

Yuqorida bayon etilgan holatlarning natijasi o‘laroq, O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining daromadlari tarkibida soliqlarning yuqori salmoqni egallashi yuzaga keladi (1-jadvalga qarang).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining soliqli daromadlarining umumiy hajmida QQS, jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq, aksiz solig‘i, boj soliqlari va korxonalarning foydasidan olinadigan soliqlar bo‘yicha tushum summalari yuqori salmoqni egallaydi. Buning asosiy sababi shundaki, birinchidan, bozor munosabatlariga o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda egri soliqlar nisbatan uzoq davr mobaynida o‘zining fiskallik ahamiyatini saqlab qoladi. Bizning mamlakatimiz ham ana shunday davlatlar toifasiga kiradi va, binobarin, egri soliqlarning davlat budjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i nisbatan yuqoridir. Ikkinchidan, aholi turmush darajasining oshishi, ularga tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarning yaratilishi aholi daromadlarining nominal va real hajmlarining oshishiga olib keladi. Masalan: 2003-yilda jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqning 1999-yilga nisbatan mutlaq summada o‘sishi 342,4 foizni (303*100G‘88,5) tashkil qildi. Bu esa, aholi daromadlarining nominal hajmining yuqori darajada o‘sganligi bilan izohlanadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1999—2004-yillar mobaynida korxonalar foydasidan olinadigan soliqning budjet daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘ining pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Bu holat mamlakatimiz hukumati tomonidan xo‘jalik subyektlarining soliq yukini yengillashtirish siyosatining natijasidir. Xo‘jalik subyektlari soliq yukining asosiy qismi ularning foydasidan olinadigan soliq hisobidan shakllanadi. Shuning uchun korxonalarning foydasidan olinadigan soliq bo‘yicha amaldagi stavkalarning pasaytirilishi, soliq imtiyozlarining berilishi korxonalarning pul oqimiga va moliyaviy barqarorligiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida qisqa muddatli davriy oraliqlarda korxonalarning foydasidan olinadigan soliq tushumining davlat budjeti daromadlari hajmidagi salmog‘i pasaydi, lekin o‘rta va uzoq muddatli davriy oraliqlarda korxonalarning daromadlari sezilarli darajada oshib, ularning foydasidan

olinadigan soliq tushumlari ko‘payadi. Shu jihatdan olganda, hukumatimiz tomonidan xo‘jalik subyektlarining soliq yukini yengillashtirish siyosatini olib borish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonning milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun juda katta ahamiyatga ega ekanligi Prezident I. A. Karimovning quyidagi fikrlarida o‘zining yaqqol ifodasini topgan: «Korxonalar zimmasidagi soliq yukining yengillashtirilishi, qo‘shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasining kamaytirilishi natijada ishlab chiqarishni jonlantirishga olib kelishi lozimki, bu narsa iqtisodiyotni barqarorlashtirish muammosini hal etishda g‘oyat katta ahamiyatga ega».

Respublikamiz davlat budjetining soliqli daromadlari tarkibida jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq tushumlari yuqori salmoqni egallaydi. 1999—2005-yillarda ushbu soliq tushumlari salmog‘ining o‘sish tendensiyasi kuzatiladi. Bu esa, budjet daromadlarini shakllantirish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Chunki, milliy iqtisodiyot rivojlanib borishi bilan jamiyatda makroiqtisodiy barqarorlik ta’minlanishi bilan jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqni nafaqat to‘g‘ri soliqlar tarkibidagi salmog‘i, balki davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i ham oshib boradi. O‘quv qo‘llanmaning 1-bobida aytib o‘tilganidek, Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Germaniya va Avstriya kabi rivojlangan xorijiy davlatlarning davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqning salmog‘i 20 foizdan 25 foizgacha bo‘lgan miqdorni tashkil etadi.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibida boj soliqlari asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. 1999—2005-yillarda mazkur soliq bo‘yicha tushum summalarining soliqli daromadlarning umumiy hajmidagi salmog‘i o‘sish tendensiyasi mavjud. Bu esa mazkur yillarda mamlakatimizda import operatsiyalari hajmining va boj solig‘i stavkalarining oshib borganligi bilan izohlanadi.

Davlat budjeti daromadlari tarkibida soliqli daromadlar darajasining yuqori yoki past bo‘lishi hukumatning soliq siyosatiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lib, uni tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri soliq tushumlarining Yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘ining o‘zgarishi hisoblanadi.

2-jadval

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TUSHUMLARINING YALPI ICHKI MAHSULOTDAGI SALMOG‘INING O‘ZGARISHI (foizda)

№	Ko‘rsatkichlar	1999-y.	2000-y.	2001-y.	2002-y.	2003-y.	2004-y.
1.	Yalpi ichki mahsulot	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
2.	Soliq tushumlarining Yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i	27,0	24,6	22,2	21,1	20,9	20,7

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, 1999—2004-yillar mobaynida mamlakatimizda soliq tushumlarining Yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Buning sababi, soliq tushumlarining o‘sish sur’atidan Yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atini yuqori bo‘lganligi hisoblanadi. Soliqlarning fiskallik funksiyasi nuqtayi nazaridan bu salbiy holat hisoblanadi. Chunki, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy xarajatlarini moliyalashtirish imkoniyatining pasayib borayotganligidan dalolat beradi. Lekin, soliqlarning iqtisodiy funksiyasi nuqtayi nazaridan bu ijobiy holat hisoblanadi. Buning boisi shundaki, soliq tushumlarining Yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘ining kamayishi davlatning iqtisodiyotga aralashuvining qisqarayotganligi, yuridik va jismoniy shaxslarning soliq yukining yengillashayotganligining natijasi bo‘lishi mumkin. Bizning fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan mazkur holatni ijobiy tarzda baholash lozim, chunki milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning hozirgi bosqichida hukumat tomonidan xo‘jalik subyektlari va aholining soliq yukini yengillashtirish, davlatning iqtisodiyotga aralashuv darajasini tobora qisqartirib borish siyosati amalga oshirilmoqda.

Mazkur o‘quv qo‘llanma oldiga qo‘yilgan vazifadan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining keyingi yillardagi ko‘rsatkichlarini yanada aniqroq tahlil qilib chiqishimiz lozim.

2001-yil 1-yanvardan «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni amal qila boshladi. 2001-yili uning Soliq kodeksi bilan ayrim nomuvofiqliklari aniqlandi va 2002-yildan boshlab budjet-soliq siyosati yaxlitligini ta’minlash Davlat Dasturi doirasida mahalliy budjetlarni «Moliyaviy tenglashtirish» siyosati yuritila boshladi. Shu boisdan qo‘llanmaning ushbu qismida soliq-budjet amaliyotining 2002-yildan boshlab o‘tgan xususiyatlari yanada aniqroq, chuqurroq tahlil etiladi. Keltirib o‘tilgan jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Davlat budjeti daromadlari

Yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2002-yilda 25,0 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2004-yilga kelib bu ko‘rsatkich 21,2 foizni tashkil qilishi rejalashtirilgan. Bu ko‘rsatkichning pasayishi ijobiy holat hisoblanib, iqtisodiyotga soliq yukining pasayib borayotganligini anglatadi, demak, respublikamizda 3 yil davomida iqtisodiyotda soliq yuki 3,8 foizga kamaygan.

Bevosita soliqlarning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2002-yilda 6,8 foizga, 2003-yilda 6,4 foizga, 2004-yilda 5,8 foizga teng bo‘lgan. Bevosita soliqlarning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushining qisqarib borishi shunday xulosaga olib keladiki, aholi va korxonalar daromadidan to‘g‘ridan to‘g‘ri soliq olish kamayib bormoqda, ya’ni soliq yuki ishlab chiqarishdan iste’molga ko‘chib borayotganligidan dalolat beradi.

Bilvosita soliqlarning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 2002-yilda 13,6 foizni, 2003-yilda 14,0 foizni, 2004-yilda 12,4 foizni tashkil qilgan. 2004-yilda bu ko‘rsatkichning pasayib ketishini davlat budjetining Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qisqarib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

3-jadval

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI SOLIQLAR VA MAJBURIY TO‘LOVLAR TIZIMI

Soliqlar	Majburiy to‘lovlar
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlar: – yagona ijtimoiy to‘lov; fuqarolarning budjetdan tashqari – Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari; – budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i majburiy to‘lovlar: – –	Respublika yo‘l jamg‘armasiga – Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar; – Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar

davomi

Qo‘shilgan qiymat solig‘i	Davlat boji
Aksiz solig‘i	Bojxona to‘lovlari
Yer ostidan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar	Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	
Mol-mulk solig‘i	
Yer solig‘i	
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i	
Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	

Manba. O‘zbekiston Respublikasining «Soliq kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qonuni. 2007-yil 25 dekabr. *Ushbu Kodeksda belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to‘lanadigan quyidagi soliqlar qo‘llanilishi mumkin: yagona soliq to‘lovi, yagona yer solig‘i, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga binoan soliqlar tizimi 3-jadvaldagi tarkibga ega. Unga ko‘ra, hozirgi kunda soliqlar 10 ta, yig‘imlar 8 taga etdi. Mazkur soliqlar va yig‘imlar huquqiy va jismoniy shaxslarning pul daromadidan olinadi va albatta, soliq va yig‘imlarning jami yig‘indisi soliq og‘irligini tashkil etadi. Soliqlarni guruhlash iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta’sirlarni o‘rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlarning umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo‘linishi hukumat idoralarining respublika va mahalliy idoralarga bo‘linishi asosida kelib chiqadi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ijtimoiy sohalar iqtisodiyotning katta bir bo‘lagi bo‘lib, jamiyat va uning a’zolariga nomoddiy xususiyatdagi xizmat ko‘rsatish vazifasini amalga oshirish bilan shug‘ullanadi. Ishlab chiqarishni erishilgan darajada saqlash va kengaytirish uchun kadrlar zarur, kadrlar mutaxassis bo‘lishi uchun sog‘lom bo‘lishlari, etarli darajada bilim olishlari kerak. Buning uchun yetarli darajada ta’lim, madaniyat muassasalari zarur va jismoniy tarbiya hamda sport tadbirlarini kengaytirib borish kerak. Shu bilan birga mehnat qila olmaydigan, nogiron, ko‘p bolali oilalar ham yordam talab etadi.

Jamiyat o‘z istiqboli uchun fan-texnika taraqqiyotini ham qo‘llab-quvvatlashi zarur. Bundan tashqari, Batanni himoya qilish, mamlakat ichkarisidagi qonunbuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik va qator boshqa ehtiyojlarni ta’minlash kerak, ularni ta’minlash esa milliy daromadni qayta taqsimlash asosida amalga oshiriladi. Milliy daromadni qayta taqsimlashda davlat budjeti asosiy rol o‘ynaydi. Qayta taqsimlash jarayonida birinchidan, korxonalar va tashkilotlar, fuqarolardan olingan soliq va yig‘imlar asosida markazlashgan fond tashkil etiladi. Ikkinchidan, shu daromadlar budjetda ko‘zda tutilgan ehtiyojlarni ta’minlash uchun taqsimlanadi.

4-jadvalda O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari dinamikasini ko‘rishimiz mumkin.

4-jadval

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINING O‘ZGARISHI

(foizlarda)

Ko‘rsatkichlar	2001-yil	2002-yil	2003-yil	2004-yil	2005-yil	2006-yil	2007-yil
Davlat budjeti daromadlari	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Bevosita daromadlar	36,0	25,9	21,8	20,4	19,1	20,0	23,9
Bilvosita daromadlar	41,4	59,2	35,2	42,3	43,9	44,3	48,6
Resurs soliqlari	14,5	9,3	9,0	8,0	2,3	6,8	18,3
Boshqa daromadlar	8,1	5,6	3,2	3,4	2,1	2,2	3,2

Manba. O‘zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari.

QQS birinchi marotaba 1954-yilda Fransiyada iqtisodchi olim M. Lore taklifiga binoan qo'llangan va tez orada jahon soliq tizimiga kirib bordi. O'zbekistonda ham bu soliq joriy qilingunga qadar jahonning 43 mamlakatida qo'llanar edi. U G'arbdagi iqtisodiy tizim modellarida faol qo'llanadi va tovarga bo'lgan talabni boshqarib, tartibga solib turishda muhim rol o'ynaydi.

QQS umumdavlat solig'i bo'lganligi uchun uning ko'pgina qismi respublika budjeti daromadlarida aks etadi.

Respublikamizda mazkur soliq 1992-yildan amalga kiritilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, ishlab chiqarish yoki boshqa tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha tashkilotlar; O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan va tovarlarni mustaqil ravishda realizatsiya qiladigan tashkilotlarning filiallari, bo'linmalari va boshqa alohida holda ajratib qo'yilgan bo'linmalari QQS to'lovchilaridirlar.

Xususan, 2002-yilda QQSdan tushgan soliq 447490,2 million so'm yoki davlat budjeti daromadlarining 24 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2003-yilda esa 522262,1 million so'm yoki davlat budjeti daromadlarining 22,5 foizini tashkil etgan. 2004-yilda bu ko'rsatkich 604270 million so'm yoki davlat budjeti daromadlaridagi salmog'i 23,1 foiz miqdorida rejalashtirilgan.

Aksizlar 1996-yili eng ko'p salmoqqa ega bo'lib, davlat budjeti daromadlaridagi salmog'i 30 foizni tashkil qilgan, shundan so'ng aksizlar salmog'i paxta xomashyosiga bo'lgan jahon miqyosidagi narxlarning tushib ketishi sababli anchagina pasayib ketgan.

Aksiz soliqlaridan davlat budjetiga kelib tushgan tushumlar quyidagicha ko'rinishga ega bo'lgan. 2002-yilda 492042,9 million so'm yoki davlat budjetidagi ulushi 26,4 foizni tashkil qilgan. 2003-yilda 690946,2 million so'm yoki davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 29,8 foizni tashkil etgani holda, 2004-yil davlat budjeti rejasida 751567,3 million so'm yoki davlat budjetidagi ulushi 28,7 foiz darajasida tasdiqlangan.

Bulardan tashqari; bilvosita soliqlar tarkibida bojxona boji 2002-yilda 29353,7 million so'mni, 2003-yilda 44300 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2004-yilda 60745,6 million so'm miqdorida rejalashtirilgan. Jismoniy shaxslardan yagona boj to'lovi mos ravishda 24327,8 million so'm, 46180,3 million so'm va 68151,6 million so'mni, jismoniy shaxslar tomonidan transport vositalari

uchun iste'mol qilinadigan gaz, dizel, benzin yonilg'ilari uchun soliq miqdori esa mos ravishda 25081,4 million so'm va 51889,6 million so'mni tashkil etgan.

O'zbekiston soliq siyosatining muhim yo'nalishi — tadbirkorlik va ishlab chiqarishni rag'batlantirish asosida rivojlantirish hisoblanadi. Buni bevosita soliqlarning budjet daromadlaridagi salmog'idan ham ko'rishimiz mumkin. Bevosita soliqlarning davlat budjetidagi ulushi 2002-yilda 459599,2 million so'm yoki davlat budjetining jami daromadlaridagi salmog'i 26 foiz, 2003-yilda mos ravishda 618000 million so'm yoki davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 26,8 foiz miqdorida rejalashtirilgan edi. Haqiqatda esa 2002-yilda 505463,2 million so'm yoki 27 foizni, 2003-yilda 618883,2 million so'm yoki 26,7 foizni tashkil etdi. 2004-yilda esa 714088 million so'm yoki 27,2 foiz miqdorida rejalashtirildi.

Bevosita soliqlar ichida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i eng yuqori salmoqqa ega. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i aholidan undiriladigan soliqlar tizimidagi eng asosiy soliq sanaladi. Soliqqa tortish obyektlari jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardir. Iqtisodchilar ichida soliq og'irligini yuridik shaxslardan jismoniy shaxslarga o'tkazish tarafdorlari ham ko'pdir, chunki aksariyat ko'pchilik mamlakatlarda jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i budjetga eng ko'p mablag' kelib tushishini ta'minlaydi. Xususan 2002-yilda mazkur soliqlardan tushgan tushum 230506,1 million so'm yoki jami davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 12,4 foiz, 2003-yilda mos ravishda 290570,7 million so'm yoki davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 12,5 foizni tashkil qilgan holda, 2004-yil davlat budjeti rejasida 334203,4 million so'm yoki davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 12,7 foiz miqdorida rejalashtirilgan.

Foydadan undiriladigan soliqlarning iqtisodiy tabiati shundaki, u bevosita soliq hisoblanadi, ya'ni uning miqdori korxona olayotgan foyda miqdori bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Foyda solig'i davlat budjetini shakllantirish manbalari tarkibida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Yuridik shaxslarning daromad (foyda)laridan undiriladigan soliq davlat solig'i sifatida belgilab qo'yilgan. Yuridik shaxslar daromadi (foydasi)dan soliqni hisoblash, to'lash va hisob-kitoblarni olib borish tartibi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining II bo'lim, IV bobida belgilab qo'yilgan.

Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig‘i bevosita soliqlar ichida ikkinchi o‘rinda, davlat budjeti daromadlari tarkibida esa to‘rtinchi o‘rinda turadi. Mazkur soliq bo‘yicha davlat budjetiga 2002-yilda 173966,9 million so‘m yoki davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 9,3 foiz, 2003-yilda esa 210926 million yoki 9,1 foizni tashkil etdi. 2005-yil budjet rejasida esa 257686,2 million so‘m yoki davlat budjeti daromadlari tarkibining 9,8 foizi, 2009-yilda 542342,9 mln yoki 5,2% mazkur soliq hisobiga shakllantirilishi ko‘zda tutilgan.

Bulardan tashqari keyingi o‘rinlarda mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar daromadlariga qat’iy belgilanadigan soliqlar egallaydi.

Resurslardan samarali va oqilona foydalanishga erishish, davlat budjeti daromadlarida mol-mulk solig‘i rolini oshirish maqsadida mazkur soliqlar stavkalarining oshib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘ining salmog‘i 2002-yil davlat budjetida 139257,6 million so‘m yoki daromadlardagi ulushi 7,5 foizni tashkil etdi. 2003-yilda mazkur ko‘rsatkichlar mos ravishda 210894 million so‘m yoki 9,1 foizni tashkil etgan. 2004-yilda bu soliqlarning rolini yanada oshirish maqsadida uning summasi 260100,4 million so‘m, ya’ni davlat budjeti daromadlarining 10 foizini shakllantirish rejalashtirilgan.

Yuqoridagi davlat budjetining soliqli daromadlari tebranishlarini 2003-yil va 2004-yil soliq siyosatining o‘zgarishi bilan tahlil qilib chiqamiz.

Yuridik shaxslar daromad (foyda) solig‘ining 24 foizdan 2003-yilda 20 foizga pasayishi natijasida soliq bo‘yicha tushumlar 16 milliard so‘mga ko‘payishi ko‘zda tutilgan edi, ammo soliq stavkasining kamayishi bilan soliq bazasining kengayishi yuz berishi natijasida kutilgandan ham ortiq, ya’ni 37 milliard so‘mga ortdi, 2004-yilda 20 foizdan 18 foizga tushirilishi natijasida tushumni 46,5 milliard so‘mga oshirish ko‘zda tutilgan.

Jismoniy shaxslar daromad solig‘ining stavkalarini pasaytirish barobarida soliqqa tortish shkalalari orasida farqning qisqarishi soliq bazasining kengayishiga olib kelgan va soliq tushumlari ortgan.

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo‘llayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq:

- brokerlik firmalari, lotereya o‘tkazuvchi korxonalar, xususiy notariuslar uchun 2002-yildagi 25 foiz o‘rniga 2003-yilda 35 foizga oshirildi;

• qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi, savdo va umumiy ovqatlanish sohasidagi korxonalardan tashqari iqtisodiyotni boshqa sohasidagilar uchun 2002-yildagi 10 foizdan 2003-yilda 12 foizga o‘tkazildi;

• qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchilar uchun 2002-yildagi 5 foizdan 2003-yilda 6 foiz qilib belgilandi.

Yuridik shaxslar mulk solig‘i 2 foizdan 2003-yilda 3 foizga, 2004-yilda 3,5 foizga o‘zgartirildi. Yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar 2004-yilda 1,5 barobarga indeksatsiya qilindi.

Yuqoridagi chora-tadbirlar natijasida soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo‘llayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun soliq miqdori 2003-yilda 2002-yildagiga nisbatan 18,2 milliard so‘mga ortgan bo‘lsa, resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i 71,6 milliard so‘mga ortgan, 2004-yilda esa 49,2 milliard so‘mga ortishi rejalashtirilgan.

Bevosita ishlab chiqarish hajmi bilan bog‘liq soliqlar: aksiz solig‘i, QQS va bojxona bojlarining davlat budjeti daromadlaridagi summasining oshishini tadbirkorlik va ishlab chiqarish uchun qulay iqtisodiy sharoit yaratilishi natijasida ishlab chiqarish va savdo aylanmasining oshishi bilan, ya’ni soliqqa tortish bazasining ortishi bilan izohlash mumkin.

Shunday qilib, soliqlar davlat budjetini shakllantirishning asosiy manbayi bo‘lib, qadim zamonlardan beri jamiyatdagi mahsulotning bir qismini davlat pul mablag‘lari tomon yo‘naltirib kelgan. Shuning uchun bozor va nobozor iqtisodiyoti amal qilayotgan xo‘jalik tizimlarida ham soliqqa tortish iqtisodiy madaniyatning asosiy elementi hisoblanadi. Shu bilan birga soliqqa tortish insoniyat sivilizatsiyasining voqeligini o‘zida aks ettiradi va uning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Shved iqtisodchisi S. Fisherning fikriga ko‘ra, «soliqlar — bizning jamiyat sivilizatsiyasi uchun to‘lov majburiyatimizdir».

Dunyoda mukammal soliq tizimi bo‘lmaydi, u turli zamon va makonlarda o‘zgarib, iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitdan kelib chiqib amal qiladi, ammo ularning mohiyati va umum qabul qilingan vazifalari o‘zgarmay qoladi.

DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI DINAMIKASI

Davlat budjeti daromadlarining 2004-va 2005-yillarda 2003-yilga nisbatan qanday dinamika asosida rivojlanganligini 1-grafik orqali kuzatishimiz mumkin.

Ushbu grafikdan ko‘rinib turibdiki, bevosita soliq turi bo‘yicha davlat budjeti daromadlari 2003-yilga nisbatan 2004-yilda 122,1 foizni, 2005-yilda 115,7 foizni tashkil qilgan. Bilvosita soliq turlari bo‘yicha tushumlar 2003-yilga nisbatan 2004-yilda 132,9 foizga, 2005-yilda 113,2 foizga o‘sgan. Davlat budjeti daromadlari dinamikasini tahlil qilishda resurs to‘lovlari dinamikasini tahlil qilish muhim, chunki resurs to‘lovlarining ko‘payib borishi, iqtisodiyotda resurslardan foydalanish hajmining ortib borayotganligini, undan foydalanish qiymatining oshib borayotganligini ifodalaydi, ular bo‘yicha tushumlar 2004-yilda 159,6 foizni, 2005-yilda 117,0 foizni tashkil qildi.

1-chizma

DAVLAT BUDJET DAROMADLARI DINAMIKASI



Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi 14 ta ma’muriy birlik, ya’ni 12 ta viloyat, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahridan iborat. Shuni ham alohida ko‘rib chiqish kerakki, qaysi hududdan ko‘proq daromad tushadi, ya’ni qaysi hududlarda ishlab chiqarish ko‘proq rivojlangan, aholi zich joylashganligi davlat budjeti daromadlariga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. Buning uchun biz jadval ma’lumotlari asosida kuzatishimiz kerak bo‘ladi (5-jadval).

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Davlat budjeti daromadlaridagi Qoraqalpog'iston Respublikasining ulushi 2003-yilda 2,2 foizni, 2004-va 2005-yilda 2,1 foizni tashkil qilgan, Toshkent shahrining ulushi esa, 2003-yilda 30,3 foizni, 2004-yilda 29,3 foizni, 2005-yilda 28,6 foizni tashkil qilgan.

5-jadval

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINING HUDUDLAR BO'YICHA TAQSIMLANISHI

Hududlar nomi	2006-yil	2007-yil	2008-yil
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2,2	2,1	2,1
Andijon viloyati	5,0	4,5	5,2
Buxoro viloyati	8,2	8,5	8,1
Jizzax viloyati	1,5	1,4	1,3
Qashqadaryo viloyati	6,8	7,1	7,2
Navoiy viloyati	5,7	7,2	7,2
Namangan viloyati	3,8	3,5	3,5
Samarqand viloyati	5,3	5,0	5,2
Surxondaryo viloyati	3,0	3,2	3,0
Sirdaryo viloyati	2,1	2,0	2,2
Toshkent viloyati	12,1	13,0	12,5
Farg'ona viloyati	11,0	10,2	11,0
Xorazm viloyati	3,1	3,1	2,9
Toshkent shahri	30,3	29,3	28,6
Respublika bo'yicha jami	100,0	100,0	100,0

Ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, Davlat budjeti daromadlari tarkibida salmoqli ulushga ega bo'lgan hududlar:

Buxoro (2006-yil — 8,2%, 2007-yil — 8,5%, 2008-yil — 8,1%),

Qashqadaryo (2006-yil — 6,8%, 2007-yil — 7,1%, 2008-yil — 7,2%),

Toshkent viloyati (2006-yil — 12,1%, 2007-yil — 13,0%, 2008-yil — 12,5%),

Farg‘ona (2006-yil — 11,0%, 2007-yil — 10,2%, 2008-yil — 11,0%) hisoblangan.

2008-yil davlat budjeti daromadlari rejasining hududlar bo‘yicha taqsimlanishini 1-diagramma orqali kuzatamiz. Diagramma ma’lumotlaridan ko‘rinib turganidek, 2008-yilgi Davlat budjeti daromadlari rejasida Toshkent shahri — 28,6 foiz, Toshkent viloyati — 12,5 foiz, Farg‘ona viloyati — 11,0 foiz ulushga ega bo‘lgan.

1-diagramma

DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI REJASINING HUDUDLAR BO‘YICHA TAQSIMLANISHI



Albatta, Davlat budjeti daromadlarini juda chuqur va uzoq yillarga tayanib ham tahlil qilish mumkin, lekin bizning qo‘llanma hajmi va oldimizga qo‘yilgan vazifalar daromadlarni unchalik chuqur tahlil qilishni talab etmaganligi sababli, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining tahlili yuzasidan quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari turli manbalardan, asosan, soliqlardan tashkil topadi;
- keyingi yillarda soliq siyosatining asosiy yo‘nalishi — soliq yukini ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga o‘tkazish, resurs to‘lovlarining umumiy daromad tarkibidagi ulushini oshirishdan iborat bo‘lmoqda;

• davlat budjetining daromadlari tarkibida aksiz, QQS, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig‘ining ulushi yuqori hisoblanadi;

• davlat budjeti daromadlari hududlar bo‘yicha ularda sanoatning rivojlanganligi, aholining zichligi va boshqa omillar hisobga olingan holda taqsimlangan bo‘lib, eng yuqori ulush Toshkent shahri, Toshkent va Farg‘ona viloyatlari, eng kam ulush esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi va boshqalar.

Agar xalqaro amaliyotda shakllangan an’analar nuqtayi nazaridan fikrlaydigan bo‘lsak, O‘zbekiston soliq tushumlarining xo‘jalik subyektlarining faoliyatiga nisbatan sezilarli darajadagi salbiy ta’sirining yuzaga kelmaganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Buning sababi shundaki, barcha davlatlar soliq tushumlarining darajasiga ko‘ra shartli ravishda 3 yirik guruhga bo‘lish mumkin:

• birinchi guruhga soliq tushumlarining Yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i 40 foizdan oshadigan davlatlar (Gollandiya, Shvetsiya va boshqalar) kiradi;

• soliq tushumlarining Yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i 30 foizdan 40 foizgacha bo‘lgan miqdorini tashkil etadigan davlatlar (Daniya, Avstriya, Fransiya, Italiya, Chexiya, Vengriya) kiradi;

• uchinchi guruhga soliq tushumlarining Yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i 30 foizgacha bo‘lgan davlatlar (Xitoy, Hindiston, Misr, Malayziya, Janubiy Koreya) kiradi.

Soliqli daromadning Davlat budjeti daromadlari hajmidagi salmog‘ining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri soliq yukining soliq to‘lovchilar o‘rtasida adolatli taqsimlanishi hisoblanadi. Soliq yukining soliq to‘lovchilar o‘rtasida adolatsiz tarzda taqsimlanishi ular o‘rtasida qarama-qarshilikning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Xususan, daromadlarning miqdoriga ko‘ra bir-biridan sezilarli darajada farq qilgani holda, ularni bir xil stavkada soliqqa tortish yoki soliq to‘lovchilarning ma’lum toifalari uchun soliq imtiyozlari belgilash ularni noteng ahvolga solib qo‘yadi. Buning natijasida soliq to‘lovchilar o‘rtasida o‘zaro qarama-qarshilik yuzaga keladi.

Soliqli daromadlarning Davlat budjeti daromadlari hajmidagi salmog‘iga ta’sir etuvchi asosiy omillardan yana biri, soliq tushumlarini budjetlar o‘rtasida taqsimlash tartibining takomillashganligi hisoblanadi. Agar bu tartib takomillashmagan bo‘lsa, u holda

markaziy budjetning yoki mahalliy budjetlarning daromad bazasiga nisbatan salbiy ta'sir yuzaga keladi. 1-chizmada mahalliy budjet daromadlari jumlasiga mahalliy soliqlar, yig'imlar, mahalliy boshqaruv organlari korxonalari va tashkilotlari daromadining bir qismi, dotatsiyalar kiritilgan.

1-chizma

MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI TUZILISHI



Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining daromad bazasini shakllantirishning hozirgi holatida soliqli daromadlar asosiy o'rinni egallaydi. Bunda egri soliqlarning salmog'i yuqoriligicha qolmoqda. Ammo ularning soliqli daromadlar hajmidagi salmog'ining pasayish kondensatsiyasining kuzatilayotganligi ijobiy holat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjetlari xarajatlarni amalga oshirish uchun tegishli daromadlarga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun mahalliy budjet daromadlari shakllanishining amaldagi holati va ushbu jarayondagi daromad manbalarini tahlil qiladigan bo'lsak, avval daromadlarning shakllanishiga e'tibor berish lozim. Mahalliy budjet daromadlarining manbalari tarkibi 2-chizmada ko'rsatilgan.

2-chizma

MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINING MANBALARI TARKIBI



Shunga muvofiq mahalliy budjetlar daromadlari o‘z daromadlari (mahalliy soliqlar va yig‘imlar) va yuqori budjetdan ajratiladigan ajratmalar (umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, dotatsiyalar) hisobidan shakllanadi.

Mahalliy budjetlarning eng birinchi daromad manbayi bo‘lib mahalliy soliqlar va yig‘imlar xizmat qiladi. Bu daromad turlari qonunchilikka asosan mahalliy budjetlarga to‘liq biriktirilgan daromad manbayi hisoblanadi. Quyidagi jadvalda 2000—2003-yillar uchun mahalliy budjetlarning Davlat budjetida tutgan o‘rni keltirilgan.

6-jadval

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARIDA MAHALLIY BUDJETLARNING TUTGAN O‘RNI

Daromadlar	2000-y.	2001-y.	2002-y.	2003-y.
Davlat budjeti	910860,3	1295411,1	1864103	2309000
shu jumladan:				
Respublika budjeti (mln so‘m)	503978,7	720629,2	1034145	1266851,8

davomi

Davlat budjetiga nisbatan salmog‘i (foizda)	55,3	55,6	55,5	54,9
Mahalliy budjetlar (mln so‘m)	406881,6	549116,7	750387,7	1042147,5
Davlat budjetiga nisbatan salmog‘i (foizda)	44,7	42,4	40,3	45,1

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mahalliy budjetlarning daromadlar tushumi 2000-yildan 2003-yilgacha 406881,6 mln so‘mdan 1042147,5 mln so‘mgacha oshdi. O‘z navbatida mahalliy budjetlarning davlat budjetidagi salmog‘i ham oshdi, ya’ni 2000-yil mahalliy budjetlarning davlat budjetiga nisbatan salmog‘i 44,7 foiz bo‘lsa, 2003-yilda bu ko‘rsatkich 45,1 foizni tashkil etdi. Albatta bu sezilarli ko‘rsatkich emas. Shunga qaramasdan mahalliy budjetlar daromadlarining Davlat budjeti daromadlaridagi ulushining ortib borishi ijobiy holat hisoblanib, mahalliy budjetlar daromadlar bazasini mustahkamlanishiga olib keladi.

Mahalliy soliqlar va yig‘imlar mahalliy budjetlar tarkibida birinchi moliyaviy manba sifatida qaralsa ham, bu soliqlar va yig‘imlar mahalliy budjetga biriktirilgan xarajatlarini moliyalashda yetarli moliyaviy manba bo‘la olmaydi.

Budjet parametrlarini belgilash vaqtida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar belgilanadi. Bu jarayon har yili budjet parametrlarini tasdiqlash paytida ishlab chiqiladi va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan belgilanadi.

Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar ulushi har yili mahalliy budjetlarning o‘z daromadlarining tushumi hamda ular tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlarning miqdoriga o‘zgartirib boriladi.

Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika budjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy budjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushishi mumkin. Agar kelgusi yili mahalliy budjetlarning o‘z daromad manbalari (soliqlari) ko‘payib qolsa, umumdavlat soliqlaridan ajratma berishning hojati qolmaydi.

Umumdavlat va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo‘lib, budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lovlardir.

Shu bilan birga, umumdavlat soliqlarining ayrim turlari ham mahalliy budjetlarni to‘ldirish manbayi sifatida mahalliy budjetlar ixtiyorida qoldirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunining 5-moddasida budjet tizimining asosiy prinsiplari belgilangan bo‘lib, unga muvofiq budjetlarni shakllantirishda turli darajadagi budjetlar o‘zaro bog‘liqligi hamda Davlat budjeti balansliligini ta’minlash shart. Respublika budjetidan subvensiyalar va dotatsiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlariga tasdiqlangan Davlat budjeti doirasida ajratiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlaridan budjet subvensiyalari va dotatsiyalari tumanlar va shaharlar budjetlariga tegishli tasdiqlangan budjetlar doirasida ajratiladi.

Mahalliy budjetlarning bu daromad turining o‘ziga xos tomonlari mavjud. Yuqori budjetlardan ajratiladigan subvensiya va dotatsiyalar boshqa daromad turlaridan farq qilib, bu daromad turlari yil boshida tasdiqlangan reja miqdorida olinadi, ya’ni bu daromad turlariga yil davomida o‘zgartirishlar kiritilmaydi.

Mahalliy budjetlar uchun 2002-yilda tasdiqlangan dotatsiyalarni mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishdagi o‘ziga xos tomonlarini 7-jadvalda ko‘rish mumkin.

7-jadval

MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA DOTATSIYALARNING O‘RNI (MING SO‘M)

Daromad turlari	Reja		Farqi	
	Tasdiqlangan	Aniqlangan	Summa	Foiz
Umumdavlat soliqlaridan ajratilgan soliqlar	11999425	15342091	3342666	127,8
Biriktirilgan soliqlar	1839632	2729981	890349	148,4
Mahalliy soliqlar va yig‘imlar — jami	2912800	3124480	211680	107,2
Daromadlarning jami	16751857	21196552	4444695	126,5
Dotatsiya	12271100	12271100	0,0	100,0

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, yuqori budjetlardan mahalliy budjetlarga beriladigan dotatsiyalar mahalliy budjetlarning

muhim daromad manbayi hisoblanmoqda. Agar soliqlar, yig‘imlar va to‘lovlar shaklidagi daromad manbalari yil boshida tasdiqlangan rejaga nisbatan yil davomidagi o‘zgarishlar bilan yil oxirida aniqlangan reja bo‘yicha o‘rtacha 26,5 foizga oshgan bo‘lsa, dotatsiya tasdiqlangan reja darajasida qolmoqda.

Dotatsiya uslublari mahalliy budjetlarning respublika budjetiga murojaat etish lozimligini bildirib, ularni hududlardagi boqibeg‘amlik «fazilat»larini kuchaytiradi. Mahalliy soliqlar va yig‘imlarning budjetga to‘liq tushishini tashkil qilish ularning zimmasidagi asosiy vazifa hisoblanadi.

Respublikamiz iqtisodiyotida davom etayotgan iqtisodiy islohotlar davrida soliqlarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi muhim vosita ularni doimiy isloh qilib borishdir. Hozirgi kunda aholi daromadlarining salmoqli hissasi xususiy sektorda shakllanmoqda. Davlat tomonidan bu daromadlarni boshqarish imkoniyatlari cheklangan, bu daromadlarni ma’muriy tarzda davlat xarajatlariga yo‘naltirish bozor iqtisodiyoti prinsiplariga zid. Faqatgina soliqlar orqali aholi daromadlarini budjet daromadlariga jalb qilish mumkin.

Demak, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarning daromadlari quyidagilar:

- mahalliy soliqlar, yig‘imlar va bojlar, qonunda ko‘zda tutilgan majburiy to‘lovlar va soliqsiz tushumlarni mahalliy budjetga yo‘naltirish;
- qonun hujjatlari bilan mustahkamlangan umumdavlat soliqlari, yig‘imlari va bojlar, bulardan tashqari umumdavlat tushumlari va majburiyatlarini mahalliy budjetlarga yo‘naltirish;
- davlat mulkidan foydalanishdan tushgan daromadlardan o‘rnatilgan me’yorlarda mahalliy budjetlarga kelib tushishi;
- davlat pul mablag‘lari, mulklari bo‘yicha qonunlar asosida huquqlarning mahalliy budjetlarga o‘tishi;
- yuqori budjetlardan beriladigan dotatsiyalari, subvensiyalari va ssudalari;
- qaytarib bermaslik sharti bilan yuridik va jismoniy shaxslar, xorijiy davlatlardan tushgan pul mablag‘lari va qonunlarda taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllanadi.

Bulardan tashqari, budjet ijrosi jarayonida yuqori budjet bilan yuzaga keladigan o‘zaro hisob-kitoblar hisobiga shakllanadigan daromadlar ham mahalliy budjet daromadlari bo‘lishi mumkin.

Soliqlarning taqsimlanish xarakteriga ko‘ra mahalliy budjet daromadlari o‘z daromadlari hisobiga ko‘ra va daromadlarni turli darajadagi budjetlar o‘rtasida qayta taqsimlanishi hisobiga shakllanadi. Daromadlarning budjetlararo taqsimlanishida soliq cheklovlari va soliqlarning biror budjetga biriktirib qo‘yilishi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliqlar umumdavlat va mahalliy soliqqa ajratilgan. Shu ma’noda, mahalliy budjet daromadlari mahalliy va umumdavlat soliqlari hisobiga shakllanadi. Umumdavlat soliqlarining mahalliy budjetlarga ajratiladigan qismi har yili qabul qilinadigan qonun va me’yorlar asosida amalga oshiriladi.

Mahalliy budjetlarning daromadlarini mustahkamlash hozirgi budjet islohotlarining asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Bu borada mulkni, yerni va tabiiy resurslarni soliqqa tortish asosiy rol o‘ynaydi. Keyingi samarali manba bo‘lib, jismoniy shaxslar daromad soliqlarini uzoq muddatga mahalliy budjetlarga biriktirib qo‘yish hisoblanadi. Soliq yukini juda yuqori ko‘tarishning iloji yo‘qligini nazarda tutgan holda mahalliy budjet daromadlari tarkibida soliqsiz daromadlarning ham rolini oshirishga e’tibor qaratish lozim.

Mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlash borasida mahalliy hukumatning soliq undirish va soliq bazalarini kengaytirishga bo‘lgan qiziqishlarini rag‘batlantirishni oshirish, ya’ni ortiqcha undirilgan soliqlarning mahalliy budjetlarga tushadigan qismini oshirishni yo‘lga qo‘yish yaxshi samara beradi.

Mahalliy soliqlar va soliqsiz daromadlar mahalliy budjet xarajatlarini qoplash uchun yetarli emas, mahalliy budjet daromadlarining asosiy qismi boshqariladigan daromadlar hisobiga ta’minlanadi. Bu soliqlar bo‘yicha ajratiladigan me’yorlar soliqlar va hududlar bo‘yicha tabaqalashtirilgan bo‘ladi va har yili hukumat qarori asosida qayta ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonda bu me’yorlarning yildan yilga oshib borishini kuzatishimiz mumkin. Buni mahalliy budjet xarajatlarini shu hududdan tushadigan soliqlar hisobiga qoplash va yuqori budjetlardan quyi budjetlarga transfertlar hajmini kamaytirish zaruriyati bilan izohlashimiz mumkin. Me’yorlarni aniqlashda umumdavlat va mahalliy soliq tushumlarining kutilayotgan rejasi, mahalliy budjet xarajatlarining kutilayotgan minimumi hisobga olinadi. Ba’zi viloyatlarda bu me’yorlar 100% qilib belgilanadi, bunday soliqlar ko‘p tushadigan viloyatlarda mazkur me’yorlar minimum darajada belgilanadi.

Chunki, soliq bazasining yuqoriligi me'yorlarni past belgilashga sabab bo'ladi.

Bunday hududlarda sanoat va savdoning rivojlanganligi soliq salohiyatining yuqori darajasini ta'minlab beradi. Lekin bu me'yorlarning qisqa muddatlarda o'zgarishi mahalliy budjetlarning rag'batlantirish darajasini pasaytiradi va boqimandalik kayfiyatini uyg'otadi. Bizning fikrimizcha, shu nuqtayi nazardan olganda, bu me'yoriy darajalarni uzoqroq muddatlar uchun belgilashi maqsadga muvofiq.

Budjetlar o'rtasida daromadlarni taqsimlashning umumlashgan mexanizmi soliqlarni umumdavlat va mahalliy soliqlarga ajratishga asoslanganligini va u o'tish iqtisodiyotidagi barcha davlatlar uchun xosligini ta'kidlash lozim.

Soliqlarni taqsimlashning amaldagi mexanizmi daromadlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishida kishi boshiga to'g'ri keladigan daromadlarning sezilarli tabaqalashuvi saqlanib qolgan.

Soliq tizimi nafaqat davlatning iqtisodiyotiga o'zaro ta'sirini, balki turli darajadagi hukumat organlarining o'zaro munosabatlarini ham o'zida aks ettiradi, ular o'rtasida mablag'larni taqsimlaydi va qayta taqsimlaydi. Soliq tizimining eng asosiy muammolaridan biri ham bir xil darajadagi iqtisodiy subyektlar o'rtasida soliq tushumini to'g'ri taqsimlashni ta'minlashdan iborat.

Mahalliy budjetlarga o'z funksiyalarini bajarish uchun soliqlarni biriktirib qo'yilar ekan, avvalo, bu soliqlar qanday soliqlar bo'lishi va bu holatning iqtisodiyotga ta'sirini aniqlab olish kerak.

Mahalliy soliqlar, eng avvalo, resurslarning tarmoqlararo taqsimlanishiga ta'sir qilmasligi, soliq yukini boshqa ma'muriy birliklarga yuklamasligi kerak. Mahalliy soliqlar yetarlicha egiluvchan va davlat xarajatlari bilan proporsional ravishda o'zgarishi kerak, ya'ni boshqarish oson soliqlar bo'lishi kerak. Bulardan tashqari, markaziy hukumat mahalliy hokimiyat organlari ustidan samarali nazoratni amalga oshirishi, mahalliy hukumat organlarini qo'llab-quvvatlashi maqsadida ularni boshqarib tura olishi kerak. Bunday sharoitlarning bo'lmasligi budjetlar nazoratini qiyinlashtiradi va korrupsiyaning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Endi qaysi soliqlar nomarkazlashuvga moyilroqligini, ya'ni qaysi soliqlarni mahalliy darajada boshqarish imkoni yuqoriligini ko'rib chiqamiz.

Mol-mulk solig'i. Bu soliq turini nomarkazlashtirish ancha qulay. Birinchidan, mulkiy xizmatlar: suv ta'minoti, kanalizatsiya, yo'l

ta'siri, yoritish va shu kabilar mulk egalariga mahalliy hukumat organlari tomonidan ko'rsatiladi. Ikkinchidan, mahalliy hukumat markaziy hukumatga nisbatan aniqroq baholay oladi va osonroq undira oladi. Mulk soliqlari mahalliy hukumat organlarining barqaror daromad manbayi hisoblanadi. Biroq soliq summalarini to'g'ri belgilash uchun mulk qiymatini qayta baholab turish, ya'ni doimiy monitoringni amalga oshirib borishni talab qiladi.

Daromad soliqlari. Yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'idan ham, jismoniy shaxslar daromad solig'idan ham mahalliy budjetlarning daromad manbayi sifatida foydalanish mumkin emas. To'g'ri, ba'zi mamlakatlar (Shveysariya va Shvetsiya)da jismoniy shaxslarning daromad soliqlari mahalliy darajadagi soliqlar hisoblansa, AQSH da esa mazkur soliq ham mahalliy darajada, ham umumdavlat solig'i sifatida undiriladi. Lekin bu soliqlarni mahalliy hukumatlarga berilishi to'g'ri emas, chunki bu soliqlar iqtisodiyotni boshqarishning kuchli richagi va makroiqtisodiy hayotga ta'sir etuvchi omillardandir. Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'ini ham mahalliy miqyosda tasarruf etib, boshqarib bo'lmaydi. Chunki yuridik shaxslar o'z iqtisodiy faoliyatlarini bir necha mahalliy birliklarda amalga oshirishlari mumkin va bu soliqning mahalliy hukumatga berilishi soliqlarning mahalliy birliklar o'rtasida og'ishiga olib keladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i. Bu soliqni boshqarishni ham mahalliy budjetga berib bo'lmaydi, chunki bu hududiy tabaqalashuvga va resurslarning notekis taqsimlanishini yuzaga keltiradi.

Taniqli iqtisodchi Ye. Gramlixinning fikricha, soliq-budjet siyosatiga hududiy tabaqalashtirilgan tadbirlarga ega bo'lgan yirik mamlakatlarda makroiqtisodiy tub o'zgarishlar turli hududlarda har xil oqibatlarga olib kelishi mumkin. Uning fikri asosida makroiqtisodiy tartibga solishda budjetning muhim roliga tayangan holda markaziy hukumatga budjet munosabatlarini tartibga solishdagi bosh vakolatning berilishi o'zining to'laqonli samarasiga ega bo'lishi mumkin. Faqatgina turli hududlar uchun budjet resurslarini taqsimlashda qator ijtimoiy-iqtisodiy mezonlarga qat'iy rioya etish lozimligi e'tirof etiladi. Bu mexanizm o'tish davrida kuchli ijtimoiy himoya tizimlarini shakllantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda davlatning bosh islohotchilik roli yuqori bo'lgan davrda o'zini oqlashi mumkin.

Bizga ma'lumki, soliqlarning budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi tartibini takomillashtirish davlat budjetining daromad

JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI: KELIB CHIQISH SABABLARI VA OQIBATLARI

Bu inqiroz Amerika Qo‘shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro‘y bergan tanglik xolatidan boshlandi. So‘ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya’ni to‘lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi.

I.A.Karimov

Inqiroz — kutilmagan darajada jamiyatning barcha jabhalariga zarar keltiradigan va yangicha faoliyat yuritishgaundaydigan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy voqelikdir.

Moliyaviy inqiroz — moliyaviy instrumentlarning kutilmaganda va zudlik bilan pasayishi va pulning yetishmasligidir

Iqtisodiy inqiroz — tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi oqibatidir

Jahon moliyaviy inqirozining kelib chiqish sabablari va oqibatlari

- AQSH ipotekali kreditlash (ko‘chmas mulklarga beriladigan kredit) tizimida ro‘y bergan tanglik holati
- Yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning to‘lov qobiliyati zaiflashishi
- Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indekslari va aksiyalarining qiymati halokatli darajada tushib ketishi
- Ishlab chiqarish va iqtisodiy o’sish sur’atlari keskin pasayishi, ishsizlikning ortishi

Jahondagi ayrim davlatlar tashqi qarzlarining YAIMga nisbatan o‘zgarishi



2008-yilda AQSH tashqi qarzlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog‘i qariyb 90% ni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich Rossiyada 37% ni, Qozog‘istonda 102%ni, Ukrainada 64% ni tashkil etgan. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan oqilona qarz siyosati natijasida tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i 2008-yilda 13,3% ni tashkil qildi.

O‘zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta’sirini yumshatishga asos bo‘lgan omillar

«Shok terapiyasi» deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o‘zini o‘zi tartibga soladi, degan aldamchi tasavvurlardan voz kechildi

Ma’muriy buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o‘tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘li tanlandi

Davlat bosh islohotchi sifatida mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishi zarurligi belgilab olindi

O‘zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, budjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta’minlash uchun yetarli darajada mustahkam zahiralar yaratilgani va zarur resurslar bazasi mavjud ekanligi

Aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste’mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o‘sishining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligi

Oqilona tashqi qarz siyosati olib borilishi

Rivojlangan mamlakatlarda 2007—2008-yillarda yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlari



Jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi iqtisodiy o‘sish sur’atlarida keskin o‘zgarish sodir bo‘lgan. Inqirozdan jiddiy aziyat chekayotgan Buyuk Britaniya va Germaniyada 2009-yilda yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishida 2008-yilga nisbatan 0,1% va 0,2% ga pasayish jarayoni kutilmoqda.

bazasini shakllantirish nuqtayi nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, asosiy va barqaror tushum manbayi bo‘lgan soliq turlarini mahalliy budjetlarga o‘z daromad bazasining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Va, aksincha, mahalliy budjetlarning daromad bazasini asosan tartibga soluvchi daromadlar hisobidan shakllanish tartibini yuzaga keltirish mahalliy moliya organlarida loqaydlikni yuzaga keltirishi hamda soliq undirish samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning solig‘ini yanada kamaytirish, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovining 10 foizdan 8 foizga, 2009-yildan boshlab esa 7 foizga tushirilishi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalarining kamaytirilishi va ayni paytda uni hisoblash tartiblarining takomillashtirilishi tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni izchil rivojlantirish uchun kuchli rag‘batlantiruvchi omillar yaratdi.[1]

Yuqorida qayd etilgan holatlar soliq tushumlarini budjetlararo taqsimlash tartibini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida hukumat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri mahalliy boshqaruv organlarini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiyotidagi rolini oshirish hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, mahalliy boshqaruv organlarining markazlashgan pul fondi bo‘lgan mahalliy budjetlarning daromad bazasini mustahkamlashni taqozo etadi. Bu jarayonda markaziy o‘rinni shubhasiz, soliq tushumlarini respublika budjeti va mahalliy budjetlar o‘rtasida taqsimlash tartibini takomillashtirish masalasi egallaydi.

Bizning fikrimizcha, soliq tushumlarini budjetlararo taqsimlashni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishi Prezident I. A. Karimovning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Chunonchi, akademik I. A. Karimov o‘zining «O‘zbekiston buyuk kelajak sari» nomli asarida soliq tushumlarini budjetlararo taqsimlashni takomillashtirish xususida shunday deydi: «Muayyan budjetlarni shakllantirish manbalari bo‘lgan respublika soliqlari bilan mahalliy soliqlar o‘rtasida aniq chegara o‘tkazish soliq tizimini takomillashtirishning eng muhim yo‘nalishidir». **Biz Prezident I. A. Karimovning mazkur fikriga qo‘shilgan holda shuni taklif qilardikki, har bir mahalliy budjetning**

[1] *Karimov I.A.* «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari», 24-bet.

tartibga soluvchi daromadlarining miqdori kamida uch moliyaviy yil mobaynida o‘zgarmaydigan normativ ko‘rsatkichlar shaklida belgilab qo‘yilishi lozim. Mazkur normativlarni ishlab chiqish uchun asos qilib, ilmiy jihatdan asoslangan ijtimoiy normativlar olinishi lozim. Bunday normativlar rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyotida keng qo‘llaniladi va ular budjet xarajatlarining oqilona darajasini belgilash imkonini beradi.

Respublikamiz budjet amaliyotida soliq tushumlaridan tartibga soluvchi daromadlar sifatida foydalanishda barqarorlik mavjud emas. Buni quyidagi ma’lumotlar orqali kuzatish mumkin. Masalan, 2002-yil uchun umumdavlat soliqlaridan mahalliy budjetlarga qilinadigan ajratmalar normativiga ko‘ra QQSdan qilinadigan ajratmalar normativi Andijon viloyati uchun 100 foiz, Buxoro viloyati uchun 32 foiz, Navoiy viloyati uchun 72 foiz, Toshkent viloyati uchun 61 foiz qilib belgilangan edi. 2003-yil uchun belgilangan normativlar tartibga soluvchi soliqlar bo‘yicha yuqorida qayd etilgan viloyatlar bo‘yicha quyidagi miqdorlarni tashkil etadi: Andijon viloyati — 100, Buxoro—35, Navoiy—56, Toshkent viloyati — 40 foiz.

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, QQS bo‘yicha ajratma normativi ikkita moliyaviy yilda sezilarli darajada o‘zgargan. Bunday holatni boshqa tartibga soluvchi soliq turlari bo‘yicha ham kuzatish mumkin (faqat jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bundan mustasno). Bundan tashqari, tartibga soluvchi soliqlar bo‘yicha ajratma normativini belgilashda ijtimoiy normativlarga asoslangan xarajatlarni hisobga olish amaliyoti hozirga qadar joriy qilinmagan.

Soliq tushumlarini budjetlar o‘rtasida taqsimlash jarayonining nobarqaror ekanligi mahalliy moliya organlarini mahalliy budjetlarning daromad bazasini mustahkamlashdan manfaatdorligiga salbiy ta’sir qiladi. Chunonchi, ular olgan rejadan ortiq soliq tushumlari respublika budjetiga olib qo‘yiladi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda mahalliy budjetlar daromadlarining davlat resurslari umumiy hajmidagi salmog‘i yuqori. Bu ko‘rsatkich Norvegiyada Yalpi ichki mahsulotning 15 foizini, Shvetsiyada esa 31 foizini tashkil etadi.

Shunisi ahamiyatliki, birinchidan, mahalliy budjetlarga mahalliy soliqlarning bir qator turlari aniq qilib birkitib qo‘yilgan, ularning tarkibi o‘zgartirilmaydi; ikkinchidan, mahalliy budjetlarga umumdavlat soliqlaridan qilinadigan ajratmalar normativ qat’iy tarzda belgilab qo‘ygan va qisqa muddatli davriy oraliqlarda qayta ko‘rib chiqilmaydi; uchinchidan, mahalliy budjetlarning daromadlari shakllantirilayotganda ijtimoiy normativlar asosida hisoblangan xarajatlar asos sifatida

olinadi; to‘rtinchidan, mahalliy budjetlarning daromad bazasida to‘g‘ri soliqlar asosiy o‘rinni egallaydi. To‘g‘ri soliqlarning mahalliy budjetlar daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i Yaponiyada 85 foizni, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida 75 foizgacha bo‘lgan miqdorni tashkil etadi. Germaniyada QQSning bir qismi viloyatlar o‘rtasida aholining soniga qarab tabaqalashgan tarzda taqsimlanadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar budjeti amaliyotida mahalliy budjetlarga Markaziy budjetdan ajratiladigan subvensiyalar va dotatsiyalar muhim o‘rin egallaydi.

Shunga alohida e’tibor berish lozimki, rivojlangan industrial mamlakatlarda soliq tushumlarini budjetlararo taqsimlashning takomillashgan tartibi yuzaga keltirilgan. Ayniqsa, budjet xarajatlarini minimal ijtimoiy va moliyaviy normativlar asosida rejalashtirilishi budjetlarning daromadlarini tartibga solish jarayonida yuzaga keladigan subyektivizmga barham bergan. Ammo, mahalliy budjetlarning xarajatlari ayrim davriy oraliqlarida ularning daromadiga qaraganda tez o‘sadi. Buning natijasida Markaziy budjetdan dotatsiya olish zaruriyati yuzaga keladi.

Ta’kidlash joizki, rivojlangan davlatlarning budjet amaliyotida ham dotatsiyalar bilan bog‘liq salbiy holatlarga barham berilmagan. Xususan, dotatsiyalar mahalliy moliya organlarida tekinxo‘rlik kayfiyatini yuzaga keltiradi, ularning xo‘jalik tashabbuskorligini rivojlantirish imkonini bermaydi, moliyaviy nazoratni susaytiradi.

Lekin, dotatsiyalar va subvensiyalarning jiddiy kamchiliklarga ega bo‘lishiga qaramasdan, mahalliy budjetlarni zarur manbalar bilan ta’minlash usuli sifatida e’tirof etish zarur. Budjetlarning dotatsion ekanligiga barham berish maqsadida ularga nobarqaror daromad manbalarini biriktirish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, bunday budjetlarda doimiy ravishda g‘aznali uzilish yuzaga kelishi mumkin. Bu esa, budjet daromadlari hisobidan smetada ko‘zda tutilgan xarajatlarni o‘z vaqtida moliyalashtirilmasligiga olib kelishi mumkin. Fikrimizcha, dotatsiyalar va subvensiyalar mahalliy moliya organlarini zarur pul mablag‘lari bilan ta’minlab turish vositasi sifatida saqlab qolinishi lozim. Ulardan mahalliy budjetlarga biriktirilgan daromadlar va uning tartibga soluvchi daromadlari bo‘yicha belgilangan rejani bajarmay qolishi natijasida yuzaga keladigan pul yetishmovchiliklarini qoplash maqsadida foydalanishga ruxsat etilmasligi kerak. Dotatsiya va subvensiyalar joriy moliyaviy yilda budjet xarajatlarining faqat ko‘zda tutilmagan holdagi o‘sishini moliyalashtirish maqsadlariga berilishi shart.

7.2. TO‘G‘RI (BEVOSITA) SOLIQLARNI UNDIRISH AMALIYOTI

Soliqlarni ma’lum belgilarga ko‘ra turkumlash iqtisodiy adabiyotlarda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi. Soliqlarni tasniflash Davlat budjetining barcha daromadlarini tasniflash kabi, ularni istisno qilish va soliq to‘lovchining mahsuloti qiymatiga, soliq solish obyektiga, sohaga, muassasaga, ularni qanchalik foydaliligiga va binobarin soliqlar borib tushayotgan budjet darajasiga qarab amalga oshiriladi. Soliqlar mohiyati va shakliga qarab egri soliqlar va to‘g‘ri soliqlarga bo‘linadi. Egri soliqlar tovarlar (xizmat ko‘rsatishlar) narxini oshiradilar, chunki budjetga korxonalardan, tashkilotlardan va xo‘jaliklarning boshqa tarkibiy qismlaridan tushadi. Shuni ta’kidlash joizki, haqiqiy to‘lovchilar — narxni shakllantiruvchi va tegishli soliqlarni to‘lovchilardir. Shu sababli, klassik iqtisodchi-olimlardan tortib, zamonamizning taniqli iqtisodchi-olimlarining ilmiy izlanishlarida soliqlarni turkumlash masalasiga alohida e’tibor berilgan. Xususan, klassik iqtisodchi olim D. Rikardoning ilmiy izlanishlarida to‘g‘ri va egri soliqlarga xos bo‘lgan bir qator xususiyatlar hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikning mohiyati ochib berilgan. Jumladan, D. Rikardoning ta’kidlashicha, soliq daromaddan olinadimi yoki kapitaldan olinadimi, baribir pirovard natijada ular davlat tomonidan soliqqa tortiladigan tovarlar miqdorining kamayishiga olib keladi. D. Rikardo turli tovar guruhlariga nisbatan soliqlarni belgilashda tabaqalashgan yondashuvni yoqlab chiqdi. Uning fikriga ko‘ra, shohona predmetlarga nisbatan belgilanadigan soliqlar birinchi ehtiyoj predmetlariga nisbatan belgilangan soliqlarga qaraganda bir qator afzalliklarga egadir. Ular daromaddan to‘lanadi va shuning uchun mamlakatning ishlab chiqarish kapitalini kamaytirishga olib kelmaydi.

Demak D. Rikardo soliqlarning iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, J. Keynsning soliqlar xususidagi ilmiy izlanishlarini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, u to‘g‘ri soliqlarni egri soliqlarga nisbatan iqtisodiy jihatdan afzal ekanligini e’tirof etadi. U ayniqsa, aholidan olinadigan daromad solig‘iga katta e’tibor beradi. J. Keyns aholidan olinadigan daromad solig‘ini arogressiv stavkalarda olinishini taklif qildi. Uning fikriga ko‘ra ortiqcha jamg‘armalar soliqlar yordamida davlat foydasiga olib qo‘yilishi kerak. Daromad solig‘i, ayniqsa, mehnatsiz topilgan daromadga, kapitaldan olingan foydaga, merosga va boshqa soliq obyektlariga

nisbatan o‘rnatilganda uning jamiyatdagi roli foiz me’yorining rolidan kam bo‘lmaydi.

Xalqaro Nobel mukofotining laureati P. Samuelson o‘zining soliqlar va soliqqa tortish xususidagi ilmiy tadqiqotlarida soliqlarning tovarlar bahosi va miqdoriga ta’siri masalasini chuqur tadqiq qildi. U o‘zining tadqiqot natijalariga asoslangan holda, soliqlarni tovar ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasida taqsimlanishi talab va taklifning egiluvchanligiga bevosita va uzviy bog‘liqligini e’tirof etadi. Agar tovarga talab taklifga nisbatan noegiluvchan bo‘lsa, u holda soliq og‘irligi tovarni iste’mol qiluvchilarga tushadi. Demak P. Samuelson egri soliqlarning tovarlar bahosiga ta’siri natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy oqibat masalalariga katta e’tibor beradi.

Zamonamizning taniqli iqtisodchi-olimlari V. Knyazev, L. Drobozina, J. Matuk P. Samuelson, D. Chernik va boshqalar soliqlarni to‘g‘ri va egri soliqlarga ajratgan holda tadqiq qilganlar.

Mamlakatimizning taniqli iqtisodchi-olimlaridan T. Malikov, O. Olimjonov, N. Haydarov, X. Sobirov, Q. Yahyoyev soliqlarni tadqiq qilish jarayonida ularni to‘g‘ri va egri soliqlarga ajratish zarurligini hamda ular o‘rtasida oqilona nisbatni shakllantirish masalasining dolzarbligini e’tirof etganlar. To‘g‘ri soliqlar bevosita daromaddan yoki soliq to‘lovchilarga tegishli bo‘lgan mol-mulkdan olinadi. Egri soliqlar esa, tovarlarni sotish aylanmasidan, xizmatlar ko‘rsatish hajmidan ularning bahosiga qo‘shimcha shaklda undiriladigan soliqlardir.

To‘g‘ri soliqlarning asosiy turlariga yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig‘i, aholidan olinadigan daromad solig‘i va mol-mulk soliqlari kiradi.

To‘g‘ri soliqlar tovarlar bahosining o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmaydi, lekin ular korxonalarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Biz quyida O‘zbekiston Respublikasi budjet amaliyotida to‘g‘ri soliqlarning tarkibini va undagi o‘zgarishlarni tahlil qilamiz.

TO‘G‘RI SOLIQLARNING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARI TARKIBIDAGI O‘RNI

Jahon soliq amaliyotida Davlat budjeti daromadlari tarkibida to‘g‘ri va egri soliqlarning nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga baho berish mumkin. Masalan. AQSHda budjet daromadlari tarkibida to‘g‘ri soliqlar

salmog‘ining 90 foizga yaqin bo‘lishi bu mamlakat iqtisodiyotining yuqori darajada rivojlanganligidan darak beradi.

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasi budjet amaliyotiga to‘g‘ri soliqlarning tarkibi va undagi o‘zgarishlar ko‘rib chiqilgan.

8-jadval

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TARKIBIDA TO‘G‘RI SOLIQLARNING O‘RNI[1]

T/r	Ko‘rsatkichlar	Yillar						2008-yilda 2004-yilga nisbatan o‘zgarishi, punktda
		2004	2005	2006	2007	2008	2009 prog.	
1.	Davlat budjeti daromadlari — jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X
2.	Shu jumladan: to‘g‘ri soliqlar	40,6	37,8	37,7	34,6	35,8	42,4	−4,8

Keltirilgan ma’lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2004—2008-yillar mobaynida to‘g‘ri soliqlarning mamlakat davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa, xalqaro budjet amaliyotida shakllangan tendensiyalar nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki, mazkur tendensiyalarga muvofiq, bozor iqtisodiyoti sharoitida to‘g‘ri soliqlarning davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i barqaror tarzda saqlab turilishi yoki o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lishi lozim. 2008-yilda 2007-yilga nisbatan 1,2 punktga o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lganligi xalqaro budjet amaliyotiga mos kelayotganligidan dalolat beradi.

Rivojlangan davlatlardan AQSH, Buyuk Britaniya va Yaponiyada Davlat budjeti daromadlari tarkibida to‘g‘ri soliqlar yuqori salmoqni egallaydi. Masalan, AQSHda to‘g‘ri soliqlarning federal budjet daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i 90 foizdan oshadi, egri soliqlarning salmog‘i esa, atigi 5 foizni tashkil etadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yillik hisobot ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ayrim rivojlangan davlatlarda, masalan, Fransiya va Germaniyada davlat budjeti daromadlari tarkibida egri soliqlar nisbatan yuqori salmoqni egallaydi. Lekin, rivojlangan xorijiy davlatlarning mutlaq ko'pchiligida to'g'ri soliqlar ularning davlat budjeti daromadlari tarkibida yuqori salmoqni egallaydi.

Endi biz mamlakatimiz davlat budjetining daromadlari hajmida to'g'ri soliqlarning salmog'ining pasayish tendensiyasini yuzaga kelish sabablarini aniqlash uchun to'g'ri soliqlarning tarkibini tahlil qilamiz.

Soliqlarning rag'batlantiruvchilik roli asosan uch xil ko'rinishda yuzaga chiqadi. Bular soliq imtiyozlarini amalga oshirish (soliq obyektini kamaytirish), soliq to'lovchilarini soliqdan ozod etish hamda soliq stavkalarini tabaqalashtirish hisoblanadi.

3-chizma

SOLIQ STAVKALARINING TABAQALANISH MEZONLARI[1]



[1] DSQ ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqildi.

Tahlil natijalaridan ma'lumki, hozirgi vaqtda to'g'ri soliqlar ichida salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni aholidan olinadigan daromad solig'i egallaydi. Buning asosiy sababi shundaki, birinchidan, mazkur soliq ko'proq o'zining fiskallik funksiyasini bajarmoqda. Bu holat soliq stavkalarini nisbatan yuqori ekanligida va eng past stavkalarini daromadlarning katta bo'lmagan qismiga nisbatan o'rnatilganligida namoyon bo'ladi. 2002-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng past stavkasi 13 foiz bo'lib, u eng kam ish haqining 4 barobari miqdoridagi daromad solig'iga nisbatan qo'llanildi. 1998—1999-yillarda mazkur soliq bo'yicha 5 pog'onali stavka qo'llanildi va eng yuqori soliq stavkasining darajasi 45 foizni tashkil etar edi. 2000-yilda ham yuqori soliq stavkasi saqlanib qolindi, ya'ni 4 pog'onali stavkalar mavjud bo'lib, eng yuqori soliq stavkasining darajasi 40 foizni tashkil etar edi. 2001-yilga kelib, daromad solig'ini hisoblashning 3 pog'onali tizimi joriy qilindi. Ammo, ish haqining 10 barobaridan yuqori bo'lgan daromadlardan eng yuqori stavkada (22 foiz) soliq olinadigan bo'ldi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining chegara stavkasining 1999-yilgi 45 foizdan 2001-yilga kelib 36 foizga tushirilishiga qaramasdan mazkur davrda real stavka 15,4 foizdan 17,1 foizga oshdi. Bu holat to'lov intizomining mustahkamlanganligi va aholining real daromadlari hajmining oshganligi bilan izohlanadi. 2008-yilda eng yuqori stavka 25 foiz bo'lsa 2009-yilda 22 foizni tashkil etdi.

Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek, jismoniy shaxslarning daromadini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning asosiy maqsadi soliq stavkalarini pasaytirish konsepsiyasini davom ettirish va 3 pog'onali soliq stavkalaridan 2 pog'onali soliq stavkalariga o'tish hisoblanadi.

Tahlil natijalaridan ko'rinadiki, Respublikamiz budjet amaliyotida to'g'ri soliqlarning umumiy hajmida salmog'iga ko'ra ikkinchi o'rinni yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i egallaydi. Mazkur soliqlarning salmog'ining pasayishi tendensiyasining yuzaga kelganligi asosan, soliq stavkalarining 1999—2003-yillar mobaynida sezilarli darajada pasaytirilganligi bilan izohlanadi. Masalan, 1999-yilda yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'ining stavkasi 33 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2003-yilga kelib bu ko'rsatkich 20 foizni tashkil etdi. 2008-yilga kelib bu ko'rsatkich 10% ni tashkil etdi.

Respublikamizda to‘g‘ri soliqlarning umumiy hajmida sezilarli salmoqni egallaydigan soliq turlaridan biri kichik korxonalardan olinadigan yagona soliq hisoblanadi. 2003-yilda mazkur soliqning to‘g‘ri soliqlar tarkibidagi ulushi 5,6 foizni tashkil qildi. Shunisi ahamiyatliki, ushbu holat respublikamizda kichik va o‘rta biznes korxonalari tomonidan yaratilgan mahsulotlarning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini tahlil qilingan davr mobaynida sezilarli darajada o‘sganligi bilan izohlanadi. Masalan, 2000-yilning 1-yanvar holatiga mazkur ko‘rsatkich respublika bo‘yicha 29,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2002-yilning 1-yanvar holatiga kelib uning darajasi 33,8 foizni tashkil qildi.

Mamlakatimizda kichik va o‘rta biznes korxonalari faoliyatining rivojlanishi hukumatning kichik va o‘rta biznes korxonalariga yaratayotgan iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar bilan izohlanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 10-iyuldagi 294-son qaroriga muvofiq kichik va o‘rta biznes korxonalari eksport tushumining 50 foizi majburiy soliqdan ozod qilindi. Bundan tashqari, ularga naqd valutada tovarlar va xizmatlarni eksport qilishga ruxsat etildi.

Kichik va o‘rta biznes korxonalariga yaratilgan muhim sharoitlardan yana biri, ularga imtiyozli kreditlar berish tartibining yo‘lga qo‘yilganligi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik va o‘rta biznes korxonalariga berilgan imtiyozli kreditlardan olingan foizli daromadlar soliqqa tortilmaydi.

Respublikamiz amaliyotida to‘g‘ri soliqlar tarkibida salmog‘iga ko‘ra sezilarli o‘rinlarni egallaydigan soliqlar sifatida ekologiya solig‘i, yer solig‘i hamda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soliqlarini e’tirof etish mumkin.

Mamlakatimiz soliq amaliyotida ekologiya solig‘i 1998-yilning 1-yanvaridan boshlab joriy etilgan. Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq, ekologiya solig‘ining stavkasi mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga nisbatan 1 foiz miqdorida belgilangan, 1999—2001-yillar mobaynida ekologiya solig‘ining to‘g‘ri soliqlar hajmidagi salmog‘i sezilarsiz darajada (0,4%) o‘sgan. 2003-yilda esa bu ko‘rsatkich 1999-yildagiga nisbatan 2,4 punktga o‘sgan va bu o‘sish asosan yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig‘i va yer solig‘i salmog‘ining pasayishi hisobiga yuz bergan. 2002-yilda ekologiya solig‘i mutlaq summada 1999-yilga nisbatan 3,2 marta oshgan. Bu esa, sezilarli darajadagi o‘sish bo‘lib, ekologiya solig‘ining to‘g‘ri

soliqlar hajmidagi salmog‘ining oshishiga olib keluvchi ikkinchi omil hisoblanadi. Yer solig‘ining obyekti bo‘lib, soliq to‘lovchiga qarashli yer maydoni hisoblanadi. Shuning uchun bozor konyunkturasining o‘zgarishi, xo‘jalik faoliyatini yuritish sharoitlarida sezilarli o‘zgarishlarning yuzaga kelishi mazkur soliqlar bo‘yicha tushumlar summasining bevosita to‘g‘ridan to‘g‘ri kamayishiga olib kelmaydi. Yer solig‘i bilan ishlab chiqarish hajmi o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud emasligi yer solig‘i bo‘yicha tushumlar budjetning barqaror daromad manbayi sifatidagi rolini oshiradi.

Ayni vaqtda, shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi vaqtda yer solig‘i foydalanilayotgan yer resurslarining iqtisodiy samaradorligini hisobga olmaydi. Holbuki, yer maydonlari unda yetishtiriladigan o‘simliklarning turlari bo‘yicha turlicha daromadlilik darajasiga ega bo‘lish mumkin. Bundan tashqari, yer maydonining yirik shaharlarga, savdo markazlariga, transport kommunikatsiyalariga uzoq yoki yaqinligi ham yerdan foydalanish samaradorligiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

To‘g‘ri soliqlar ichida mol-mulk solig‘i ham sezilarli o‘rinni egallaydi. Bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliqdir. Mazkur soliqlar bo‘yicha tushumlar summasi to‘liq mahalliy budjetlarga tushadi va mohiyatiga ko‘ra barqaror daromad manbayi hisoblanadi.

Respublikamiz soliq amaliyotida mol-mulk solig‘ini joriy qilishdan ko‘zlangan maqsad, asosiy fondlardan samarali foydalanishni rag‘batlantirish hisoblanadi. Xo‘jalik yurituvchi subyektning balansidagi barcha mulklardan soliq to‘lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, mashina va uskunalardan qutilishga undaydi. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga imkoniyat yaratadi.

Rivojlangan industrial mamlakatlarda to‘g‘ri soliqlarni davlat budjetiga undirishda bir qator ijobiy yutuqlarga erishilgan. Xususan, Buyuk Britaniyada 1991-yildan boshlab korxonalarning foydasidan olinadigan soliqning stavkalarini pasaytirish siyosati amalga oshirila boshladi. Bir vaqtning o‘zida fuqarolardan olinadigan daromad solig‘ining stavkalari ham pasaytirila boshladi.

Korxonalarning foydasidan olinadigan soliq stavkalarini pasaytirib borish siyosati AQSH, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan davlatlarda ham qo‘llandi, masalan, AQSHda 1955-yilda mazkur soliq bo‘yicha tushumlar summasining davlat budjeti daromad-

larining umumiy hajmidagi salmog‘i 30 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1998-yilga kelib 12 foizni tashkil qildi. Mazkur soliq bo‘yicha stavkalarni doimiy tarzda pasaytirilishi va amaldagi soliq stavkalarini kengaytirish ushbu soliq tushumlarini budjet daromadlari tarkibidagi salmog‘ining pasayishiga olib keldi.

O‘quv qo‘llanmaning 1-bobida ta’kidlaganimizdek, rivojlangan industrial mamlakatlarda aholidan olinadigan daromad solig‘i davlat budjeti daromadlarining 45 foizgacha bo‘lgan qismini tashkil qiladi. Shunisi xarakterliki, mazkur soliqni undirishda soliqqa tortilmaydigan minimum miqdorini belgilash muhim o‘rin tutadi. Masalan, Germaniyada daromad solig‘ini hisoblashda 7 turdagi xarajat moddasi soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanadi. Ayniqsa, soliq to‘lovchining qaramog‘ida yosh bolalarni saqlab turishi, farzandlarini professional ta’lim olishi bilan bog‘liq xarajatlarga nisbatan sezilarli soliq imtiyozlari joriy qilingan.

AQSHda fuqarolardan daromad solig‘i olishda soliqqa tortilmaydigan minimumdan tashqari standart chegirmalar mavjud. Xususan, soliqqa tortilmaydigan minimum miqdori 2650 AQSH dollarini tashkil etgani holda, standart chegirmalar soliq to‘lovchilarning toifasi bo‘yicha 4150 AQSH dollaridan 6150 dollargacha bo‘lgan miqdorda belgilangan.

Shunisi xarakterliki, Germaniyada mol-mulk solig‘i ko‘chmas mulkdan tashqari qo‘zg‘aluvchan mulkdan ham olinadi. Mol-mulklar qiymati daromadlar yoki mablag‘larning aylanishi kabi keskin tebranishlarga ega bo‘lmaganligi sababli mol-mulk solig‘i har 3 yilda bir marta hisoblanadi.

Fransiyada mol-mulk solig‘ining stavkalari mol-mulkning qiymatiga ko‘ra tabaqalashtirilgan. Soliqqa tortiladigan mol-mulk o‘z ichiga binolar, sanoat va qishloq xo‘jalik korxonalari, harakatdagi mulk aksiya, obligatsiya kabi mulklarni olib, ularning umumiy bahosi belgilangan chegaradan oshgandagina soliqqa tortiladi.

AQSHda mol-mulk solig‘i mahalliy budjetlar daromadining 30 foizgacha bo‘lgan qismini tashkil etadi. Ko‘char va ko‘chmas mulk soliq obyekti bo‘lib hisoblanadi. AQSHda mol-mulk solig‘ini undirish amaliyotiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlaridan biri soliq stavkalarini oshirmasdan turib, soliq bazasi summasini ko‘paytirish hisoblanadi. Bunga ko‘chmas mulkni davriy qayta baholash natijasida erishiladi.

AQSHda ko‘chmas mulkka nisbatan belgilangan soliq stavkalari mulk qiymatiga ko‘ra tabaqalashtirilgan.

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida to‘g‘ri soliqlarning davlat budjeti daromadlari hajmidagi salmog‘ini oshirish yuzasidan quyidagi ilmiy-amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish mumkin:

1) to‘g‘ri soliqlarning davlat budjeti daromadlari hajmidagi salmog‘ining pasayish tendensiyasiga barham berish uchun yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig‘i tushumlarini budjet daromadlari tarkibidagi salmog‘ini oshirish va barqarorlashtirish lozim. Bunda asosiy e’tibor korxonalarga nisbatan mavjud bo‘lgan soliq imtiyozlarining holatiga, to‘lovsizlik muammosining sabab-oqibatlariga qaratilishi lozim.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining to‘g‘ri soliqlar hajmidagi salmog‘i 2004—2005-yillar mobaynida sezilarli darajada pasayishi mumkin. Chunki, 3 pog‘onali soliq stavkalaridan 2 pog‘onali stavkalarga o‘tish va soliq stavkalarining chegaraviy darajasining pasaytirilishi soliq tushumlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, to‘g‘ri soliqlarning davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘ini yanada pasaytirishga olib keladi. Shuning uchun ham, yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig‘i tushumlarini 2004—2005-yillarda sezilarli darajada o‘sishini ta’minlash obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Chunki, to‘g‘ri soliqlarning 70 foizga yaqin qismini ana shu ikki soliq turi bo‘yicha olingan tushum tashkil etadi;

2) yer solig‘ining stavkalarini belgilashda, qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun foydalaniladigan yerdan olinadigan daromad miqdorini hisobga olish lozim.

Qishloq xo‘jaligida band yerlarda yetishtiriladigan o‘simliklarning turlari bo‘yicha bir-biridan keskin farqlanuvchi daromad darajasiga egadir. Masalan, davlat xarid narxlarining ko‘tarilishi, davlat buyurtmasining qisqartirilishi, paxta va bug‘doydan olinadigan daromadlar darajasining sezilarli darajada o‘sishiga imkoniyat yaratadi.

Holbuki, ko‘plab qishloq xo‘jalik mahsulotlari bahosining doimiy ravishda past ekanligi kuzatilishi mumkin;

3) mol-mulk solig‘ining rag‘batlantiruvchilik xususiyatini oshirish maqsadida soliqqa tortilmaydigan minimum joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur soliq bo‘yicha soliqqa tortilmaydigan minimumning joriy etilishi iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatayotgan va fond sig‘imi yuqori bo‘lgan hamda faoliyatini endigina boshlagan korxonalarning moliyaviy holatiga ijobiy ta’sir qiladi. Buning nati-

jasida, o‘rta va uzoq muddatli davriy oraliqlarda ularning soliqqa tortish bazasi kengayadi;

4) ekologiya solig‘i bo‘yicha olinadigan budjet daromadlari miqdorini ko‘paytirish maqsadida ekologiya solig‘i stavkalarini xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining atrof-muhitga zararligiga bog‘liq ravishda tabaqalashtirish lozim.

7.3. EGRI (BILVOSITA) SOLIQLARNI UNDIRISH AMALIYOTI

Egri soliqlar mahsulot bahosiga yoki xizmat ta’rifiga ustama sifatida belgilanadigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlardir. Egri soliqlar obyektini belgilashda davlat tovar yoki xizmatlarning sotilishi paytida ushbu qiymatning bir qismiga o‘z huquqlarini da’vo qilishi bilan haqiqatda yangi qiymatning taqsimlanishida ishtirok etadi. Egri soliqlar to‘g‘ri soliqlardan farqli o‘laroq soliq to‘lovchining daromadi yoki mol-mulkiga bevosita bog‘liq emas. Shu sababli, egri soliqqa tortish jarayonida yuzaga keladigan soliq yuki soliq to‘lovchilarning moliyaviy faoliyatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qilmaydi.

Egri soliqlar tovarning yoki xizmatning bahosida hisobga olinganligi uchun iste’molchi ularning pirovard to‘lovchisi bo‘lib hisoblanadi. Lekin tarmoq ichidagi raqobat yuksak bo‘lganida va talab barqaror bo‘lmagan holda soliqning muayyan qismi tovarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchi tomonidan to‘lanadi.

Egri soliqlar asosan xazinaga molik ahamiyatga ega, chunki bu soliqlar tovarlarni sotish, ish va xizmat ko‘rsatishdan tushgan umumiy mablag‘lardan bir qismini muntazam ravishda budjetga olish imkonini beradi. Bu soliqlar davlat budjetining barqaror daromadlari bo‘lib, ular sotilgan mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatdan uzluksiz tushib turadigan pulga yaqin bo‘lgan tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatining miqdoriy ko‘rsatkichlariga va ularning to‘lov muddatlariga bog‘liq emas.

I. Jalolov o‘zining ilmiy ishida soliqlarning, jumladan egri soliqlarning tasniflanishi borasida ilmiy tadqiqot olib borgan va natijada foyda, daromad va mulk soliqlarini — to‘g‘ri soliqlarga, aksiz va QQS, bojxona bojlarini egri soliqlar tarkibiga kiritgan. Muallif o‘zining ilmiy ishini faqat QQS va aksiz solig‘i misolida bajarganligi uchun, shu soliqlarni keng yoritgan va chuqur tahlil

qilgan. Binobarin, bizning fikrimizcha, resurs soliqlari tarkibiga kiruvchi va boshqa soliqlar (suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig‘i, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, yer solig‘i, infratuzilmani rivojlantirish solig‘i) ham iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra egri soliqlar qatoriga kiritilishi mumkin. Chunki ular ham aksiz va qo‘shilgan qiymat soliqlari singari ishlab chiqarilgan mahsulot, ko‘rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlarning tannarxiga qo‘shilishi tufayli ularning bevosita narxiga kiritiladi va ularni ham oxir-oqibatda mahsulot va xizmatlarning oxirgi iste’molchilari to‘laydilar.

Shunisi ahamiyatliki, barcha fuqarolar o‘zlarining daromadlarining miqdoridan qat’iy nazar egri soliqlarni to‘laydilar, chunki egri soliqlarga tortiladigan tirikchilik vositasi bo‘lgan tovarlar fuqarolar tomonidan iste’mol qilinadi.

2004—2008-yillar mobaynida egri soliqlarning O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

9-jadval

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TARKIBIDA EGRI SOLIQLARNING O‘RNI[1] (foizda)

T/r	Ko‘rsatkichlar	Yillar						2009-yilda 2004-yilga nisbatan o‘zgarishi, punktda
		2004	2005	2006	2007	2008	2009	
1.	Davlat budjeti daromadlari — jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X
	Shu jumladan: — egri soliqlar	46,1	45,6	51,9	54,6	57,8	50,2	−4,1

Mazkur tendensiyaning mavjudligi davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning hozirgi holati nuqtai nazaridan ijobiy hisoblanadi. Buning sababi shundaki, qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i iqtisodiy kon’yunkturaning o‘zgarishlariga bevosita bog‘liq

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-1024-sonli qarori.

bo‘lmagan barqaror daromad manbalari hisoblanadi va egri soliqlar bo‘yicha tushumlarning asosiy qismini tashkil etadi.

Yevropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSH, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Yevropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog‘i 40 foizdan yuqori bo‘lib, ayim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkich 50 foizdan yuqori bo‘lgan mamlakatlar qatoriga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSH, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko‘rsatkich 25—30 foizni tashkil qiladi.[1]

Xo‘sh, qo‘shilgan qiymatning o‘zi qanday tartibda yuzaga keladi?

Qo‘shilgan qiymat o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, sotilgan mahsulotlar, ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilingan oraliq tovarlar, xom ashyolar va xizmatlarning qiymati o‘rtasidagi farqdan iboratdir. Bunda ishchi kuchi bilan bog‘liq xarajatlar hisobga olinmaydi. Ushbu bildirilgan fikrdan, qo‘shilgan qiymatni ishchi kuchiga qilingan xarajatlar (ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi xodimlarga berilgan ish haqi, mukofotlar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlar) va tovarni ishlab chiqarish natijasida olingan, foyda summasiga teng bo‘lgan miqdor sifatida ham ko‘rish mumkinligi kelib chiqadi.

Tabiiyki, ishlab chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma’lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o‘tadi, bu bosqichlarning har birida qo‘shilgan qiymat yaratiladi. Tovarlarni ishlab chiqarish va sotish jarayonida ishtirok etuvchi har bir ishtirokchi qo‘shilgan qiymatning ustiga o‘zining hissasini qo‘yadi. Shuning uchun tovarlar va xizmatlarning qiymati ularni ishlab chiqarish va sotish jarayonida qo‘shilgan qiymatlarning umumiy summasiga teng.

Shunday qilib, qo‘shilgan qiymat egri soliqlarni undirish uchun birlamchi obyektiv asos hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda xalqaro soliq amaliyotida egri soliqlarning asosiy turlari, QQS, aksiz solig‘i va boj solig‘i hisoblanadi.

QQSni davlat budjetining daromad qismiga jalb qilish g‘oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya budjet amaliyotida joriy etishni 1919-yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi.

---

[1] *T. Malikov, N. Xaydarov.* «Davlat budjeti».

QQSni amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz moliyachisi M. Lore tomonidan ishlab chiqildi. Ammo QQS M. Lorening taklifidan so‘ng o‘tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo‘llanildi. Fransiyada QQS aslida 1968-yildan boshlab joriy etildi.

XX asrning 70-yillarida QQS G‘arbiy Yevropaning qator mamlakatlarining soliq amaliyotida joriy qilindi. Buning asosiy sababi va huquqiy asosi, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan hamjamiyatga a’zo mamlakatlarda QQSni undirishni tartibga solishning huquqiy me’yorlarini umumlashtirish to‘g‘risidagi maxsus Direktivaning qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur Direktiva 1977-yilda qabul qilindi va unda egri soliqlarning asosiy turi sifatida QQS e’tirof etildi.

QQSga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning obyekti, nafaqat ichki bozordagi tovar aylanmasi, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovar aylanmasi ham hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda, ko‘pchilik hollarda, QQSni «Yevropacha» soliq deb ham atashadi. Buning asosiy sabablari, birinchidan, QQS dunyoda birinchi marta Yevropa davlati bo‘lgan Fransiyada joriy etildi; ikkinchidan, 1977-yilda mazkur Direktivaga asosan QQS bir vaqtning o‘zida Yevropaning bir necha davlatlarida joriy etildi; uchinchidan, QQS G‘arbiy Yevropadagi integratsion jarayonlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

Hozirgi vaqtda QQS Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lgan mamlakatlarning davlat budjetlarining daromadlarini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Yevropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSH, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Yevropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog‘i 40 foizdan yuqori bo‘lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkich 50 foizdan yuqori bo‘lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSH, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko‘rsatkich 25—30 foizni tashkil qiladi.

Buyuk Britaniyada QQS joriy etilgan dastlabki paytda uning stavkasi 10 foizni tashkil qilar edi, keyin esa soliq stavkasi 8 foiz qilib belgilandi. Hozirgi vaqtda asosan 3 xildagi QQS stavkasi mavjud bo‘lib, nollik stavka, pasaytirilgan stavka (5%) va oshirilgan stavka (17,5%)lardan iborat. Pasaytirilgan stavkada shaxsiy iste’mol

uchun ishlatiladigan elektr toki hamda gaz QQSga tortiladi. Nollik stavkada esa oziq-ovqat mahsulotlari, jamoat transporti xizmatlari, nashriyot mahsulotlari, urug‘chilik va chorvachilik mahsulotlari soliqqa tortiladi.

Buyuk Britaniyada ta’lim, tibbiyot xizmatlari, sug‘urta va brokerlik xizmatlari QQSga tortilmaydi.

Shunisi xarakterliki, Buyuk Britaniyada yillik mablag‘ aylanmasi 54 000 funt sterlingacha bo‘lgan tadbirkorlar QQSni to‘lashdan ozod qilingan. O‘zbekiston Respublikasida QQS bo‘yicha imtiyozlarni belgilashda tadbirkorlar yillik aylanmaning miqdori hisobga olinmaydi. Bizning fikrimizcha, mulk shaklidan va iqtisodiy maqomidan qat’i nazar, barcha tadbirkorlarga QQSga tortilmaydigan yillik aylanma mablag‘ miqdorini belgilab qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ko‘plab faoliyatini endi boshlagan tadbirkorlar ishlab chiqarish va muomala xarajatlarining yuqori bo‘lganligi sababli, ishlab chiqargan tovarlarning bahosini pasaytirish imkoniyatiga ega emaslar. Ularga nisbatan 20 foizli QQSning qo‘llanilishi tovarlar bahosining sezilarli ravishda o‘sishiga olib keladi. Natijada mazkur tadbirkorlar ishlab chiqargan tovarlarning raqobatbardoshligi yanada pasayadi.

Irlandiyada 2001-yildan boshlab, QQSning standart stavkasi 20 foiz qilib belgilandi. Mazkur stavka 2001-yilga qadar 21 foizni tashkil qilar edi. Standart stavkadan tashqari, nollik stavka va pasaytirilgan stavkalar (12,5%—4,3%) mavjud. QQS bo‘yicha imtiyozlar nollik stavkani qo‘llash shaklida soliqqa tortilmaydigan yillik aylanmani belgilab qo‘yish shaklida qo‘llaniladi.

Irlandiyaning eksport salohiyatini oshirish maqsadida eksportga nisbatan QQSning nollik stavkasi qo‘llaniladi. Bundan tashqari agar tadbirkorning tovor aylanmasining umumiy hajmida eksport operatsiyalarining salmog‘i 75 foizdan oshsa, u holda tadbirkor nollik stavkadan foydalanishga haqli hisoblanadi.

Belgiyada mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq QQSning 2 ta pasaytirilgan stavkasi qo‘llaniladi. 6 foizli pasaytirilgan stavkada, asosan, oziq-ovqat mahsulotlari, suv ta’minoti, kinoteatrlar va mehmonxonalar xizmati QQSga tortiladi. 12 foizli pasaytirilgan stavkada esa kommunal to‘lovlar, qishloq xo‘jalik mahsulotlari QQSqa tortiladi. Pasaytirilgan stavkalardan tashqari, QQSning asosiy stavkasi ham mavjud bo‘lib, uning miqdori 21 foizni tashkil qiladi.

Italiyada QQSning stavkalari 4 foiz, 10 foiz va 20 foizni tashkil qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari, eksportga tovar sotish va kompaniyalarning aktivlarini sotib olish xarajatlari QQSga tortilmaydi.

Gollandiyada 2001-yildan boshlab, QQSning standart stavkasi 19 foizni tashkil qiladi. Mazkur stavka 2001-yilga qadar 17 foizni tashkil qilar edi. 6 foizli pasaytirilgan stavka oziq-ovqat mahsulotlariga, jamoat transport xizmatlariga, qishloq xo'jalik mahsulotlarining ayrim turlariga nisbatan qo'llaniladi. Nollik stavkalar esa eksportga nisbatan qo'llaniladi. Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar va ayrim turdagi moliyaviy xizmatlar QQSga tortilmaydi.

Shvetsiyada QQSning asosiy stavkasi 25 foizni tashkil qiladi. 12 foizli pasaytirilgan stavkalar oziq-ovqat mahsulotlariga va mehmonxona xizmatlariga nisbatan qo'llaniladi. 6 foizli pasaytirilgan stavka esa ro'znomalarga va madaniy tadbirlarga nisbatan qo'llaniladi. 2001-yildan boshlab, yo'lovchi transporti xizmatlari bo'yicha QQSning stavkasi amaldagi 12 foizdan 6 foizga tushirildi.

Shunisi xarakterliki, Shvetsiyada yillik mablag' aylanmasi 1 mln Shvetsiya kronidan oshmaydigan tadbirkorlar QQS to'lashdan ozod qilinganlar.

XX asrning 80-yillaridan boshlab, QQS Amerika, Afrika va Janubi-sharqiy Osiyo hududidagi mamlakatlarning soliq amaliyotiga joriy qilindi. Yaponiya, Turkiya Hindiston, Indoneziya, Braziliya, Kolumbiya, Misr kabi davlatlarda QQS mana shu davrda joriy qilingan.

Yaponiyada QQS 1984-yilda joriy qilingan. 1989-yilga qadar Yaponiyada QQSning joriy etilishi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir qildi. Bu ta'sir, ayniqsa, qo'shilgan qiymat salmog'i sezilarli bo'lgan yuqori texnologiyali tarmoqlarga nisbatan kuchli bo'ladi, degan g'oya mavjud edi. Shuning uchun Yaponiyada Yevropa davlatlariga nisbatan uzoq muddat mobaynida QQS joriy etilmadi.

Akamattsu, Meazavo kabi Yaponiya moliya tizimini tadqiq qilgan taniqli iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, Yaponiya davlat budjeti defitsitini moliyalashtirish zarurati QQSni amaliyotga joriy etilishiga sabab bo'ldi. Chunki, QQS barqaror va iqtisodiy konyunkturaning tebranishlariga bevosita bog'liq bo'lmagan daromad manbayi hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasida 1992-yilda QQS aylanma soliqning o‘rniga joriy etildi. Bu soliq aylanma solig‘idan farqli ravishda faqat qo‘shilgan qiymatdan undiriladi. Aylanma solig‘i esa bir marotaba umumiy aylanmadan olinar edi. QQS esa ishlab chiqarish va muomala jarayonining har bir bosqichidan olinadi.

Xorijiy mamlakatlarda QQSni daromad manbayi sifatida qo‘llash tajribasini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, birinchidan, QQS iqtisodiy konyunkturaning tebranishlariga bevosita bog‘liq bo‘lmagan barqaror daromad manbayi hisoblanadi; ikkinchidan, QQS aholining nisbatan kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish imkonini beradi; uchinchidan, QQS mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi; to‘rtinchidan, QQS faoliyatini yaqinda boshlagan va katta miqdordagi tovar aylanmasiga ega bo‘lmagan tadbirkorlarni rag‘batlantirishning moliyaviy vositasi hisoblanadi.

Ayni vaqtda, xorijiy mamlakatlar amaliyotida ham QQSni davlat budjetiga jalb qilishda sezilarli muammolar mavjud. Ana shunday asosiy muammolardan biri — ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining har bir bosqichida yaratilgan qo‘shilgan qiymatni to‘liq hisobga olish imkonining mavjud emasligi hisoblanadi. Soliq organlari soliq to‘lovchilarning barcha hisob raqami — fakturalarini tekshirish uchun jismoniy imkoniyatlarga ega emaslar. Shuning uchun hisob raqami — fakturalar tanlanma tekshiruv asosida tekshiriladi. Bunda har bir bitim bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning natijalari hisobotlarda o‘z aksini topmaydi, hisobotlarda faqat qoldiq ko‘rsatkichlar o‘z aksini topadi. Bundan tashqari, soliq organlari bojxona organlaridan har doim ham ishonchli ma’lumotlarni to‘liq hajmda ololmaydilar. Buning sababi shundaki, soliq to‘lovchilar tomonidan bojxona hujjatlarini noto‘g‘ri to‘ldirilganligi hisoblanadi. Masalan, Shvetsiyada hisobotlardagi taqqoslab bo‘lmaydigan ma’lumotlarning 87 foizi hujjatlarni noto‘g‘ri to‘ldirish natijasida yuzaga kelgan nomuvofiqlikga to‘g‘ri keladi, 10 foizi esa soliq davrlarining mos kelmasligiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston Respublikasida QQS birinchi marta 1992-yilda 30 foizli stavkada joriy qilingan. Buning natijasida oborot solig‘i va sotishdan olingan soliqlar bekor qilindi. 1992-yildan 2004-yilga qadar QQSning stavkalari bir necha marta qayta ko‘rib chiqildi, jumladan, 1994-yilning iyul oyidan boshlab u 20 foiz qilib

belgilandi, 1995-yilda 18 foizga tushirildi, 1997-yilda esa 17 foiz qilib belgilandi. Respublikamizda QQSning stavkasi 1998-yildan boshlab 20 foizni tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining daromad manbayi sifatida QQS hozirga qadar o‘zining muhim o‘rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelayapti. Masalan, 2002-yilda QQSning davlat budjetining daromad tarkibidagi salmog‘i 54,6 foizni tashkil qildi. Holbuki, bu ko‘rsatkich 1999-yilda 46,1 foizni tashkil qilar edi.

Egri soliqlarning ikkinchi turi aksiz solig‘i hisoblanadi. Aksiz solig‘i egri soliq sifatida tovarlar va xizmatlar bahosining tarkibida hisobga olinadi hamda mahsulotlarning (xizmatlarning) jami sotish aylanmasi summasidan hisoblanadi. Aksiz solig‘i to‘liq respublika budjetining daromadlar qismiga kelib tushadi va uning soliq yuki iste’molchilar zimmasida bo‘ladi.

Aksiz stavkalarining darajasi tovarlarning sotilish bahosiga nisbatan foizlarda belgilangan bo‘lib, ular mamlakatdagi barcha tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona hisoblanadi. Ayrim davlatlarda, masalan, Fransiyada aksizlar tovarlarning natural birligiga nisbatan qat’iy stavkalarda belgilab qo‘yilgan. Jumladan, 1 litr vino uchun aksiz solig‘ining stavkasi 22 santimni, 1 litr shampan vinosi uchun 55 santimni, 1 litr pivo uchun esa 19,5 santimni tashkil qiladi.

AQSHda aksiz soliqlari federal ahamiyatga ega bo‘lgan soliq hisoblanadi. Lekin ularning davlat budjeti daromadlarining hajmidagi salmog‘i nisbatan kichik.

Aksiz solig‘i tamaki va alkogolli mahsulotlarga, transport xizmatlariga nisbatan joriy qilingan. Aksiz solig‘ining stavkasi 10 foizni tashkil etadi.

Buyuk Britaniyada aksiz soliqlari egri soliqlarning tarkibida salmog‘iga ko‘ra QQSdan keyingi o‘rinni egallaydi. Aksiz solig‘i yonilg‘i, alkogol va tamaki mahsulotlariga, transport vositalari va xizmatlariga nisbatan joriy qilingan. Uning stavkalari 10 foizdan 30 foizgacha oraliqda tebranadi.

Germaniyada aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlarning asosiy qismi Federal budjetga o‘tkaziladi, faqat pivoga nisbatan joriy qilingan aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar federal budjetga kelib tushmaydi. Aksiz solig‘ining stavkalari tovarlarning noto‘g‘ri birligiga nisbatan foizlarda va yevroda belgilangan. Masalan, sug‘urta bitimlari

bo‘yicha aksiz solig‘ining stavkasi sug‘urta polisi summasining 12 foiz miqdorida belgilangan. Shampan vinosiga nisbatan belgilangan soliq stavkasi 0,75 litr uchun 2 yevroni tashkil qiladi.

Rossiya Federatsiyasida 2001-yilning 1-yanvaridan boshlab, soliq kodeksining 2-qismining kuchga kiritilishi munosabati bilan, aksizlarni qo‘llash doirasi sezilarli darajada kengaytirildi, ya’ni an’anaviy aksiz solig‘i to‘lovchilar qatoriga ulgurji savdo tashkilotlari ham kiritildi.

Rossiya Federatsiyasida aksiz solig‘ining davlat budjeti daromadlarining manbayi sifatidagi roli juda muhim bo‘lib, u aksiz soliqlari bo‘yicha tushum summalarini Federal budjet daromadlari tarkibidagi salmog‘ining yuqori ekanligida namoyon bo‘ladi. Masalan, 2003-yilda aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlarning Rossiya Federal budjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i 9,6 foizni tashkil qildi. 2001-yilda bu ko‘rsatkich 15,8 foizni tashkil qilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasida aksiz solig‘i egri soliqlarning asosiy turlaridan biri hisoblanadi va davlat budjeti daromadlarining 30 foizigacha bo‘lgan qismini ta’minlaydi.

Respublikamizda aksiz solig‘ining stavkalari 5 foizdan 77 foizgacha bo‘lgan oraliqda tebranadi. Bundan tashqari, ayrim tovar turlari bo‘yicha aksiz solig‘ining stavkalari mahsulot birligiga nisbatan yuqori bo‘lgan spirtli ichimliklar uchun aksiz solig‘ining stavkasi 1 litr uchun 2600 so‘m qilib belgilangan.

Ayrim aholi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan iste’mol tovarlari uchun aksiz solig‘ining stavkalarini yuqori darajada belgilanganligi aksizlarning fiskallik ahamiyatini mamlakatimizda yuqori ekanligidan dalolat beradi. Masalan, o‘simlik, paxta yog‘i bo‘yicha aksiz solig‘i stavkasi 77 foizni, sholi — guruchga nisbatan 33 foizni tashkil qiladi.

Egri soliqlarning uchinchi asosiy turi boj to‘lovlari hisoblanadi. Boj to‘lovlari eksport-import va tranzit tovarlardan olinadi. Ular belgilangan stavkalar bo‘yicha undiriladi. Amaliyotda boj to‘lovlarini undirishda maxsus, advaler va aralash stavkalar qo‘llaniladi.

Maxsus stavka deganda, tovar o‘lchamining birligiga nisbatan qat’iy summada belgilangan stavkalar tushuniladi. Agar stavkalar tovar qiymatining bir qismi sifatida belgilangan bo‘lsa, bu advaler stavkalar deyiladi. Xomashyo, oziq-ovqatlar advaler stavkalari

bo‘yicha, tayyor mahsulotlar esa maxsus stavkalar bo‘yicha soliqqa tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti ijtimoiy xarajatlarini o‘sish tendensiyasiga ega ekanligi davlat budjeti daromadlari hajmini uzluksiz oshirib borishni taqozo qiladi. Bu esa, QQS, aksiz solig‘i kabi barqaror daromad manbalarini budjet daromadlarining tarkibidagi yuqori salmog‘ini ta’minlashni taqozo qiladi.

Endi biz egri soliqlarning tarkibi va dinamikasini tahlil qilamiz.

10-jadval

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET AMALIYOTIDA EGRI SOLIQLARNING TARKIBI VA DINAMIKASI (foizda)

Ko‘rsatkichlar	2006-y	2007-y	2008-y	2009-y	2009-yilda 2006-yilga nisbatan o‘zgarishi, punktda
I. Egri soliqlar-jami	100,0	100,0	100,0	100,0	X
Shu jumladan:					
1) QQS	47,0	47,9	48,4	49,0	−4,3
2) Aksiz solig‘i	43,5	42,6	40,0	29	−67
3) Boj to‘lovlari	4,0	5,0	5,2	6,9	−72
4) Tovarlarni olib kirganliklari uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yig‘im	3,5	1,5	2,8	11,2	3 barobar
5) Jismoniy shaxslarning benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste’mol qilganliklari uchun soliq	2,5	3,0	3,6	3,9	−56

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, egri soliqlar bo‘yicha tushumlarning umumiy hajmida salmog‘iga ko‘ra asosiy o‘rinni QQS va aksiz solig‘idan olingan tushumlar egallaydi. Xususan, 2008-yilda ikkala soliq turi bo‘yicha olingan tushumlar summasi egri soliqlar umumiy summasining 90 foizdan ortiq qismini tashkil qildi.

QQS O‘zbekiston Respublikasi Soliq amaliyotida egri soliqlar asosiy turi sifatida muhim o‘rin tutadi. 2006—2009-yillar mobaynida QQSning egri soliqlar hajmidagi salmog‘ining yuqori darajasi saqlanib qolgan. 2009-yilda bu ko‘rsatkich 2006-yilga nisbatan punktga ortgan. Ushbu pasayish aksiz solig‘i, boj to‘lovlari va boshqa egri soliqlar salmog‘ining o‘sishi hisobiga yuz bergan. Lekin shuni e’tirof etish lozimki, ushbu soliqlar ichida aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar summasini 2009-yilda 2006-yilga nisbatan mutlaq summada va salmoq jihatdan o‘sganligi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, aksiz solig‘i egri soliqlarning tarkibida yuqori salmoqni egallaydi va hajmiga ko‘ra QQSdan keyingi o‘rinda turadi.

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, 2006—2009-yillar mobaynida boj to‘lovlari salmog‘ining o‘sish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa, respublikamizda xo‘jalik subyektlarining va aholining tashqi savdo operatsiyalarini rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq amaliyotida jismoniy shaxslardan transport vositalari solig‘ini undirishni yengillashtirish maqsadida 2002-yilning 1-yanvaridan boshlab soliq summasini yonilg‘i-moylash mahsulotlari narxi tarkibida undirish joriy qilindi. 2002-yilda birgina benzin yonilg‘isi bo‘yicha jismoniy shaxslardan undirilgan soliq miqdori 2000-yildagiga nisbatan 7,8 marta, 2001-yildagiga nisbagan esa 7,1 marta yuqori bo‘ldi. Bu esa, mazkur soliqni davlat budjeti daromadlarining tarkibidagi ahamiyatining oshib borayotganligidan dalolat beradi.

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda, fikrimizcha, egri soliqlarni davlat budjeti daromadlarining manbayi sifatidagi rolini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1) O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining ijtimoiy xarajatlari o‘sish tendensiyasiga ega ekanligi, hukumatning bosh islohotchi sifatida yirik investitsion xarajatlarining mavjudligini hisobga olib, davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida QQS va aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar summasining barqaror salmog‘ini ta’minlash zarur;

2) QQSni undirish yuzasidan Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lgan yetakchi davlatlarning soliq amaliyotidagi ilg‘or tajribalaridan respublikamiz sharoitida keng ko‘lamda foydalanish zarur. Xususan, soliq stavkalarini ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tovarlarning

turlari bo‘yicha tabaqalashtirish tartibini, tadbirkorlarning soliqqa tortilmaydigan aylanmalari bo‘yicha minimal miqdorni belgilash usulini respublikamizning soliq amaliyotida qo‘llash ijobiy natijalar beradi;

3) QQSni undirish va hisoblash usullarini takomillashtirish zarur.

QQSni hisoblashning chegirmalash usulida korxona to‘lanishi lozim bo‘lgan QQS summasini sotib olingan va ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan tovarlar (xizmatlar) qiymatini bu tovarlarni ishlatish yo‘li bilan ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlarning qiymatidan chegirib tashlash va olingan natijani soliq stavkasiga ko‘paytirish yo‘li bilan hisoblaydi. Shunday qilib, soliq bazasini aniqlashda sotilgan tovarlar qiymatidan xomashyo va boshqa oraliq tovarlarning qiymati chegirib tashlanadi.

Haqiqatda QQSni hisoblashning mazkur usuli foydani hisoblash usuliga yaqin, lekin uning murakkabligi shundaki, har doim ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan tovar-moddiy boyliklarning qiymatini noto‘g‘ri aniqlash xavfi saqlanib qoldi.

Mazkur usulning asosiy kamchiligi shundaki, sotib olingan resurslar bo‘yicha to‘langan soliqlar summasi tannarxning tarkibida aks ettiriladi. Buning natijasida «yig‘ilgan soliq» samarasi yuzaga keladi, soliqni undirish modeli esa ma’lum darajada kumulativ xarakterga ega bo‘lib qoladi.

QQSni hisoblashning voz kechish usuli Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lgan mamlakatlarda keng qo‘llaniladi. Bunda QQSning summasi tovarlar va xizmatlarni sotib olish jarayonida to‘langan soliq summasini sotilgan tovarlar bo‘yicha hisoblangan soliq summasidan ayirib, olingan natijani soliq stavkasiga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi.

Mazkur usulning muhim xususiyati shundaki, QQSning summasi har bir tovar turi bo‘yicha ishlab chiqarishning so‘nggi bosqichidagi soliq stavkasiga bog‘liq bo‘ladi. Shunday qilib, agar oldingi bosqichlarda soliq stavkasi past bo‘lgan bo‘lsa yoki soliqdan ozod qilingan bo‘lsa, bu yengillik ishlab chiqarishning so‘nggi bosqichida olingan soliq summasi hisobidan qoplanib ketadi.

Demak, chegirmalash usulida voz kechish usuliga xos bo‘lgan mazkur kamchilik mavjud emas. Buning ahamiyatga molik jihati shundaki, QQS bo‘yicha beriladigan imtiyozlarning asosiy qismi

tovarlarni ishlab chiqarish bosqichiga tegishlidir. Bu esa, ko‘plab imtiyozlar ta’sirchanligining pasayishiga olib keladi, chunki xo‘jalik subyektlari QQS bo‘yicha muomala bosqichida imtiyozga ega bo‘lmaganligi sababli imtiyozga ega bo‘lgan ishlab chiqaruvchilar bilan oldi-sotdi munosabatlarini amalga oshirishdan manfaatdor bo‘lmaydi.

Shunday qilib, voz kechish usulida QQS bo‘yicha imtiyozlar berish faqat bittagina holatda, ya’ni imtiyozga ega bo‘lgan korxonaning o‘zi tovarlarni bevosita iste’molchiga sotsa yoki tovarlar QQS to‘lashdan ozod qilingan chakana savdo korxonalari orqali sotilsagina samara beradi.

Agar QQS bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lgan korxona so‘nggi iste’molchi o‘rtasida imtiyozga ega bo‘lmagan oraliq bo‘g‘in mavjud bo‘lsa, u holda QQS bo‘yicha berilgan imtiyoz o‘zining samaradorligini yo‘qotadi.

8-bob
DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINING BOSHQA MANBALARI

8.1. DAVLAT BUDJETI SOLIQSIZ DAROMADLARINING ZARURLIGI, MOHIYATI VA TURKUMLANISHI

Davlat budjetining soliqsiz daromadlari tarkibiga davlatga tegishli mulklarni sotishdan va xususiylashtirishdan kelgan daromadlar, tashqi iqtisodiy faoliyatdan kelgan daromadlar, xorijiy davlatlardan olingan moliyaviy yordamlar va davlatning maxsus maqsadli budjet fondlari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq davlat budjetining soliqsiz daromadlariga yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga va chet davlatlarga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to‘lovlar va davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar kiritilgan.

Demak, «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunda soliqsiz daromadlarning yoki soliqdan tashqari to‘lovlarning uch asosiy turi e’tirof etilgan.

Rossiya Federatsiyasida yuqorida qayd etilgan uchta asosiy daromad turidan tashqari, Federal yo‘l fondining mablag‘lari, markazlashgan ijtimoiy rivojlantirish fondining mablag‘lari ham budjetning soliqsiz daromadlari tarkibiga kiritilgan.

Bizning fikrimizga ko‘ra, davlatning maxsus maqsadli fondlarining pul mablag‘larini soliqsiz daromadlar tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq emas. Buning sababi shundaki, birinchidan, mazkur fondlarga qilingan ajratmalar ijtimoiy xarakteriga ega bo‘lib, bunda soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasida tovar-pul munosabatlari mavjud emas; ikkinchidan, maqsadli fondlarga qilingan ajratmalar soliqlarga xos bo‘lgan muhim xususiyatga, ya’ni to‘lovni amalga oshirishda subyektlar mulk shaklining o‘zgarishi xususiyatiga egadir.

Soliqqa kirmaydigan, ya’ni soliqsiz daromadlarning ko‘pchiligi doimiy, qat’iy belgilangan stavkada undiriladigan xazina (budjet)

daromadlari ko‘rinishiga ega bo‘lmaydi. Budjetning soliqsiz daromadlari qat’iy rejalashtirilmasligi kerak, lekin, amaliyotda ko‘p hollarda ular, odatda ilgarigi yildagi tushumlar darajasida rejalashtiriladi. Soliqsiz daromadlar soliq daromadlari kabi O‘zbekiston Respublikasining vakillik organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar uchun joriy qilinadi. Soliqsiz daromadlar ham majburiy, ham ixtiyoriy shakllarda bo‘lishi mumkin.

Soliqsiz daromadlar ro‘yxati hamma darajadagi budjetlar uchun yagona bo‘lib, budjet tasnifi bilan belgilanadi va o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo‘lgan mulkdan yoki xo‘jalik faoliyatidan olingan daromadlar, shu jumladan:

- davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligidagi mulkni foydalanishga berishdan olingan daromadlar;
- davlatga tegishli aksiyalar bo‘yicha dividendlar;
- davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo‘lgan mulkni ijaraga berishdan, shu jumladan qishloq xo‘jaligi va noqishloq xo‘jaligi maqsadlaridagi yerlar uchun ijara to‘lovidan olingan daromadlar;
- vaqtinchalik bo‘sh turgan budjet mablag‘larini bank va kredit tashkilotlariga joylashtirishdan olingan daromadlar;
- xizmat ko‘rsatish va davlat xarajatlarini qoplashdan olingan daromadlar;
- davlat va mahalliy tashkilotlardan to‘lovlar;
- davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo‘lgan mulkdan yoki xo‘jalik faoliyatidan olinadigan boshqa tushumlar.

2. Davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo‘lgan mulkni sotishdan olingan daromadlar, shu jumladan:

- davlat mulki bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishdan olingan tushumlar;
- kvartiralarni sotishdan tushumlar;
- davlat ishlab chiqarish va noishlabchiqarish fondlarini, transport vositalari va boshqa uskuna-jihozlarni sotishdan olingan daromadlar;
- musodara qilinib, davlat va mahalliy hokimiyat egaligiga o‘tgan egasiz mol-mulkni sotishdan olingan daromadlar.

3. Davlat zaxiralarini sotishdan olingan daromadlar.

4. Yer va nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan daromadlar.

5. Davlatga qarashli bo‘lmagan manbalardan kapital transfertlar tizimlari.

6. Jarima-jazolarni qo‘llash, yetkazilgan zararni qoplash, shu jumladan:

- standartlar va texnik shartlardan chetlashgan holda tayyorlangan mahsulotni ishlab chiqarganlik va sotganlik uchun tushumlar summasi;
- narxlarni qo‘llash tartibini buzganlik uchun jazolar;
- jinoyatlar qilish va moddiy boyliklar kamomadida aybdor bo‘lgan shaxslardan undiriladigan summalar.

7. Tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan daromadlar, shu jumladan:

- davlat kreditlari bo‘yicha foizlar;
- davlat zaxiralarini sotishdan olingan daromadlar;
- markazlashtirilgan eksportdan tushumlar summasi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan boshqa tushumlar.

8. Boshqa turli soliqsiz tushumlar.

Budjetning soliqsiz daromadlari hududiy belgiga ko‘ra (muayyan darajadagi budjetga kiritish), jalb qilish va shakllantirish usuliga ko‘ra (majburiy yoki ixtiyoriy) va soliqsiz tushumlarini shakllantiradigan to‘lovlarni undirishning konkret asoslariga ko‘ra (davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar) tasniflanadi.

Soliqlar va soliqdan tashqari to‘lovlar ko‘pgina o‘xshash tomonlari bilan birga qator farqlarga ham ega.

Pul mablag‘larining muayyan qismi davlat xazinasiga soliqdan tashqari to‘lovlar tarzida kelib tushadi. Ular ham soliqlar va boshqa yig‘imlar singari davlat oliy hokimiyat idorasi tomonidan belgilanadi.

Shu bilan birga soliqlar va soliqsiz to‘lovlar o‘rtasida muayyan farqlar mavjud. Jumladan, bu farqlarni quyidagilardan iborat deb belgilash mumkin:

- soliqsiz to‘lovlar soliqlardan farq qilib, ikki tomonlama huquq va burchlar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Masalan, faoliyatning muayyan turi bilan shug‘ullanish huquqini beradigan litsenziyalarni olish maqsadida belgilangan to‘lovlarning amalga oshirilishi boshqa shartlar bajarilgani taqdirda vakolatli ruxsatnomani berishi lozim bo‘ladi;
- soliqlardan farq qilib, soliqsiz to‘lovlar ko‘pchilik hollarda majburiy ravishda to‘lanmaydi. Soliq esa uni to‘lash obyekti mavjud bo‘lganida to‘lanadi;
- soliqlardan farq qilib, soliqsiz to‘lovlar muayyan maqsadga mo‘ljallanadi hamda ana shu maqsadda undan foydalanish lozim.

Soliqsiz to‘lovlar respublika budjeti va mahalliy budjetlar daromadlarida jamlanadi. Ushbu mahalliy soliq va yig‘imlarning to‘lov-

chilar doirasi, soliq solish obyektlari, soliq va yig‘imlar yuzasidan yengillik va imtiyozlar, soliq va yig‘imni hisoblab chiqish va to‘lash tartiblari mahalliy hokimiyat idoralarining bevosita o‘zlari tomonidan belgilanadi.

Soliqsiz to‘lovlar hududiy belgisiga ko‘ra: umumdavlat miqyosidagi va mahalliy to‘lovlarga; shakllanish usuliga ko‘ra: majburiy va ixtiyoriy; jamlanish usuliga ko‘ra: davlat budjetida yoki budjetdan tashqari jamlanadigan turlarga bo‘linadi.

Soliqsiz to‘lovlar olinish asoslariga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

- tabiat resurslaridan foydalanganlik uchun to‘lovlar. Bu to‘lovlarning tabiat obyektlaridan tejab-tergab, samarali foydalanishda ahamiyati kattadir;
- davlat idoralari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan turli xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan to‘lovlar.

Ular jumlasiga:

- tashqi iqtisodiy va boshqa faoliyat tufayli bojxona idoralariga to‘lanadigan to‘lovlar;
- sud va boshqa huquq-tartibot idoralariga murojaat qilinganda to‘lanadigan davlat boji;
- davlat ro‘yxatidan o‘tkazish paytida, litsenziya (ruxsatnoma) olish paytida, tovarlar uchun sertifikatlar olish paytidagi to‘lovlar;
- bozorlar, yarmarkalar va boshqa savdo tarmoqlaridan foydalanganlik uchun olinadigan patta to‘lovlari (O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 9-dekabrdagi «Patta to‘lovlari to‘g‘risida»gi qonuni asosida);
- qimmatli qog‘ozlar chiqarish va joylashtirish, lotereya o‘yinlarini o‘tkazish uchun to‘lovlar;
- davlat mulkini xususiylashtirishdan kelib tushuvchi daromadlar;
- jarima tarzidagi to‘lovlar (jarimalar, penalar va boshqalar).

Shunday qilib, davlat budjetining soliqsiz daromadlari tarkibiga davlatga tegishli bo‘lgan mulklarni sotish va xususiylashtirish natijasida olingan daromadlarini, davlatning tashqi-iqtisodiy faoliyatidan olingan daromadlarni va xorijiy davlatlardan qaytarib bermaslik sharti bilan olinadigan pul mablag‘larini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, soliqsiz daromadlarning zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Davlatga tegishli mulklardan foydalanish samaradorligining pasayishi natijasida davlat sektoriga tegishli korxonalarning moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida ularni xususiylashtirishning zarurligi.

Davlat sektoriga mansub bo‘lgan korxonalarning faoliyati ko‘pchilik hollarda xususiy sektor korxonalariga nisbatan samarasiz bo‘ladi. Shvetsiya, Fransiya va Buyuk Britaniya davlatlarining amaliyotida bunday holatlar bir necha marotaba kuzatilgan. Masalan, XX asrning 70-yillari oxirida Buyuk Britaniyada davlat sektoriga mansub bo‘lgan korxonalarning sezilarli qismi moliyaviy yilni zarar bilan yakunladi. 1983-yilda eng yirik davlat korxonalaridan biri «British telekom» xususiylashtirildi. Uning aksiyalarining bozor bahosi 3,9 mlrd funt sterlingni tashkil etar edi.

XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmida Fransiyada davlat mulkini xususiylashtirish natijasida 7,0 mln kishi aksiyadorlarga aylandi. Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a’zo bo‘lgan mamlakatlarda davlat sektorining defitsiti 1993-yilda yalpi milliy mahsulotning 4,5 foizini tashkil qildi.

Davlat korxonalarini xususiylashtirish ular faoliyatining moliyaviy barqarorligini oshirishga, iste’mol bozorini tovarlar bilan to‘ldirilishini ta’minlashga, ishsizlik muammosini hal qilishga hamda o‘rta va uzoq muddatli davriy oraliqlarda soliq tushumlarini ko‘paytirishga sezilarli darajada hissa qo‘shadi.

2. Davlat budjeti daromadlarining miqdorini oshirish zaruriyatining yuzaga kelishi.

Davlat budjeti xarajatlarining sezilarli darajada o‘sishi, davlatning iqtisodiy xarajatlarini oshirish zaruriyatini paydo bo‘lishi hukumatga soliqsiz daromadlarni oshirish tadbirlarini ishlab chiqarish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ana shu maqsadda davlatlarga tegishli mulklarni sotish, davlatlar tegishli xorijiy valutalar va nodir metallarni xorijiy moliya bozorlarida joylashtirish yo‘li bilan daromadlar olish va xorijiy tashkilotlarning moliyaviy yordamlarini jalb qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Masalan: O‘zbekiston Respublikasida hukumatga tegishli oltin — valuta zaxiralarining ma’lum qismi xalqaro moliya bozorlarida muddatli depozit shaklida joylashtiriladi va undan foiz ko‘rinishida daromad olinadi. Bundan tashqari, soliqsiz daromadlardan davlat budjeti defitsitini kamaytirish maqsadida ham faol tarzda foydalaniladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-dekabridagi

567-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2004-yilgi davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq 2004-yilda davlat budjeti defitsitini faqat qadrsizlanmaydigan (noinflatsion) manbalar, shu jumladan davlat mulkini xususiylashtirishdan olinadigan tushumlar hisobidan moliyalashtirishni ta’minlash ko‘zda tutilgan.

Rivojlangan xorijiy davlatlar ichida Yaponiya soliqsiz daromadlarning davlat budjeti daromadlarining hajmidagi salmog‘ining yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Bu ko‘rsatkich Yaponiyada 15 foizni tashkil etadi. Yaponiya mahalliy budjetlari daromadlarining 25 foizgacha bo‘lgan qismi soliqsiz daromadlardan tashkil topadi. Yaponiya budjet qonunchiligiga muvofiq soliqsiz daromadlar tarkibiga quyidagi daromadlar kiritiladi:

- ijara to‘lovlari;
- davlatga tegishli yer maydonlari va boshqa qo‘zg‘almas mulklarni sotishdan olingan daromadlar;
- jarimalar;
- obligatsiyalarni sotishdan olingan tushumlar;
- yutuqli lotereyalarni sotishdan olingan tushumlar;
- o‘tgan yillarda ishlatilmay qolgan budjet mablag‘lari.

Davlat budjetining soliqsiz daromadlari daromad manbalari sifatida nobarqaror va doimiy xususiyatga ega bo‘lgan daromadlar hisoblanadi. Buning sababi shundaki, *birinchidan*, davlat mulkini xususiylashtirish jarayoni mohiyatiga ko‘ra nobarqaror jarayon bo‘lib, xususiylashtirishdan olinadigan daromadlarni nobarqaror bo‘lishiga olib keladi; *ikkinchidan*, davlatga tegishli oltin — valuta zaxiralarini bozor stavkalarida joylashtirish natijasida olinadigan daromadlar joylashtiriladigan moliyaviy aktivlarning miqdoriga va bozor stavkalarining o‘zgarishga bog‘liq bo‘lganligi sababli ulardan olinadigan daromadlarning summasi doimiy ravishda tebranib turadi; *uchinchidan*, xorijiy tashkilotlardan va davlatlardan olinadigan moliyaviy yordamlarning miqdori ularni beruvchilar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Bu esa ularning miqdorini oldindan belgilash imkonini bermaydi.

Xulosa qilib aytganda, soliqsiz daromadlar fiskallik va iqtisodiy funksiyalarni bajaradi. Ular daromad manbayi sifatida nobarqaror bo‘lib, davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmiga nisbatan kichik salmoqni egallaydi.

Endi biz O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining tarkibida soliqsiz daromadlarning tutgan o‘rniga baho berish maqsadida 1-jadval ma’lumotlaridan foydalanamiz.

1-jadval

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINING TARKIBIDA SOLIQSIZ DAROMADLARNING ULUSHI (foizda)

Ko‘rsatkichlar	1999	2000	2001	2002	2003	2003-yilda 1999-yilga nisbatan o‘zgarishi, punktda
Davlat budjeti daromadlari — jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X
Shu jumladan: — soliqsiz daromadlarning jami budjet daromadlari hajmidagi salmog‘i	12,6	17,0	8,8	8,6	4,6	8,0

Keltirilgan jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, soliqsiz daromadlarning davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘ining tahlil qilingan davr mobaynida nobarqarorligi kuzatilgan. Bu esa, soliqsiz daromadlarning mohiyatiga ko‘ra nobarqaror daromad manbayi ekanligi bilan izohlanadi.

1999—2003-yillar mobaynida mazkur ko‘rsatkichning nobarqarorligi kuzatilgan holda uning 1999-yilga nisbatan 8,0 punktga pasayishi yuz bergan. Bu esa, soliqsiz daromadlarning soliqli daromadlarga nisbatan davlat budjeti daromadlarining tarkibidagi o‘rni va ahamiyatining pasayib borayotganligidan dalolat beradi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar budjet amaliyotida ham soliqsiz daromadlarning ahamiyati juda past. Masalan, AQSHda soliqsiz daromadlarning Federal budjet daromadlari hajmidagi salmog‘i 4 foizdan oshmaydi.

8.2. SOLIQSIZ DAROMADLARNING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI HAJMIDAGI O‘RNI VA DINAMIKASI

Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat budjeti soliqsiz daromadlarining sezilarli qismi xorijiy mamlakatlardan olingan moliyaviy yordamlardan iborat ekanligi ushbu mamlakatlarda davlat budjeti

daromadlarini shakllantirishda sezilarli muammolarning mavjudligi bilan izohlanadi.

Xorijiy moliyaviy yordamlarning asosiy qismi xalqaro-moliyaviy-kredit tashkilotlari tomonidan beriladi. Bunda asosiy o‘rinlarni Xalqaro valuta fondi (XVF) va Jahon tiklanish va taraqqiyot banki (JTTB) egallaydi. XVF rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam berishda asosiy e’tiborini mamlakatning to‘lov balansining holatiga qaratadi. XVF tomonidan ajratiladigan moliyaviy yordamlar to‘lov balansi doimiy ravishda defitsitga ega bo‘lgan mamlakatlarga birinchi navbatda beriladi. JTTB esa, rivojlanayotgan davlatlarga moliyaviy yordam berishda asosiy e’tiborini mamlakat aholisining qashshoqlik darajasiga qaratadi. Hozirgi kunda Afrikaning Saxara davlatidan janubdagi mamlakatlar sayyoramizning eng qashshoq mamlakatlari hisoblanadi. Bu yerda mehnatga yaroqli aholining bir kunlik ish haqi 1 AQSH dollaridan pastdir. Shu sababli mazkur mamlakatlar bankning moliyaviy yordamlarini birinchi navbatda oladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki paytlardan boshlab, xorijdan mablag‘lar jalb qilish masalasiga alohida e’tibor berdi.

2003-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra xorijiy mamlakatlardan va xalqaro moliya-kredit tashkilotlardan jalb qilingan mablag‘larning umumiy summasi 1580,9 mln AQSH dollarini tashkil qildi. Shuning 93,6 foizi kredit majburiyatlarining hissasiga to‘g‘ri keladi. Jalb qilingan mablag‘larning qolgan qismi turli shakllarda olingan moliyaviy yordamlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, moliyaviy yordamlarning miqdori nisbatan kichik bo‘lib, ular davlat budjeti daromadlari nuqtayi nazaridan sezilarli darajadagi amaliy ahamiyatga ega emas.

Soliqsiz daromadlar tarkibidagi asosiy daromad turlaridan biri — davlatga tegishli bo‘lgan mulklarni sotish va xususiylashtirishdan keladigan daromadlar hisoblanadi.

Rivojlanayotgan davlatlarda, shu jumladan, MDHga a’zo mamlakatlarda davlat mulkini xususiylashtirishdan va sotishdan olingan daromad soliqsiz daromadlar tarkibida sezilarli salmoqni egallaydi. Buning asosiy sababi shundaki, mazkur davlatlar uchun sobiq SSSR iqtisodiyotidan meros bo‘lib qolgan davlat mulkining ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyot qoldi. Shu sababli mazkur mamlakatlarda

ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish zaruriyati davlat mulkini xususiylashtirishni dolzarb masalasiga aylantirdi. Xususan, Rossiya Federatsiyasida 2001-yilda davlat mulkini xususiylashtirish va sotishdan olingan budjet daromadlarining umumiy summasi 17081,4 mln rublni tashkil qildi. Bu summaga munitsi pial mulkchilik tasarrufida bo‘lgan davlat mulkini sotish summasini qo‘shsak, u holda davlat mulkidan olgan budjet daromadlarining umumiy summasi 37081,4 mln rublni tashkil qiladi. Bu summani budjet daromadlari nuqtayi nazaridan baholash uchun uning soliqsiz daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘ini o‘rganish kifoya qiladi. Agar 1996-yilda davlat mulkini sotish va xususiylashtirishdan olingan budjet daromadlarining soliqsiz daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i 14,0 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2001-yilda bu ko‘rsatkich 50,5 foizni tashkil qildi. 2002-yilga kelib esa, mazkur ko‘rsatkich 38,7 foizni tashkil qildi.

Keltirilgan ma’lumotlarning tahlilidan ko‘rinadiki, *birinchidan*, davlat mulkini sotish va xususiylashtirishdan olingan daromadlar Rossiya Federatsiyasi davlat budjetining soliqsiz daromadlari tarkibida asosiy o‘rinni egallaydi; *ikkinchidan*, soliqsiz daromadlarga xos bo‘lgan nobarqarorlik ushbu daromad turiga ham xos ekanligi yaqqol kuzatiladi.

Davlatga tegishli mulklarni sotishda va davlat korxonalarini xususiylashtirishda ushbu korxonalarning davlatga tegishli bo‘lgan oddiy aksiyalarini sotish muhim o‘rin egallaydi. Aksiyalarni sotishda ularning bozor bahosi muhim o‘rin egallaydi. Agar oddiy aksiyalarning bozor bahosi yuqori bo‘lsa, u holda aksiyalarni sotishdan olingan budjet daromadlarining miqdori nisbatan katta bo‘ladi. O‘z navbatida, oddiy aksiyalarning bozor bahosi emitentning sof foydasining miqdoriga bog‘liq sof foydaning miqdori qanchalik katta bo‘lsa, ularga to‘lanadigan dividendning miqdori ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

2003—2004-yillarda davlat mulkini xususiylashtirish dasturiga muvofiq, mazkur davr mobaynida respublikamizda ustav kapitalida davlatning ulushi 25 foizdan 51 foizgacha bo‘lgan 673 ta korxonadagi davlatning ulushi birja va birjadan tashqari bozorlarda sotilishi lozim. Bu korxonalarning ichida iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lgan bir qator yirik korxonalar — «Agama» sanoat korxonasi, «Jizzaxplastmass» HJ, «Elektrokimyozavodi», «O‘zbekselmash» HJ, «Toshqishloqmash» HJ kabi korxonalar mavjud. Ularning ustav kapitalidagi davlatga

tegishli aksiyalarning sotilishi davlat budjetining soliqsiz daromadlari hajmining oshishiga olib keladi.

2003—2004-yillarda davlat mulkini xususiylashtirish dasturiga muvofiq, ustav kapitalida davlatning ulushi 51 foiz va undan yuqori bo‘lgan 644 ta korxonaning ustav kapitalida davlatning ulushini qisqartirish ko‘zda tutilgan. Shunisi xarakterliki, ko‘pchilik korxonalarning ustav kapitalidagi davlatning ulushining 40 foizdan ortiq qismini sotish ko‘zda tutilgan. Masalan, «Navoimontajavtomatika» DAKning ustav kapitalidagi davlat ulushining 49,0 foizini, «Andijon bioxim zavodi» HJning ustav kapitalidagi davlat ulushining 45,0 foizini, «O‘zkimyosanoat» DAKning ustav kapitalidagi davlat ulushining 49,0 foizini, «Olmaliq tog‘-metallurgiya kombinati» HJning ustav kapitalidagi davlat ulushining 46,5 foizini sotish mo‘ljallangan. Mazkur korxonalarning ustav kapitalidagi davlat ulushining muvaffaqiyatli tarzda sotilishi O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining soliqsiz daromadlari hajmini sezilarli darajada o‘sishiga olib keladi.

Davlat mulki bilan bog‘liq daromadlarning ikkinchi turi davlatga tegishli bo‘lgan mulklarni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar hisoblanadi. Ijara to‘lovlari shaklidagi mazkur daromadning miqdori ijaraga beriladigan mulklarning umumiy maydoniga va ijara stavkalariga bog‘liqdir. Rossiya Federatsiyasida 2001-yilning 1-iyun holatiga Federal budjetga hisoblangan ijara to‘lovlarining atigi 318,0 ming rubli Federal budjetga kelib tushdi. Holbuki, mazkur daromad turi bo‘yicha Federal budjetga kamida 5300 mln rubl kelib tushishi lozim. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, *birinchidan*, juda katta umumiy maydonga ega bo‘lgan davlat mulklari bo‘yicha (82,7 kv metr) yangi ijara shartnomalari tuzilmagan; *ikkinchidan*, to‘lov intizomining yaxshi emasligi sababli 794,9 mln rubl miqdoridagi ijara to‘lovlari bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud; *uchinchidan*, ijara stavkalari va umuman ijara to‘lovlari bo‘yicha asossiz imtiyozlar mavjud.

Davlat mulki bilan bog‘liq budjet daromadlarining uchinchi turi davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar hisoblanadi. Davlat mulkini sotishda kompaniyaning kapitalizatsiya darajasi muhim o‘rin tutadi. Kapitalizatsiya darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, davlat mulkini bir qator sotishdan olingan daromadlar miqdori shunchalik katta bo‘ladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasining davlat korxonalarida 1998—2000-yillarda kapitalizatsiya darajasining keskin

pasayishi kuzatilgan. Xususan, «Slavneft» korxonasida 2000-yilda kapitalizatsiya darajasi mavjud 1188,5 mln AQSH dollaridan 855,7 mln AQSH dollariga tushib qolgan. Ya'ni, korxonaning kapitalizatsiya darajasi 332,9 mln AQSH dollariga pasaygan. Bu esa, korxonaning bozor bahosini 2000-yilda 28 foizga pasayishiga olib keldi. Rossiya Federatsiyasi hisob palatasi tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, «Slavneft» rahbariyatining sho'ba korxonalar orqali aktivlarni boshqa kompaniyalarga o'tkazib yuborish natijasida korxonaning kapitalizatsiya darajasi keskin pasayib ketgan. «Slavneft» korxonasining boshqa kompaniyalarning balansiga o'tkazib yuborilgan sof aktivlarining miqdori 8400,0 mln rublni tashkil qildi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR TOMONIDAN TO'LANADIGAN SOLIQ YUKI VA UNING 1995—2006-YILLARDAGI SOLISHTIRMA NISBIY DINAMIKASI
(foiz hisobida)

1-diagramma



Davlat mulki bilan bog'liq daromadlarning to'rtinchi turi davlatning davlat korxonalarining ustav kapitaliga qo'ygan investitsiyalaridan oladigan daromadlari hisoblanadi. Davlat korxonalarining moliyaviy holati qanchalik barqaror bo'lsa, ular tomonidan oddiy aksiyalarga to'lanadigan dividendlarning darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Rossiya hukumatiga yirik miqdorda dividendlar to'lovchi

korxonalar, RAO «Gazprom», NKA «Lukoyl», NKA «Rostneft», NKA «Slavneft», AKA «Transneft», AKA «Transnefteprodukt», RAO «AES Rossii», OAO «Texskabeksport», AK «Alrosa» va OAS «TVEL» kompaniyalari hisoblanadi. Ular 1999-yilda davlat tomonidan olingan jami dividendlarning 71,0 foizini to‘lagan bo‘lsa, 2000-yilga kelib bu ko‘rsatkich 87,0 foizni tashkil qildi[1].

Mazkur kompaniyalarning moliyaviy holatining barqarorligi ularning sof foydasi miqdorining katta bo‘lishiga olib keldi. Natijada davlatga tegishli bo‘lgan aksiyalarga to‘g‘ri keladigan sof foyda miqdorining minimal summasi 96900 mln rublni tashkil qildi.

Endi biz O‘zbekiston Respublikasi amaliyotida davlat mulkini sotish va xususiylashtirish bilan bog‘liq daromadlarning amaldagi holatini tahlil qilamiz.

2-jadval

DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISHDAN OLINGAN DAROMADLARNING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETINING SOLIQSIZ DAROMADLARI TARKIBIDAGI SALMOG‘INING O‘ZGARISHI

Ko‘rsatkichlar	Yillar					2003-yilda 1999-yilga nisbatan o‘zgarishi, punktda
	1999	2000	2001	2002	2003	
1. Davlat budjetining soliqsiz daromadlari — jami (mlrd so‘m)	78,4	155,1	110,8	0,2	108,4	−30,0
2. Xususiylashtirishdan olingan daromadlar (mlrd so‘m)	7,2	—	5,9	8,6	12,0	−5,2
3. Xususiylashtirishdan olingan budjet daromadlarining soliqsiz daromadlarning umu¬miy hajmidagi salmog‘i (%)	9,2	X	5,3	5,3	11,1	−1,9

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2000-yilni hisobga olmaganda, tahlil qilingan davr mobaynida davlat mulkini xususiylashtirishdan olingan daromadlarning miqdori o‘sish tendensiyasiga ega

[1] *A. Jo‘rayev.* «Davlat budjet daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari».

bo‘lgan. Bu esa davlat mulkini xususiylashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2003-yilda xususiylashtirishdan olingan daromadlarning davlat budjeti soliqsiz daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i o‘tgan yillardagiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Buning asosiy sababi shundaki, Prezident I. Karimov 2003-yil 17-fevral kuni Vazirlar Mahkamasida bo‘lib o‘tgan va 2002-yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2003-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisda davlat mulkini xususiylashtirish jarayonini qattiq tanqid qilgan edi. Xususan, davlatga tegishli aksiyalarning joylashtirilmasdan qolib ketayotganligi, aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan korxonalarni boshqarishda aksiyadorlarning rolini past ekanligi kabi ko‘plab muammolarning mavjudligi Prezident tomonidan e’tirof etilgan edi. Shu boisdan ham, 2003-yilda xususiylashtirish jarayonlarining sur’atini yanada tezlashtirish, iqtisodiyotda xususiy sektorning rolini oshirish masalalariga katta e’tibor berildi. Bu tadbirlar natijasida xususiylashtirish jarayonining samaradorligi oshdi. Birgina 2003-yilda xususiylashtirish dasturi asosida 2015 ta obyekt va aksiyalar paketi sotildi. Bu esa, 2002-yildagi mazkur ko‘rsatkichga nisbatan 1,6 marta ko‘p demakdir. Davlat mulkini xususiylashtirish negizida 980 dan ziyod xususiy korxona va nodavlat mulki bo‘lgan 400 ta boshqa turdagi korxonalar tashkil etildi, 2003-yilda 2002-yilga nisbatan korxonalarning aktivlari 3,5 barobar ko‘p sotildi. Xususiylashtirishdan tushgan mablag‘larning hajmi 2003-yil mobaynida 1,3 barobar ko‘paydi, mulkni xorijiy investorlarga sotishdan olingan mablag‘larning miqdori esa 3,4 barobar ortdi.

Davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlari 2004-yilda ham izchillik bilan amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 17-apreldagi «2003—2004-yillarda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida»gi 185-sonli qarori bu boradagi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan me’yoriy hujjat hisoblanadi. Buning boisi shundaki, mazkur qarorga muvofiq, *birinchidan*, 2003—2004-yillarda birja va birjadan tashqari bozorlarda to‘liq sotilishi kerak bo‘lgan korxonalar va obyektlarning ro‘yxati belgilab berildi; *ikkinchidan*, ishlab chiqarishni texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish uchun xorijiy investorlarning investitsiya majburiyatlari hisobiga O‘zbekiston

Respublikasi hududiga keltiriladigan texnologik asbob-uskunalarga ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlar investor tomonidan investitsiya majburiyatlari qabul qilingan vaqtdan boshlab investitsiya davrida bojxona to‘lovlaridan ozod qilinadi. Bu esa xorijiy investorlarni xususiylashtirish jarayonida faol ishtirok etishdan manfaatdorligini oshiradi.

Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida ulardagi ishlab-chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish va bir vaqtning o‘zida soliqsiz daromadlar hajmini oshirish borasida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida boy tajriba to‘plangan. XX asrning 80-yillari boshlariga kelib, xususiylashtirish Fransiya, Belgiya, Italiya, Germaniya, Gollandiya, Ispaniya, Shvetsiya va Avstriyada hukumat iqtisodiy siyosatining asosiga aylandi. Buning asosiy sababi, mana shu davrda davlat korxonalarining moliyaviy holatini keskin yomonlashgani bo‘ldi.

1983-yilda Fransiya iqtisodiyotining davlat sektorida 3 mingga yaqin korxonalar mavjud edi. Fransiyada davlat sektorining hissasiga investitsiyalarning 49 foizi, eksportning 30 foizi, qo‘shilgan qiymatning 28 foizi, mamlakat iqtisodiyotida band aholining 23 foizi to‘g‘ri kelar edi. Butun metallurgiya, aluminiy ishlab chiqarish, elektronika sanoati, kimyo, oyna ishlab chiqarish, informatika, farmatsevtika sanoati davlatning qattiq nazorati ostida edi. Davlat korxonalari moliyaviy ahvolining yomonlashuvi shuning uchun ham Fransiya iqtisodiyotining yomonlashuviga sabab bo‘ldi.

Fransiya xususiylashtirishni amalga oshirishda Buyuk Britaniya va AQSHning tajribasidan keng foydalandi. Bunda «kam soliqlar, kam kafolatlar, kam davlat ishtiroki» shioridan foydalanildi, xususiylashtirish dasturiga muvofiq, Fransiyada 65 ta davlat korxonasini sotish ko‘zda tutildi. Ularning 42 tasi bank-kredit sohasidagi, 13 tasi sug‘urta sohasidagi, 9 tasi sanoat sohasidagi korxonalar edi.

1986—1988-yillar mobaynida mamlakatda 15 ta yirik kompaniya, shu jumladan, «Pariba» va «Suek» kompaniyalari xususiylashtirildi. 15 ta xususiylashtirilgan kompaniyalardan 14 tasi 1082 ta korxonani nazorat qilar edi. Natijada 15 ta kompaniyani xususiylashtirish natijasida 125 mlrd frank miqdoridagi daromad olindi. Bu esa, Buyuk Britaniyada 1979—1985-yillar mobaynida amalga oshirilgan xususiylashtirish natijasida olingan daromadlardan 1,5 marta ko‘pdir.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan xususiylashtirish jarayonlari biz uchun ko‘proq amaliy ahamiyat kasb etadi,

chunki, bu mamlakatlarda 1990-yilga qadar sotsialistik tuzum hukmron edi.

Sharqiy Yevropa davlatlarida 1990-yillardan boshlab bozor munosabatlariga o‘tish maqsadida iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi dastlab, davlat korxonalarini xususiylashtirishni qamrab oldi. Professor T.A.Yesirkenovning tadqiqotlariga ko‘ra, Bolgariya, Polsha va Ruminiyada davlat mulkining 50 foizini, Chexiya va Slovakiyada 70 foizini, Vengriyada 50 foizini xususiylashtirish rejalashtirilgan edi.

1995—1997-yillarda Vengriyada 1997-yilga qadar rejalashtirilgan xususiylashtirish hajmining 60 foizi amalga oshirildi. Mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari — elektroenergetika, telekommunikatsiya, banklar, kimyo sanoati xususiylashtirildi. Boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, Vengriyada davlat korxonalarini xususiylashtirishda xorijiy kapital faol ishtirok etdi. Shuning uchun xususiylashtirishdan olingan daromadlarning 2/3 qismi xorijiy valutalarda olingan daromadlardan iborat bo‘ldi. Bu esa, Vengriyaning tashqi qarzini kamaytirishda muhim rol o‘ynadi[1].

1997-yilning oxiriga kelib, Vengriya iqtisodiyotining xususiy sektorida Yalpi ichki mahsulotning 80 foizga yaqin qismi ishlab chiqarildi. Lekin xorijiy kapitalning iqtisodiyotdagi yuqori mavqeyi saqlanib qoldi: bu ko‘rsatkich sanoatda 75 foizni, energetika majmuyida 60 foizni, bank sektorida esa 60 foizdan ortiqni tashkil qildi.

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, sobiq sotsialistik mamlakatlarda davlat korxonalari monopol mavqega ega edilar. Chexoslovakiyada har bir korxona monopolist hisoblanar edi. Shu sababli yaratilgan qo‘shilgan qiymatning hajmida davlat korxonalarining salmog‘i yuqori edi.

[1] *A. Jo‘rayev.* «Davlat budjet daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari».

XULOSA

O‘zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish, bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda ro‘yobga chiqarish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Bu borada quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- Budjet tizimi — turli darajadagi budjetlar va budjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisini, ularni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, shuningdek, budjet jarayonida ular o‘rtasida paydo bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarni o‘zida ifodalaydi.

Budjet tizimining asosiy prinsiplari — budjet tasnifi tizimi, hisobga olish — budjet hujjatlari va budjet jarayoni tuzilishining yagonaligi, budjet tuzilishining ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi, turli darajadagi budjetlarning o‘zaro bog‘liqligi. Davlat budjeti balansi, davlat daromadlarini aniq manbalar bo‘yicha va xarajatlarini yo‘nalishlar bo‘yicha rejalashtirish, Davlat budjeti xarajatlarini tasdiqlangan budjetdan ajratiladigan mablag‘ doirasida sarflash va barcha darajadagi budjetlarning mustaqilligidan iborat.

Davlat budjeti daromad va xarajatlarning muvozanatligidan iborat moliyaviy reja deb yuritiladi. Ammo dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida Davlat budjetining daromad va xarajatlari teng holda bo‘lishi juda kam uchraydi. Budjet mexanizmlari orqali iqtisodiyotni tartibga solish davlat ixtiyoriga kelib tushadigan pul mablag‘larini manyovrlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan boshqaruv sharoitida asosiy ishlab chiqarish kuchlari xususiylashtirilgan bo‘ladi, bu esa Davlat budjetining iqtisodiy sohaga ta’sirini chegaralaydi. Lekin shunday iqtisodiy tarmoqlar, korxonalar mavjudki, ularni budjet tomonidan moliyalashtirish, pirovardida, mamlakat ijtimoiy rivolanishini ta’minlaydi. Bu korxonalar iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi va ushbu korxonalarsiz iqtisodiyotda

oqsoqlanish yuzaga kelib qolishi mumkin. Davlat ba'zi korxonalarni masalan, og'ir sanoat, qishloq xo'jaligi, transport korxonalari, temir yo'l tizimi, aloqa kabilarni budjetdan moliyalashtiradi.

Budjetdan ta'lim tizimiga, ayniqsa maktab ta'limini rivojlantirishga katta mablag' sarflanmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 29-avgustdagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga izchil o'tishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 473-sonli qaroriga muvofiq 2004—2009-yillarda 82975 o'rinli akademik litseylar qurilishi rejalashtirilgan. Ta'lim muassasalarini darsliklar bilan ta'minlash, o'qitishning texnik vositalari, laboratoriya uskunalari va jihozlari, komputer texnikasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

2009-yili tasdiqlangan «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturida eng muhim ystuvor vazifa — qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirishdan iboratdir. Agrosanoat majmuyida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish maqsadida moliya Vazirligi huzurida yerlar meliorativ holatini yaxshilash fondi tashkil topib, davlat budjeti xarajatlari tarkibiga kiritildi.

Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 28-dekabrdagi 610-sonli qaroriga ko'ra, 2005-yil 1-yanvardan boshlab barcha korxona va tashkilotlar maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalar (ko'rsatilgan ish va xizmatlarning 1 foizi miqdorida) 2004—2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish joriy etildi. 2005-yil 29-iyundagi PF — 620-sonli Farmonga ko'ra 2005-yilning 1-iyulidan boshlab, budetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar o'rniga yagona soliq to'lovi joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi 1024-sonli qaroriga ko'ra, 2009-yilning 1-yanvaridan e'tiboran budjetdan tashqari bir qancha fondlar va maqsadli jamg'armalar g'aznachilik mexanizmi orqali moliyalashtirish tizimiga o'tkazilishi budjet mablag'laridan oqilona va to'g'ri foydalanishni taqozo etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Davlat budjeti davlatning asosiy moliyaviy quroli sifatida umumdavlat xarajatlarini moliyalashtiradi.

Davlat budjeti moliya tizimida davlat moliyasi tarkibiga kiritilib, jamiyat iqtisodiy hayotida uning ahamiyati davlat moliyasining — budjetdan tashqari maxsus fondlar, davlat krediti, davlat korxonalari moliyasiga nisbatan ancha yuqoriligi kuzatiladi. Davlat budjetining oldiga qo‘ygan asosiy vazifalari, uning iqtisodiy va ijtimoiy hayotga aralashuv darajasi hamda mamlakat rivojlanishining u yoki bu bosqichida turganligiga qarab belgilanadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi o‘zining shakllanish bosqichini boshidan kechirdi. Davlat budjeti jamiyatdagi mavjud moliyaviy resurslarni davlat ixtiyorida markazlashtirish va undan iqtisodiyotning turli sohalarini dotatsion moliyalash kabi vazifalardan asta-sekinlik bilan ozod etmoqda.

Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida Davlat budjetining iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda davlatning asosiy moliyaviy quroli sifatida yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, yangi ish o‘rinlarini barpo etish va aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlashdagi roli ortmoqda.

BUDJETGA OID IQTISODIY ATAMALARNING QISQACHA MAZMUNI

Audit — xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini maxsus vakolatli auditor shaxslar (auditorlik firmalari) tomonidan hisobotning to‘g‘riligini va moliyaviy hajmda xo‘jalik operatsiyalari tegishli qonunlar boshqa me’yoriy hujjatlarga mosligini, shuningdek, to‘laligi, haqiqiyligini, buxgalteriya hisobini yuritish yoki boshqa moliyaviy hisobotlarga qo‘yilayotgan talablarga mosligini aniqlash maqsadida mustaqil ekspertiza va tahlil qilish. Audit, shuningdek, konsaltingni — mijoz bilan tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatishni ham o‘z ichiga oladi.

Aksiz solig‘i (fran. acciese; lot. accido — kesmoq, qirqmoq) — ichki bozor konyunkturasini muhofaza qilish va iste’mol darajasini muvofiqlashtirish maqsadida ishlab chiqarilgan yoki import qilinadigan tovarlarning ayrim turlariga, asosan ular narxiga qo‘shilishini hisobga olgan holda belgilanadi.

Aholining pul daromadlari — aholi (ayrim shaxs yoki biror guruh) muayyan davr mobaynida oladigan pul miqdori — real daromadlarning asosiy shakli; ular tarkibiga ish haqi, dehqon (fermer xo‘jaliklari)ning daromadlari, yordamchi tomorqa xo‘jaligidan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish, xizmat ko‘rsatishdan tushadigan daromadlar, nafaqa va stipendiyalar kiradi.

Aholining real daromadlari — jamiyat a’zolari muayyan davr mobaynida haqiqiy mehnat haqlari daromadlariga xarid qilishlari mumkin bo‘lgan moddiy ne’matlar (tovarlar) va xizmatlar miqdori.

Akkreditiv — Xalqaro savdoda hisob-kitob qilish usuli; bunda bank importchining iltimosiga ko‘ra hamda ko‘rsatmalariga muvofiq eksportchiga to‘lov o‘tkazish (naqd hisob-kitob) yoki eksportchi taqdim etgan hujjatni akseptlash (kredit hisob-kitobida) majburiyatni oladi, bu ish muayyan summa va muddatda hamda ko‘zda tutilgan hujjatlarga (odatda konosament, sug‘urta polisi, hisob varaq — faktura va boshqalar) nisbatan amalga oshiriladi.

Aholining to‘lov qobiliyati — aholining real daromadlari evaziga moddiy ne’matlar va xizmatlar xarid qilish imkoniyati.

AQSH soliq tizimi — soliq siyosati, moliya tadbirlari, davlatning tadbirkorlikka ta’sir o‘tkazishi bozor munosabatlari rivojlangan bu mamlakat xo‘jalik mexanizmining asosiy unsurlari hisoblanadi.

Balans — 1. Muvozanat. 2. Ko‘rsatkichlar tizimi. U ishlab chiqarish vositalarining ham tarkib (aktiv), ham ularning manbalari, maqsadga mo‘ljallanishi va qaytarish muddatlari (passiv) bo‘yicha muayyan sanadagi holatning pul bilan ifodalanishidir. Balans yig‘ma va buxgalteriya balanslari tizimiga bo‘linadi.

Bank — alohida iqtisodiy muassasa bo‘lib, u pul mablag‘lari (omonatlar) ni bir yerga jamlaydi, kredit (qarzlar, ssudalar) beradi, pul hisob-kitoblarini amalga oshiradi, pullar (emissiya), qimmatli qog‘ozlar (banknotlar, cheklar va veksellar) chiqaradi, davlatlar, korxonalar (firmalar), muassasalar va alohida shaxslar o‘rtasida o‘zaro to‘lovli hisob-kitob qilish paytida vositachilik qiladi.

Bayon etilgan daromad — jismoniy yoki yuridik shaxsning soliq miqdorini hisoblash uchun soliq organlari maxsus hujjatlarga asosan bayon etgan daromadi.

Bir marta olinadigan yig‘im — bu to‘lov turi bozor, yarmarkalar va maxsus savdo uchun ajratilgan boshqa joylarda savdo-sotiq faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslardan yoki bozor hududiga kiruvchilardan undiriladi.

Boj (arab. o‘lpon, soliq ma’nosida) — qadimdan bir davlat tomonidan ikkinchi bir davlatga to‘lanadigan yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga, viloyatdan viloyatga o‘tish uchun, shuningdek, shahar va qishloq bozorlarida savdogarlardan olingan maxsus to‘lov, o‘lpon vazifasini bajarib kelgan.

Boj to‘lovlari — tovarlar va transport vositalarini davlat chegarasidan o‘tkazishda, shuningdek, qonunda belgilangan boshqa holatlarda olinadigan to‘lovlarning barcha turlari: bojlar, aksiz solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, bojxona yig‘imlari va jismoniy shaxslardan undiriladigan yig‘imlar.

Bojxona deklaratsiyasi — chegaradan olib o‘tiladigan tovarlar (eksport va import tovarlar, yuk-bagaj, qo‘lda olib yuriladigan yuk, valuta, boshqa moddiy-ma’naviy boyliklar), transport vositalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar qonun talablari asosida rasman qayd etilgan, bojxona nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan yozma yoki og‘zaki bayonnoma.

Budjet dotatsiyasi (lot. dotatio — hadya, xayr-ehson) — o‘z

daromadlari va budjetni tartibga soluvchi boshqa mablag‘lar yetishmagan taqdirda quyi budjetning xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari («Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 3-m.si).

Budjetni tartibga solishning ushbu uslubi bir qancha kamchiliklarga ega bo‘lib, bunga budjetlarda nazarda tutilgan tadbirlarni mablag‘ bilan uzluksiz ta‘minlab turish uchun joylarda budjetlardan qo‘shimcha daromadlarni yo‘naltirishda davlat hokimiyati mahalliy organlari manfaatdorligi va moliya organlari javobgarligi pasayishini kiritish mumkin. Bundan tashqari, dotatsiya quyi budjetning ijrosini yuqori budjetga daromadlarning to‘liq va o‘z vaqtida kelib tushishiga qaram qilib qo‘yadi, mana shu daromadlar hisobidan dotatsiya summalari o‘tkaziladi. Shu boisdan, budjetni tartibga solish uslubi sifatida dotatsiya faqat shundagina qo‘llaniladiki, uning hududida yo‘naltiriladigan barcha tartibga soluvchi daromadlar quyi budjetga berilayotganida biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlar umumiy summasi rejalashtirilgan barcha xarajatlarni qoplamagan, ya‘ni budjetni defitsitsiz muvozanatlashtirishning boshqa barcha uslublari tugagan bo‘lsa.

Budjet jarayoni — davlat budjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni («Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 3-m.si).

Bu faoliyat bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va har yili takrorlanib turadi. Budjet jarayoni bosqichlarining davomiyligi budjet loyihasini tayyorlashdan boshlab budjet ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tasdiqlash jarayoniga qadar bo‘lgan muddat uch yilni tashkil etadi. Budjet jarayonining mazmuni mamlakatning davlat va budjet tuzilishi, davlat hokimiyati organlarining budjet huquqlari bilan belgilanadi.

Budjet intizomi — barcha tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiy bo‘lgan budjetga pul o‘tkazish va budjet mablag‘larini sarflashning o‘rnatilgan tartibi.

Budjet intizomini buzish — budjet talablariga rioya etmaslik natijasida budjetda asossiz taqchillik paydo bo‘lishi, talab qilingan vositalar, mablag‘lar bilan muhtoj bo‘lgan muassasa va tashkilotlarning ta‘minlanmasligi. Budjet intizomini buzish davlat

mablag‘larini samarali, to‘liq natija bilan va o‘z o‘rnida ishlatishga imkon bermaydi. Buning natijasida aholining alohida qatlamlari orasida boqimandalik, norozilik muhiti shakllanadi, o‘tkazilayotgan islohotlarni jamiyat idrok qilishiga salbiy ta‘sir qiladi, ularni obro‘sizlantiradi. Budjet intizomini buzish foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni yashirish, kamaytirib ko‘rsatish, shuningdek davlat tomonidan belgilangan soliqlarni, yig‘imlarni, boj yoki boshqa to‘lovlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlashda ifodalanadi.

Budjet intizomini buzish ya‘ni budjet mablag‘larini budjetda yoki budjetdan moliyalanadigan muassasalar va tashkilotlarning smetalarida nazarda tutilmagan xarajatlarga yo‘llash, shunday muassasalar va tashkilotlarda xarajatlar qismi bo‘yicha budjetdan ajratilgan mablag‘larning limitlardan ortib ketishi, shtat-smeta intizomini buzganlik uchun O‘zR MJKning 1752-m.sida, shunday qilmish uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilganlik uchun esa O‘zR JKning 184‘-m.sida javobgarlik o‘rnatilgan.

Budjet muassasasi — tashkiliy-huquqiy shakli muassasa bo‘lgan budjet tashkiloti. Yana q: Budjet tashkiloti; Muassasa.

Budjet profitsiti — muayyan davrda budjet daromadlarining budjet xarajatlaridan ortiq bo‘lgan summasi («Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 3-m.si).

Budjet ssudasi — yuqori budjetdan quyi budjetga yoxud respublika budjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘ («Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 3-m.si).

Budjet suddasi kechiktirib bo‘lmaydigan birinchi navbatdagi tadbirlarni moliyalashtirishni ta‘minlash uchun beriladi. Ular: a) daromadlar tushumlari bilan xarajatlarni amalga oshirish o‘rtasidagi rejali vaqtincha uzilishlarini qoplash uchun; b) daromadlar tushumlari bilan xarajatlarni amalga oshirish o‘rtasidagi amaldagi vaqtinchalik kassa uzilishlarini qoplash uchun; v) QR budjeti va mahalliy budjetlar rejali xarajatlarini maqsadli moliyalashtirish sxemalarini amalga oshirish uchun ajratiladi. Ssudalar joylardagi hokimiyat ijroiya organlari rahbarlarining yozma murojaati bo‘yicha beriladi. Ular QR Vazirlar Kengashi, viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi tomonidan O‘zR Moliya vazirligiga jo‘natiladi, tuman va shahar hokimlari esa yuqori hokimiyat organlariga yuboradi. Budjetga daromadlar kelib tushmagan yoki budjet xarajatlarini oldindan moliyalashtirish zarurati tug‘ilgan

holatlar hamda qabul qilingan choralar tegishli budjet daromadlari va xarajatlari muvozanatini ta‘minlamagan sharoitlar ssuda berilishi uchun murojaatga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Budjet statistikasi — aholi turli ijtimoiy guruhlarining turmush darajasini o‘rganuvchi statistika. Budjet tekshiruvlari natijasida olingan statistik ma‘lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish bilan shug‘ullanadi.

Budjet subvensiyasi (lot. subvenire — yordamga kelmoq; ing. subvention) — qonun xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik shartida ajratiladigan pul mablag‘lari («Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 3-m.si).

Budjet subvensiyasi muayyan bir tadbirni moliyalashtirish uchun ajratiladi va undan maqsadli foydalanish tartibi buzilgan holda qaytarilishi lozim. Bir qancha mamlakatlarda, masalan, AQSH, Italiya, Germaniya, Yaponiyada budjet subvensiyasi mahalliy boshqaruv organlariga markazdan tasdiqlangan, o‘z tashabbusi bo‘yicha amalga oshiriladigan muayyan dasturlar yoki loyihalarni moliyalashtirish uchun beriladi.

Budjet subvensiyasi budjet dotatsiyasidan farqli ravishda qatiy maqsad yo‘lida va belgilangan muddat ichida sarflanishi kerak, aks holda, u budjet subvensiyasi bergan organga qaytarilishi lozim bo‘ladi.

Budjet so‘rovi — budjet tasnifi bo‘yicha tushumlarni shakllantirish va budjetdan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi so‘rov («Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 3-m.si).

«Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 25-m.siga muvofiq, O‘zR Moliya vazirligi har yili O‘zR VM tomonidan belgilangan muddatlarda kelgusi moliya yiliga:

tegishli budjetlar va davlat maqsadli jamg‘armalari loyihalarini tayyorlash uchun — QR Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga, davlat maqsadli jamg‘armalarni taqsimlovchi organlarga;

budjetdan ajratiladigan mablag‘larni olish uchun — respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag‘lari oluvchilarga budjet so‘rovi yuboradi.

QR Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari budjet so‘rovi olinganidan keyin uch kunlik muddat ichida tegishli budjetlar loyihalarini tuzish, ushbu loyihalarni tayyorlash tartibini va muddatlarini belgilash yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

QR Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya organlari ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan qarorlar qabul qilinganidan keyin uch kunlik muddat ichida:

tegishli budjetlar loyihalarini tayyorlashi uchun — tuman va shahar hokimlariga;

QR budjeti va mahalliy budjetlardan budjet mablag‘lari olishga buyurtmalar tuzish uchun — QR budjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet mablag‘lari oluvchilarga budjet so‘rovi yuboradi.

Viloyatga bo‘ysunadigan shaharlarning, QR va viloyatlar tarkibiga kiruvchi tumanlarning hamda shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlarning hokimlari budjet so‘rovi olinganidan keyin uch kunlik muddat ichida tegishli budjetlar loyihalarini tuzish, bu loyihalarni tayyorlash tartibini va muddatlarini belgilash yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Tuman va shahar hokimliklarining moliya organlari ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan qarorlar qabul qilinganidan keyin uch kunlik muddat ichida tumanlar va shaharlarning budjetlaridan budjet mablag‘lari olish uchun asoslangan buyurtmalar tuzish uchun shu tuman va shahar budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet mablag‘larini oluvchilarga budjet so‘rovi yuboradi.

Budjetdan ajratiladigan mablag‘lar olish uchun beriladigan buyurtma shakli va uni tuzish tartibi O‘zR Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Budjet tasnifi — davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlash. Budjet tasnifi Davlat budjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida budjet ma‘lumotlarini tizimga solish uchun foydalaniladi va u budjet ma‘lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma‘lumotlari bilan qiyoslanishini ta‘minlaydi. Budjet tizimi: Davlat budjeti daromadlarining tasnifini; Davlat budjeti xarajatlarining vazifa jihatidan, tashkiliy va iqtisodiy tasnifini; Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifini o‘z ichiga oladi. Davlat budjeti daromadlarining tasnifi qonun hujjatlariga muvofiq ularni turlari va manbalari bo‘yicha guruhlashdan iborat bo‘ladi. Davlat budjeti xarajatlarining vazifa jihatidan tasnifi davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek boshqa budjet tashkilotlari tomonidan ijro etiladigan asosiy vazifalar bo‘yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo‘ladi. Davlat budjeti xarajatlarining tashkiliy tasnifi budjetdan ajratiladigan

mablag‘lar ularni bevosita oluvchilar o‘rtasida taqsimlanishini aks ettiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar va tadbirlar turlari bo‘yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo‘ladi, Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi to‘lovlarning iqtisodiy vazifasi va turlari bo‘yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo‘ladi. Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi taqchillikni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo‘yicha guruhlashdan iborat bo‘ladi. Budjet tasnifi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zR Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi («Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 10-m.si).

Budjet tashkiloti — zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun davlat budjetidan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan va bu mablag‘ moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkiloti. Yana q.: Tashkiloti.

Budjet tashkilotining smetasi — ishlab chiqarish bilan shug‘ullanmaydigan muassasa va tashkilotlarni davlat budjetidan moliyalashtirishda qo‘llaniladigan asosiy rejali hujjatdir.

Budjet tashkilotining smetasi ushbu tashkilotning barcha xarajatlariga yo‘naltiriladigan budjetdan ajratiladigan mablag‘larning hajmi, maqsadli yo‘naltirilishi va kvartallarga taqsimlanishini belgilaydi.

Budjet tashkilotining smetasi asosiy rejali hujjat bo‘lib, tashkilotlar faoliyati hamda xo‘jalik va madaniy qurilish bo‘yicha markazlashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun budjet hisobidan beriladigan mablag‘lar hajmini, maqsadli yo‘nalishi va choraklar bo‘yicha taqsimotini belgilab beradi.

Budjet taqchilligi — muayyan davrda budjet xarajatlarining budjet daromadlaridan ortiq bo‘lgan summasi «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 3-m.si).

Kamomad rejali ravishda belgilanishi ham mumkin. Ko‘pincha budjet taqchilligi rejalashtirilgan budjet bilan ijro etilgan budjetning nomutanosibligi natijasida sodir bo‘ladi va xarajatlarning daromadlardan yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi. Agar yil mobaynida davlat daromadlari ancha qisqargan va Davlat budjetining oldindan belgilangan taqchilligi qonun xujjatlarida belgilangan chegara miqdoridan oshadigan bo‘lsa, O‘zR VM Davlat budjetining xarajatlarini alohida modda bo‘yicha qisqartirish to‘g‘risida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda O‘zR Oliy Majlisiga taklif kiritadi. Turli darajadagi budjetlarning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi

vaqtinchalik tafovutni to‘g‘rilash maqsadida moliya yili mobaynida ularga tegishli budjetlardan budjet ssudalari ajratilishi mumkin. Budjet ssudalarini berishning eng kech muddati va tartibi O‘zR Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi. Turli darajadagi budjetlarning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi vaqtinchalik tafovutni moliya yili mobaynida aylanma kassa mablag‘i me‘yori hisobiga uni moliya yili oxirigacha tasdiqlangan hajmga qadar tiklangan holda, budjet mablag‘larining foydalanilmagan qoldiqlari hisobiga, shuningdek qonun xujjatlarida belgilangan tartibda davlatning qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlarini chiqarish hisobiga qoplash mumkin.

Budjet tizimi — mamlakat hududida amal qiluvchi barcha budjetlar majmui.

Budjet tizimi turli darajadagi budjetlar va budjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisini, budjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, budjet jarayonida ular o‘rtasida, shuningdek budjetlar hamda budjet mablag‘lari oluvchilar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlarni o‘zida ifodalaydi.

Moliya yiliga mo‘ljallangan barcha darajadagi budjetlarni shakllantirish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ularning ijrosi hisobini yuritish O‘zRning milliy valyutasi - so‘mda amalga oshiriladi («Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 4-m. si).

Budjet tizimining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: budjet tasnifi tizimi, hisob-budjet hujjatlari va budjet jarayoni tuzilishining yagonaligi; budjet tuzilishining O‘zR ma‘muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqli; turli darajadagi budjetlarning o‘zaro bog‘liqligi; Davlat budjeti balansliligi; davlat daromadlarini aniq manbalar bo‘yicha va xarajatlarini yo‘nalishlari (moddalari) bo‘yicha rejalashtirish; Davlat budjeti xarajatlarini budjetdan ajratiladigan tasdiqlangan mablag‘lar doirasida va xarajatlar smetalarida ko‘rsatilgan maqsadlarda amalga oshirish; barcha darajadagi budjetlarning mustaqilligi («Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR va Qonunining 5-m.si).

Budjet transferti — budjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag‘lari («Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 3-m.si).

Budjet tuzilishi — budjet tizimining tashkil etilishi, uni tuzish prinsiplari hamda bu tizim ayrim bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa. Davlatning budjet tizimi budjetlarning turlari, ularning har biri yo‘nalishi (budjet tizimi), budjetlar ayrim turlari o‘rtasida daromadlar va xarajatlar taqsimlanishi, ular funksiyalarining prinsiplari, vakolatli va ijroiya hokimiyati 1 markaziy va mahalliy

organlarining vakolatlarini belgilab beradigan yuridik normalarga asoslanadi. Demak, o‘z mazmuniga ko‘ra budjet tuzilishi tushunchasi budjet tizimi tushunchasiga nisbatan ancha keng ekan. Bizning Respublikamiz budjet qonunchiligida esa, ushbu teng bo‘lmagan tushunchalar o‘rtasida tenglik belgisi qo‘yilgan bo‘lib, «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 4-m.sidagi ta’rif bunga dalil bo‘la oladi. Unga muvofiq, budjet tizimi turli darajadagi budjetlar va budjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisini, budjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, budjet jarayonida ular o‘rtasida, shuningdek budjetlar hamda budjet mablag‘lari oluvchilar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlarni o‘zida ifodalaydi. Moliya yiliga mo‘ljallangan barcha darajadagi budjetlarni shakllantirish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ularning ijrosi hisobini yuritish O‘zRning milliy valyutasi — so‘mda amalga oshiriladi. O‘zRning hozir shakllanish bosqichida turgan budjet qonunchiligini yanada takomillashtirish jarayonida ko‘rsatilgan qarama-qarshilikni ko‘rib chiqilayotgan ikki noteng tushunchalarni aniq ajratib olish yo‘li bilan bartaraf etish zarur. Bu nafaqat nazariy, balki nihoyatda muhim bo‘lgan amaliy ahamiyatga ham egadir, chunki budjet tuzilishi tushunchasi davlat budjet siyosatining asosiy elementlarini ko‘p jihatdan belgilab beruvchi dastlabki nuqtadir.

Budjet huquqi — davlat budjet qurilishi va budjet tizimi, budjet tizimi daromadlari va xarajatlari tuzilmasi, ularning turli darajadagi budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi, davlat va uning ma’muriy-hududiy tuzilmalari vakolati, budjet jarayoni va budjet nazoratini belgilovchi moliyaviy-huquqiy normalar majmuidir.

Budjet huquqiy munosabatlari — budjet huquqi normalari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar. Ular moliyaviy-huquqiy munosabatlarning bir turi hisoblanadi va shu sababli ularga tegishli bo‘lgan barcha o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Budjet huquqiy munosabatlari o‘ziga xos xususiyatlari asosan budjet huquqi predmeti bilan belgilanadi. Budjet huquqiy munosabatlari davlat moliyaviy faoliyatining alohida sohasida, xususan, davlat budjeti mablag‘larini tashkil etish va taqsimlash sohasida yuzaga keladi, o‘zgaradi va bekor bo‘ladi. Budjet huquqiy munosabatlari ushbu xususiyati mazkur munosabatlarning boshqa maxsus xususiyatlarida, masalan, subyekt tarkibi va ularning vaqt bo‘yicha harakatida o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Budjetdan ajratiladigan mablag‘larni taqsimlovchilar — tegishli budjetlar va xarajatlar smetalaridan tasdiqlangan parametrlar doirasida

budjetdan ajratiladigan mablag‘larni tasarruf etish huquqi berilgan budjet tashkilotlari, korxonalar va xo‘jalik tashkilotlari rahbarlari yoki ularning vazifalarini bajaruvchi shaxslar. Ularga tegishli budjetlar va xarajatlar smetalarida tasdiqlangan parametrlar doirasida budjetdan ajratiladigan mablag‘larni tasarruf etish huquqi berilgan. O‘zlariga berilgan vakolat doirasiga ko‘ra budjetdan ajratiladigan mablag‘larni taqsimlovchilar budjetdan ajratiladigan mablag‘larni bosh taqsimlovchilari va quyi taqsimlovchilariga bo‘linadi.

O‘zR Moliya vazirligining buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1111, 14.03.2002 y.) bilan tasdiqlangan O‘zbekistan Respublikasi davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalariga muvofiq, davlat budjetidan moliyalashtiriladigan xarajatlarni amalga oshirish uchun tegishli mablag‘lar budjetdan mablag‘ oluvchilarga — budjetdan ajratiladigan mablag‘larni taqsimlovchilarga beriladi.

Budjetdan ajratiladigan mablag‘larni taqsimlovchilarga ular uchun tegishli budjet parametrlarida va tasdiqlangan smetalarda nazarda tutilgan xarajatlarni tasarruf etish huquqi berilgan budjet tashkilotlari, korxonalari va xo‘jalik tashkilotlarining rahbarlari kiradi.

Berilgan huquqlarga ko‘ra budjetdan ajratiladigan mablag‘larni taqsimlovchilar 2 ga bo‘linadi: 1) bosh budjetdan ajratiladigan mablag‘larni taqsimlovchilar; 2) quyi turuvchi budjetdan ajratiladigan mablag‘larni taqsimlovchilar — birinchi darajali, ikkinchi darajali, uchinchi darajali va h.k.

Budjetdan moliyalash — qaytarilmasdan va beg‘araz ravishda budjetdan mablag‘lar ajratish. Budjetdan moliyalash Davlat budjetidan davlat buyurtmalarini amalga oshirish, davlat dasturlarini bajarish, davlat tashkilotlarini saqlash bilan bog‘liq xarajatlarga pul mablag‘lari ajratish. Budjetdan moliyalash davlat xarajatlarini amalga oshirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Davlatning asosiy xarajatlari davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanib, ular davlat ijtimoiy va iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini moliyalashtirish uchun yo‘naltiriladi. Bajaradigan xususiyatiga ko‘ra, odatda, o‘z mablag‘lariga ega bo‘la olmaydigan, ammo ularning faoliyati jamiyat va davlat ehtiyojlarini qondirishning zaruriy sharti bo‘lgan tashkilotlarning xarajatlari budjetdan ajratiladigan mablag‘lar hisobiga to‘liq qoplanadi. Ularga o‘z xarajatlarini davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplaydigan va smeta — budjet yo‘li bilan moliyalashtirish tartibida xarajatlarini amalga oshiradigan ishlab chiqarish sohasiga kirmaydigan tashkilotlar (ijtimoiy-madaniy muassasalar, davlat hokimiyati organlari va b.) kiradi.

Budjetni rejalashtirish — budjetni tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va ijro etishning rejali jarayoni. Budjetni rejalashtirishning asosiy vazifasi iqtisodni ko‘tarish uchun zarur bo‘lgan barcha resurslarni aniqlash va jamlash hamda ulardan davlatning iqtisodiy qudratini, aholining ijtimoiy ahvolini muntazam oshirib borishda foydalanishdan iborat. Shuningdek, budjetni rejalashtirish orqali davlatning ayrim iqtisodiy ko‘rsatkichlari, davlat budjetining daromad va xarajatlari qismi tekshiriladi hamda iqtisodiy balans ta’minlanadi. Budjetni rejalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri — budjet loyihasini tuzish va tasdiqlash bilan o‘z yakuniga yetmay, balki davlat xarajatlarini qisqartirish, budjet resurslarini tejash, davlat budjeti daromadlarining yangi manbalarini topish maqsadida butun budjet ijrosi vaqtida davom etadi. Budjetni rejalashtirish quyidagi bosqichlarni bosib o‘tadi: budjet loyihasini tayyorlash, muhokama qilish, budjet loyihasini tasdiqlash va ijrosini ta’minlash.

Budjetni tartibga solish — har bir quyi budjet daromadlari va xarajatlarini muvozanatga keltirish maqsadida Davlat budjeti mablag‘larini har yili rejali qayta taqsimlash jarayoni. Budjet tizimi daromadlarini taqsimlashning asosiy vazifasi O‘zR Davlat budjeti daromadlarini alohida budjetlar o‘rtasida shunday qayta taqsimlashdan iboratki, ulardan har biri o‘ziga ajratilgan barcha xarajatlarni qoplaydigan mablag‘lar bilan ta’minlangan bo‘lishi shart. Budjetni tartibga solish turli uslublar yordamida amalga oshirilib, ular orasida tartibga soluvchi manbalardan mablag‘lar ajratish uslubi eng muhim uslub hisoblanadi. Budjetni tartibga solish uslubining ahamiyati shu bilan belgilanadiki, biriktirilgan daromadlar yetmagan taqdirda, ayni mana shu uslub yordamida har bir budjet daromadlari va xarajatlarini muvozanatga keltirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larning katta qismi beriladi. Tartibga soluvchi manbalardan mablag‘lar ajratish yo‘li bilan quyi budjetlarni muvozanatlash imkoniyati bo‘lmagan holda, budjetni tartibga solishning boshqa uslublari qo‘llanadi: a) yuqori budjetlardan quyi budjetlarga budjet dotatsiyalari va budjet subvensiyalarini berish; b) budjet ssudalarini ajratish.

Bo‘nak — q.: Avans (Bo‘nak).

Davlat nazorati — davlat organlari chiqaradigan qonunlar va b. huquqiy xujjatlarga rioya qilinishini ta’minlaydigan davlat hokimiyatini amalga oshirish shakllaridan biri. Davlat nazoratini turli organlar amalga oshiradi. Odatda, nazorat vazifasi asosan parlamentlarda to‘plangan, ammo keyingi o‘n yillikda ko‘pgina mamlakatlarda

parlamentdan tashqari, parlament nomidan ish yuritadigan nazorat instantsiyalari keng tarqaldi (masalan, ombudoman, hisob palatasi), ma'muriy yustitsiya organlarining soni va roli o'sdi. Hozirgi kunda har bir mamlakatda o'z davlat nazorati tizimi shakllangan. Masalan, AQSHda davlat nazoratini Prezident, ijro etuvchi apparatiga kiruvchi organlar, AQSH kongressining qo'mita va komissiyalari amalga oshiradi, konstitutsiyaviy nazorat AQSH OSi zimmasiga yuklangan, moliyaviy nazoratning maxsus organi sifatida nazoratchi rahbarligidagi Hisobot bosh boshqarmasi faoliyat ko'rsatadi, maxsus idoralararo nazorat funksiyasi ko'plab tarmoq idoralariga, jumladan, Markaziy razvedka boshqarmasi, Federal tergov byurosi, Mudofaa vazirligi va b. zimmasiga yuklangan.

Davlat nomi — biror-bir davlatning rasmiy nomlanishi, davlat nomlari quyidagi omillarga bog'liq: tarixiy shart-sharoitlarga asosan kelib chiqqan nomlar asosida nomlanadigan davlatlar, Suriya, Iroq; davlatlarning joylashgan hududi (kontinent, geografik joylashuvi) nomiga asosan nomlanishi, masalan, G'arbiy Saxara, Janubiy Afrika Respublikasi, Markaziy Afrika Respublikasi; millat, elat va urug'larning nomidan kelib chiqib nomlanishi (Fransiya, Polsha, Bolgariya, Xorvatiya, Tailand, Saudiya Arabistoni); tarixiy shaxslar nomiga qo'yilgan davlatlar (Kolumbiya, Boliviya); jamiyatdagi dinning ta'sir doirasi davlat nomiga ham aks etadi (Pokiston Islom Respublikasi); davlatning boshqaruv, tuzilish shakllari va siyosiy rejimi ham davlat nomlarida ko'rsatilishi mumkin (Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi).

Davlat organi — bu ijtimoiy hayotning aniq bir sohasini boshqarish yuzasidan davlat vazifalarini bajaradigan va tegishli davlat-hokimiy vakolatlarga ega bo'lgan tashkilot yoki muassasa. Davlat organilari sirasiga vazirliklar, davlat qo'mitalari, inspeksiyalar, prokuratura organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va b. kiradi.

Davlat organlari qonunga binoan tashkil etiladi va unda davlat organining nomi hokimiy vakolatlari hajmi belgilab qo'yiladi; o'z operativ boshqaruvida davlat mulkiga, moliyaviy mablag'larga, bankda o'z hisob raqamiga hamda budjetdan ta'minlanish manbasiga ega bo'ladi.

Davlat organlari turli mezonlar asosida jumladan, hokimiyatlar bo'linishiga asosan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga, faoliyatining mazmuniga ko'ra siyosiy, xo'jalik, ijtimoiy-madaniy davlat organlariga, faoliyat olib boradigan hududi doirasiga qarab markaziy va mahalliy organlarga tasniflanadi.

Davlat paydo bo‘lishining shartnoma nazariyasi — mazkur nazariyaning ilk elementlari qad. Yunoniston va qad. Rim faylasuflari tomonidan yodlab chiqilgan bo‘lib, yaxlit tugallangan nazariya sifatida XVII—XVIII asrlarda shakllangan. Nazariyaning ko‘zga ko‘ringan vakillari: G. Groksiy, Dj. Lokk, D. Didro, P. Golbax, A. Radishev, J.J. Russo. Bu nazariya vakillarining fikriga ko‘ra, davlat insonlarning birgalikda yashash haqidagi o‘zaro tuzgan shartnomasi asosida vujudga kelgan. Ularning fikricha, bir paytlar davlat ham, huquq ham bo‘lmagan, insonlar tabiiy huquqlari bilan tabiiy sharoitlarda yashashgan. Insonlarning huquqlarini, qadr-qimmatini muhofaza etadigan hokimiyat bo‘lmagan. Shu bois, insonlar o‘zaro shartnoma tuzishib, o‘zlariga tug‘ilishlari bilan mansub bo‘lgan huquqlarining ma‘lum qismini ularning umumiy manfaatlarini ifoda etadigan davlatga berishgan, davlat esa o‘z navbatida inson huquqlarini ta‘minlash, jamiyatda barqarorlik va adolat o‘rnatish majburiyatini zimmasiga olgan. Agarda, davlat shartnoma shartlariga amal qilmasa, xalq shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo‘lgan.

Davlat pensiyalari — «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi O‘zR Qonuniga ko‘ra, tayinlanadigan pensiya turi. Bular jumlasiga yoshga doir, nogironlik, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari kiradi. Ularning tayinlanish shartlari va tartiblari qonun xujjatlarida belgilab qo‘yilgan.

Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarga ularning o‘zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi.

To‘liq pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar bor stajga mutanosib ravishdagi miqdorda tayinlanadi.

Nogironlik pensiyalari mehnat qobiliyati to‘liq yoki qisman yo‘qotilgan quyidagi hollarda tayinlanadi:

a) mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda — O‘zR VM tomonidan tasdiqlanadigan Nogironlik sabablari ro‘yxati va Kasb kasalliklari ro‘yxati bo‘yicha;

b) umumiy kasallik (shu jumladan, ish bilan bog‘liq bo‘lmagan shikastlanish, mayiblik, bolalikdan nogironlik) tufayli.

«Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi O‘zR Qonuniga asosan vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a’zolari boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo‘ladi.

Davlat pensiya sug‘urtasi — davlat ijtimoiy sug‘urtasining bir turi, mulkchilik shaklidan qati nazar, barcha korxona, tashkilotlar

yagona ijtimoiy to‘lov to‘laydilar. Ushbu to‘lov budjetdan tashkari pensiya jamg‘armasida to‘lanadi hamda belgilangan tartibda pensiya va nafaqalar to‘lanishi maqsadida sarf-harajat qilinadi.

Davlat budjeti — davlat pul mablag‘larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi («Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 3-m.si).

Davlat budjeti respublika budjetini, QR budjetini va mahalliy budjetlarni o‘z ichiga oladi. Davlat budjeti tarkibida davlat maqsadli jamg‘armalari jamlanadi. QR budjeti QRning respublika budjetini hamda respublikaga (Qoraqalpog‘iston) bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi. Viloyatniig budjeti viloyat budjetini, viloyatga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi. Tumanlarga bo‘linadigan shaharning budjeti shahar budjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlarini o‘z ichiga oladi. Tumanga bo‘ysunadigan shaharlari bo‘lgan tumanning budjeti tuman budjetini va tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi («Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 9-m.si).

Davlat budjeti daromadlari — davlat budjeti daromadlari: 1) qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig‘imlar, bojlar va b. majburiy to‘lovlar; 2) davlatning moliyaviy va b. aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar; 3) qonun xujjatlariga muvofiq meros olish, xadya etish huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari; 4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari; 5) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to‘lovlar; 6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi («Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 11-m.si).

Davlat budjeti xarajatlari — davlat budjeti xarajatlari tasdiqlangan budjetdan mablag‘ ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi: 1) budjet mablag‘lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida; 2) joriy budjet transfertlari shaklida; 3) kapital xarajatlar shaklida; asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog‘liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga; chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va b. mol-

mulk olishga; davlat ehtiyojlari uchun yerga bo‘lgan huquqni va b. nomoddiy aktivlarni olishga; davlat zaxiralarini vujudga keltirishga; 4) kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan budjet transfertlari shaklida; 5) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan budjet ssudalari shaklida; 6) davlat maqsadli jamg‘armalariga beriladigan budjet dotatsiyalari va budjet ssudalari shaklida; 7) davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha to‘lovlar shaklida; 8) qonun xujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida («Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 12-m.si).

Davlat budjetini ijro etish — davlat budjetining daromad qismida rejalashtirilgan to‘lovlarning har bir manba bo‘yicha o‘z vaqtida va to‘liq kelib tushishini ta’minlash, shuningdek uning xarajat qismida ko‘zda tutilgan barcha tadbirlarni uzluksiz moliyalash. «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 36-m.siga muvofiq O‘zR Moliya vazirligi va b. moliya organlari Davlat budjeti va uning tuzilmasiga kiruvchi budjetlarning qonun hujjatlarida belgilangan ko‘rsatkichlar doirasida bajarilishi uchun javobgardir. Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish O‘zR Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat budjetining g‘azna ijrosi — davlat budjetining g‘azna ijrosi Davlat budjetining barcha daromadlarini yagona g‘azna hisobvarag‘iga kiritishdan, shuningdek Davlat budjetining xarajatlarini shu hisobvaraqdan to‘lashdan iborat («Davlat budjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 4-m.si).

«Davlat budjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonuniga muvofiq, davlat budjetining g‘azna ijrosi moliya yili mobaynida hamda O‘zR VM tomonidan belgilanadigan qo‘shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Davlat budjetining g‘azna ijrosining asosiy prinsiplari kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat.

Davlat budjetining g‘azna ijrosi «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi O‘zR Qonunining 37-m.sida «Davlat budjetining kassa ijrosi» deb yuritilgan bo‘lib, unga ko‘ra Davlat budjetining kassa ijrosini tashkil etish, shuningdek uning davlat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish O‘zR Moliya vazirligi tomonidan O‘zR Markaziy banki bilan birgalikda amalga oshiriladi. O‘zR Moliya vazirligi g‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari Davlat budjetining kassa ijrosini ta‘minlaydi. Banklar O‘zR Markaziy bankining topshirig‘iga binoan Davlat budjetining kassa ijrosi operatsiyalarini bajaradi. Budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlari ularning O‘zR Moliya vazirligi g‘aznachiligida yoki uning hududiy bo‘linmalarida ochilgan

shaxsiy hisobvaraqlaridagi budjetdan ajratilgan mablag‘lar qoldiqlari doirasida to‘lov topshiriqnomalari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Davlat soliq inspeksiyasi — davlat soliq xizmatining aholini soliqqa tortish, soliqlarni o‘z vaqtida undirish bilan bog‘liq faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi shahar va tumanlardagi quyi organ.

Davlat soliq qo‘mitasi — O‘zR DSQ soliq sohasida davlat nazoratini amalga oshiruvchi organ.

Davlat soliq tizimi — soliq to‘lovlarining budjetga o‘z vaqtida tushishini nazorat qiladigan ko‘p pog‘onali mexanizm tuzilmasi.

Davlat sug‘urtasi — tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar yoki biror sohadagi muhim tavakkalchiliklardan zarar ko‘rgan shaxslar va tashkilotlarga yordam ko‘rsatish, ular ko‘rgan zararlarini qoplash shakllari hisoblanadi.

Defitsit (lotincha defisit — yetishmaydigan, taqchil) — iste’molchilarga biror mahsulotning yetishmasligi tushuniladi.

Dollar — AQSHning pul birligi, 100 sentga teng.

Dotatsiya (lotincha dotatio — hadya, xayr-ehson) — davlatning yoki xalqaro tashkilotning qaytarmaslik sharti bilan beradigan pul yordami.

Emissiya (lotincha emissio) — muomalaga pul va qimmatli qog‘ozlar chiqarish. Pul emissiyasi emitent banklar banknotlar chiqarishi yoki xazina tomonidan qog‘oz pul chiqarilishi tarzida yuz beradi.

Faktoring — moliyalash sohasidagi xizmatlarning bir turi, u asosan bozorga endigina kirib borayotganlar, shuningdek, kichik va o‘rta firmalar uchun mo‘ljallangan.

Jismoniy shaxslar — fuqarolik huquq va majburiyatlarining egasi, tashuvchisi, jumladan, soliq to‘lovchi bo‘lgan insonlar, mazkur mamlakat fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

Joriy hisob varag‘i — pul mablag‘larini saqlash va naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun kredit muassasasida xo‘jalik subyekti, mansabdor shaxs yoki fuqaro nomiga rasmiylashtirilgan maxsus hisob hujjati.

Mahalliy budjet — viloyat, shahar va tumanlar bo‘yicha daromad va xarajatlar balansining qiymat ko‘rsatkichlaridagi ifodasi.

Mahalliy soliqlar va yig‘imlar — mamlakat qonunlariga asosan, davlat hokimiyati mahalliy organlari o‘z qarorlari bilan belgilangan va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun ularning vakolatlari doirasida foydalanilgan soliqlar.

1-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

1999-yil 3-sentabr, 414-son

BUDJET TASHKILOTLARINI MABLAG‘ BILAN TA’MINLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA

Davlat budjeti hisobiga mablag‘ bilan ta’minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirish, budjet mablag‘laridan samarali va aniq foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2000-yil 1-yanvardan boshlab budjet tashkilotlari xarajatlarini mablag‘ bilan ta’minlashning yangi tartibini joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin. U quyidagilarni nazarda tutadi:

- budjet mablag‘laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda budjet nizomini mustahkamlash uchun budjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas’uliyatini oshirish;
- budjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlarni mablag‘ bilan ta’minlash mexanizmini soddalashtirish va budjet mablag‘laridan foydalanishda yuqori natijalarga erishish maqsadida mavjud mablag‘larini oqilona taqsimlash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- budjet tashkilotlari xodimlari mehnatini rag‘batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o‘rnashib qolishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

2. Belgilansinki, yangi tartibga muvofiq budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash normativlar bo‘yicha (faoliyat turiga ko‘ra) xarajatlarning quyidagi guruhlarini bir satrda mablag‘ bilan ta’minlash usulida amalga oshiriladi:

I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar (bolali oilalarga nafaqalar va kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar);

II. Ish haqiga qo‘shimchalar;

III. Kapital qo‘yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro‘yxatlarga muvofiq);

IV. Boshqa xarajatlar.

Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibi tasdiqlansin.

3. Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash manbalarini:

• faoliyat turi bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan;

• budjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan;

• yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotlariga homiylik (beg‘araz) yordami berilishidan qo‘shimcha daromadlar olish hisobiga kengaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblansin.

4. Mazkur qarorning 3-bandida keltirilgan manbalardan qo‘shimcha daromad olayotgan budjet tashkilotlari 2000-yil 1-yanvardan boshlab 5 yil muddatga Davlat budjetiga undiriladigan soliqlar va yig‘imlarning barcha turlaridan ozod qilinsin, bo‘shab qolgan mablag‘lar moddiy texnika va ijtimoiy bazani mustahkamlashga, shuningdek, ularning xodimlarini moddiy rag‘batlantirishga maqsadli yo‘naltirilsin.

5. Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan budjet tashkilotlariga Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish huquqi berilsin, jamg‘arma:

• rejaga muvofiq budjetdan mablag‘ bilan ta’minlash hisobiga tushgan va hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida budjet tashkilotlari hisobvaraqlarida qolgan, tejab qolingan (foydalanilmagan) mablag‘lar (kapital qo‘yilmalarini mablag‘ bilan ta’minlash uchun nazarda tutilgan mablag‘lar bundan mustasno);

• budjet tashkilotlari faoliyati turiga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar;

• vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan olingan mablag‘ning 50%, qolgan 50% mablag‘ mahalliy budjet daromadlariga o‘tkazish;

• yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotlariga berilayotgan homiylik yordami hisobiga shakllantiriladi.

6. Budjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari quyidagilarga:

• mavjud kreditorlik qarzlarini to‘lashga;

• budjet tashkilotining moddiy texnika bazasini mustahkamlashga;

• ijtimoiy rivojlantirish va xodimlarni moddiy rag‘batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda:

• tijorat banklarida joriy hisobvaraqalar ochgan, yuridik shaxs maqomi beriladigan budjet tashkilotlari ro‘yxatini belgilashlari;

• budjet tashkilotlari faoliyati turini hisobga olgan holda budjetdan mablag‘ bilan ta’minlash normativlarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash;

• budjet tashkilotlarini 2000-yil 1-yanvaridan boshlab mablag‘ bilan ta’minlashning yangi shartlariga o‘tkazishga tayyorlash bo‘yicha zarur tadbirlarni amalga oshirishlari belgilandi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bir oy muddatda:

• tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda — budjet tashkilotlari tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish tartibini, budjet tashkilotlari daromadlari va xarajatlarining buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi nizomni;

• O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi bilan birgalikda — budjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan davlat mol-mulkini boshqa korxona va tashkilotlarga ijaraga berish tartibini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlansin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi budjet intizomiga rioya qilinishi ustidan qattiq nazoratni ta’minlasin. Bunda:

• budjet mablag‘laridan, jumladan budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘laridan noo‘rin foydalanishni;

• budjetdan ajratiladigan mablag‘larning xarajatlar guruhlari bo‘yicha tasdiqlangan limitdan oshib ketishini;

• shtat-smeta intizomining buzilishini;

• xarajatlarni mablag‘ bilan ta’minlashning belgilangan navbatiga ularni to‘lash muddatlari va to‘liqligiga rioya qilmaslik hollarining oldini olish belgilab qo‘yildi.

Moliya organlari, budjet tashkilotlari rahbarlari budjet intizomiga rioya qilinishi uchun mehnat, ma’muriy va jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda shaxsan javob berishlari to‘g‘risida ogohlantirilsin. Bunda budjet tashkilotlarining qo‘shimcha daromadlar olishi bo‘yicha faoliyati budjet mablag‘lari hisobiga bajarilayotgan ishlar, ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifatiga zarar yetkazmasligi kerak.

Vazirlar Mahkamasining raisi **I. A. Karimov**

2-ilova

BUDJET TASHKILOTLARI BUXGALTERIYA HISOBIDAGI O‘ZGARISHLAR

1. Eski subschyotlar o‘rniga yangi subschyotlar kiritildi

230 — «Tashkilot xarajatlari va boshqa tadbirlar uchun budjetdan moliyalashtirish» subschyoti o‘rniga 237 — *«Budjet mablag‘lari bo‘yicha budjet mablag‘lari oluvchilar oldidagi majburiyat»* subschyoti;

140 — «Tashkilot xarajatlari va boshqa tadbirlar uchun budjetdan moliyalashtirishga doir hisob-kitoblar» subschyoti o‘rniga 147 — *«Budjet mablag‘lari bo‘yicha budjet mablag‘lari oluvchilar oldidagi majburiyat»* subschyoti;

200 — «Tashkilotni saqlashga va boshqa tadbirlarga budjet bo‘yicha harajatlar» subschyoti o‘rniga 214 — *«Budjet mablag‘lari hisobidan qoplanadigan budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlari»* subschyoti.

2. Yangi subschyotlar kiritildi

290 — «Joriy moliya yilida kelib tushgan budjet mablag‘lari oluvchilarning avvalgi yildagi debitor qarzlari» subschyoti;

291 — «Bolalarning ovqatlanishi uchun maktabgacha bolalar tashkilotlariga ota-onalar to‘lovlari bo‘yicha kelib tushgan mablag‘lar» subschyoti;

292 — «Budjet mablag‘lari oluvchilarning xodimlarini ijtimoiy to‘lovlari budjetdan tashqari pensiya fondi mablag‘lari hisobidan qoplanadigan nafaqa va pensiyalarni to‘lash uchun kelib tushgan mablag‘lar» subschyoti;

293 — «Tekshirish natijalari bo‘yicha aniqlangan materiallar va moddiy qiymatliklarning ortiqchalari bo‘yicha kelib tushgan summalar» subschyoti;

294 — «Yuqori budjet mablag‘lari oluvchilardan quyi budjet mablag‘lari oluvchilarga markazlashtirilgan tartibda yoki bepul berilgan moddiy qiymatliklar summalari» subschyoti.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2007-yil 12 yanvardagi 31-32-13/305-2-sonli xati bo‘yicha budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobidagi amalga oshirilgan o‘zgarishlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat budjetida va mahalliy budjetlarda

turuvchi budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi bo‘yicha budjet tashkilotlarida tuziladigan buxgalteriya provodkalarida anchagina o‘zgarishlarga olib kelayapti.

Yuqoridagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda budjet tashkilotlarida tuziladigan buxgalteriya provodkalari

		Mahalliy budjetlarda turuvchi yuqori budjet mablag‘lari oluvchilarda (budjet mablag‘larini bosh tasarruf qiluvchilarda)		Mahalliy budjetlarda turuvchi quyi budjet mablag‘lari oluvchilarda (budjet mablag‘larini uchinchi daraja tasarruf qiluvchilarda)	
Xo‘jalik operatsiyalari		Debet	Kredit	Debet	Kredit
1		2	3	4	5
1	Bankdan chek bilan olingan naqd pul summasiga	120	237	120	147
2	Pensiya fondiga o‘tkazib berilgan yagona ijtimoiy to‘lov summasiga	175	237	175	147
3	Ishchi va xizmatchilarning ish haqidan ushlanib budjetga o‘tkazib berilgan daromad solig‘i summasiga	173	237	173	147
4	Xodimlarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkazib berilgan summaga	190	237	190	147
5	Ishchi va xizmatchilarning ish haqidan ushlanib pensiya fondiga o‘tkazib berilgan majburiy sug‘urta summasiga	198/1	237	198/1	147
6	Ishchi va xizmatchilarni ish haqidan ushlanib kasaba uyushmasiga o‘tkazib berilgan to‘lov summasiga	185	237	185	147

davomi

1		2	3	4	5
7	Ishchi va xizmatchilarning ish haqidan ijro varaqalari bo‘yicha ushlanib da’vogarlarga o‘tkazib berilgan summaga	187	237	187	147
8	Sotib olingan yoki olinayotgan moddiy qiymatliklar uchun yetkazib beruvchilarga, bajarilgan yoki bajarilishi kerak bo‘lgan ishlar (xizmatlar) uchun turli tashkilotlarga o‘tkazib berilgan pul mablag‘lari summasiga	178	237	178	147
9	Tibbiyot muassasalarining rivojlantirish va moddiy rag‘batlantirish fondiga budjet mablag‘lari o‘tkazib berilgan summaga	137	237	137	147
10	Bankka qaytarib topshrilgan xarajat qilinmagan naqd pullar summasiga	237	120	147	120
11	Turli tashkilotlardan muayyan moliya yilida o‘tkazilgan pul mablag‘larini qaytib kelgan summasiga	237	178	147	178
12	Joriy moliya yilida kelib tushgan budjet mablag‘lari oluvchilarning avvalgi yillaridagi debitor qarzlar summasiga	290	178	290	178
13	Bolalarning ovqatlanishi uchun maktabgacha bolalar tashkilotlariga ota-onalarning to‘lovlari bo‘yicha kelib tushgan mablag‘lar summasiga	291	120	291	120
14	Budjet mablag‘lari oluvchilarning xodimlarini ijtimoiy to‘lovlari budjetdan tashqari pensiya fondi mablag‘lari hisobidan qoplanadigan nafaqa va pensiyalarni to‘lash uchun kelib tushgan mablag‘lar summasiga	292	198/3	292	198/3

davomi

1		2	3	4	5
15	Tekshirish natijalari bo‘yicha aniqlangan pul mablag‘lari ortiqchalari summasiga	120	293	120	293
16	Tekshirish natijalari bo‘yicha aniqlangan materiallar va moddiy qiymatliklarning ortiqchalari summasiga	060-069	293	060-069	293
17	Yuqori budjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan markazlashtirilgan tartibda yoki bepul berilgan ilmiy-tadqiqotlar uchun uskunalar, qurilish materiallari va materiallar summasiga	294	040-044	040-044	294
18	Yuqori budjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan markazlashtirilgan tartibda yoki bepul berilgan materiallar va oziq-ovqat mahsulotlari summasiga	294	060-069	060-069	294
19	Ishchi va xizmatchilarga hisoblangan ish haqi, ta’til haqi va boshqa to‘lovlar summasiga	214	180	214	180
20	Ishchi va xizmatchilarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha hsoblangan nafaqa summasiga	214	171	214	171
21	Ishchi va xizmatchilarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha hisoblangan nafaqadan ushlangan daromad soliq summasiga	171	173	171	173
22	Ishchi va xizmatchilarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha hisoblangan nafaqadan ijro hujjatlari bo‘yicha ushlanmalar summasiga	171	187	171	187

davomi

1		2	3	4	5
23	Hisoblangan yagona ijtimoiy to‘lov summasiga	214	175	214	175
24	Turli tashkilotlardan qabul qilib olingan bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar summasiga	214	178	214	178
25	Turli tashkilotlardan sotib olingan asosiy vositalarni sotib olish qiymati harajatga qo‘shilganda	214	250	214	250
26	Turli tashkilotlardan sotib olingan kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarni sotib olish qiymati harajatga qo‘shilganda	214	260	214	260
27	Turli tashkilotlardan sotib olingan qiymatliklarni tashib keltirish xarajatlari, sotib olingan asosiy vositalarni o‘rnatish va sozlash xarajatlari va boshqa xarajatlar summasiga	214	178	214	178
28	Sarflangan materiallar va oziq-ovqat mahsulotlari summasiga	214	060-069	214	060-069
29	Hisobdor shaxslarning «Bo‘nak hisoboti»ga asosan haqiqatda qilingan xizmat safari xarajatlari summasiga	214	160	214	160
30	Yetkazib beruvchilardan va boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan sotib olingan: (I) asosiy vositalar qiymati xarajatga qo‘shilganda	214	250	214	50
	(II) kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar qiymati xarajatga qo‘shilganda	214	260	214	260
31	Joriy moliya yili tugagandan keyin schyotlar yillik yakunlanganda yil davomida	237	290	147	290

davomi

1	2	3	4	5
budjet mablag‘lari oluvchilar bo‘yicha mahalliy budjetning g‘aznachilik hisob-varag‘iga kelib tushgan summalarga: (i) Joriy moliya yilida kelib tushgan budjet mablag‘lari oluvchilarning avvalgi yillardagi debitor qarzlar summasiga				
(I) Joriy moliya yilida bolalarning ovqatlanishi uchun maktabgacha bolalar tashkilotlariga ota-onalarning to‘lovlari bo‘yicha kelib tushgan mablag‘lar summasiga	237	291	147	291
(II) Joriy moliya yilida budjet mablag‘lari oluvchilarning xodimlarini ijtimoiy to‘lovlari budjetdan tashqari pensiya fondi mablag‘lari hisobidan qoplanadigan nafaqa va pensiyalarni to‘lash uchun kelib tushgan mablag‘lar summasiga	237	292	147	292
(III) Joriy moliya yilida tekshirish natijalari bo‘yicha aniqlangan pul mablag‘lari, materiallar va moddiy qiymatliklarning ortiqchalari summasiga	293	237	293	147
(IV) Joriy moliya yilida yuqori byudet mablag‘lari oluvchilar tomonidan markazlashtirilgan tartibda yoki bepul berilgan ilmiy-tadqiqotlar uchun uskunalar, qurilish materiallari, materiallar va oziq-ovqat mahsulotlari summasiga	294	237	294	147

3-ilova

BUDJET TASHKILOTLARI XARAJATLAR SMETALARI IJROSINING BUXGALTERIYA HISOBI SCHYOTLAR REJASI (RO‘YXATI)

I bo‘lim. Asosiy vositalar

01 — Asosiy vositalar
010 — Binolar
011 — Inshootlar
012 — Uzatkich qurilmalari.
013 — Mashinalar va uskunalar.
015 — Transport vositalari.
016 — Asboblar, ishlab chiqarish (jihozlari bilan birga) va xo‘jalik inventarlari.
017 — Ishchi va mahsuldor hayvonlar.
018 — Kutubxona fondlari.
019 — Boshqa asosiy vositalar
02 — Asosiy vositalarning eskirishi
020 — Asosiy vositalarning eskirishi.

II bo‘lim. Material zaxiralar

03 — Buyumlar va mahsulotlar
030 — Ishlab chiqarish (o‘quv) ustaxonalarining buyumlari.
031 — Yordamchi (o‘quv) qishloq xo‘jaliklarining mahsulotlari.
04 — Ilmiy-tadqiqotlar uchun uskunalar, qurilish materiallari va materiallar.
040 — O‘rnatilgan uskunalar.
041 — Kapital qurilish uchun qurilish materiallari.
043 — Ilmiy-tadqiqotlarda va laboratoriya sinovlarida uzoq vaqt foydalaniladigan materiallar.
044 — Shartnoma asosida bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlari uchun maxsus uskunalar.
05 — Yosh chorva mollari va bo‘rdoqiga boqilayotgan mollar
050 — Yosh chorva mollari va bo‘rdoqiga boqilayotgan mollar.
06 — Materiallar va oziq-ovqat mahsulotlari
060 — O‘quv, ilmiy va boshqa maqsadlar uchun materiallar.

061 — Oziq-ovqat mahsulotlari.
062 — Dori-darmonlar va yara bog‘lash vositalari.
063 — Xo‘jalik materiallari va idora buyumlari.
064 — Yonilg‘i, yoqilg‘i va moylash materiallari.
065 — Ozuqa va yem-xashak.
066 — Idishlar.
067 — Boshqa materiallar.
068 — Yo‘ldagi materiallar.
069 — Mashina va uskunalar uchun zaxira qismlar.

III bo‘lim. Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar

07 — Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar
070 — Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar.
071 — Foydalanishdagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar.
072 — Ombordagi ichki kiyimlar, ko‘rpa-to‘shaklar, kiyim-kechaklar va poyafzallar.
073 — Foydalanishdagi ichki kiyimlar, ko‘rpa-to‘shaklar, kiyim-kechaklar va poyafzallar.

IV bo‘lim. Ishlab chiqarishga va boshqa maqsadlarga qilingan xarajatlar

08 — Ishlab chiqarishga va boshqa maqsadlarga qilingan xarajatlar
080 — Ishlab chiqarish (o‘quv) ustaxonalarining xarajatlari.
081 — Yordamchi (o‘quv) qishloq xo‘jaliklarining xarajatlari.
082 — Shartnoma asosida bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining xarajatlari.
083 — Eksperimental qurilmalarni tayyorlash xarajatlari.
084 — Materiallarni tayyorlash va qayta ishlash xarajatlari.

V bo‘lim. Pul mablag‘lari

09 — Respublika budjeti bo‘yicha talab qilib olgunga qadar depozit hisobvaraqlari
090 — Respublika budjeti bo‘yicha tashkilot xarajatlari uchun talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag‘i.

091 — Respublika budjeti bo‘yicha tasarrufidagi tashkilotlarga o‘tkazib berish va boshqa tadbirlar uchun talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag‘i.

093 — Respublika budjeti bo‘yicha kapital qo‘yilmalar uchun talab qilib olgunga qadar depozit hisobavarag‘i.

10 — Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat budjeti va mahalliy budjetlar bo‘yicha talab qilib olgunga qadar depozit hisobvaraqlari

100 — Tashkilot xarajatlari uchun talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag‘i.

101 — Tasarrufidagi tashkilotlarga o‘tkazib berish va boshqa tadbirlar uchun talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag‘i.

103 — Kapital qo‘yilmalar uchun talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag‘i.

11 — Budjetdan tashqari mablag‘larning talab qilib olgunga qadar depozit hisobvaraqlari

110 — Topshiriqlarga doir summalar bo‘yicha talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag‘i.

111 — Maxsus mablag‘lar bo‘yicha talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag‘i.

112 — Budjetdan tashqari boshqa mablag‘lar bo‘yicha talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag‘i.

114 — Budjet tashkilotini rivojlantirish fondi-budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag‘i.

118 — Valuta hisobvarag‘i.

12 — Kassa

120 — Kassa.

13 — Boshqa pul mablag‘lari

130 — Akkreditivlar.

132 — Pul hujjatlari.

133 — Korporativ kartochkalar.

134 — Moliyaviy qo‘yilmalar fondi.

135 — Budjet tashkilotlarining boshqa depozit hisobavraidagi pul mablag‘lari.

137 — Tibbiyot muassasasini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish uchun yo‘naltirilgan budjet mablag‘lari.

VI bo‘lim. Moliyalashtirishga doir idoralar ichidagi hisob-kitoblar

14 — Moliyalashtirishga doir idoralar ichidagi hisob-kitoblar

140 — Tashkilot harajatlari va boshqa tadbirlar uchun budjetdan moliyalashtirishga doir hisob-kitoblar (g‘aznachilikka o‘tish sharoitida: 147 — «Budjet mablag‘lari bo‘yicha budjet mablag‘lari oluvchilar oldidagi majburiyat»).

142 — Boshqa budjetlar hisobidan moliyalashtirishga doir hisob-kitoblar.

143 — Kapital qo‘yilmalarni budjetdan moliyalashtirishga doir hisob-kitoblar.

VII bo‘lim. Hisob-kitoblar

15 — Bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilar, pudratchilar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar

150 — Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar.

152 — Budjet tematikasiga tegishli tajriba-konstruktorlik buyurtmalarini qisman to‘lashga doir hisob-kitoblar.

153 — Budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha bajarilgan ishlar va ko‘rsatigan xizmatlar uchun buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar.

154 — To‘lanishi lozim bo‘lgan ilmiy-tadqiqot ishlari bo‘yicha buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar.

155 — Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun bo‘naklar bo‘yicha buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar.

156 — Xo‘jalik shartnomasi asosida bajarilayotgan ishlarni bajarishga jalb qilingan hamijrochilar bilan hisob-kitoblar.

157 — Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar.

16 — Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar.

160 — Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar.

17 — Turli debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblar.

170 — Kamomadlarga doir hisob-kitoblar.

171 — Baqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqaga doir hisob-kitoblar.

172 — To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar.
173 — Budjet to‘lovlariga doir hisob-kitoblar.
174 — Depozit summalarga doir hisob-kitoblar.
175 — Yagona ijimoiy to‘lov bo‘yicha hisob-kitoblar.
176 — Topshiriqlar bo‘yicha xarajat qilishga olingan mablag‘-larga doir hisob-kitoblar.
177 — Deponentlar bilan hisob-kitoblar.
178 — Boshqa debitorlar va kreditorlar bilan hisob-ktoblar.
179 — Rejali to‘lovlar tartibidagi hisob-kitoblar.
18 — Ishchi va xizmatchilar hamda stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar.
180 — Ishchi va xizmatchilar bilan hisob-kitoblar.
181 — Stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar.
182 — Kreditga sotilgan mollar uchun ishchi va xizmatchilar bilan hisob-kitoblar.
183 — Bankdagi jamg‘armalar schotlariga naqd pulsiz o‘tkazishlar bo‘yicha ishchi va xizmatchilar bilan hisob-kitoblar.
184 — Ixtiyoriy sug‘urta shartnomalari asosida to‘lovlarni naqd pulsiz o‘tkazishlar bo‘yicha ishchi va xizmatchilar bilan hisob-kitoblar.
185 — Kasaba uyushmasiga a’zolik to‘lovi summalarini naqd pulsiz o‘tkazishlar bo‘yicha kasaba uyushma a’zolari bilan hisob-kitoblar.
186 — Bank ssudalari bo‘yicha ishchi va xizmatchilar bilan hisob-kitoblar.
187 — Ijro hujjatlari va boshqa ushlanmalar bo‘yicha hisob-kitoblar.
188 — Ijtimoiy to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar.
189 — Bajarilgan ishlar uchun boshqa hisob-kitoblar.
19 — Pensiya va nafaqalar to‘lash va ajratmalar bo‘yicha hisob-kitoblar.
190 — Xodimlar bilan shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob-varag‘iga to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar.
198/1 — Sug‘urta to‘lovlari (2,5%) bo‘yicha Pensiya fondi bilan hisob-kitoblar.
198/2 — Budjetdan tashqari Pensiya fondiga to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar (0,7 foiz).
198/3 — Ijtimoiy to‘lovlar bo‘yicha Pensiya fondi bilan hisob-kitoblar.

VIII bo‘lim. Xarajatlar

20 — Budjet bo‘yicha xarajatlar

200 — Tashkilotni saqlashga va boshqa tadbirlarga budjet bo‘yicha xarajatlar (g‘aznachilikka o‘tish sharoitida: 214 — «Budjet mablag‘lari hisobidan qoplanadigan budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlari»).

202 — Boshqa budjetlar hisobidan xarajatlar.

203 — Kapital qo‘yilmalarga budjet bo‘yicha xarajatlar.

205 — Respublika budjeti hisobidan pensiya va nafaqadar to‘lashga qilingan xarajatlar.

21 — Boshqa xarajatlar

210 — Taqsimlanadigan xarajatlar.

211 — Maxsus mablag‘lar bo‘yicha xarajatlar.

212 — Kapital qo‘yilmalarga va uskunalar sotib olishga maxsus mablag‘lar bo‘yicha xarajatlar.

213 — Boshqa mablag‘lar bo‘yicha xarajatlar.

215 — Budjetdan tashqari fondlar bo‘yicha xarajatlar.

216 — Kapital qo‘yilmalarga budjetdan tashqari fondlar hisobidan xarajatlar.

217 — Ishlab chiqarish faoliyati mablag‘lari hisobidan xarajatlar.

IX bo‘lim. Moliyalashtirish

23 — Moliyalshtirish

230 — Tashkilot xarajatlari va boshqa tadbirlar uchun budjetdan moliyalashtirish (G‘aznachilikka o‘tish sharoitida: 237 — «Budjet mablag‘lari bo‘yicha budjet mablag‘lari oluvchilar oldidagi majburiyat»).

231 — Kapital qo‘yilmalarni budjetdan moliyalalshtirish.

232 — Boshqa budjetlar hisobidan moliyalashtirish.

236 — Bolalar tashkilotini saqlashga ota-onalarning mablag‘lari.

238 — Tashkilotni saqlashga boshqa mablag‘lar.

X bo‘lim.
Fondlar va maxsus maqsadga tayinlangan mablag‘lar

24 — Fondlar va maxsus maqsadga tayinlangan mablag‘lar

240 — Moddiy rag‘batlantirish fondi.

241 — Yagona mehnatga haq to‘lash fondi.

245 — Dekabr oyi ikkinchi yarmining mehnat haqini muddatidan oldin to‘lash uchun bankdan olingan mablag‘lar.
246 — Budjet tashkilotini rivojlantirish fondi.
248 — Banklarning kreditlari.
249 — Material va unga tenglashtirilgan xarajatlar.
25 — Asosiy vositalardagi fond
250 — Asosiy vositalardagi fond.
26 — Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlardagi fond
260 — Kam baholi va tez eksiruvchi buyumlardagi fond.
27 — Moliyaviy mablag‘lar fondlari
270 — Yagona moliyaviy mablag‘lar fondi.
271 — Markazlashtirilgan fondlar va moliyaviy zaxiralar.
272 — Budjetdan tashqari fondlar.
275 — Kreditorlik qarzlarini birinchi navbatda to‘lash uchun zaxira.

XI bo‘lim. Mahsulotlarni sotish

28 — Mahsulotlarni, buyumlarni va bajarilgan ishlarni sotish
280 — Ishlab chiqarish (o‘quv) ustaxonalarining buyumlarini sotish.
281 — Yordamchi (o‘quv) qishloq xo‘jaliklarining mahsulotlarini sotish.
282 — Shartnoma asosida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini sotish.

XII bo‘lim. Daromadlar

40 — Daromadlar
400 — Maxsus va budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha daromadlar.
402 — Kasb-hunar-texnika bilim yurtlarining ishlab chiqarish faoliyati daromalari.
41 — Foyda va zararlar
410 — Foyda va zararlar.
460 — O‘tkazilgan safar xarajatlari.
461 — O‘tkazilgan boshqa naqd pulda olinish kerak bo‘lgan to‘lovlar.

480 — O‘tkazilgan ish haqi.
481 — O‘tkazilgan stipendiya.
498 — O‘tkazilgan nafaqa va boshqa to‘lovlar.

Balansdan tashqari schyotlar

01 — Ijaraga olingan asosiy vositalar.
02 — Mas’ul saqlab berishga qabul qilingan tovar-material qiymatliklar.
04 — Qat’iy hisobotdagi ish qog‘oz (blank)lari.
05 — To‘lashga qobiliyatsiz debitorlarning hisobdan chiqarilgan qarzlari.
06 — Markazlashtirilgan ta’minot bo‘yicha to‘langan material qiymatliklar.
07 — Qaytarib berilmagan material qiymatliklar bo‘yicha o‘quvchilar va talabalarning qarzlari.
08 — Ko‘chma sport sovrinlari va kuboklari.
09 — Yo‘llanma (putyovka)lar.
10 — Pensiya va nafaqalar to‘g‘risidagi qonunlarni noto‘g‘ri qo‘llanilishi hamda hisoblashda qo‘yilgan xatolar natijasida ortiqcha to‘lab yuborilgan pensiya va nafaqalar.
11 — Harbiy texnikaning o‘quv buyumlari.
12 — Ishchi va xizmatchilarga berilgan ssudalar.

4-ilova

O'zbekiston Respublikasi
budjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnomaga
4-ilova

DAVLAT BUDJETI TAQCHILLIGINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI TASNIFI

Kodlar		Nomi Moliyalashtirishning ichki manbalari
Bo‘lim 50	Paragraf x	
	1	Davlat qimmatli qog‘ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lar
	2	Markaziy bank kreditlari
	3	Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar
	4	O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti mablag‘larining qoldig‘i
	5	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining qoldig‘i
	6	Ish bilan ta’minlashga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasi mablag‘larining qoldig‘i
	7	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘larining qoldig‘i
	8	O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo‘mitasining maxsus hisobvarag‘i mablag‘lari
	9	Boshqa ichki manbalardan jalb qilinadigan mablag‘lar
51	x	Moliyalashtirishning tashqi manbalari
	1	Davlat qimmatli qog‘ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lar
	2	Xalqaro moliyaviy institutlar, tashkilotlar kreditlari
	3	Xorijiy davlatlar kreditlari
	4	Boshqa tashqi manbalardan jalb qilinadigan mablag‘lar

5-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING 2012 YILGI ASOSIY MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLARI

Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Yalpi ichki mahsulot	108,3	108,3	108,2
Sanoat mahsulot ishlab chiqarish	108,3	109,3	108,6
Qishloq xo‘jalik mahsuloti ishlab chiqarish	105	105,8	105,8
Kapital qo‘yilmalar hajmi	122,1	112,4	109,3
Chakana savdo hajmi	116,3	115,4	113,4

6-ilova

MUSTAHKAM OILA VA BILIMGA ASOSLANGAN INNOVATSION IQTISODIYOT



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: «O‘zbekiston», 2007.

2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. — T.: «Norma» MCHJ, 2008.

3. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. // «Xalq so‘zi», 29-avgust 1997.

4. O‘zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi Qonuni, 2000.

5. O‘zbekiston Respublikasining «Mahalliy organlarni o‘z-o‘zini boshqarish va mablag‘ bilan ta’minlash to‘g‘risida»gi Qonuni, 1993.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini hiquqiy himoya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-361-sonli Farmoni (2005-yil 14-iyun).

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-1024-sonli Qarori (2008-yil 29-dekabr).

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-1675-sonli Qarori (2011-yil 30-dekabr).

9. «Soliqqa oid qonun hujjatlari». «Norma», 2008.

10. Davlat budjetining g‘azna ijrosi. Normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. — T.: 2006.

11. *I. A. Karimov.* Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish — davr talabi. 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasidan. «Xalq so‘zi», 2009-yil 14-fevral.

12. *I.A.Karimov.* Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. — T.: «O‘zbekiston», 2005.

13. *I.A.Karimov.* Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. 1-jild, —T.: «Ma’naviyat», 2008.

14. *I.A.Karimov.* Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. — T.: «O‘zbekiston», 2009.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2007-yil 5-apreldagi Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni. 2005- yil 20-iyun.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotning strategik tarmoqlari korxonalarini xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni. 2007-yil 20-iyul.

18. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash — bizning oliy maqsadimiz. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 16 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. «Turkiston» gazetasi, 2008-yil 6-dekabr.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi Homiylik kengashi navbatdagi yig‘ilishidagi ma’ruzasi. «Xalq so‘zi», 26.02.2011.

20. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 20-avgustdagi 65-sonli buyrug‘i O‘zbekiston Respublikasi budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnoma

21. *T.S.Malikov, N.H.Haydarov.* «Davlat budjeti». O‘quv qo‘llanma. — T.: «Iqtisod-moliya» TMI, 2007.

22. *A.V.Vahobov, G.A.Qosimova.* «Davlat moliyasini boshqarish». — T.: «Iqtisod-moliya», 2008.

23. *G.A.Qosimova.* «Davlat budjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi». — T.: «Iqtisod-moliya», 2008.

24. *A.Abduvohidov.* «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar tizimiga izchil o‘tishni ta’minlash chora-tadbirlari». «Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari». — T.: «Ijod dunyosi», 2004.

25. *А.Н.Бабич, Л.Н.Павлова.* «Государственные и муниципальные финансы». Учебник. — М.: Юнити, 1999.

26. *А. Вахобов, Х. Джамолов.* «Согласование межбюджетных отношений».— Т.: «Moliya», 2002.

27. *A.Vahobov, Z. Sirojiddinova.* «O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti».— T.: «Moliya», 2001.

28. *Л.А.Дробозина.* «Общая теория финансов». — М.: «Банки и биржи», 1999.

29. *N.Jumayev, U.Burxanov.* «Moliyaning dolzarb muammolari». — T.: «Yangi asr avlodi», 2003.

30. *A.Jo‘rayev.* «Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari».— T.: «Fan», 2004.

31. *R.Jo‘rayev.* «Ta’limga e’tibor — nurli kelajakka poydevor». «Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari». — T.: «Ijod dunyosi», 2004.

32. *T.Jo‘rayev, J.Abdullayev.* «Mahalliy budjet daromadlarini kengaytirish manbalari va budjet intizomiga rioya etish muammolari». «Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari». — T.: «Ijod dunyosi», 2004.

33. *T.S.Malikov, N.H.Haydarov.* «Budjet daromadlari va harajatlari». O‘quv qo‘llanma. — T.: «Iqtisod-moliya». TMI, 2007.

34. *T.S.Malikov.* Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. — T.: «Akademiya», 2002.

35. *A.Mamanazarov.* Soliq siyosati. —T.: «Moliya», 2003.

36. *R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev.* Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). — T.: 2008.

37. *D.Tojiboyeva.* Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. —T.: 2008.

38. *B.Xodiyev, L.Golish.* Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari. — T.: 2007.

39. *A.O‘lmasov, M.Sharifxo‘jayev.* «Iqtisodiyot nazariyasi». — T.: «Mehnat», 1995.

40. *J.Qo‘chqorov.* «Davlat budjeti daromadi va xarajatlari tarkibi, tuzilmalari hamda ularning qonuniy asoslari». «Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari». — T.: «Ijod dunyosi», 2004.

41. *M.Ostonaqulov.* «Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi». «Iqtisod-moliya», 2007.

42. Internet saytlari:

http://www.soliq.uz// http://www.minfin.uz//
http://www.cer.uz// http://www.norma.uz//
http://www.gov.uz// http://www.lex.uz//

MUNDARIJA

KIRISH 3

1-bob. «Budjet tizimi» kursining predmeti, mazmuni va vazifalari 7
1.1. Fanning predmeti, mazmuni va o‘zbek davlatchiligi moliyasining asosiy yo‘nalishlari 7
1.2. Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi 9
1.3. O‘zbek davlatchiligi daromadlari va O‘zbekistonda budjet tizimining shakllanishi 10

2-bob. Davlat budjetining iqtisodiy mohiyati 27
2.1. Davlat budjetining iqtisodiy mazmuni va mohiyati 27
2.2. Davlat budjetining boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan munosabatlari. 32
2.3. Davlat budjetining daromadlar va xarajatlar balansi 34
2.4. Davlat budjeti g‘aznachiligi, uning mohiyati va ahamiyati 37

3-bob. Budjet daromadlari tarkibi 43
3.1. Davlat budjeti daromadlari tuzilmasi 43
3.2. Budjetning soliqli daromadlari. 47

4-bob. Budjet xarajatlari tarkibi 68
4.1. Budjet xarajatlari tarkibi va xarajat moddalari. 68
4.2. Xalq xo‘jaligini moliyalashtirish xarajatlari 73
4.3. Maorif xarajatlari 78
4.4. Sog‘liqni saqlash xarajatlari 100
4.5. Madaniyat xarajatlari va boshqa xarajatlar 108

5-bob. Ijtimoiy muhofaza xarajatlarini moliyalashtirish 116
5.1. O‘tish davrida ijtimoiy barqarorlik masalalariga davlat tomonidan e’tibor berilishi 116
5.2. Ijtimoiy-madaniy xarajatlarning ahamiyati, turkumlanishi va hozirgi xususiyatlari 119
5.3. Ijtimoiy kafolatlarni moliyaviy ta’minlash. 121
5.4. Aholini ijtimoiy himoya qilish siyosati 132

6-bob. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish asoslari 156
6.1. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning zarurligi,

mohiyati, manbalari va omillari 156
6.2. Davlat budjeti daromadlarini tasniflash mezonlari 167
6.3. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish yuzasidan xorijiy davlatlar ijobiy tajribalarini o‘zlashtirish 183

7-bob. Davlat budjetining soliqli daromadlari 194
7.1. Davlat budjetining soliqli daromadlari tarkibi va dinamikasi tahlili 194
7.2. To‘g‘ri (bevosita) soliqlarni undirish amaliyoti 223
7.3. Egri (bilvosita) soliqlarni undirish amaliyoti 232

8-bob. Davlat budjeti daromadlarining boshqa manbalari 245
8.1. Davlat budjeti soliqsiz daromadlarining zarurligi, mohiyati va turkumlanishi 245
8.2. Soliqsiz daromadlarning davlat budjeti daromadlari hajmidagi o‘rni va dinamikasi 251

Xulosa 260
Iqtisodiy atamalar glossariysi (izoh) 263
1-ilova 279
2-ilova 282
3-ilova 288
4-ilova 296
5-ilova 297
6-ilova 297

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati 299

Ulug‘bek Ilyosovich Inoyatov,
Gulnora Nabiyevna Ahmadjonova

BUDJET VA BUDJET TIZIMI

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashr

Toshkent — «TURON-IQBOL» MCHJ — 2013
100182. Toshkent. H. Boyqaro ko‘chasi, 51-uy.
Tel.: 244-25-58, faks: 244-20-19

Muharrir *X. Alimov*
Badiiy muharrir *E. Muratov*
Texnik muharrir *T. Smirnova*
Musahhihlar: *S. Abdunabiyeva, S. Alimboyeva*
Komputerda tayyorlovchi *E. Muratov*

Nashriyot lits. AI № 223, 16.11.12.
Bosishga 02.10.13 da ruxsat etildi. Bichimi $60\times90^{1}/_{16}$.
«Times» garniturada ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 19.
Nashr t. 20,5. Jami 1682 nusxa. -raqamli buyurtma.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
100128. Toshkent, Shayxontohur ko‘chasi, 86.